

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

Jumayeva Nilufar Ahmatovna

**SHARQ ALLOMALARINING ILMIY
MEROSI**

O`quv qo`llanma

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro - 2022**

KBK 94(575.146)(075.8)

63.3(50')ya73

T 97

Jumayeva, N.A.

Sharq allomalarining ilmiy merosi [Matn] : o'quv qo'llanma / N.A.

Jumayeva. - Buxoro : "Sadridin Salim Buxoriy" Durдона nashriyoti, 2020. - 228 b.

KBK 63.3(50')ya73

Har qanday xalq birinchi navbatda o'zi duyoga keltirib tarbiyalagan buyuk o'g'lonlari, mutafakkir zotlari, insoniyat tamadduniga ulkan hissa qo'shgan olimu ulamolari bilan g'ururlanadi. Shu jihatdan olib qaraganda, o'zbek xalqining g'ururi chindan-da tog'lardan baland. Zero, bizning yurtimizda tug'ilib voyaga etgan, uning nihoyatda serqirra ilmiy ijodiy faoliyati bilan dunyo ahlini lol qoldirgan buyuk bobolarimiz nomi har birimizning qalbimizni faxru iftixorga to'ldiradi. Ushbu oquv qollanmada buyuk zotlardan qanchadan – qanchalarining hayoti va asarlari ilmiy asosda o'rganilib, keng ommaga etkazish uchun mo'ljallangan.

Qollanmada buyuk allomalarimizning tabarruk nomlari tiklanib, abadiy orom topgan maqbaralari obod qilinganligi hamda muborak ziyoratgohlarga aylantirilganligi shu bilan birga, bu sohada qilinadigan ishlarimiz hali ko'pligi ham alohida e'tirof etib o'tilgan. O'quv qo'llanma keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Temirov F.U. - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar:

To'rayev H.H. - tarix fanlari doktori, professor

Shukrullayev Yu.A. - tarix fanlari nomzodi, dotsent

Fayzullayev O.M. - filologiya fanlari nomzodi, dotsent

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-sonli buyrug'iga asosan nashr etish ruxsat berilgan.

Ro'yxatga olish raqami 166-226.

ISBN 978-9943-8346-2-0

Прежде всего каждый народ гордится своими великими сынами, мыслителями и учеными, внесшими большой вклад в человеческую цивилизацию. Ведь имена наших великих предков, родившихся и выросших в нашей стране и поразивших мир своим незаурядным научным и творческим трудом, наполняют сердце узбекского народа гордостью. Данное пособие предназначено для того, чтобы предоставить научный обзор жизни и творчества многих великих людей.

В пособии отмечается, что священные имена наших великих ученых и мавзолей вечно упокоившихся восстановлены и превращены в места паломничества, но в этой области предстоит еще многое сделать. Учебник рассчитан на широкий круг читателей.

First of all, every nation is proud of its great sons, thinkers and scientists who have made a great contribution to human civilization. After all, the names of our great ancestors, who were born and lived in our country and amazed the world with their outstanding scientific and creative work, fill the heart of the Uzbek people with pride. This guide is intended to provide a scientific overview of the lives and work of many great people.

The manual notes that the sacred names of our great scientists and the mausoleums of the eternal rest have been restored and turned into places of pilgrimage, but there is still much to be done in this area. The textbook is designed for a wide range of readers.

SO'Z BOSHI

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi milliy madaniyatimiz tarixini o'rganishga, unga xolisona fikr bildirishga katta imkoniyatlar yaratdi, osori-attiqqa yodgorliklarimizni asrash, milliy qadriyatlarimizni tiklash, qadimiy boy tariximizni bir yoqlamali yoritish, chegaralash, ma'lum jarayon va ilm-fan arboblarning faoliyati va xizmatini inkor etishdek noto'g'ri g'oyalar va usullardan tozalashga, hur fikrlilikka sharoit tug'dirdi.

Madaniy merosimizni, o'tmish qadriyatlarimizni keng va xar tomonlama o'rganish O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimovning ma'ruzalarida va muhtaram yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyevning ma'ruzalarida bir necha bor ta'kidlanganidek, hozirgi milliy manaviyatimizning chuqur tarixiy ildizlarini shakllanish bosqichlari va xususiyatlarini ochib berish uchun zarurdir. Bu esa, o'z navbatida, milliy ong, milliy g'urur, tariximiz, o'tmish avlodlar xizmatiga hurmat-e'tiborni, xalq mehnatiga, vatanga sevgi tuyg'usini shakllantirish, yangi jamiyatimizning to'g'ri rivojini, kelajagini oqilona belgilash, yuksak demokratik davlat qurish uchun xizmat qiladi.

Allomalar, siymolar merosi Markaziy Osiyoda o'tmishda ilm-fan, madaniyatning barcha sohalari, tarmoqlari rivojlangani, ularning ijodlari ko'p qirrali bo'lganligi, faoliyatida ilm-fan bilan bir qatorda din, axloq, insonning ma'naviy dunyosi, jamoaning hamjihatligi, uni odilona boshqarish, saodati masalalari muhim o'rin tutganligidan dalolat beradi.

Ularning merosi va madaniyat tarixi yana ilm-fan va diniy qoidalarning bir butunligini tashkil etib, umumiy ma'naviyat rivoji uchun xizmat qila olishini, foydali bo'lishini isbotlaydi. Fan va din xalq madaniyatining turli sohalari, qismlari bo'lib, yagona maqsadga qaratilgan holda bir-birini to'ldirishi, xalqni shu yagona maqsadga yo'naltirishga xizmat qilishi mumkin. Diniy taassavurning ilm-fan hisobiga kuchayuvi ijtimoiy rivojlanishga, madaniyatning kuchayishiga zarar keltirishini ma'lum tarixiy davrlarda yuz bergan jarayonlar o'zida ifodalaydi.

Madaniy rivojlanishda milliy ma'naviy boylikni boshqa xalqlar, mamlakatlar madaniyati yutuqlaridan bahramand bo'lish, madaniy

aloqalarni kuchaytirish, milliy qobig‘da o‘ralib, umumiy xalqaro aloqalar tizmasidan chetda ajralib qolmaslik, milliy madaniyatning umumjahon madaniyat yutuqlari bilan doimo boyib borishida nihoyatda katta rol o‘ynaydi.

Bu ayniqsa hozirda jahon mamlakatlarining umumiylik, hamjihatlikka intilishi ortib borayotgan bir sharoitda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqargan holda hozirda yoshlarda mustaqillik ma‘naviyatini tarbiyalash barcha tarixiy-madaniy boyliklarning asosiy tomonlarini o‘rganish, milliy madaniyatimiz rivoji, davrlari, taraqqiyot qonuniyatlari, ma‘naviy boyliklarni yaratgan yirik siymolar, donishmand adiblarning merosini o‘zlashtirish, boshqa rivojlangan mamlakat madaniyati yutuqlarini o‘rganish, ularga hurmat- izzatda bo‘lishni, bu masalalar bo‘yicha keng ta‘lim, o‘quv-o‘qituv ishlarini olib borish talab etadi. Bu mustaqillik sharoitida yosh avlodni milliy-madaniy boyliklarini yaxshi bilgan, milliy g‘urur, vatanparvarlik hissi bilan yo‘g‘rilgan, dunyo madaniy rivojlanish darajasidan xabardor bo‘lib etishuvida etakchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Talabalar uchun mo‘ljallangan ushbu o‘quv qo‘llanma O‘rta Osiy Allomalarining ilmiy merosi haqida nazariy hamda amaliy bilimlar berib, fan bo‘yicha mustahkam ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishga ko‘maklashadi. Berilgan har bir mavzu so‘nggida nazorat savollari va test topshiriqlari talabalarga mustaqil ravishda fikr yuritishga, mavzu bo‘yicha olgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlashga yordam beradi.

1 – MAVZU. KIRISH. SHARQ ALLOMALARI ILMIY MEROSI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja

1. Fanning predmeti, maqsad va vazifalari
2. O`rta Osiyo allomalarining faoliyati va ularni qoldirgan ilmiy meroslari jamiyat hayotidagi o`rni va ahamiyati
3. Sharq allomalari ilmiy merosining ilmiy madaniyatlar rivojlanishiga qoshgan hissasi

Tayanch soʻz va iboralar: Madaniyat, sivilizatsiya, Movarounnahr, Xuroson, O`rta Osiyo, Turkiston, Markaziy Osiyo, “Arab Renessansi”, Chagʻoniyon, Soʻgʻdiyona, Margʻiyona, Parkana, Baqtriya.

Sharq allomalari ilmiy merosi umumjahon-insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanib, u olamshumul voqeliklarga juda boy. Mazkur fan Markaziy Osiyo allomalarining hayoti va ilmiy merosini va uning ilmiy madaniyatlar rivojlanishiga qoʻshgan hissasini oʻrganadi.

Tarixiy haqiqat toʻla roʻyobga chiqishi, haqqoniy tarix yozilishida fanining predmeti va obʻektini toʻgʻri belgilanishi oʻta muhim ahamiyatga ega. Chunki, Sharq allomalari ilmiy merosi fani uchun ham boshqa barcha fanlar qatori predmet va obʻekt masalasi asosiy masala boʻlib hisoblanadi. Zero, fan uning oʻrganish predmeti va obʻekti aniq boʻlmasa, uning oldidagi vazifa noaniq boʻlib, maqsadga erishish mushkul boʻladi.

Sharq allomalari ilmiy merosi fani oʻz xususiyatiga koʻra;

Birinchiidan, oʻzining butun diqqat eʼtiborini davr tarixiga qaratadi, undan saboq beradi, xulosa chiqaradi.

Ikkinchiidan, Sharq allomalari ilmiy merosi fani boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan aniq fan. U matematika usulidan keng foydalanadi. Voqea va hodisalar qatʼiy aniqlikda, davriy ketma-ketlik, xronologik asosda oʻrganiladi.

Uchinchiidan, Sharq allomalari ilmiy merosi fani koʻp qirralik va xilma-xillik xususiyatiga ega. Uning oʻrganish predmetiga esa, mana shu makondagi jamiki xilma-xil voqea va hodisalar, ulardagi umumiy

aloqadorlik va yaxlit birlik hamda qonuniyatlar hodisasi va jarayonlar, umuman, xalq va insonning yaratuvchanlik faoliyati kiradi. Sharq allomalari ilmiy merosi fanining o`rganish ob`ektini Markaziy Osiyo allomalarining hayoti va ilmiy merosi aks etgan tarixiy, badiiy hamda ilmiy asarlar tashkil etadi.

Ob`ekt aniq tarixiy davr, makon, zamon va geografik mintaqaviy chegaralar, ma`lum bir xalq, millat, mamlakat tarixi bilan bog`liq bo`lib, shular doirasidagi voqea va hodisalarning bir butun va yaxlitlikda o`z ichiga oladi. Predmet esa mana shu bir butun ob`ekt ichidagi aniq tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan iboratdir.

Fan ijtimoiy-gumanitar fanlari bilan mustahkam va uzviy aloqa birligida rivojlanadi. Shuning uchun ham, tarixchilar falsafani, adabiyot va tilni, dinshunoslikni va boshqa fanlarni bilmay turib, asliyatni to`la yoritib berolmaydilar.

Sharq allomalari ilmiy merosi fanining metodologik (uslubiy) ilmiy-usul va tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Ilmiy xolislik (ob`ektivlik);
- Tarixiy – tahliliylik;
- Mantiqiy – uzviylik;
- Vorislik va izchillik;
- Xronologik izchillik;
- G`oyaviylik va vatanparvarlik;
- Halol va xolislik;
- Qiyoslash va kuzatish;
- Kuzatish va umumiyashtirish;
- Baxslashish, munozara yuritish va isbotlash;

Xulosa shuki, Markaziy Osiyo allomalarining hayoti va ilmiy merosi millat va Vatan taqdirini ravnaq topishida muhim ahamiyatga ega.

Ikki daryo, Sirdaryo va Amudaryo oralig`idagi o`lka jug`rofiy-ta-biiy xususiyatlari jihatidan inson jamoasining rivoji uchun eng qulay bo`lgan makonlardandir. Sersuv vodiylari, ko`m-ko`k qir bag`irlari, daraxtzorlari, er osti boyliklari odamlarning yashashi, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilikning rivoji uchun tabiiy imkoniyatlarni vujudga keltirgandir. Shu sababdan ham Movarounnahr, O`rta Osiyo, Turkiston, Markaziy Osiyo kabi nomlar bilan yuritiluvchi bu makonda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish,

madaniyat taraqqiysi, davlatchilikning shakllanib, kuchayib borishi miloddan oldingi bir necha asrlar avval boshlanganligi ilm-fanda allaqachonlar isbotlangandir.

Uning boyliklari miloddan avval ham, bizning milodning 2000 yillik tarixi davomida ham tashqi dushmanlarni o‘ziga tortib, jalb etib kelgan.

Masalan, Eron shohlari Ahmoniylar mil. av VI–IV asrlar davomida bu o‘lka xalqlari – Turon bilan uzluksiz janglar olib borib, ularni o‘z tasarruflariga qaratganlar. Miloddan avval IV asrlarda qadimgi Yunoniston imperatori Aleksandr Makedonskiy – Makedoniyalik Iskandar yurtimizning dovrug‘ini eshitib, arab, Eron o‘lkalaridan o‘tib, hozirgi Xo‘jand shahrigacha bosib kelgan. Lekin bu janglarga, to‘qnashuvlarga qaramay erli xalqning madaniyati asta-sekin rivojlanib, o‘z namunalari bilan dunyoga yuz tuta borgan. Shuningdek, yerli xalq davlatchiligi ham shakllanib, madaniy rivojlanishning siyosiy-ijtimoiy asoslarini mustahkamlab borgan.

Olimlarning ta’kidlashicha, eng yirik qadimgi dinlardan bo‘lmish zardushtiylik Markaziy Osiyo – xususan, Xorazm o‘lkasida shakllangan. Uning asosiy qoidalari ifodalangan kitob “Avesto” ham shu erda vujudga kelgan. Markaziy Osiyodagi davlatchilik tarixi ham eramizdan avvalgi Xorazm podshohligidan boshlanadi. Eradan avvalgi VIII–VII asrlarda «Katta Xorazm», “Baqtriya podshohligi” kabi davlatlarning mavjud bo‘lganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Amudaryo qirg‘oqlarida yoyilib yotgan turli katta-kichik qo‘rg‘onlarning qoldiqlari, ulardan topilayotgan turli arxeologik ashyolar – bu yerlardagi qadimgi shaharlar va ularda rivojlangan madaniyat haqida guvohlik beradi. Qadimgi madaniyatimiz tarixini o‘rganish asosan arxeologik qazishmalar bilan bog‘liqdir. Yozma adabiyot deyarli etib kelmagan. “Avesto” dan teriga yozilib qolingani ayrim parchalar, xorazm, so‘g‘d yozuvlarining ayrim namunalari bizga ma’lum. Milodning boshlarida bu erlarda Chag‘oniyon, So‘g‘diyona, Marg‘iyona, Parkana, Baqtriya, Xorazm kabi o‘lkalar mavjud bo‘lgan, ularda dehqonchilik, savdo-sotiq keng rivoj topgan. Bu davrda G‘arb bilan Sharqni – Uzoq Sharq mamlakatlari bilan O‘rta er dengizini bog‘lovchi buyuk savdo yo‘li – «Ipak yo‘li» rivojlanib, madaniy boyliklarni almashuv madaniy taraqqiyot ishida muhim ahamiyat kasb etgan. Xalqimizning milodiy VII asrga qadar bo‘lgan

madaniyati tarixi asosan arxeologik qazishmalar yordamida aniqlanishi mumkin.

VII asrlarda Saudiya Arabistonida so‘nggi dunyoviy din – islom dini vujudga kelib, u arablarning birlashuvi va yagona davlat – arab xalifaligining shakllanuvda ham asosiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Xalifalik islom bayrog‘i ostida asta-sekin boshqa o‘lkalarni bosib olaboshladi, o‘ziga qaratilgan yerlarda islom dinini izchillik va qat’iylik bilan joriy qilabordi. VIII asr boshlarida Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi arab qo‘shinlari Eron va Xurosondan so‘ng ikki daryo oralig‘i – Movarounnahrni zabt etishga kirishdilar. Bu yerda zardushtiylik va boshqa dinlar siqib chiqarilib, islom dini, uning muqaddas kitobi «Qur‘on» qoidalari va u bilan birga arab yozuvi hamda arab tili o‘rnatila bordi. Islom asta-sekin madaniyat va ma’naviyatning barcha sohalarida ustunlikka intildi. Arablar bu yo‘lda yerli xalqning madaniy boyliklari, ma’naviyat namunalarini, dinlari, yozuvlari, urf-odatlarini butunlay yo‘qotib yuborishga harakat qildilar.

Arab bosqinchiligiga qarshi ko‘tarilgan xalq qo‘zg‘olonlari shafqatsiz bostirildi. Movarounnahr, Markaziy Osiyo Arab xalifaligi tarkibiga kiritildi. Bu Markaziy Osiyo madaniyati tarixida yangi davr, yangi sahifaning shakllanishiga olib keldi, madaniyatning eng muhim qismlari bo‘lmish din, yozuv, ilm va siyosatning o‘zgarishi madaniyat, ma’naviyatning umumiy yo‘nalishiga hal etuvchi ta’sir ko‘rsatdi.

IX asrlardan boshlab Movarounnahrda arab yozuvida yozilgan yodgorliklar vujudga kela boshladi. Arablar istilosidan, ya’ni VIII asrdan to XX asr boshlarigacha Movarounnahr, jumladan hozirgi O‘zbekiston hududida islom dini va arab yozuviga asoashngam madaniy-ma’naviy rivojlanish hukm surdi.

Bu madaniyatni quyidagi davrlarga bo‘lish mumkin:

- 1) IX – XII asrlardagi madaniy yuksalish,
- 2) XIV – XV asr – Temur va Temuriilar davri madaniy ko‘tarshishi,
- 3) XV1 – XIX asr yarmida madaniyat
- 4) XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida rus mustamlakachiligi davrida madaniy hayot.
- 5) Sho`rolar davri madaniyati.
- 6) Milliy istiqlol davrida madaniy hayot.

Birinchi davr siyosiy jihatdan arab istilosiga qarshi uzoq yillik kurash natijasida Markaziy Osiyo yerlarida yerli xalqlarning mustaqil davlatlarning vujudga kelishi bilan xarakterlanadi.

IX asrning boshlaridan boshlab xalifa Ma'mun Movarounnahr va Xurosonda arab xalifaligining hukmdori bo'lib turgan vaqtda shahar va o'lkalarga islomga xalifalikka sodiq yerli xalq zadogonlaridan hokimlar tayinlay boshlagan edi. Shulardan Somoniylar IX asrning oxiriga kelib o'zlarini xalifatdan mustaqil deb e'lonon qildilar. Lekin turli sulolalarning hukmronligiga asoslangan yerli davlatlarning vujudga kelishi bu sulolalar o'rtasida keskin kurashlar, ayovsiz janglar bo'lib o'tdi. IX-XII asrning 20-chi yillariga qadar, Qoraxoniylar, Ma'muniylar, G'aznaviilar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar hukmronlik qilganini ko'ramiz. XII asrda Osiyoda, umuman, O'rta Sharqda katta hududni o'ziga qo'shib olgan Xorazmshohlar imperiyasi hukmronlik qildi.

Ma'lumki xalifa Ma'mun davrida (813– 838) Bag'dodda ilm-fan, madaniyat tez sur'atlar bilan rivojlanganligi qadimgi yunon ilmlari keng miqyosda o'rganilib, yunon asarlari ko'plab tarjima etildi, ayniqsa tabiiy fanlar, falsafa ilmlari sohasida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Ilm-fanning ta'siri ostida islomda turli oqimlar, tal-qinlar kuchaydi, xususan, tafakkurni tabiiy ilm va dunyoviy falsafaga yo'llovchi mutaziliya davlat mafkurasi darajasiga ko'tarildi. Bu davr G'arb sharqshunoslik adabiyotida "Arab Renessansi" sifatida o'z talqinini topdi. X asrlardan boshlab xalifalikda diniy ilmlar, an'anaviy oqimlar kuchaydi.

X–XII asrlarga kelib Markaziy Osiyoda mustaqil davlatlarning ustunlikka erishuvi, xalifalik ta'siridan qutilish bu erda ilmiy-madaniy rivojlanish, turli noan'anaviy islomiy oqimlar ismoiliya, mutaziliya, karmatlar harakatlari, tasavvuf kabilarning ham yoyilishiga imkon yaratdi.

Ilmiy-madaniy yuksalish Bag'doddan Movarounnahr, Xuroson yerlariga ko'chdi, bu davr turli ilm, adabiyot sohasida buyuk siymolarni etishtirdi. Bu madaniy to'lqin Movarounnahrni butun islom dunyosida ilmiy-madaniy markaz sifatida nom qozonishiga olib keldi. Bu davrni Markaziy Osiyo Uyg'onish davri – Renessansi deb, aniqrog'i, bu Renessansning ilk davri deb atamoq mumkin. Bu davr madaniyat yutuqlari G'arbiy Yevro'po mamlakatlari madaniyati

rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. U yerdagi XV–XVI asr Renessansi, madaniy yuksalishida muhim omillardan bo'ldi.

1220 yilda bu madaniy Uyg'onish – Renessans birdan uzilib qoldi, mo'g'ullar hujumi 2–3 yil orasida butun Movarounnahr va Xurosonni vayronaga aylantirdi, shaharlar, suv inshootlari barbod etildi, ziyorat o'ldirildi, qolganlari turli o'lkalarga tarqab ketdilar.

XIV asrning ikkinchi yarmidan Movarounnahrda mo'g'ullarga qarshi kurashning keskin harakati mustaqil davlat yaratishga bo'lgan intilishning avj olishiga olib keldi. Nihoyat Amir Temur boshliq harakat mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonib, Movarounnahrda Markazlashgan davlat vujudga keldi.

XIV asr oxiri, ayniqsa XV asr madaniyati sohasida Markaziy Osiyoda – Renessans davrining ikkinchi, eng avjga chiqqan davrini tashkil etdi. Bu davrni Markaziy Osiyo madaniyati tarixida yangi mustaqil – ikkinchi davr sifatida talqin etish lozim. Tabiiy va islomiy ilmlar, san'at, adabiyot bu davrda butun musulmon Sharqi uchun mashhur bo'lgan natijalarga erishdi. Uning dovrug'i O'rta asr Yevropasida ham keng tarqald

Siyosiy jihatdan bu madaniy yuksalish mustaqil va yagona Amir Temur davlati asosida shakllandi. Amir Temur Movarounnahr va Xurosonga qo'shni o'lkalarni ham qaratib, o'z yurtintg osoyishtaligi va ravnaqi uchun imkon yaratdi, boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalarni kuchaytirdi, davlatchilikni, davlat boshqaruvini mustahkamladi.

Iqtisodiy jihatdan Temur va Temuriylar institutlarining ijobiy tomonlarini rivojlantirishga, ruhoniylar, din, tasavvuf vakillaridan siyosiy-iqtisodiy masalalarni hal etish ishida foydalanishga intildilar. Savdo-sotiq, hunarmandchilik rivojlandi, bo-zorlarga, boshqa mamlakatlar bilan mol almashuvga e'tibor kuchaydi. Bu masalalar "Temur tuzuklari"da o'z ifodasini topgandir.

Madaniy-ma'naviy jihatdan islom, uning qonun-qoidalaridan, arboblardan tinchlikni saqlash, davlat faravonligini oshirish ishida foydalanish, ularning birlashtiruvchi kuchiga asoslanib ish olib borishga e'tibor berildi. Tasavvuf, ayniqsa, uning Movarounnahrda shakllangan yo'nalishi – Naqshbandiya ma'naviy jihatdan erkin aqliy mehnatni ta'minlashda muhim g'oyaviy asos bo'lib xizmat qildi.

Turkiy – o'zbek tilining mavqeyi kuchaydi, badiiy hamda ilmiy asarlar fors va turkiy tillarda yaratildi. Bu davrda obodonchilik

rivojlandi: madrasalar, yo‘llar, turli inshootlar ko‘plab barpo etildi. Ilmning turli sohalarida katta yutuqlar qo‘lga kiritildi. Bu davrda Markaziy Osiyo – Movarounnahr va Xuroson dunyoning eng rivojlangan o‘lkasi sifatida mashhur bo‘ldi.

Bu davrdagi ilmiy-madaniy yutuqlar oldingi IX–XII asrlarda erishilgan madaniy boyliklar asosida tez sur‘at bilan amalga oshirilib, ularni ijodiy o‘zlashtirish, rivojlantirish natijasida yuz berdi.

Tasavvuf sohasida bu vorislik XII asrlarda asta-sekin vujudga kela boshlagan naqshbandiyaning XV asrga kelib keng rivoji, ma‘naviy erkinlik, madaniy yuksalishda hal etuvchi ahamiyat kasb etishi, unga g‘oyaviy asos bo‘lib qolishida o‘z ifodasini topdi.

Shuning uchun bu davr Markaziy Osiyoda X asrda boshlangan va keskin ravishda uzilib qolgan Madaniy Uyg‘onish – Renessansning cho‘qqisi, yakunlovchi bosqichidir.

Markaziy Osiyo madaniyatining uchinchi davri – bu erda Temuriylar davlatining mag‘lubiyati, 1405 yilda Husayn Boyqaroning mag‘lubiyatidan so‘ng davlatning parchalanib ketishi, demak, oldingi madaniy yuksalishning inqirozga yuz tuta borishidan boshlandi. Olim-fozillar turli o‘lkalarga tarqab ketdilar, qurilishlar to‘xtab, madaniyat binolari xarobalarga aylana bordi, o‘zaro nizolar, hokimiyat uchun kurash kuchaydi.

Temuriyzoda Mirzo Boburning XVI asr boshlarida o‘z yurtidagi mu-vaffaqiyatsiz harakatlaridan so‘ng Hindistonda temuriy davlatini barpo etib, uning avlodlari davrida Markaziy osiyolik olimu-fuzalolar, shoirlar, rassomlarning ko‘plari u yerda panohtopdilar. Markaziy Osiyo madaniyati Hindiston yerida rivoj topdi, so‘ngroq hind madaniyati bilan qorishib, unga katta ta‘sir ko‘rsatdi.

Movarounnahrda hokimiyat uchun uzoq yillik urushlar, ichki nizolar kuchayib ketdi. Siyosiy tushkunlik avj oldi, bu mamlakat iqtisodiga katta ta‘sir ko‘rsatdi, tashqi olam, o‘zga mamlakatlar bilan ham aloqalar susayib ketdi. Va nihoyat XVI asrning ikkinchi yarimida Movarounnahr hududida mustaqil davlatlar Buxoro amirligi hamda Xiva xonliklari shakllanib o‘zlarini tiklay boshladilar. XVIII asrning oxirida uzoq urushlardan so‘ng mustaqil Qo‘qon xonligi tashkil topdi. Lekin bu davlatlar o‘rtasida ta‘sir doirasi uchun har doim urushlar, nizolar davom etib turdi. Umuman XVI–XIX asrning birinchi yarmi, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotda, xalqaro munosabatlarda oldingi

yutuqlarni yo‘qotish, ko‘p sohalarda ortga ketish bilan tarixda ma’lumdir.

Siyosiy hayot mayda mustaqil davlatlar vujudga kelishi bilan xarakterlansa-da, bu faktorning o‘zi madaniy yuksalish uchun etarli emas ekanligini namoyon etdi.

Iqtisodiy hayotda ham o‘zaro urushlar, nizolar, hunarmadchilik, dehqonchilik, savdo-sotiq ishlariga katta zarar keltirildi, tashqi savdo aloqalar susayib ketdi.

Madaniy hayotda ana’naviy islom, aqidaparastlikning ta’siri kuchaydi, maorif, ma’rifat sohasida ham asosan diniy ta’limotlar ustunlikni egallay boshladi, oldingi ma’naviy yutuqlarning ta’siri susaydi, diniy ilmlar etakchi o‘ringa chiqdi. Lekin shunga qaramay madaniy hayotda qator ijobiy natijalar yuz berganini ham ko‘ramiz. Xususan, adabiyot, tarixiy ilmlar, san’atning ayrim turlari sohasida yirik adib, shaxslar yetishib chiqdi. Tasavvuf ham o‘zining oldingi ahamiyatini o‘zgartirib, ijtimoiy rolini yo‘qota bordi. O‘zbek tilining mavqei kuchayib, u adabiyotda borgan sari keng o‘rin egallaganini ko‘ramiz. Fors va o‘zbek tillari adabiy til sifatida keng foydalanila boshlandi. XIX asrning birinchi yarmida har uch xonlikda madaniyat, xususan, adabiyot va tarixnavislik sohasida jonlanish vujudga keldi.

Turkiston madaniyatining to‘rttchi davri – XIX asrning 60-yillarida bu yerda Rossiya hukmronligining o‘rnatilishi bilan boshlandi.

Rossiya Turkistonni qurol, qaqshatqich urush yordamida bosib oldi. Qo‘qon xonligi tugatildi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi Rusiyaning vassaliga aylanib qoldi. Turkistonda to‘lig‘icha mustamlakachilik siyosati o‘rnatilib, iqtisod, madaniyat ham shunga bo‘ysundirildi. Lekin boshqa Sharq mamlakatlarida bo‘lib o‘tayotgan ma’rifatparvarlik va mustamlakachilikka qarshi harakatlar ta’sirida Turkistonda ham hukmron rus mustamlakachiligi tuzumi xohishiga zid holda ma’rifatchilik harakati rivoj topdi, asta-sekin undan ma’rifiy masalalar bilan birga siyosiy masalalarni ham olg‘a sura boshlagan jadidchilik harakati kelib chiqdi. Turkiston guberniyasi, Buxoro amirligi, Xiva xonligida jadidchilar harakati kuchayib, mavjud tuzum uchun xavfli kuchga aylanib bordi.

Mavjud siyosiy, iqtisodiy va madaniy tuzum 1917 yil fevral voqeasi, so‘ngi oktyabr inqilobi natijasida tugatilib, tamoman boshqa – sotsialistik yo‘nalishga burib yuborildi.

Beshinchi – sobiq tuzum davrida davlat va yakkapartiyaviylik tizimi shaxs ustidan yalpi hukmronligini o`rnatgan edi. Fuqaroning huquqiy himoyalanganmagani, boshqaruvning ma`muriy-buyruqbozlik usullari, har qanday muqobil fikrlashning tazyiq ostiga olinishi ko`p odamlarda chorasizlik tuyg`usini uyg`otib, real hayotdan uzoqlashish istagini oshirdi. “Siyosiy autsayderlar” deb ataluvchi kishilar sonining o`sishi, jamiyatda ijtimoiy pessimizm va boqimandalikning kuchayishiga sabab bo`ldi.

Ko`p ming yillik taraqqiyot yo`lini bosib o`tgan va o`tmishida katta tarixiy siljishlar bilan birga, tanazzullar va inqirozlarga guvoh bo`lgan o`zbek xalqi hayotida XX asrning oxiri va XXI asrning boshlari muhim ahamiyat kasb etdi. Ana shu davrda xalqimiz yaratgan buyuk bunyodkorliklar, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va ma`naviy sohadagi beqiyos yutuqlar O`zbekistonning bundan keyingi uzoq kelajakka mo`ljallangan taraqqiyotiga asos bo`lib xizmat qiladi. Ushbu davrning mohiyati – butunlay yangi tuzum, yangicha turmush tarzi, zamonaviy jahon sivilizatsiyasi talablariga javob bera oladigan aqliy salohiyat, intellektual imkoniyat bilan bog`liqligi muhim ahamiyatga ega.

Oltinchi - O`zbekistonning mustaqillikka erishuvi siyosiy-iqtisodiy, madaniy sohalarda tamoman yangi davrni boshlab berdi. Xalqimizning 10 asrlik madaniyati tarixini kuzatish mustaqillik madaniyati, ma`naviyatini shakllantirishda tarixdan ko`p saboqlar olish mumkinligini va bu saboqlar kelajak uchun shubhasiz foydali ekanligini ko`rsatdi.

Avvalambor, haqiqiy ma`naviy yuksalish, madaniy taraqqiyot uchun xalqimiz mustaqil davlatga ega bo`lishi, qaramlik siquvidan ozod bo`lishi zarurdir. Qaram bo`lib yashagan xalq ma`naviy erkinlikka, taraqqiyotga erisha olmaydi, u o`zligidan, o`z ruhiy qudratidan mahrum bo`ladi.

Hozirda mustaqillikka erishgan O`zbekiston o`z milliy madaniyatini yuksak darajada rivojlantirishning – eng muhim shartini, omilini qo`lga kiritdi va bu mustaqillik yo`lida ikkilanmay qadam tashlab, shiddat bilan bormoqda.

Mustaqillikka erishuv zarur siyosiy, iqtisodiy muammolarni yechishni talab etadi, lekin madaniy-ma`naviy rivojlanishsiz siyosiy iqtisodiy taraqqiyot umumiy ijtimoiy masalalarni yechishga, so`nggi maqsad – yyetuk inson va jamoani yaratishga ozijdir. Shuning uchun

madaniy-ma'naviy masalalarga davlatning maxsus e'tibor berishi, ularni hal etishi, madaniy rivojlanishi uchun, ma'naviy rivojlanishi uchun, ma'naviy qadriyatlarni kuchaytirish, ularni yaratish va yaratuvchilarga keng imkoniyatlar qidirmog'i, talab etiladi. Hozirgi O'zbekistonda bu yo'nalishda ham muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Har bir xalq madaniyatining asoslari, o'ziga xosligi, xususiyatlari, uning tarixi, rivoji davomida shakllanib boradi va ularning majmui ushbu madaniyatning milliyligini belgilaydi. Shuning uchun xalqimiz madaniyatining o'ziga xos tomonlari, mazmunini bilish, uning tarixini, o'tmishdagi rivojlanish davrlarini o'rganishni talab etadi. Hozirgi tarixni bilish, uni ob'ektiv yoritishga bo'lgan talabning kuchayishi milliy madaniyatimizning to'liq mazmunini, tarixini, yutuqlarini o'rganishga ham bevosita oiddir. Bu – milliy madaniyatimizning jahon madaniyati tarixidagi roli va o'rnini aniqlash uchun ham zarurdir.

Ma'naviy madaniyat, ma'naviyat yutuqlari aksari madaniy yuksalish jarayonida vujudga keluvchi va uni ifodalovchi olim, donishmand, adib, din arboblari va ular faoliyati, yozib qoldirgan merosi kabilarda aks etib, muhrlanib qoladi. Albatta turli an'analar, arxeologik yodgorliklar, buyumlar va boshqalarda ham xalq ma'naviyati yutuqlari ifodalanadi, lekin yozma adabiyot, qo'lyozmalar bu jihatdan alohida ahamiyatga egadir. Shuning uchun o'tmishdagi buyuk siymolar, allomalar, adiblarning faoliyati, asarlarini o'rganish, ularni hozirda nashr etish, targ'ib qilish, yubileylarini o'tkazish, madaniyat tarix va ma'naviy boyligimizni chuqur o'rganishda nihoyatda muhim va katta rol o'ynaydi.

Allomalar, siymolar merosi Markaziy Osiyoda o'tmishda ilm-fan, madaniyatning barcha sohalari, tarmoqlari rivojlangani, ularning ijodlari ko'p qirrali bo'lganligi, faoliyatida ilm-fan bilan bir qatorda din, axloq, insonning ma'naviy dunyosi, jamoaning hamjihatligi, uni odilona boshqarish, saodati masalalari muhim o'rin tutganligidan dalolat beradi.

Ularning merosi va madaniyat tarixi yana ilm-fan va diniy qoidalarning bir butunligini tashkil etib, umumiy ma'naviyat rivoji uchun xizmat qila olishini, foydali bo'lishini isbotlaydi. Fan va din xalq madaniyatining turli sohalari, qismlari bo'lib, yagona maqsadga qaratilgan holda bir-birini to'ldirishi, xalqni shu yagona maqsadga

yo'naltirishga xizmat qilishi mumkin. Diniy taassavurning ilm-fan hisobiga kuchayuvi ijtimoiy rivojlanishga, madaniyatning kuchayishiga zarar keltirishini ma'lum tarixiy davrlarda yuz bergan jarayonlar o'zida ifodalaydi.

Madaniy rivojlanishda milliy ma'naviy boylikni boshqa xalqlar, mamlakatlar madaniyati yutuqlaridan bahramand bo'lish, madaniy aloqalarni kuchaytirish, milliy qobig'da o'ralib, umumiy xalqaro aloqalar tizmasidan chetda ajralib qolmaslik, milliy madaniyatning umumjahon madaniyat yutuqlari bilan doimo boyib borishida nihoyatda katta rol o'ynaydi.

Bu ayniqsa hozirda jahon mamlakatlarining umumiylik, hamjihatlikka intilishi ortib borayotgan bir sharoitda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqargan holda hozirda yoshlarda mustaqillik ma'naviyatini tarbiyalash barcha tarixiy-madaniy boyliklarning asosiy tomonlarini o'rganish, milliy madaniyatimiz rivoji, davrlari, taraqqiyot qonuniyatlari, ma'naviy boyliklarni yaratgan yirik siymolar, donishmand adiblarning merosini o'zlashtirish, boshqa rivojlangan mamlakat madaniyati yutuqlarini o'rganish, ularga hurmat- izzatda bo'lishni, bu masalalar bo'yicha keng ta'lim, o'quv-o'qituv ishlarini olib borish talab etadi. Bu mustaqillik sharoitida yosh avlodni milliy-madaniy boyliklarini yaxshi bilgan, milliy g'urur, vatanparvarlik hissi bilan yo'g'rilgan, dunyo madaniy rivojlanish darajasidan xabardor bo'lib etishuvida etakchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqil O'zbekistonda yangi demokratik fuqarolik jamiyati barpo etilishi bilan bir vaqtda, tarix fani oldiga o'tmishdagi tarixiy voqelik va jarayonlarni ilmiy jihatdan, xolisona bayon etish imkoniyati yuzaga keldi. "Albatta, o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbot talab bo'lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarur".

1. Tarixni yoritishda biryoqlamalikka, sub'ektiv fikrlarga yo'l qo'ymaslik zarur, «faqat bahs, munozara, tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatadi»

2. Mustaqillik yillarida ulug' ajdodlar yubileylari, ko'plab shaxarlar ming yilliklarining nishonlanishi ma'naviy merosimizning tiklanishi hisoblanib, ularning sharafiga ochilgan muzey, bog'lar,

xiyobonlarda, ularning muhtasham haykallarida ma'naviyat va san'at birgalikda rivojlanganini ko'rsatadi.

O'zbekistonimiz mustaqillikka erishganidan so'ng aziz ona yurtimiz zaminidan eti-shib chiqqan buyuk allomalarning tabarruk nomlarini tiklash, muborak qadamjolarini obod qilish, ularning ulkan ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish, xalqimiz va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib etish hamda milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va ulug'lash imkoni tug'ildi. Mustaqillik davrida O'zbekistonda sodir bo'layotgan ma'naviy-axloqiy yangilanish o'zbek xalqining tarixiy xotirasini qayta tiklash asosida yuz bermoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasi ko'p jihatdan iqtisodiy va madaniy – ma'naviy soha yangilanishlari bilan bevosita bog'liq. Shaxs kamoloti rivoji va markazida «ma'naviyat, ahloq, odob, ma'rifat» kabi o'lmas qadriyatlar O'zbekiston istiqbolining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida tan olinganligi holati ham bejiz emas. O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining hozirgi bosqichida Vatan tarixini barcha davrlarini taxlil etish, ularni yangi nazariy-metodologik asosda bayon qilish, xolis xulosalar chiqarish tarix fanining dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Shuningdek, I.A.Karimovning 1998 yil 26 iyunda bir guruh etakchi tarixchi olimlar va ijodiy ziyolilar vakillari bilan uchrashuvida, Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 27 iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini Prezident I.A.Karimovning “O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish to'g'risida”gi qarorida ham tarixga bo'lgan munosabatlar yondashuvi etarlicha yoritib berilgan . Bugungi kunda yurtimizda barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazish masalasi o'ta dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilayotgan ekan, bunda farzandlarimizning nainki jismoniy, shu bilan birga, axloqiy va ma'naviy barkamol bo'lishi zarurligi alohida ta'kidlanayotganini unutmashimiz zarur. Chunki qalb ko'zi ochiq, ma'naviy tomondan baquvvat odamgina jamiyat talablariga ongli munosabatda bo'la oladi, bugun biz intilayotgan buyuk kelajakni barpo etishga, dunyo maydonida boshkalar bilan barcha sohalarda musobaqaga kirishga qodir bo'ladi. Bunga esa milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira va tarixiy merosni tiklash hamda yoshlar ongiga singdirish orqali erishish mumkin.

Prezident Shavkat Miramonovich Mirziyoyev asarlarida tarixiy xotira va tarixiy merosni tiklash masalalari etarlicha yoritilgan va jamiyatning ma'naviy rivoji uchun zarur ekanligi ta'kidlangan. Bu o'tmish avlodlarimizning madaniy merosini o'rganishning dolzarbligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar

1. O'rta Osiyo allomalarining faoliyati va ularni qoldirgan ilmiy meroslari jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati.
2. Sharq allomalari ilmiy merosi va milliy madaniyatlar rivojlanishida ularning qo'shgan hissasi.
3. Mustaqillik yillarida Sharq allomalari ilmiy merosiniga munosabat.

2 – MAVZU. MUSO AL – XORAZMIY, ABU ABDULLOH AL XORAZMIY, AHMAD AL – FARG‘ONiy VA AHMAD AL MARVAZIYLARNING HAYOTI VA FAOLIYATLARI

Reja

1. Muso al Xorazmiyning hayoti va uning dunyo faniga qo'shgan hissasi
2. Abu Abdulloh al Xorazmiy va uning ilmiy merosi
3. Ahmad al – Farg‘oniy O'rta Osiyolik mashhur mutafakkir alloma
4. Ahmad al Marvaziylarning hayoti va uning boy ilmiy merosi

Tayanch so'z va iboralar: “Algebra”, “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala”, algoritm, zij, astronomiya, geodeziya, geometriya, al-Qutrubbul, Bayt ul-hikma, X. Zuter, K. A. Nallino va I. Yu. Krachkovskiy

Buyuk matematik, astronom va geograf Muhammad al-Xorazmiy VIII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab ijod etdi. Bu davrda Markaziy Osiyo arab xalifaligi tarkibiga kirar edi.

Rivojlanib kelayotgan mavjud tuzum taqozo qilgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar bu davrdagi taraqqiyot jarayonining asosiy omillaridan biri bo'ldi. Qurilish, savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarni yanada taraqqiy ettirish uchun astronomiya, geodeziya, geometriya kabi fanlarni rivojlantirish zaruriyati tug'ildi. O'sha davrning ilg'or olimlari bu fanlarning amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lib, Muhammad al-Xorazmiy esa shu olimlarning peshqadami va yo'l boshchisi edi.

Xorazmiy dunyo faniga g'oyat katta hissa qo'shdi. U algebra fanining asoschisi bo'ldi. "Algebra" so'zining o'zi esa uning "Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala" nomli risolasidan olingan. Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasi va shu sistemadagi amallarning Evropoda tarqalishiga sabab bo'ddi. Olimning «al-Xorazmiy» nomi esa «algoritm» shaklida fanda abadiy o'rinish qoldi. Uning geografiyaga doir asari esa arab tilida o'nlab geografik asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi. Xorazmiyning «Zij»i Evropoda ham, Sharq mamlakatlarida ham astronomiyaning rivojlanish yo'lini ko'rsatib berdi. Lekin afsuski, fanning bir necha tarmoqlariga asos solgan, "O'z davrining eng buyuk matematigi va agar barcha shart-sharoitlar nazarga olinsa, hamma davrlarning ham eng buyuklaridan biri" (J. Sarton) bo'lgan bunday siymoning hayoti haqida ma'lumotlar deyarli saqlanmagan.

Xorazmiy Xorazm o'lkasida tug'ilib, o'sdi. Adabiyotlarda 783 yil uning tug'ilgan yili deb qabul etilgan. U dastlabki ma'lumot va turli sohadagi bilimlarni asosan o'z yurtida, Markaziy Osiyo shaharlarida ko'pgina ustozlardan olgan, deb bilish mumkin.

Manbalarda Xorazmiyning ismiga yana al-Majusiyy va al-Qutrubbulyy degan atamalar ham qo'shib aytiladi. Bularning birinchisi olim Xorazmning asli mahalliy aholisidan, yani otashparastlar (arabcha – «majus» – otashparast degani) oilasidan, balki shu otashparastlik dinining kohinlari oilasidan kelib chiqqanligini, shu bilan birga olimning o'zi yoki otasi majusiyy bo'lib, ular islomni keyin qabul qilganligini ko'rsatadi. Xorazmda majusiylar islomdan keyin ham uzoq muddat o'z diniy urf-odatlarini saqlab kelgan. Bu haqda Beruniy o'zining «Osori boqiya» asarida guvohlik beradi. Keltirilgan ismlarning ikkinchisi, Xorazmiy mo'ysafidlik yillarini Bag'dod yaqinida Dajla bo'yidagi al-Qutrubbul dahasida o'tkazganligini

ko'rsatadi. Odatda arablar biror kishining xarakterli xususiyatlari, hunarlari, sevimli odatlari yoki yashash joylariga qarab, unga bir necha xil ism – “nisbatlar” beradilar. Xorazmiyning al-Kutrubbuliy ismi ham shu tariqa paydo bo'lgan.

Xorazm juda qadimgi madaniyatga ega bo'lib, uning qishloq xo'jaligi sug'orma dehqonchilikka asoslanar, bu o'z navbatida, astronomiya va xronologiyaning rivojlangan hisoblash usullarining mavjud bo'lishini taqozo etar edi. Haqiqatan ham, qadimgi Xorazmda astronomiya juda rivojlangan, xorazmliklar osmon “sirlari”ni arablarga qaraganda ancha yaxshi bilganlar. Arxeologik qazishmalar Xorazmda qadimda islomdan bir necha asr avval ham rasadxonalar bo'lganligi va u erda muttasil astronomik kuzatishlar olib borilganligidan guvohlik beradi. Xorazmiyning bizgacha etib kelgan asarlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, u yunon, hind va eron astronomiyasi va matematikasini yaxshi bilgan.

Ma'lumki, al-Ma'mun 809 yiddan Marvda dastlab xalifa Xorun ar-Rashidning noibi, so'ng 813 yildan boshlab xalifa bo'ladi va 819 yili Bag'dodga ko'chadi. Al-Ma'mun Marvda bo'lganida Xorazmiyni, muvarounnahrlilik va xurosonlik boshqa olimlarni o'z saroyiga jalb qilgan.

Xalifa al-Ma'mun davrida Bag'dodda Markaziy Osiyo va Xurosondan kelgan bir guruh yirik olimlar ijod etgan. Ular orasida Xorazmiy bilan bir qatorda Marvdan Yahyo ibn Abu Mansur, al-Farg'oniy, Habash al-Marvaziy, Xolid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy, Forobdan Abul Abbos al-Javhariy va boshqa olimlar bor edi.

Bag'dodda al-Ma'mun otasi tomonidan asos solingan ilmiy markaz – “Bayt ul-hikma” faoliyatini har tomonlama takomillashtirib, unga yirik davlat muassasasi maqomini berib, avvaliga tarjimonlik faoliyatini keng ko'lamda rivojlantirdi. Vizantiya, Hindistondan ko'plab kitoblar keltirilib, “Bayt ul-hikma”ning faoliyat doirasi birmuncha kengaytiriladi, uning qoshida ikkita yirik rasadxona:

- birinchisi 828 yidda Bag'dodning ash-Shammosiya mahallasida
- ikkinchisi Damashq yaqinidagi Kasiyun tog'ida 831 yilda barpo etiladi.

Ikkala rasadxonaning ham faoliyatini Markaziy Osiyo va Xurosondan kelgan olimlar boshqaradi. Xorazmiy bu ilmiy markazning mudiri sifatida uning faoliyatini kuzatib bordi.

Xorazmiy davrida “Bayt ul-hikma”da ishlagan yirik tarjimonlar orasida Hajjoj ibn Yusuf ibn Matar, Abu Zakariyo Yuhanno ibn al-Bitriq, Hunayn ibn Ishoq va Kusto ibn Luqo al-Ba’al-bakkiylar bor edi. Bag‘dodga kelgan Markaziy Osiyolik olimlar orasida mashhur astronom Ahmad ibn Kasir al-Farg‘oniy (vafoti 816 yil)ning nomini eslatish lozim. Marvlik Yahyo ibn Abu Mansur Bag‘dodning ash-Shammosiya mahallasidagi rasadxonaning asoschisi va rahbari bo‘ldi. Rasadxonadagi ishlar haqida u “Bayt ul-hikma”ning mudiri Xorazmiyga hisobot berib turardi. Yahyo 831 yili vafot etganidan so‘ng Xorazmiy bu rasadxonani ham boshqaradi va u erdagi kuzatishlarda faol qatnashadi. Yahyoning qalamiga mansub “Zij al-mumtahan” (“Sinalgan zij”) nomli astronomik asari ma’lum. Damashq yaqinida Kasiyun tog‘idagi rasadxonani Xolid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy boshqaradi. U ham o‘z “Zij”ini tuzadi. Xolid Yer meridianining uzunligini o‘lchash ishlariga boshchilik qiladi.

Marvlik mashhur astronom va matematik Habash al-Hosib (“Hisobchi habash”) laqabi bilan ma’lum bo‘lgan Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy ham Bag‘dodda Xorazmiy bilan hamkorlikda ishlagan. U ikkita “zij” tuzgan bo‘lib, bular O‘rta asr astronomlari tomonidan keng foydalanilgan. Tadqiqotchilarning ko‘rsatishicha, u tangens va kotangens, kosekans funksiyalarini kiritib, ularning jadvallarini ham keltirgan.

Xorazmiy bilan Bag‘dodda, keyinchalik «Ma’mun akademiyasi» deb tanilgan «Bayt ul-hikma”da ijod etgan olimlarning barchasini ham Markaziy Osiyolik yoki xurosonlik deyish xato bo‘lardi. U yerda Suriya, Iroq, Eron va xalifalikning boshqa erlaridan kelgan olimlar ham ishlagan. Biroq ular orasida Markaziy osiyoliklar salmoqli o‘rinni egallagan. Xorazmiy ana shunday ilmiy muhitda yashab ijod qildi va 850 yilda Bag‘dodda vafot etdi.

Xorazmiy qalamiga mansub 20 dan ortiq asarlarning faqat 10 tasi bizgacha etib kelgan. Bular “Aljabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob” – algebraik asar, “Hind hisobi haqida kitob” yoki “Ko‘shish va ayrish haqida kitob” – arifmetik asar, “Kitob surat-ul-arz”– geografiyaga oid asar. “Zij”, “Asturlob bilan ishlash haqida kitob”, “Asturlob yasash haqida kitob”, “Asturlob yordamida azimutni aniqlash haqida», “Kitob ar-ruhoma”, “Kitob at-tarix”, “Yahudiylarning taqvim va bayramlarini aniqlash haqida risola”. Bu asarlarning to‘rttasi arab tilida, bittasi Farg‘oniyning asari tarkibida,

ikkitasi lotincha tarjimada saqlangan va qolgan uchasi hali topilgan emas.

Xorazmiyning arifmetik risolasi qachon yozilgani noma'lum. Biroq unda olim algebraik risolasini eslaydi. Demak, bundan Xorazmiy arifmetik risolani algebraik risoladan keyin yozgani ma'lum bo'ladi. Bu risola XII asrda Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilingan. Tarjimaning XIV asrda ko'chirilgan yagona qo'lyozmasi Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanadi. Risola "Diksit Algorizmi", ya'ni "Al-Xorazmiy aytdi" iborasi bilan boshlanadi. Bundan keyin Xorazmiy to'qqizta hind raqamining sonlarni ifodalashdagi afzalliklari va ular yordamida har qanday sonni ham qisqa qilib va osonlik bilan yozish mumkinligini aytadi. Asarning lotincha qo'lyozmasida hind raqamlari ko'pincha yozilmay, ularning o'rnini bo'sh qoldirilgan yoki ahyon-ahyonda 1, 2, 3, 5 sonlarga mos keladigan hind raqamlari yozilgan. Ko'pincha esa hind raqamlari o'sha davrda Yevropada keng tarqalgan rim raqamlari bilan almashtirilgan.

Xorazmiy hind raqamlari asosida o'nlik pozitsion sistemada sonlarning yozilishini batafsil bayon qiladi. U sonlarning bunday yozilishidagi qulayliklar, ayniqsa, nol ishlatilishining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Keyin Xorazmiy arifmetik amallarni bayon qilishga o'tadi. Bunda Xorazmiy sonlarning martabalarini, ya'ni razryadlarini e'tiborga olishni hamda nolni yozishni unutmaslikni uqtiradi, aks holda natija xato chiqadi, deydi u.

Risolaning boshlanishida Xorazmiy undagi masalalar o'z davrining amaliy talablariga javob sifatida vujudga kelganligini qayd qiladi.

U shunday deydi: "Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi "Aljabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob"ni ta'rif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda va shuningdek, yer o'lchash, kanallar o'tkazishda, (amaliy) geometriya va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir»

Risolaning Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanayotgan lotincha ko'lyozmasining matnini 1857 yili B. Bonkompani nashr etgan. Mazkur qo'lyozmaning fotoreproduksiyasini tarixchi A. P. Yushkevich ham nashr etgan. Undan tashqari, A. P. Yushkevich o'z risolasida Xorazmiy risolasiga alohida paragraf bag'ishlagan. B.

Bonkompanining nashri asosida Y. X. Kopelevich va B. A. Rozenfeldlar risolaning ruscha tarjimasini nashr etishgan. Xorazmiyning 1200 yillik yubileyi munosabati bilan 1983 yili bu asarning qayta nashri va o‘zbekcha tarjimasini chop etildi.

Xorazmiyning arifmetik risolasi XII asrdayoq Ispaniyada seviliyalik Ioann tomonidan qayta ishlangan. Keyinchalik to yangi davrgacha Yevropa olimlari Xorazmiy risolasini qayta-qayta ishlaganlar, u asosida darsliklar yozganlar. Bu qayta ishlangan nusxalar va darsliklarning nomida “Algorizm kitobi» degan ibora bo‘lgan.

Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o‘nlik pozitsion hisoblash sistemasining Yevropada, qolaversa butun dunyoda tarqalishida buyuk ahamiyat kasb etdi. Yevropaga hind raqamlari arablar orqali o‘tganligi uchun ular “arab raqamlari” deb ataladi va hozir ham shunday deb atalib kelinmoqda. Yevropaliklar uzoq vaqtgacha hind raqamlariga asoslangan hisob tizimini “algoritm” deb atab keldilar. Faqat XVI asr o‘rtalaridagina bu nom “arifmetika” iborasi bilan almashtiriladi. Shundan keyin to hozirgi kungacha “algoritm” yoki “algoritm” deganda har qanday muntazam hisoblash jarayoni tushuniladigan bo‘ldi. Bu ibora bilan al-Xorazmiyning nomi fanga abadiy kirib qoldi.

Xorazmiyning algebraik risolasining to‘liq nomi – “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala”. Risolaning nomidagi “al-jabr” va “al-muqobala” so‘zlari “to‘ldirish” va “ro‘para qo‘yish” – o‘rta asr algebrasining ikkita asosiy amalini anglatadi. “Aljabr” so‘zi lotincha transkriptiyada “algebra” bo‘lib, Xorazmiy asos solgan yangi fanning nomi bo‘lib qoldi. Xorazmiyning algebraik risolasi uch qismdan iborat:

- 1) algebraik qism, buning oxirida kichik bir bo‘lim – savdo muomalasidagi bob keltiriladi;
- 2) geometrik qism, algebraik usul qo‘llanib o‘lchash haqida;
- 3) vasiyatlar haqidagi qism.

Xorazmiy uni alohida nom bilan “Vasiyatlar kitobi” deb atagan. Xorazmiy o‘z risolasida hech qanday belgi keltirmaydi va mazmuni butunlay so‘z bilan bayon etadi va shakllar keltiradi.

Asarning boshida Xorazmiy o‘z oddiga qo‘ygan maqsad – kompleks masalalarni aks ettirgan. Shu bilan birga Xorazmiy xalifalikda kun tartibida turgan ehtiyojlar, islom va shariat talablariga

ko'ra yuzaga keladigan masalalar, me'morchilik va irrigastiya bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal qilishni ham ko'zda tutganligini bildiradi. Umuman olganda, Xorazmiy algebrasi – bu sonli kvadrat va chiziqli tenglamalarni echish haqidagi fandır.

Xorazmiyning aytishicha, algebrada uch xil son bilan ish ko'riladi: ildiz (jizr) yoki narsa (shay), kvadrat (mol) va oddiy son yoki dirham (pul birligi). Yana uning aytishicha, ildiz o'zini o'ziga ko'paytiriladigan miqdordir, kvadrat esa ildizni o'ziga ko'paytirishda hosil bo'lgan kattaliqdir. Xorazmiy ish ko'radigan tenglamalar mana shu uch miqdor orasidagi munosabatlardir. U avval risolada ko'riladigan oltita chiziqli va kvadrat tenglamaning tasnifini keltiradi. Bundan keyin aniq misollar bilan boshqa har qanday tenglamalar risola mohiyatidagi asosiy amallar – aljabr va almuqobala amallari yordamida olti konoik ko'rinishga keltiriladi.

Xorazmiy asos solgan algebra fanini undan keyingi Sharq olimlari muvaffaqiyatli rivojlantirdilar.

Xorazmiyning boshqa asarlaridan farqli o'laroq, uning algebraik risolasining uchta qo'lyozmasi saqlangan. Ular Kobulda, Madinada va Oksford universitetining Bodleyan kutubxonasi saqlanadi.

Risola 1145 yili Sevilyada (Ispaniya) Robert Chester tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan. Asarning arabcha qo'lyozmalari va lotincha tarjimalari XIX va XX asr olimlari tomonidan chuqur o'rganilgan.

Xorazmiyning eng yirik astronomik asari uning “Zij” asaridir. Olim bu asarini 830-yil atrofida yozgan.

Xorazmiyning “Zij” asari 37 bob, 116 jadvaddan iborat. Asarning avvalgi besh bobi xronologiyaga bag'ishlangan bo'lib, «to'fon», «iskandar», «safar» va xristian yerlaridagi sanalarni hijriy eraga ko'chirish qoidalari keltiriladi. 6-bobda aylana – 12 burjga, burj – 30 darajaga, daraja – 60 daqiqaga, daqiqa – 60 soniyaga va hokazo mayda bo'laklarga bo'linishi bayon etiladi. 7–22-boblar Quyosh, Oy va besh sayyoraning harakatlari masalasiga bag'ishlangan. Bu boblarda Xorazmiy qadimgi va ilk o'rta asr hind astronomik ma'lumotlaridan, Eron va Yunon ma'lumotlaridan mohirona foydalangan holda Ptolemeyning geomarkaz sistemasiga asoslanib, planetalar harakatini bayon etgan. 23-bob trigonometriyaga bag'ishlangan.

Unda Xorazmiy “tekis” va “akslangan sinus” tushunchalarini kiritadi va bu funkstiyalar jadvallarini keltiradi. 25–27-boblar matematik geografiyaga bag‘ishlangan. Bu yerda geografik joylarning uzunlik va kengliklarini aniqlash qoidalari keltiriladi va bu koordinatlarning o‘zgarishi Quyoshning yillik, kecha-kunduzlik harakatida ekliptik, ekvatorial koordinatlarning o‘zgarishi bilan bog‘liqligi ko‘rsatiladi.

28-bobda Xorazmiy yana trigonometrik masalalarga murojaat qiladi va tangens, kotangens tushunchalarini kiritadi hamda ularga mos jadvallarni keltiradi. 29-bobda planetalar harakatining tezligi aniqlanadi. 30-bobda Quyosh va Oyning o‘lchamlari keltiriladi. 31-32 va 36-37-boblar munajjimlik masalalariga bag‘ishlangan, 33-35-boblar Quyosh va Oy tutilishi va parallaks (yoritgichning ko‘rinish farqi) masalalariga bag‘ishlangan.

Zij nasari xalifalikdagi dastlabki astronomik asarlardan edi. Asar yozilishi bilan olimlarning diqqatini o‘ziga jalb etdi. Unga Xorazmiyning zamondoshlaridan Farg‘oniy, Al-Hoshimiy va boshqalar yuksak baho berishgan. Abu Rayhon Beruniy bu Zijni sharhlashga uchta asarini bag‘ishlagan. Fan tarixida ispaniyalik arab astronomi Maslama al-Majritiy tomonidan 1007 yili ko‘chirilgan nusxa diqqatga sazovor. Bu nusxani 1126 yili Adelard Bat Ispaniyada lotinchaga tarjima qildi. Xorazmiy Zij asari hozir mana shu lotincha tarjimada mavjud. Shu tarjimaning to‘rt qo‘lyoz-ma nusxasi asosida 1914 yili X. Zuter «Zij»ning lotincha tanqi-diy matnini, shu matn asosida O. Neygubauer esa 1962 yili uning inglizcha tarjimasini nashr etgan. Mana shu ikki nashr asosida «Zij»ning to‘la ruscha va qisman o‘zbekcha tarjimalari nashrga tay-yorlandi.

Xorazmiy Zij asarining Yevropa faniga ta’siri X. Zuter, K. A. Nallino va I. Yu. Krachkovskiylar tomonidan yaxshi o‘rganilgan. Tadqiqotchilarning yakdillik bilan ta’kidlashicha, Xorazmiyning bu asari uning arifmetik va algebraik risolalari kabi bunday asarlarga ehtiyoj tug‘ilgan paytda yuzaga keladi va bu asari bilan olim astronomik asarlar yozilish uslubini standartlashtirdi, bu standart esa to Ulug‘bek Zij asarigacha o‘z kuchini saqladi.

Xorazmiy o‘z Zijida boshlang‘ich meridian sifatida, hind an’anasiga ko‘ra, Arin (hozirgi Hindistondagi Ujayn) shahridan o‘tgan meridianni tanlagan, Evropoda XIII asrda Rojer Bekon va Buyuk Albert ham Arin meridiani g‘oyasining tarafdorlari bo‘lganlar. Arin

g'oyasiga ko'ra, Ayyalik Petr (Franstiyadan) 1410 yili o'zining «Yer tasviri» nomli asarini yozdi. Bu asarning 1487 yili chop etilgan bir nusxasidan Xristofor Kolumb foydalangan. Kolumbning o'ziga tegishli nusxa hoshiyasiga yozgan eslatmalariga ko'ra, Arin g'oyasi unda Yerning noksimon ekanligi va yerning Aringa diametral qarama-qarshi tarafida Aringa o'xshash joi olishi kerakligi haqida tasavvur hosil qilgan.

Shunday qilib, Xorazmiyning Zij asari geografiya sohasidagi buyuk kashfiyotlarga ham aloqador bo'ldi.

Xorazmiy geografik asarining yozilgan yili aniq ma'lum emas. Akademik V. V. Bartold bu asar 836–847 yillar orasida yozilganligini aniqlagan. Asar 1037 yili ko'chirilgan yagona arabcha nusxasida bizgacha etib kelgan bo'lib, bu nusxa Strasburg universiteti kutubxonasida saqlanadi.

Kitobda shaharlar, tog'lar, dengizlar, orollar va daryolardagi 2402 ta geografik joyning koordinatlari keltiriladi. Shaharlar, daryolar, tog'lar, orollar va boshqa ob'ektlar iqlimlar bo'yicha taqsimlangan. Iqlim so'zi aslida yunoncha klima – “og'ish” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, uni fanga Gipparx (eramizdan oddingi II asr) kiritgan. Gipparx Yerning odamlar yashaydigan qismini 12 ta iqlimga ajratgan. Undan so'ng Ptolemey iqlimlarning sonini 8 tagacha kamaytiradi, lekin o'z “Geografiya”sida u iqlimlar nazariyasiga to'la rioya qilmaydi, chunki geografik joylarni mintaqalar bo'yicha taqsimlaydi.

Geografiyani iqlimlar nazariyasiga to'la rioya etgan holda birinchi marta Xorazmiy bayon qiladi. U yerning ma'mur, ya'ni insonlar yashaydigan obod qismini yetti iqlimga ajratadi. Xorazmiy qadimgi yunon olimi Ptolemeydan farqli o'laroq, mintaqalar, mamlakatlar va ulardagi geografik joylarni emas, balki 1-iqlimdan to 7-iqlimgacha joylashgan joylarni tavsif etadi.

Xorazmiyning geografik risolasi o'rta asrlardagi eng birinchi geografik asar edi. Shuning uchun uning iqlimlar nazariyasi keyingi davrlarda geografiyaning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi. Xususan, uning iqlimlar nazariyasi yerning ma'mur qismini iqlim mintaqalari bo'yicha o'rganishni osonlashtirdi.

Xorazmiy ham Ptolemey kabi uzunliklarni Kapar orollaridan boshlab hisoblaydi. Xorazmiy ekvatoridan janubda 8 shahar, 1-iqlimda 64-shahar, 2-iqlimda 54 shahar, 3-iqlimda 59 shahar, 4-iqlimda 146

shahar, 5-iqlimda 79 shahar, 6-iqlimda 63 shahar, 7-iqlimda 25 shahar va 7-iqlimdan shimolda 40 shaharning koordinatlarini keltiradi.

Risolaning ikkinchi bobida iqlimlardagi tog‘lar tavsiflanadi. Tog‘larning boshi va oxirining koordinatlari keltiriladi. Xorazmiy Yaqin va O‘rta Sharqdagi hamda Kavkaz va Markaziy Osiyodagi tog‘larni ham u yerlardagi shaharlar kabi batafsil bayon qiladi. Shunga qaraganda olim u yerning geografiyasi bilan shaxsan tanish bo‘lgan ko‘rinadi. Risolaning uchinchi bobida Xorazmiy dengizlarni, to‘rtinchi bobida orollarning qirg‘oq chiziqlari va ulardagi nuqtalarni, beshinchi bobda esa daryolar va buloqlarni tavsiflaydi. Xorazmiyning bu asari ko‘p olimlar tomonidan o‘rganilgan. Lekin shu paytgacha to‘laligicha tarjima qilinmagan. 1983yili olimning 1200 yillik yubileyi munosabati bilan bizda bu asarning o‘zbekcha tarjimasi Xorazmiyning “Tanlangan asarlari” tarkibida chop etildi. Xorazmiyning yuqorida keltirilgan asarlari uning fanning qator tarmoqlarining asoschisi bo‘lganligini ko‘rsatadi. Uning g‘oyalari matematika va astronomiyaning oyoqqa turishi va rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Hozirgi davrda uning xizmatlari dunyo xalqlari ommasi tomonidan e‘tirof etilgan. Xorazmiy asarlari dunyoning trli ktubxonalarida saqlanadi. Hozirda uning nomiga turli mamlakatlarda mukofot va medallar ta‘sis etilgan.

Abu Abdulloh al-Xorazmiy

(vafoti 997)

Milodning IX–XI asrlari Markaziy Osiyoda ilm-fan yuksak taraqqiy etgan va buyuk allomalar davri edi. O‘sha davrning keng bilimli, peshqadam olimlaridan biri Abu Abdulloh al-Xorazmiy bo‘lgan.

Bu olim haqida saqlanib qolgan ma‘lumotlar juda kam. Olimning to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiydir. Uning yoshligi Xorazmning Xiva, Zamaxshar va Qiyot shaharlarida o‘tgan. Bu shaharlarda u tug‘ilgan, voyaga yetgan, yashagan, ta‘lim olgan. Olim Xurosonda ham yashagan. Uning mashhurligi vazir Abul Hasan al-Utbiy huzurida kotib bo‘lib xizmat qilgan davrda yuqori cho‘qqiga chiqqan. Shu vazifasi tufayli u «al-kitob al-Xorazmiy» nomi bilan ham tanilgan. O‘z xizmat vazifalari yuzasidan Buxoroga tez-tez borib turgan va ko‘pgina allomalar bilan hamsuhbat bo‘lgan. Ayni vaqtda ilmga chanqoq olim xizmat asnosida amirning boy kutubxonasidan foydalanish huquqini qo‘lga kiritgan. Abu Abdulloh al-Xorazmiy 997 yilda vafot etgan.

Olimning dunyoqarashi o‘sha davrda keng tarqalgan qadimgi yunon falsafasi va madaniyati, Sharq namoyandalari Yoqub ibn Ishoq al-Kindiy, Abu Nasr al-Forobiy hamda Abu Bakr ar-Roziy ta’siri ostida shakllandi.

Abu Abdulloh al-Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan, ko‘pchilik asarlari arab tilida yozilgan, va yagona ma’lum asari “Mafotih al-ulum” («Ilmlar kalitlari») dir. “Mafotih al-ulum”ning qo‘lyozma nusxalari juda ko‘p emas. Yaqin- yaqingacha uning to‘rt nusxasi bor deb hisoblanib kelinar edi. Ana shu to‘rt nusxadan uchta Buyuk Britaniya muzeyida 7528, 23429 va 2524 raqamlar, hamda Berlin kutubxonasida 1051 raqami ostida saqlanadi. Amerikalik olim K. Bosvort asrimizning 60-yillarida ushbu asarning yana olti nusxasini Istanbul shahri kutubxonalarida borligini aniqladi.

Abu Abdulloh al-Xorazmiyning bu asari o‘rta asrlardagi fanlar rivojlanishi tarixiga oid kamyob manba sifatida ko‘pgana olimlarning e’tiborini o‘ziga jalb qildi. Birinchi bo‘lib bu manbani o‘rgangan va 1895 yilda nashr qilgan olim – gollandiyalik sharqshunos Van Flotendir. Shuningdek, I. Y. Krachkovskiy, V.V. Bartold, K. Brokelman, E. Videman, G. Sarton, M.M. Xayrullaev, U.I. Karimov, G.P. Matvievskaya, H. Hasanov, A. Sharipovlar ham asarning turli tomonlarini tadqiq qilganlar.

«Mafotih al-ulum» o‘ziga xos qomusiy asar bo‘lib, o‘sha davrdagi deyarli hamma asosiy fan sohalarini o‘z ichiga qamrab olgan. Muallif o‘rta asrlardagi har bir ilm mazmunini sharhlash yo‘li orqali tushuntirib beradi.

Olim ilmlarni ikkiga bo‘lib, ularga “arab-shar’iy” va “arab bo‘lmagan”larga ajratadi. Bu hol olim o‘z davrining namoyandalari singari ilmlar tasnifida ularni ikki qismga bo‘lish an’anasiga sodiq qolganligini ko‘rsatadi.

Uning birinchi an’naviy “arab” ilmlari qismi o‘n bir bobdan iborat fiqh, etti bobdan iborat kalom, o‘n ikki bobdan iborat grammatika (sarf va nahv), sakkiz bobdan iborat ish yurgizish, besh bobdan iborat she’r va aruz hamda to‘qqiz bobdan iborat tarixdan tashkil topgandir. Ikkinchi qismiga esa “arab bo‘lmagan” quyidagi ilmlar kiritilgan: ular uch bobdan iborat falsafa, to‘qqiz bobdan iborat mantiq, sakkiz bobdan iborat tib, besh bobdan iborat arifmetika, to‘rt bobdan iborat handasa, shuningdek, to‘rt bobdan iborat ilm an-nujum, uch bobdan iborat musiqa, ikki bobdan iborat mexanika va uch bobdan iborat kimyodir.

Shunday qilib, asar ikki qismdan iborat bo‘lib, unda o‘n besh ilm to‘qson uch bobda bayon etilgan.

Abu Abdulloh al-Xorazmiy ilmlar tasnifining shakli quyidagicha:

I. Shariat va u bilan bog‘liq “arab” ilmlari.

Fiqh, ya’ni musulmon huquqshunosligi.

Kalom, ya’ni din asoslari.

Grammatika.

Ish yurgizish.

She’riyat va aruz.

Tarix.

II. “Arab bo‘lmagan” ilmlar (yunon va boshqa xalqlar).

1. Nazariy falsafa:

a) tabiiy ilmlar-tibbiyot (tib, samoviy hodisalar, meteorologiya, mineralogiya, alkimiyo, mexanika) - quyi;

b) riyoziyot ilmlari (arifmetika, handasa, ilm an-nujum, musiqa) -o‘rtanchi;

v) ilohiy, ya’ni metafizika - oliy ilm;

g) mantiq.

2. Amaliy falsafa:

a) axloq - etika (odamni boshqarish);

b) uyshunoslik (uyni boshqarish);

v) siyosat (shaharni, mamlakatni boshqarish).

“Mafotih al-ulum”da ilmlar tasnifi har bir fanning predmetini aniqlash hamda ularning asosiy atamalarini qisqa va aniq bayon etish bilan birgalikda olib boriladi. Bu yerda, biz zikr etganimizdek, Abu Abdulloh al-Xorazmiy o‘z tasnifida o‘sha davr an’anasi, ya’ni ilmlarni ikkiga bo‘lishni qo‘llab-quvvatlab, shar’iy va falsafiy ilmlarga ajratadi.

An’anaviy arab ilmlari, shu ilmlardan biri, fiqhda muallif islom qonunshunosligining asosi bo‘lgan va islom huquqi posbonining doimiy dasturi Qur’on, payg‘ambar so‘zlari, hikmatli gaplari va hayotlarini aks etgiruvchi Sunnat, Hadis va uning xillari; Ijmo‘ – islom jamoasining yakdillik bilan tan olgan qarori; shariat qonun-qoidalariga amal qilishni, ya’ni tahorat qilish, namoz o‘qish, azon aytish, ro‘za tutish, zakot to‘lash ustida to‘xtab o‘tadi.

Ikkinchi bo‘lim kalomda o‘sha davrda Yaqin va O‘rta Sharqda mavjud bo‘lgan ko‘pgina mazhablar haqida ma’lumotlar berilgan. Xususan bu mazhablarning yettiga bo‘lib bayon etilishi, ayniqsa,

mu'taziliylar haqidagi mukammal tafsilotlar muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga grek-xristian mazhablari, islomgacha bo'lgan davrdagi Eron va Yamandagi diniy e'tiqodlar, Hindistonda tarqalgan ba'zi dualistik mazhablar va oqimlar hamda zardushtiylik bayon etiladi. Bu ma'lumotlar Yaqin va O'rta Sharq hamda Markaziy Osiyodagi xalqlarning dinlari tarixini o'rganishda g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Arab adabiy tili grammatikasi, uning qonun-qoidalari grammatika bo'limida bayon etilgan. Ayni paytda muallif arab she'riyati va uning tarkibiy qismlaridan bo'lgan aruz ustida ham mufassal to'xtalib o'tgan.

Ish yurgizish bo'limi davlat devoni, soliq turlari va olinishi, soliq yig'uvchilarning vazifalari, askarlar ro'yxati, ularning kiyim-kechagi va to'lanadigan maoshlari, irrigastiya shahobchalarida foydalaniladigan atamalar, kanal xillari, suv uskunalari, ikki daryo oralig'idagi sug'orish tizimlari haqidagi ma'lumotlarni yoritib berishi bilan muhimdir.

Asarning tarix bo'limida afsonaviy podshohlardan boshlab, tartib bilan turli davr va mamlakatlar maliklari, Umaviylar va Abbosiylar xalifaligi, islomgacha bo'lgan davrdagi Yaman tarixi, Rum va Yunon tarixi haqida mufassal ma'lumotlar keltirilgan. O'rta asrlarda odamlar jamoasini tabaqalarga bo'linishi ham shu bo'limda zikr etiladi.

An'anaviy bo'lmagan – "Arab bo'lmagan" ilmlar. Bu ilmlar qatorida birinchi bo'lib falsafa qayd etilib, unda ushbu ilm atamalarining sharhi bilan bir qatorda ilmlar tasnifi masalasi yoritilgan.

Arastuning mantiqqa oid kitoblari sharhi Xorazmiy asarining mantiq bo'limida o'z aksini topadi. Unda muallif Yaqin va O'rta Sharq hamda Markaziy Osiyodagi ushbu ilm haqidagi ma'lumotlar, oldinga surilgan ajoyib g'oyalardan foydalanib, ularni yanada boyitdi.

Asarning tabiiy ilmlarga oid bo'limlari o'rta asr Sharqida ilmiy yuksalish darajasini o'rganish nuqtai nazaridan nihoyatda ma'lumotlarga boydir. Tibga oid bo'limda kasalliklar, sodda va murakkab dorilar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu bo'limda o'sha davr tabobatida ma'lum bo'lgan va keng tarqalgan mijoz hamda qon tomiri urushiga qarab kasallikni aniqlash to'g'risidagi nodir tavsiflar berilgan.

Kimyo bo‘limida ham Xorazmiy o‘rta asr Sharqidagi kimyoviy bilimlar haqida nihoyatda qimmatli ma’lumotlarni keltiradiki, ular Sharqda tabiiy fanlar rivojini o‘rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Riyoziyot bo‘limida o‘rta asr Sharkidagi matematik ilmlar holati bayon etiladi. Al-Xorazmiy matematik tushunchani aqlning ixtiyoriy ijodi emas, balki obektiv olamning ma’lum tomonlari, predmetlar munosabatlarining in’ikosi deb talqin etadi.

Masalan, muallif Forobiy g‘oyalarini davom ettirib, arifmetikani ikkiga: nazariy va amaliyga ajratadi. U kub sonlar bilan bir qatorda shakliy sonlarni ko‘rib chiqish bilan nazariy arifmetikaning ba’zi bir tomonlarini boyitdi. Handasa ham nazariy va amaliy qismlarga bo‘linadi, bu esa o‘sha davrda uning boshqa riyoziyot ilmlari kabi yuqori darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Astronomiya bo‘limida uning vazifasi bilan birga tarixiga oid masalalar ham ko‘rib o‘tiladi.

Xorazmiy o‘z tasnifida musiqani riyoziyot ilmlariga qo‘shadi va unda musiqaviy asboblardan, tovushlarning o‘zaro mutanosibligi, tartibi, sozi(lad) tavsiflanadi va oxirida ritm haqidagi ta’limot ko‘rib chiqiladi.

Mexanika bo‘limida, og‘ir yuklarni va dalalarni sug‘orish maqsadida ishlatiladigan qurilmalar, ya’ni sodda mashinalar, ularning tuzilishi va vazifalari ustida to‘xtab o‘tiladi. Xorazmiy dunyoviy ilmlar ustida to‘xtaganda ularning amaliy ahamiyatini ochib berishga harakat qiladi.

Umuman, asarda Abu Abdulloh al-Xorazmiy o‘z davri tabiiy va riyoziyot ilmlarini yaxshi bilganligi, ularni nazariy falsafaga kiritish bilan bir tomondan, ularning ahamiyatini oshirish va ta’kidlash, ikkinchi tomondan, falsafani boyitishga intilganligi o‘z ifodasini topgan. Al-Xorazmiyning “Mavotih al-ulum” asari o‘rta asr madaniyati va ma’naviyatini o‘rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Ahmad al-Farg‘oniy (Taxminan 797–865 yillar)

O‘rta asrlarda yashagan Markaziy osiyolik olimlar orasida buyuk yutruq, matematik va geograf al-Farg‘oniy salmoqli o‘rin egalgaydi.

Olimning to‘liq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg‘oniydir. Manbalarda uning farg‘onalik ekanligidan tashqari deyarli boshqa ma’lumotlar saqlanmagan. Lekin shuni ham

e'tiborga olish kerakki, o'rta asrlarda musulmon o'lkalarida bo'lgan an'anaga binoan, mamlakat poytaxti yoki markazini ham mamlakat nomi bilan atashgan. Masalan, 995 yilgacha Xorazmning poytaxti bo'lgan Katni, keyingi poytaxti Gurganjni ham Xorazm deyishgan. Ba'zi arab mamlakatlarida bu odat hozir ham saqlanib qolgan. Misrning poytaxti Qohirani – Misr, Shom (Suriya)ning goytaxti Damashqni – Shom deyilishi shundan. Ana shu odatga ko'ra, o'rta asrlardagi Farg'ona vodiysining markaziy shahri Axsikatni ham Farg'ona deyishgan. Al-Farg'oniy Farg'ona vodiysining Qubo (Quva) qishlog'ida tug'ilgan. Shunisi ma'lumki, al-Farg'oniy xalifa Xorun ar-Rashidning sharqiy yerlaridagi muovini, o'g'li Abdullohning (bo'lajak xalifa al-Ma'munning) Marvdagi olimlari doirasiga kirgan. Ehtimol, Abdulloh yoshligidan bilimga chanqoq bo'lgani uchundir, 806 yili Marvga noyib bo'lib tayinlanganida, Movarounnahr, Xuroson, Xorazmdan olimlarni va iste'dodli yoshlarni to'play boshlagan. Bu olimlarning asosiy qismi Abdulloh u yerga kelganidan avvalroq to'plangan bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas, chunki Marv avvaldan, Sosoniylar davridanoq yirik ilmiy markaz hisoblangan. 651 yili eng so'nggi Sosoniy shahanshoh Yazdigard ibn Shahriyor arablar ta'qibidan qochib bu yerga kelganida poytaxtdagi kutubxona kitoblarini ham olib kelganligi ma'lum. Marv arablar qo'l ostida ham o'z mavqeini yo'qotmadi, aksincha to mo'g'ul isilosigacha o'sa bordi. Shunga ko'ra, uning IX asr boshida xalifalikning yirik ilmiy va madaniy markazi bo'lganligi tabiiydir.

Xalifa Xorun ar-Rashid 809 yili Tusda to'satdan vafot etadi va uning vasiyatiga ko'ra Bag'dodda taxtga katta o'g'li – Muhammad al-Amin nomi bilan o'tiradi. Saroydagi xurosonlik a'yonlar esa Abdullohni taxtni qo'lga olishga da'vat etadilar. 811 yildan 813 yilgacha aka-uka Muhammad va Abdulloh o'rtasida taxt uchun olib borilgan kurash Abdullohning g'alabasi bilan tugaydi va Muhammad qatl qilinadi. O'sha yili Abdulloh taxtga al-Ma'mun nomi bilan o'tiradi. Lekin u Bag'dodga bormay 819 yilga qadar Marvda yashaydi. Natijada, Marv 813 yildan to 819 yilgacha xalifalikning vaqtincha poytaxti bo'lib turadi. 819 yili al-Ma'mun butun saroy a'yonlari va ulamolari bilan birga Bag'dodga ko'chadi. Ular orasida al-Farg'oniy ham bor edi. Shunday bo'lsa ham al-Ma'mun qo'l ostida u tuzgan ilmiy markaz "Bayt ul-hikma"da ishlagan olimlar orasida al-Farg'oniyning nomi eslatilmaydi. Buning sababi, bizningcha, shunday

bo'lishi mumkin: u davrda xalifalikda ikkita rasadxona faoliyat olib borardi, biri Bag'dodning ash-Shammosiya mahallasida va ikkinchisi Damashq yaqinidagi Kasiyun tepaligida edi. Bu rasadxonalarning har birida «Bayt ul-hikma» olimlarining ikkita doimiy guruhlari ishlar edi. Ana shu olimlarning o'z rasadxonalari hojatidan kelib chiqib, ilmiy ekspedistiyalar uyushtirardilar va umumiy rahbarlik Bag'doddan turib boshqarilardi. Balki al-Farg'oniy Damashqdagi olimlar guruhida bo'lishi, al-Ma'mun uni Bag'dodga kelishi bilanoq u yerga yuborgan bo'lishi mumkin. Abu Rayhon Beruniyning bir xabari shunday taxminga asos bo'ladi. Uning aytishiga ko'ra, Bag'dod rasadxonasining ishida Yahyo ibn Abu Mansur, al-Xorazmiy va boshqa olimlar, Damashq rasadxonasida esa Xolid ibn Abdumalik va al-Farg'oniy bilan birga ikkinchi guruh olimlar ishlaganlar U shuningdek, al-Farg'oniyni Suriya shimolida, Sinjor sahrosida 832–833 yillar Tadmur va ar-Raqqa oraliq'ida er meridiani bir darajasining uzunligini o'lchashda ishtirok etganini ham aytgan.

Nihoyat, al-Farg'oniyni hayoti haqidagi eng so'nggi va eng aniq xabar 861 yil bilan bog'lanadi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, u shu yili Qohira yaqinidagi Ravzo orolida nilometrni, ya'ni Nil daryosi suvi sathini belgilovchi uskunani yasagan yoki ta'mirlagan. Biroq al-Farg'oniy qanday qilib va qanday sharoitda Misrga borib qolgani haqida ham aniq ma'lumot yo'q.

Ma'lumki, al-Ma'mun Marvdan Bag'dodga nafaqat olimlarni, balki g'ulomlari bo'lmish turk askarlarini ham olib kelgan edi. Bag'dodga kelishi bilan u ma'lum ma'noda lashkarni turklashtirdi: ana shu turk askarlaridan lashkarboshilar tayinladi. Turk g'ulomlaridan biri buxorolik To'lunni xalifa Suriya, Falastin va Misrdagi lashkarlarning amiri etib tayinladi. Uning o'g'li Ahmad esa Suriya va Misrni mustaqil deb e'lon qilib, To'luniylar sulolasiga asos soldi. Al-Xorazmiy xalifa al-Ma'munning yaqin odami va maslahatchisi bo'lgani kabi al-Farg'oniy ham To'luning yaqin odami yoki uning saroy ahli doirasidagi kishilardan biri bo'lganligi taxmin qilinadi. Bu holda al-Farg'oniyni Misrda paydo bo'lganidan ajablanmasa ham bo'ladi.

Al-Farg'oniy hayotining muddati haqida ham qiyoslar qilish mumkin. Agar uning hayotini al-Xorazmiyni hayoti bilan qiyos qilsak, quyidagi xulosaga kelamiz. Ma'lumki, al-Xorazmiyni nomi yozma manbalarda oxirgi marta 847 yili xalifa al-Vosiqning o'limi

munosabati bilan eslatiladi va shundan so‘ng uchramaydi. Shunga ko‘ra, uning o‘lgan yili deb 850 yil qabul qilingan. Al-Farg‘oniyning nomi oxirgi marta 861 yili Nilning sathini o‘lchagich uskunasi ta‘mirlash munosabati bilan eslatiladi. Yana bir ma‘lumotga ko‘ra, al-Farg‘oniy Misrda nasroniylar orasidayashab, ularning diniga o‘tganligi va shuning uchun u qatl qilinganligi qayd etiladi. Lekin qatl qilingan yili eslatilmaydi. Lekin bu al-Farg‘oniy o‘sha mashhur astronom al-Farg‘oniy mi yo boshqasimi, bu noma‘lum. Har holda al-Farg‘oniy 861 yildan keyin ko‘p yashamagan va uning o‘lgan (yoki qatl qilingan) yili deb 865 yilni qabul qilish mumkin. Agar u al-Ma‘mun bilan 819 yili Marvdan Bag‘dodga ketayotganda 20-25 yoshlar chamasida bo‘lgan desak, u holda uning tug‘ilgan yili deb 797 yoki 798 yilni qabul qilish mumkin. U holda uning hayot muddati 67–68 yoshni tashkil qiladi.

Al-Farg‘oniyning asosiy astronomik asari “Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi” (“Kitob al-harakat as-samoviya va javomi’ ilm an-nujum”) XII asrda Evropoda lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Yevropa tillariga ham tarjima qilinganidan so‘ng, uning lotinlashtirilgan nomi «Alfraganus» shaklida G‘arbda bir necha asr davomida keng tarqaladi. Uning bu kitobi shu asrlar davomida Evropo universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifasini o‘tadi. Al-Farg‘oniy asarining lotincha tarjimasi birinchi marta 1493 yilda nashr etilgan bo‘lib, u eng qadimgi nashr qilingan kitoblardan hisoblanadi. 1669 yili mashhur Golland matematigi va arabshunosi Yakob Golius al-Farg‘oniy asarining arabcha matnini yangi lotincha tarjimasi bilan nashr etganidan so‘ng, al-Farg‘oniy va uning asarining Evropodagi shuhrati yanada ortdi. Evropo uyg‘onish davrining buyuk namoyandalardan biri bo‘lgan mashhur olim Regiomontan XV asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyadan ma‘ruzalarni al-Farg‘oniy kitoblaridan o‘qigan. Al-Farg‘oniy nomini Dante (XV asr) va Shiller (XVIII asr) ham eslagan.

Evropo olimlaridan Dalambri, Brokelman, X. Zuter, I. Y. Krachkovskiy, A. P. Yushkevich va B. A. Rozenfeldlar al-Farg‘oniyning ijodini yuqori baholaganlar.

Hozirgi kunda al-Farg‘oniyning sakkiz asari ma‘lum bo‘lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador va birortasi hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan. Ular quyidagilardir: yuqorida tilga olingan asar, odatda uni “Astronomiya asoslari haqida kitob” nomi

bilan ham atashadi – qo‘lyozmalari dunyo kutubxonalarining deyarli barchasida bor. “Asturlab yasash haqida kitob” – qo‘lyozmalari Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida, “Asturlab bilan amal qilish haqida kitob” – birgina qo‘lyozmasi Rampurda (Hindiston), “Al-Farg‘oniy jadvallari” – qo‘lyozmasi Patnada (Hindiston), “Oyning Er ostida va ustida bo‘lish vaqtlarini aniqlash haqida risola” – qo‘lyozmasi Qohirada, “Etti iqlimni hisoblash haqida” – qo‘lyozmalari Gotada va Qohirada, “Quyosh soatini yasash haqida kitob” – qo‘lyozmalari Halab va Qohirada saqlanadi. “Al-Xorazmiy Zijining nazariy qarashlarini asoslash” asari Beruniy tomonidan eslatiladi, lekin qo‘lyozmasi topilmagan.

Al-Farg‘oniyning bu ro‘yxat boshidagi ikki asaridan boshqalari hali hech kim tomonidan o‘rganilmagan. Shubhasiz, ular o‘rganilib tahlil qilinishi bilan al-Farg‘oniy ijodining yangi qirralari ochiladi va olimning o‘rta asrlarda, undan keyin Sharq va G‘arbda bu qadar mashhur bo‘lishi sabablari ham ayon bo‘ladi.

Aytganimizdek, mazkur asarlarning birinchisi 1145 yildan boshlab lotin tiliga bir necha marta tarjima qilingan. Bu tarjimalarning barchasida al-Farg‘oniy ismi lotinchada «Alfraganus» shaklida yozilib, shu shaklda fanga abadiy kirib qoddi.

Al-Farg‘oniyning bu asari astronomiyadan eng sodda darslik bo‘lib, unda murakkab geometrik shakllar va matematik formulalar, hisoblashlar keltirilmagan. Bu esa astronomiyadan boshlang‘ich ma‘lumotlarni o‘zlashtirishni ancha osonlashtirgan. Balki buyuk Regiomontan asarning shu xususiyatini anglab, o‘zining universitetlardagi ma‘ruzalari uchun qo‘llanma sifatida al-Farg‘oniyning ana shu asarini tanlagandir.

Shunday qilib, buyuk ajdodimizning bu asari Yevropa uyg‘onish davridagi va undan ancha keyingi davrdagi madaniyat rivojida sezilarli rol o‘inadi. Asarning iqlimlar nazariyasiga ko‘ra, bayon qilingan geografik bo‘limi diqqatga sazovordir. Mamlakat va shaharlarning nomlariga qaraganda, al-Farg‘oniy al-Xorazmiyning geografik asari bilan tanish bo‘lgan yoki u ham al-Xorazmiy foydalangan manbadan foydalangan, chunki ikkala muallifda ham bu nomlar bir xil.

Geografik bo‘lim (9-bob) bunday atalgan: “Yerdagi ma‘lum mamlakatlar va shaharlarning nomlari va har bir iqlimdagi narsalar haqida”. Bundan so‘ng, etti iqlimning hammasi ulardagi mamlakatlar,

viloyatlar va shaharlari bilan birga tavsiflanadi. Shuni ham aytish kerakki, oʻrta asrlarda arab tilida yozilgan geografik asarlarning eng birinchisi al-Xorazmiyning “Kitob surat-ul-arz” asari edi. Unda al-Xorazmiy etti iqlimdagi dengizlar, mamlakatlar, togʻlar, daryolar, koʻllar va shaharlarning tavsifini keltirgan edi. Bunda u tavsifni rubʼi maʼmurning eng gʻarbiy chekkasidan, yaʼni Afrikaning Atlantika okeani qirgʻogʻiga yaqin joylashgan orollardan boshlab, eng sharqiy chekkasigacha, yaʼni Tinch okeanidagi Yaponiya orollarigacha davom ettiradi. Tavsif kenglama yoʻnalishida ekvatorial yerlardan to shimoliy qutubiy yerlargacha davom etadi.

Iqlimlarning al-Fargʻoniy keltirgan tavsiflash usuli al-Xorazmiyninidan farq qiladi. Al-Xorazmiy oʻzining tavsiflash usulida Ptolemey anʼanasiga asoslangan boʻlsa, al-Fargʻoniy hindlarning anʼanasiga asoslanib, rubʼi maʼmurning tavsifini eng sharqiy chekkasidan boshlaydi. Uning iqlimlar tavsifida 3, 4, 5, 6, va 7-iqlimlarning tavsifi diqqatga sazovordir. Chunki bularda Markaziy Osiyoning va unga tutash yerlarning shahar va viloyatlari tavsiflanadi. Shuning uchun quyida oʻsha tavsiflarni oʻz ichiga olgan parchani keltiramiz.

“Uchinchi iqlim Sharqdan boshlanib, Xitoy mamlakatining shimolidan, soʻng Hind mamlakatidan va soʻngra Qobul va Kermon viloyatlaridan oʻtadi.

Toʻrtinchi iqlim, Sharqdan boshlanadi va Tibetdan, soʻngra Xurosondan oʻtadiki, bunda Xoʻjand, Usrushona, Fargʻona, Samarqand, Balx, Buxoro, Hirot, Amuya, Marvarrud, Marv, Saraxs, Tus, Nishopur shahaʼrlari bor. Undan soʻng Jurjon, Qumis, Tabariston, Demovand, Qazvin, Daylam, Ray, Isfahondan oʻtadi.

Beshinchi iqlim Sharqda Yajuj mamlakatidan boshlanadi, soʻng Xurosonning shimolidan oʻtadi, unda Toroz shahri – savdogarlar shahri bor, Navokat (Navkat), Xorazm, Isfijob (Sayram), Turar-band (Oʻtror-hozirgi Aris) va Ozarbayjon, Arminiya (Armaniston) viloyati, Bardaʼa (Barda), Nashava (Naxchivon) shaharlari bor.

Oltinchi iqlim Sharqdan boshlanadi va Yajuj mamlakatidan oʻtadi, soʻng Xazar mamlakatidan (Shimoliy Kavkaz va Quyi Volgaboʻyi), Jurjon (Kaspiy) dengizining oʻrtasidan kesib oʻtadi va Rum (Vizantiya) mamlakatigacha boradi.

Ettinchi iqlim Sharqda Yajuj mamlakatining shimolidan boshlanadi, soʻng turkiy mamlakatlardan (Markaziy Osiyo), soʻng

Jurjon dengizining shimolidan, so‘ng Rum dengizini (Qora dengiz) kesib, slavyanlar mamlakatidan o‘tadi va G‘arb dengizida (Atlantika) tugaydi”.

Keltirilgan parchadan ko‘rinadiki, al-Farg‘oniy katta kenglikdagi o‘lkalarni tavsiflagan bo‘lsa ham, o‘zining asl vatani Movarounnahrni mufassalroq tavsiflagan. Undan tashqari shuni ham ta‘kidlash kerakki, al-Farg‘oniyning rub‘i ma‘mur haqidagi tasavvuri ancha aniq bo‘lib, har xil afsonaviylikdan xolidir. Chu-nonchi, u Yajuj mamlakati deb Sharqdagi afsonaviy yerni emas, balki hozirgi Mug‘ulistonning sharqi va Xitoyning shimoli-sharqiga mos keladigan aniq geografik hududni aytgan.

Farg‘oniyning nomi Xorazmiy kabi butun Sharq va G‘arbda mashhurdir. O‘rta asrda tabiiy-ilmiy bilimlarning rivojiga ulkan hissa qo‘shgan olim sifatida manbalarda, so‘nggi G‘arb va Sharq mualliflari asarlarida, o‘z yurti O‘zbekistonda, ayniqsa, zo‘r g‘urur va iftixor bilan tilga olinadi, o‘rganiladi, hozirgi kunda ko‘cha-lar, o‘quv yurtlariga uning nomi berilgan. 1998 yidda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan allomaning 1200 yillik tavallud sanasi katta tantanalar bilan nishonlandi.

Ahmad al-Marvaziy (770-870)

Bag‘dod ilmiy maktabida faoliyat ko‘rsatgan yirik astronom va matematiklardan yana biri Ahmad al-Marvaziy bo‘lib, u “Habash hisobchi” laqabi bilan tanilgan. Uning ismidagi Al-Marvaziy so‘zi muallifning O‘rta asrlarda hozirgi Turkmanistonning Bayram Ali shahri yaqinidagi Marvdan ekanini ko‘rsatadi.

Olimning hayoti va ba‘zi asarlari o‘rta asr mualliflaridan Ibn an-Nadim, Ibn-al Kiftiy va Hoji halifalar tomonidan zikr etilgan. Jumladan, Ibn an-Nadim uni yuz yildan ortiq yashagan deb ma‘lumot beradi. Va muallif tomonidan yozilgan yetti kitobning nomini keltiradi.

Ibn al-Kiftiy esa Ahmad al-Marvaziy asli Marvdan bo‘lib, xalifa al-Ma‘mun va al-Mu‘tasim zamonida Bag‘dodda faoliyat ko‘rsatganini aytadi. Fan tarixiga oid bibliografik kitoblarda olimni 770-870 - yillar mobaynida yashab o‘tgan, deb taxmin qilinadi.

Ahmad al-Marvaziy “Astronomik jadvallar”, ”Damashq ziji” (bu zij Bag‘dod shahri uchun tuzilgan) va “al-Ma‘munng sinalgan jadvali” asarlarining muallifidir.

Ibn al-Kiftiy, al-Marvaziy “Shoh uchun zij” nomli yana bir kichik hajmdagi risolaning ham muallifi, deb ko‘rsatadi. Bu risola yuqorida zikr etilgan zijlarning birortasi bo‘lishi ham mumkin. ”Damashq ziji ” hozirda Istanbulda saqlanmoqda. Muallif o‘zining bu asarini o‘sha davrda “Sindhind” nomi bilan mashhur bo‘lgan hind astronomik jadvallarni qayta ishlash asosida yozgan. Undagi ba‘zi masalalar Ibrohim al-Fazariy , Muhammad al- Xorazmiyning zijlaridan farqlanadi.

Olimning Bag‘dod shahri uchun yozgan ikkinchi “Zij” asari Berlinda saqlanadi. Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” va “Geodeziya” asarlaridagi ma‘lumotlarga qaraganda, bu kitob keyingi davr astranomlari tarafidan hurmat bilan tilga olingan.

Uchinchi - “al-Ma‘munning sinalgan jadvali ” ga kelsak, bu astronomik jadvallar o‘z vaqtida katta shuhrat qozongan. Avvalgi boblarda ta‘kidlaganidek xalifa al- Ma‘mun bir guruh olimlarga, yunon astranomlarining kitoblarida keltirilgan ma‘lumotlarni tajribalar asosida qaytadan tekshirib chiqish vazifasini yuklagan va tajriba samarasi o‘laroq al-Ma‘munning tekshirilgan Zij asari dunyoga keldi.Unda o‘sha davr astronomiyasining barcha yutuqlari o‘z aksini topgan. Mazkur Zij o‘rta asr manbalarida ba‘zan Yahyo ibn Mansurga, ba‘zan esa Ahmad al-Marvaziyga, yoyinki o‘sha davrning boshqa astronomlari qalamiga mansub, deb keltiriladi. Bundan asarning yaratilishida ko‘pchilik ishtirok etgan bo‘lishi kerak, degan xulosa kelib chiqadi. Mutaxassislar al-Ma‘munning Zij asarni Yahyo ibn Mansur boshlab, Ahmad al-Marvaziy yakunlagan bo‘lishi kerak, deb taxmin qiladilar.

Umuman, al-Marvaziy al-Ma‘mun davrida olib borilgan tajriba va ilmiy tadqiqotlarda faol ishtirok etgan olimlardan bo‘lgan. Xususan, u 832-833-yillarda Sinjar dashtida yer meridianining bir darajasini o‘lchash ishlarida ham qatnashadi.

Al-Marvaziyning 20 ga yaqin asarlari ichida biz astronomik jihozlar- usturloblar, quyosh soatiga bag‘ishlangan risolalarni uchratishimiz mumkin. Afsuski, ularning ko‘pchiligi bizgacha yetib kelmagan.

Olim falakiyot sohasida ma'lum muvaffaqiyatlarga erishgan, shuningdek , u trigonometriya fani rivojiga ham salmoqli hissasini qo'shgan. Fikrimizni al- Marvaziyning fanga birinchi bo'lib olib kirgan tangens va kotangens tushunchalari va ularning funksiyaviy jadvallari asoslaydi. Olim o'z asarlarida bayon qilgan tangens, va kosekans kotangens tushunchalari trigonometriya rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar.

1. Muso Xorazmiyning dunyo faniga katta hissa qo'shishi
2. Abu Abdulloh Xorazmiy va uning "Ilmlar kaliti" asari
3. Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniy O'rta Osiyolik mashhur mutafakkir alloma
4. Ahmad al-Marvaziyning Bog'dod ilmiy maktabida tutgan o'rni.

3 – MAVZU. IMOM AL-BUXORIY VA ABU ISO MUHAMMAD ATTERMIZIYLARNING HAYOTI VA ILMY MEROSI

Reja

1. Hadis ilmining rivojlanishidagi oltin davr
2. "Amir al – Mo`miniyn" – Imom Buxoriy va uning boy ilmiy merosi
3. Abu Iso Muhammad atTermiziylarning hayoti va ilmiy merosi
4. Milliy istiqlol davrida allomalar ilmiy merosiga munosabat

Tayanch so'z va iboralar: al-Mug'iyra, Bardazbeh , Bazazbehd, "At-Tarix al-kabir", shayx, mashoyix, hadis, rivoyat, Hijoz , Makka, Madina, Jidda

Imom al-Buxoriy (810-870)

Hadis ilmining rivojidagi oltin davr hisoblangan hijriy uchinchi (milodiy to'qqizinchi) asrda hadisshunoslikda kata muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilgan. Chunonchi, butun musulmon dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to'plamining (as-sihoh as-sitta) mualliflari yashab ijod qilganlar. Yana shunisi

diqqatga sazovorki, mazkur olti muhaddisning deyarli hammasi Markaziy osiyolik bo‘lib, ular; Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjoj (206/819-261/874), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (209/824-279/892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy (202/817-275/880), Imom Ahmad An-Nasoiy (215/824-273/886), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazib ibn Mojja (209/824-273/886) kabi siymolardir. Shular ichidan “Hadis ilmida amir al mo‘miniyn” degan sharaflı nomga sazovor bo‘lgan Imom al-Buxoriy alohida e‘tiborga molik buyuk olimdir. Imom al-Buxoriyning ismi Muhammad, kunyasi Abu Abdulloh, laqabi ba‘zan imom al-muhadstisiyn mo‘mi-niyn fi-l-hadis (hadis ilmining amiri, sultoni) va nasabi Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug‘iyra ibn Bardazbeh ibn Bazazbehdır. So‘nggi ikki ismi – ibn Bardazbeh ibn Bazazbehdan ko‘rinib tu-ribdiki, imom al-Buxoriyning asl nasabi ajamlarga borib taqaladi. Bu fikr talay adabiyotlarda qayd qilingan bo‘lib, ko‘pchilik muhaddislarning ta‘kidlashlaricha, «Bardazbeh» so‘zi arabcha «zori» (ziroat, dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi kishi) ma‘nosini bildiradi.

Imom al-Buxoriyning otasi Ismoil edi. Uning kunyasi Abul-Hasan bo‘lib, o‘z davrining yyetuk muhaddislaridan, imom Molikning shogird va ashoblaridan biri hisoblangan, tijorat ishlari bilan ham shug‘ullangan. Afsuski, hozircha uning qalamiga mansub biror asar haqida aniq ma‘lumotga ega emasmiz. Biroq uni Hamad ibn Zayd, imom Molik, Abu Muoviya kabi yirik muhaddislardan hadislar rivoyat qilgani, Abdulloh ibn al-Muborakning suhbatida bo‘lib, undan ta‘lim olgani haqidagi ma‘lumotlar manbalarda keltiriladi. Uning shogirdlaridan esa iroqlik olimlar - Ahmad ibn Hafs, Nasr ibn Husayn va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Imom al-Buxoriy “At-Tarix al-kabir” (“Katta tarix”) asarida otasining tarjimai holi haqida talay ma‘lumotlar beradi. Tarixchi al-Hofiz ibn Hibbon o‘zining “Kitob as-siqqot” (“Buyuk insonlar haqida kitob”) nomli asarida Ismoil ibn Ibrohim, ya‘ni al-Buxoriyning otasi “Hamad ibn Zayd va Molikdan hadislar rivoyat qilgan, undan esa iroqlik olimlar hadislar naql qilganlar”, – deya ta‘kidlaydi.

Manbalarda zikr qilinishicha, Ismoil o‘ta taqvodor, xudojo‘y, halol bir inson bo‘lgan. Tarixchilarning yozganlari bu fikrimizga dalildir. “Abu Abdulloh (imom al-Buxoriyning otasi) bandalikni bajo keltirayotgan chog‘ida uni ziyorat qilganimda, menga u: “Bor molu

dunyomdan harom yo‘l bilan, shubhali, nopok yo‘l bilan topilgan bir dirhamni ham bilmayman”, deb iltijo qilganida mening nafasim bo‘g‘ilib, butun vujudim uning ulug‘vorligidan hech narsaday tuyuldi”, – deb yozadi. Mazkur kitobda, shuningdek, imom al-Buxoriyning otasiga xos bo‘lgan yana bir qancha asl insoniy fazilatlar va uning alohida xususiyatlari ham qayd etiladi.

Imom al-Buxoriyning onasi ham taqvodor, diyonatli va har xil karomatlar sohibasi, g‘oyatda oqila, fozila ayol sifatida tanilgan edi. Ma’lumki, imom al-Bu-xoriyning yoshligida ko‘zi jarohatlanib, ko‘rish qobiliyati susaygan, har qancha urinishsa ham, tabiblar uni davolay olmagandilar. Kunlardan bir kuni al-Buxoriyning onasi tushida Ibrohim (s.a.v.)ni ko‘rganda u zoti sharif bu mushfiqa onaga qarab: “Ey, volida! Sening duolaringning bardavomligidan Alloh taolo o‘g‘lingga to‘liq ko‘rish qobiliyatini qaytardi”, – deya xitob qilganlar. Keyin u: “Uyqumdan uyg‘onsam, o‘g‘lim Muhammadning ko‘z nuri to‘liq qaytib, tuzalib ketibdi”, – degan rivoyat mavjuddir. Abu Ali al-G‘assoniy degan olim: “Muhammad ibn Ismoilning yoshligida ko‘zi ojiz bo‘lib qolgan. Uning onasi taqvodor ayol bo‘lib, tushida Ibrohim Xalilullohni ko‘rganda, u: “Ko‘p duolar qilib yig‘laganingdan Alloh taborako va taolo o‘g‘lingning ko‘zini qaytardi”, – degan. Ona: “Ertalab uyg‘onsam, Alloh o‘g‘linga ko‘rish qobiliyatini qaytarganini ko‘rdim”, degan ma’lumot bilan yuqoridagi rivoyatni aynan qaytaradi.

Imom al-Buxoriy ilm-fan va madaniyat ravnaqida azaldan mashhur bo‘lgan Buxoro shahrida tavallud topgan. Mana shu muhtasham shahar – Buxoroi sharifda 194 hijriy sana, shavvol oyining 13-kunida salotul-jum‘adan keyin (810 milodiy sana, 21 iyul) jami muhaddislarning imomi, Payg‘ambar (s.a.v.)ning muborak hadislariga durdonasimon sayqal berib, ularni abadul-abad barhayot qilgan ulug‘ zot imom al-Buxoriy dunyoga kelgan.

Mutafakkir Abdurahmon Jomiy mashhur muhaddisning ilmiy-ijodiy salohiyatiga yuksak baho berib, “Batxa (Makka) va Yasrib (Madina)da yasalgan tangananing sayqali Buxoroda kamoliga etdi”, – deb yozgan edi. Ma’lumki, manbalarda o‘rta asrlarning bir qator donishmandlari tavallud topgan oylar va kunlar tugul, hatto, yillarida ham aniqlik bo‘lmay, xilma-xil ma’lumotlar ko‘rsatilgan hollar bot-bot uchraydi. Imom al-Bu-xoriyning tugilgan vaqti (kuni, oyi, yili) aniq keltirilishining boisi shundaki, allomaning o‘zi yozishicha, u

tugʻilgan vaqt haqida otasi oʻz qoʻli bilan yozib qoʻygan varaq zamondoshlariga etib kelgan.

Imom al-Buxoriy yoshligidayoq otasi vafot etib, bolaning tarbiyasi volidasi zimmasida boʻlgan. Birmuncha ulgʻayib aqli raso boʻlgach, uning qalbida islomiy ilmlarga, ayniqsa, Paygʻambar (s.a.v.)ning muborak hadislarini oʻrganishga va yodlashga moyillik tobora kuchaya boradi. U dastavval Ibn al-Muborak va Vakiyʻning hadislarga oid asarlarini yod oladi. Imom al-Buxoriyning kotibi, uning asosiy tasnifi “Sahih” asari roviylaridan biri boʻlmish Abu Jaʻfar Muhammad ibn Abu Hotam al-Varroq shunday deb yozadi: Al-Buxoriyning hadislarni yod olish ilhomi menga boshlangʻich maktabda oʻqiyotganimda kelgan edi, – deganini eshitganimda, Oʻshanda necha yoshda edingiz? – deb soʻradim. U Oʻn yoshda, balkim undan ham kichik edim, – deb javob bergandi. Bu misoldan koʻrinib turibdiki, imom al-Buxoriy juda yoshligidan boshlab hadislarni yod olib, bu mashgʻulotga alohida zavq-shavq va qiziqish bilan qaragan.

Allomaning ustozlari haqida gapiradigan boʻlsak, u, eng avvalo, oʻsha paytda Buxoroning taniqli muhaddislaridan sanalgan ad-Doxiliydan saboq olgan. Hadis-larni oʻrganish boʻyicha ushbu olim tashkil etgan toʻgarakning shuhrati keng tarqalgan boʻlib, uning faoliyati yoyilib ulkan samaralar bergan.

Kunlardan bir kuni ad-Doxiliy oʻz odaticha talabalarga saboq berar, al-Buxoriy ham boshqa tolibi ilmlar qatori dars tinglab oʻtirgan edi. Shunda ad-Doxiliy bir hadis isnodi haqida gapirib Sufyon Abu Zubayrdan, u Ibrohimdan, – deb zikr qildi. Shunda al-Buxoriy: Abu Zubayr hech vaqt Ibrohimdan rivoyat qilmagan, – dedi va bu bilan u ad-Doxiliyni bu sanad xususidagi xatodan ogoh qilmoqni istadi. Oʻz shogirdidan bu gapni eshitgan ad-Doxiliy esa hayratga tushib, dagʻallik bilan uning soʻzini boʻldi. Al-Buxoriy oʻta xotirjamlik bilan “Ustoz, agar ishonmasangiz asl manbaaga qarang”, – dedi. Ad-Doxiliy manbaga qarab, shogirdi aytgan gapning toʻgʻriligini eʼtirof qilib, tan oldiyu lekin oʻsha hadis sanadini qogʻozda tuzatishni paysalga soldi. Ragʻbat yuzasidanmi yoki uni sinab koʻrish uchunmi, xullas, sanadni topib tuzatish masalasini al-Buxoriyning oʻziga tashladi. Tashqariga chiqishgach, shogirdidan «E, bola, bu yogʻi endi qandoq boʻladi? – deb soʻradi. Al-Buxoriy esa hech bir kuttirmay ustoziga javob qildi: “Zubayr ibn Adiy Ibrohimdan rivoyat qilgan”.

Shundan keyin u (ad-Doxiliy) qalam olib yozganini tuzatdi va “Sen Haqsan – dedi. Al-Buxoriyning aytishicha, bu vaqtda u bor-yo‘g‘i o‘n bir yoshda bo‘lgan.

Manbalarda keltirilishicha, al-Buxoriyga o‘n yoshi-dan boshlab hadislarni yod olish ilhomi nasib etgan bo‘lsa, yoshi ulg‘aygan sari bu istak tobora kuchayib, u iafaqat hadislarni shunchaki yod olish, balki yoshligidan boshlab hadislarni sahih (to‘g‘ri, ishonchli) va g‘ayrisahih (xato, noto‘g‘ri)larga ajratish, ularning illat-larini anikdash, hadis roviylari ma‘lumotlarining to‘g‘riligi, ishonchli yoki ishonchsizligi, roviylarning maishiy hayoti, yashash joylari, tug‘ilgan va vafot etgan sanalari, bir-birlari bilan o‘zaro muloqotlari tafsilotini bilish, turli roviylar keltirgan hadislarni bir-biriga solishtirib muqoyasa qilish, ularning bir-birlari bilan o‘zaro bog‘liqligi yoxud uzilishlar mav-jud holatlar, hadis ilmining yana boshqa xilma-xil muammolarini chuqur tadqiq yetish, hadislarni saralab jamlash va Qur’oni karim oyatlari bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganish kabi masalalarga qiziqdi.

Imom al-Buxoriy o‘z vatanida va xorijiy yurtlarda mingdan ortiq ustoz (shayx, mashoyix)lardan hadis rivoyat qilgani haqida manbalarda aniq ko‘rsatilgan.

Al-Buxoriyning ilk ustozlari sifatida o‘sha davrda Buxoroda ko‘zga ko‘ringan muhaddislardan Muhammad ibn Salom al-Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf al-Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy, Ibrohim ibn al-Ash’as va boshqalarni ham ko‘rsatish lozim. O‘n olti yoshga etmasdanoq u ko‘pdan-ko‘p hadislarni puxta o‘zlashtirib, Abdulloh ibn al-Muborakning kitoblarini yod oldi. Tez fursatda al-Buxoriyning noyob qobiliyati va zukkoligi ko‘pchilik ulamolar tomonidan, shuningdek, al-Buxoriyga ustozlik qilgan yetuk muhaddislar tomonidan ham e’tirof etila boshlandi. Bu hol shu darajaga yetdiki, hatto ayrim taniqli olimlar ham al-Buxoriyning o‘z darslarida hozir bo‘lishidan tashvishlanib, uning huzurida biror xato yoki kamchilikka yo‘l ko‘yishdan xavotirlanadigan bo‘lib qoldilar. Ular o‘z kitoblaridagi xatolarni tuzatish uchun al-Buxoriyga murojaat qilardilar. Manbalarda keltirilishicha, al-Buxoriy hadislar talabida xorijiy yurtlarga safarga chiqishidan oddin bir voqea sodir bo‘lgan ekan. Bu haqda buxorolik olim Salim ibn Mujohid shunday hikoya qiladi: Bir kun do‘stim Muhammad ibn Salom al-Poykandiyning uyiga borgan edim, u

menga “Biroz oldinroq kelganingda, etmish ming hadisni yod biladigan bir bolakayni ko‘rar eding-a”, – dedi. Men shu zahoti orqamga qaytib, ko‘chaga chiqdim va o‘sha bolani uchratib, Yetmish ming hadisni yod bilaman, deydigan bola sen-misan?” – deb so‘rasam, u “Ha, balkim undan ham ortiq-rog‘ini bilaman”, – dedi. U yana: “Men sahobalar va tobi‘iylardan, toki ularning ko‘plarini tavallud va vafotlari, ularning maskanlarini aniq bilmagunimcha, birorta ham hadis rivoyat qilmayman. Shuningdek, sahobalar va tobi‘iylarning har bir hadisini Qur‘oni karim va Payg‘ambar (s.a.v.)ning hadislariga tayangan hodda rivoyat qilaman”, – dedi.

Salim ibn Mujohidning ushbu so‘zlari ham al-Buxoriyning yoshligidan boshlab o‘ziga puxta ishonchi va mas‘uliyati bo‘lgani, shu tufayli el orasida obro‘-e‘tibor topganiga dalildir. Muhammad ibn Salom al-Poykandiyning “Muhammad ibn Ismoil qachon mening huzurimga kirsa, har doim men o‘zimni yo‘qotib qo‘yib, doim undan xavotirda turaman”, – degan e‘tirofiga qo‘shimcha, al-Hofiz ibn Hajar: “Uning (al-Buxoriy-ning) huzurida xato qilib qo‘yishdan u qo‘rqar edi”, – deb bu holni yanada oydinlashtiradi. Muhammad ibn Salom al-Poykandiy bilan bog‘liq bu voqealar hali al-Buxoriyning ilmi Buxorodagi o‘z ustozlari darajasida ekanidayoq sodir bo‘lgani, qolaversa, imom al-Buxoriy Buxorodan jo‘nab ketgandan keyin al-Poykandiy u bilan boshqa uchrashmaganini hisobga olsak, ta‘kidlamog‘chi bo‘lgan fikrimiz yanada aniqlashadi, deb o‘ylaymiz...

Azaldan muhaddislar orasida arabcha “rihlat” istilohi biror hadisni bilish yoki isnodni oliy darajasiga etkazish maqsadida yo‘lga chiqqan insonning safariga nisbatan ishlatilar ekan. Ilm yo‘lidagi fidoyilik, bu yumushga butun vujudiyu akd-zakovatini, bor imkoniyu himmatini baxshida etish, aql bovar qilmas darajadagi quvvai hofizasi va boshqa fazilatlari imom al-Buxoriyni islom dunyosining buyuk allomalaridan biri sifatida tanitdi. Imom al-Buxoriy rivoyat qilgan hadislarining roviylari ko‘p hollarda hatto imom Molik va imom Abu Hanifaning ustozlari (shuyux) toifasiga kiradi. Bu fikrni ko‘plab muhaddislar bir ovozdan qo‘llab- quvvatlaganlar.

Demak, imom al-Buxoriy o‘n olti yoshga etguncha o‘z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib, ulardan saboq oladi. Mana shundan keyin islomiy ilmlarning mar-kazi, Payg‘ambar (s.a.v.)ning vatani, Qur‘oni karim nozil bo‘lgan muqaddas diyori - Rasululloh sahobalarining maskani Hijozi sharif tomon ravona bo‘ldi. Bu xususda imom al-

Buxoriyning kotibi Ibn Abu Hotam al-Varroq zikr qilishicha, al-Buxoriy doimo shunday deyar ekan: «Qachonki o‘n olti yoshni urganimda (so‘zma-so‘z «ta’ntu») Ibn al-Muborak va Vakiy’ning kitoblarini yod etib, so‘ngra «ana ularni», ya’ni ashobu-r-ray kalomlarini bilib olgan edim. So‘ngra onam va akam Ahmad bilan haj ibodatini ado etish uchun safarga jo‘na-dim». Al-Varroqning bu gaplaridan ma’lum bo‘layotir-ki, imom al-Buxoriy birinchi marta safarga 825 yilda chiqqan. Mana shu yili u yaqinlari bilan Makkai mukarramaga etib kelib, Haj ibodatini ado etgandan so‘ng onasi va akasini Buxoroga qaytarib yuborib, o‘zi Makkada qoldi va bu muqaddas shahar mashryixlarining il-miy yig‘inlariga qatnasha boshladi. O‘sha paytda Mak-kada bir qancha ko‘zga ko‘ringan ulamolar istiqomat qila-yotgan bo‘lib, ular ichida hadis ilmi sohasida mashhurla-ridan imom Abul Valiyd ibn al-Arzaqiy, Abdulloh ibn az-Zubayr va alloma al-Hamidiylarni ko‘rsatish mum-kin. Shuningdek, yana bir qancha taniqli olimlardan ham imom al-Buxoriy hadis ilmi bo‘yicha saboq oladi. Makkai mukarramada ikki yilcha yashagandan keyin u Madinai munavvaraga tomon yo‘l oladi. Jumlai jahondan ilm toliblari nabaviy (Payg‘ambarimiz haqidagi) ilmlarni o‘rganish uchun bu mo‘tabar shaharga oqib kelardilar. Imom al-Buxoriy 827 yilda, o‘n sakkiz yoshida Payg‘ambar (s.a.v.S)ning ravzai muboraklari qo‘yilgan Madinaga etib keldi. Shu paytda shaharda ko‘zga ko‘ringan mashhur ulamolardan Ibrohim ibn al-Munzir, Mut-rif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza, Abu Sobit Muhammad ibn Ubaidulloh, Abdulaziz ibn Abdulloh al-Uvaysiy singari yetuk olimlar faoliyat ko‘rsatardilar. Imom al-Buxoriy ushbu ulamolar bilan muloqotda bo‘lib, , ulardan ko‘pdan-ko‘p saboq oddi. Hijozi sharifga qil-gan bu rihlati asnosida bo‘lg‘usi alloma o‘zining dastlabki asari «At-Tarix al-kabir» («Katta tarix»)ning qoralamasini tugatdi. Qator tarixchilarning ta’kid-lashicha, imom al-Buxoriyning Hijoz (Makka), Madina, Toif, Jiddaga qilgan bu rixlati olti yil davom etgan. Shu bilan birga, bu muddat uzluksiz bo‘lmay, imom al-Buxoriy shu vaqt ichida boshqa yondosh mamlakatlarga ham safar qilgani qayd etiladi.

Shundan keyin, al-Buxoriy Basra (Iroq) shahriga qarab yo‘l oladi. O‘sha paytda Basra ham Sharqning e’ti-borli ilmiy markazlaridan biri bo‘lib, bu erda, xusu-san, hadislarni o‘rganish keng quloch yoygan edi. Basrada u imom Abu Osim an-Nabiyl, Safvon ibn Iso, Badal ibn Ar’ara, Sulaymon ibn Harb, Abul Valiyd at-Tayo-lisiy,

A'rim va Muhammad ibn Sinon kabi ulamolar-dan saboq olib, o'z bilimini oshirdi. Shu asnoda imom al-Buxoriy Basraga

hammasi bo'lib to'rt marta borib keldi. Uning o'zi doimo: «Basraga to'rt marta rihlat qilganman», – deb ta'kidlardi. Shundan so'ng u Kufaga safar qildi va bu shaharda ham bir necha bor bo'ldi. Shuningdek, Bag'dodni ham bir necha marta ziyorat qilga-ni ma'lum. Mazkur safarlar xususida kotibi al-Var-roq uning quyidagi so'zlarini keltiradi: «Kufa va Bag'dodga muhaddislar bilan uchrashishga necha marta borga-nimning hisobini ham bilmayman». Tarixchi olim an-Navaviy o'zining “Tahziybul-asmoi val-lug'a” nomli kitobida imom al-Buxoriyning Kufadagi ustozlaridan quyidagilarni zikr qilgan: Abdulloh ibn Muso, Abu Na'iy Ahmad ibn Yaqub Ismoil ibn Abon, al-Hasan ibn Rabi', Xolid ibn Muxallad, Sa'iyd ibn Xafas, Talaq ibn G'unam, Umar ibn Xafas Urva, Qabiysa ibn A'qba va Abu G'asson. Kufaning taniqli olimlari – ustozlarining rivoyatlari ishonchli va isbotli ekanligiga ishonch hosil qilgach, imom al-Buxoriy ulardan hadislar yozib olgan. Abbosiylar xalifaligining poytaxti bo'lmish Bag'dodda dunyoning turli tomonlaridan kelgan ko'plab fozillar to'plangan edi. Shu boisdan bo'lsa kerak, imom al-Buxoriy ham, yuqorida aytib o'tganimizdek, Bag'dodda bir necha marta bo'lgan va u erda katta hurmat bilan kutib olingan. Bu shahardagi ustozlari imom Ahmad ibn Hanbal, Muhammad ibn Iso as-Sabbo, Muhammad ibn Soiq, Shurayh ibn an-Nu'mon va boshqalardan saboq olgan. Imom Abu Ali al-G'assoniy “Ta'qid al-muhmal” nomli asarida: «Imom al-Buxoriy oxirgi marta (hammasi bo'lib u Bag'dodda sakkiz marta bo'lgandi) Bag'dodni tark etib qaytayotganda, imom Ahmad ibn Hanbal u bilan xayrlashar ekan, g'oyat hasratu alam bilan: “Ilm va muxlislarni (an-nos) tashlab, Xurosonga ketasanmi?” – deb zorlangan edi. Oradan yillar o'tib Buxoro hokimi Abu Tohir az-Zuhliy imom al-Buxoriyga qarshi fitna uyushtirib, uni ona yurti Buxorodan badarg'a qilish niyatida turli-tuman bo'htonu tuhmatlar to'qiganida imom al-Buxoriy Ahmad ibn Hanbalning o'sha so'zlarini eslab, ko'p nadomatlar chekkan va “Ahmad ibn Hanbalning so'zlari ma'nosiga endi tushundim”, – deb afsuslangandi.

Imom al-Buxoriy Shomda ham bo'lib, unda Yusuf al-Faryobiy, Abu Nasr Ishoq ibn Ibrohim va Odam ibn Abu Iybos Abul-Yaman al-Hakam ibn Nofi' va Hayvat ibn Shuriyh kabi bir qancha mashhur olimlardan saboqlar oldi. Shundan so'ng Misrga o'tib, Usmon ibn as-

Sogʻ Saʼiyd ibn Abu Maryam, Abdulloh ibn Solih, Ahmad ibn Solih, Ahmad ibn Shubayb, Asbagʻ ibn al-Faraj, Saʼiyd ibn Abu Iso, Saʼiyd ibn Kasir ibn Afiyr, Yahʼya ibn Abdulloh ibn Bakir va shularga oʻxshash olimlardan dars oldi. Baʼzi manbalarda koʻrsatilishicha, imom al-Buxoriy Mesopatamiya (Jaziya)ga ham borib, Ahmad ibn Abul-Malik al-Harroniy, Axmad ibn Yazid al-Harroniy, Amru ibn al-Xalaf va Ismoil ibn Ab-dulloh ar-Raqqiy kabi olimlar bilan muloqotda boʻlgan hamda ulardan istifoda etgan. Mashhur olim Tojuddin as-Subkiy esa oʻzining “At-Tabaqot ash-shofiʼiyya al-kubro” nomli asarida: “Imom al-Buxoriy al-Jaziyraga bormagan va al-Jaziya mashoyixlaridan qilgan rivoyatlari boshqalarga tayanilib (bilvosita) naql qilinadi”, - deb yozadi. Bundan tashqari, alloma Xuroson va uning Marv, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibol kabi shaharlarida ham necha martalab boʻlib, mashhur olimlaridan saboqdar oldi. Jumladan, Marvda Ali ibn Hasan ibn Shaqiyq, Abdon, Muhammad ibn Muqodil va boshqalardan, Balxda esa Makkiy ibn Ibrohim, Yahʼya ibn Bishar, Muhammad ibn Abon, Hasan ibn Shujaʼ, Yahʼya ibn Muso, Qugayba kabi muhaddislardan rivoyatlar qiladi. Hirotida Ahmad ibn Abul-Valiyd al-Hanafiy, Nishopurda Yahʼya ibn Yahʼya, Bashar ibn al-Hakam, Ishoq ibn Rohvayh, Muhammad ibn Rofiʼ, Rayda esa Ibrohim ibn Muso, Vositda Hison ibn Hison ibn Abdulloh, Saʼiyd ibn Abdulloh va shunga oʻxshash olimlardan hadis-lar oʻrgandi. Shuningdek, XV asrda oʻtgan yirik tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” nomli mashhur asarida al-Buxoriy Keshda ham ancha muddat yashagani haqida yozadi.

Imom al-Buxoriy yuqorida zikr qilingan shaharlar va mamlakatlarga yakkayu yagona maqsad – hadis ilmi boʻyicha saboq olish niyatida bordi, bu joylardagi ta-niqli olimlar bilan muloqotda boʻlib, oʻz ilmini muttasil boyitishga intildi. “Bagʻdod tarixi” nomli yirik asarning muallifi al-Xatib al-Bagʻdodiy oʻz kitobida Jaʼfar ibn Muhammad al-Qatton degan olimning imom al-Buxoriyning oʻzi: «Men hadislarni ming, ehtimol undan ham ortiq shayxu ulamolarga tayanib yozdim, mening kitobimda isnodi koʻrsatilmagan birorta ham hadis yoʻq, deb aytganini eshitganman,» – degan soʻzlarini keltiradi.

Tarixchilar imom al-Buxoriyning ustozlari soniqida ham maʼlumotlar keltirishgan. Jumladan, olim Muhammad ibn Abu Hotamning yozishicha, imom al-Buxoriyning oʻzi suhbatlaridan birida unga: “Bir ming saksonta shayx (ustoz)dan yozganman”, – degan. X

asrda yashagan Isfahonlik olim Muhammad ibn Ishaq ibn Manda al-Isfahoniy (922–1005) imom al-Buxoriyning ustozlari haqida maxsus asar yaratib, alifbo tartibida ularni nomma-nom keltiradi. Hozirgi vaqtda Saudiya Arabistonida istiqomat qiluvchi vatandoshimiz, iqtidorli olim Nazar Muhammad al-Faryobiy tahqiq qilib, keng ko‘lamda ilmiy muomalaga kiritgan ushbu mo‘jazgina risola 1991 yili Saudiya Arabistonidagi “Maktabat al-Kavsar” matbaasida chop etilgan. Imom al-Buxoriyning ustozlari haqida nisbatan mufassal ma‘lumot beradigan ushbu manba xususida kengroq to‘xtalish lozim, deb hisoblaymiz.

Avvalo, “Imom al-Buxoriy ustozlarining ismlari” asarining muallifi haqida qisqacha ma‘lumot keltirish maqsadga muvofiqdir. Uning to‘liq ismi Muhammad ibn Ishaq ibn Manda al-Isfahoniy bo‘lib, hijriy 310 (ba‘zi manbalarda keltirishicha, 309) yilda Isfahonda tavallud topgan. U yigirma yoshlaridan boshlab Nishopur, al-Iskandariya {Aleksandriya) orqali Basra, Hirot, Sijiston, Ozarbayjonga ham kirmay, to‘g‘ridan-to‘g‘ri Shosh (hozirgi Toshkent)ga rihlat qilgan. Ushbu safarlardan qaytganda, o‘zi bilan qirq haml (ya‘ni qirq tuyaga yuk bo‘ladigan) xilma-xil kitoblar keltirgan. Manbalarda ta‘kidlanishicha, Qur‘oni ka-rim hofizlaridan birontasiga ham al-Isfahoniy eshitgan ma‘lumotlarni (yoki xabarlarini) eshitish va u jam qilgan ma‘naviy boyliklarni jamlash nasib etmagan ekan. Al-Isfahoniyning o‘zi doimo: “Men Sharqni ham, G‘arbni ham ikki marta tavof qilib, aylanib chiqqanman. Kimki o‘z aqidaviy fikrida qat‘iy turmay beqarorlik ko‘rsatib, hali u yoqqa, hali bu yoqqa og‘adiganlardan bo‘lib, haqiqiy din ahkomlariga xilof ish tutib, bid‘at va xurofotga amal qiladigan bo‘lsa, undan bironta ham hadis eshitmaganman”, – deb ta‘kidlardi.

Al-Isfahoniy haqida yozgan o‘rta asr tarixchilarining ko‘pchiligi uning “ko‘p tasniflarning muallifi” (“sohib at-tasoniyf”) deb qayd qilganlar. Tadqiqotchi Nazar Muhammad al-Faryobiy esa uning qalamiga mansub yigirmaga yaqin asarlar borligini ta‘kiddab, ularni nomma-nom keltiradi. Ushbu asarlardan o‘ndan oshig‘i hadis va uning turli ilmlariga bag‘ishlanadi. Ulardan Hadis, Al-Amoliy, Al-Favoid, Ma‘rifat as-sahoba, Fath al-bob fi kuna val-alqab, Shurut al-aimma, Kitob at-tarix, Kitob asmoi as-sahoba kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Muallifning aqidaga bag‘ishlangan asarlari ham ijodida salmoqli o‘rin egallaydi. Ulardan Kitobu-r-radd a‘lo-l-jahmiyyin, Kitob as-

sifot, Kitob an-nafs va-r-ruh, An-Nosix val-mansux va boshqalarni keltirish kifoyadir. Ishoq ibn Manda al-Isfahoniy 395/1005 yilda vafot etib, Isfahondagi Dukkaboz qabristoniga dafn qilingan.

Muallifning “Imom al-Buxoriy ustozlarining ismlari” asari hajm jihatidan uncha katta bo‘lmay, atigi 16 varaqdan iborat qo‘lyozma chiroyli nasx xatida yozilgan. Har bir sahifada 17 satr bo‘lib, bag‘dodlik xattot Muhammad ibn al-Hasan ibn Muhammad Ali ibn al-Ib-rohim tomonidan olti yuz o‘ttiz ikkinchi hijriy yilning o‘n to‘qqizinchi shavvoli, juma kunida Damashq Jomi’ masjidida ko‘chirilgan, ilmiy jihatdan goyatda qimmatlidir. Ushbu kitobda Imom al-Buxoriy o‘zining shoh asari “Sahih al-Buxoriy”da keltirgan uch yuz olti hadis roviylarining ismi shariflari alifbo tartibida to‘liq holda zikr qilinadi. Shuningdek, ularning ko‘pchiligi haqida asli qaysi shahardan kelib chiqqani, laqabi yoki kunyasi, aksariyatining esa qaysi shaharda qachon vafot etgani to‘g‘risida aniq ma’lumotlar keltiriladi. Fikrimizning isboti sifatida mazkur asardan bir necha misollar keltiramiz:

“Ayub ibn Sulaymon ibn Bilol Mavli Abdulloh ibn Abi Atiyq, asli Madina shahridan, 224 hijriy yilda vafot etgan; Ibrohim ibn Hamza ibn Muhammad ibn Chbdulloh az-Zubayr ibn al-Avon az-Zubayriy 230 hijriy sanada Madinada vafot etgan bo‘lib, ko‘pincha, Abu Ishoq kunyasi bilan atalardi; Ahmad ibn Ishoq ibn al-Qusayn, Abu Ishoq as-Sullamiy, u as-Surmoriy nomi bilan tanilgan bo‘lib, Buxoro qishlog‘idan edi; Ahmad Ibn Abu Raja - asl ismi Abdulloh ibn Ayub al-Haraziy Abu at-Valiyd. Imom al-Buxoriy hadislarni Buxoroda paytida yozib olgan; Ahmad ibn Maniy’ Ibn Abdurrahmon, Abu Ja’far al-Bag‘aviy – u Bag‘dodda yashagan. U Husayndan rivoyat qiladi. Uni al-Qabboniy ham atardilar. Imom al-Buxoriy undan atigi bitta hadis rivoyat qilgan; Abdulloh ibn az-Zubayr – Abu Bakr kunyasi bilan tanilgan bo‘lib, Makka ahlidan. Vafoti ikki yuz o‘n to‘qqizinchi hijriy yil; Muhammad ibn Yusuf Abu Ahmad al-Buxoriy Poykand ahlidan”.

Mana shu tariqa ushbu kitobda imom al-Buxoriy hadis eshitgan 306 roviy haqida ma’lumotlar keltiriladi. Bu adad, albatta, buyuk alloma hadis eshitgan roshylarning bir qismidir. Aslida, u, yuqorida aytilgandek, juda ko‘p roviylardan hadis eshitib yozib olgan.

Hadisshunoslikda yana bir muhim soha bo‘lmish illatli hadislarni aniqlash goyatda mas’uliyatli va murakkab ishlardan

hisoblanadi. Muhaddis hadis ilmiga oid barcha tartibot va uslublarni mukammal bilish bilan bir qatorda, roviylarning tug‘ilgan va vafot etgan vaqtlari, hadisni kimdan eshitib, kimdan rivoyat qilayotgani, eshitgan ibora va alfozlarining aniqligini to‘la-to‘kis egallagan bo‘lishi kerak. Shu boisdan ham muhaddislarning ko‘pchiligi bu jihatlarni to‘la-to‘kis egallash – hadis ilmida eng jiddiy muammo va ayni vaqtda o‘ta sharaflı mas’uliyat deb hisoblaydilar. Hadis yodlab ularni mukammal idrok qilgan va bu borada talab etiladigan boshqa tajribalarga ega bo‘lgan, hadislar xususida uzil-kesil gapirishga haqli hisoblanganlar faqat Ali ibn al-Madiyniy, Yaqub ibi Shayba, Ahmad ibn Hanbal, al-Buxoriy, Abu Hotam, Abu Zur’a, Ad-Doraqutniy va ularga ergashgan bir necha muhaddislar hisoblanishadi. Bu o‘rında Ali ibn al-Madiyniyning quyidagi so‘zlarini keltirib, illatli hadislarni aniqlash qanchalik qiyin va murakkab ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz: “Mening o‘zim bilgan bir hadisning illatini aniqlashdan ko‘ra yangi, avval bilmagan yigirmata hadis yozib olishim men uchun osondir”. Darhaqiqat, hadislarda, garchand, zohiran o‘zaro bog‘liqlik bo‘lsada, ularni isnodi jihatidan dastlabki roviyga bekamu ko‘st ulash yoki uzilish bilan etkazish, yoki bir hadis iboralarini ikkinchi bir hadis so‘zlari bilan aralashtirib yubormaslik yoxud o‘nlab roviylardan birining nuqsonini aniqlash juda qiyin va mashaqqatli yumushdir. Mana shu zayldagi to‘liq imkoniyatga va har tomonlama mukammal axborotga ega bo‘lmaganlar, tabiiyki, hadis ilmida biror yutuqqa erishishi amri mahol edi. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, imom al-Buxoriy mukammal egallagan buyuk san’atlardan biri bu – illatli hadislarni aniqlash bo‘lgan. Imom al-Buxoriyning zamondoshi olim al-Hofiz Ahmad ibn Hamdun bunday eslaydi: “Usmon ibn Abu Sa’iyd ibn Marvonning janozasi paytida Muhammad ibn Yahya az-Zuhliy al-Buxoriydan roviylar ismlari va illatli hadislar haqida savol so‘raganida al-Buxoriy go‘yoki u “qul huva Allohu ahad”ni yoddan o‘qiyotgandek – merganning bexato o‘qi misoli to‘g‘ri javob qilganini ko‘rgandim”.

Mavridi kelganda shuni aytish kerakki, mana shu davrda, ya’ni IX asrda Nishopurda ilm-fan, ayniqsa, hadis ilmi nihoyatda taraqqiy qilib, unda imom al-Buxoriy, imom Muslim ibn al-Hajjoj, imom at-Termiziy va boshqa bir qator kuchli muhaddislar yig‘ilgan edi. Ular shaharda faoliyat ko‘rsatadigan madrasalarda yoshlarga hadis ilmidan dars berardilar. Bu buyuk muhadstislar orasida ilmiy munozara va bahslar juda ko‘p bo‘lgan. Imom al-Buxoriy hadis sohasidagi o‘z ilmi

va salohiyati, ayniqsa, illatli hadislarni aniqlash ma'horati bilan barchani qoyil qoldirgan, muhaddislarning hammasi unga bir ovozdan tan bergan.

Imom al-Buxoriy masjidlarda, ommaviy ilmiy yig'inlarda ham ishtirok etgan. O'z davrining mashhur muhaddislaridan biri sanalgan Muslim ibn al-Hajjoj imom al-Buxoriyning chuqur bilimiga tan berib, unga samimiy ravishda: "Sizni faqat hasadgo'ylargina ko'ra olmaydi. Mening imonim komilki, sizdek buyuk olim jumlai jahonda yo'q", – deb xitob qilgan.

Imom al-Buxoriyning illatli hadislarni bilishdagi benazir mahorati, mukammal ilmi va qobiliyati borasida uning zamondoshlari ko'p qimmatli fikrlarni qoldirganlar. Illatli hadislariga atab maxsus asar ezgan imom at-Termiziy o'z asari "Kitob al-ilal"da: «Hadislar, roviylar, ular tarixtaridagi illatlar xususidagi fikrlarim imom al-Buxoriyning "Kitob at-tarix" asaridan foydalanganlarim, ulardan yana ko'prog'ini Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy bilan qilgan ilmiy munozaralarim paytida olganman, shuningdek, Abdulloh ibn Abdurrahmon, Abu Zur'adan ham foydalandim-u, lekin baribir ko'prog'i Muhammad al-Buxoriydan, kamrog'i esa Abdulloh bilan Abu Zur'adandir", – deb e'tirof etgan. Yana imom at-Termiziy: "Illatli hadislarni va isnodlarni aniq bilishda Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydan ko'ra ustun bo'lgan birorta olimni ko'rmadim", – deb alohida ta'kidlagan.

Imom al-Buxoriy ishtirok etgan ilmiy majlislarning birida o'z zamonasining yetuk olimlaridan sanalgan al-Faryobiy sanadi quyidagicha bo'lgan bir hadis haqida gapirib: «Sufyon Abu Urvadan, u Abul-Xattobdan, u Abu Hamzadan", – dedi. Majlisda hozir bo'lganlarning birortasi ham Sufyondan boshqalarning kim bo'lganini aniq bilmadi, chunki bu o'rinda ularning faqat kunyalari (Abdul-Xattob, Abu Hamza) aytilgan edi. Shunda Muhammad al-Buxoriy vazminlik bilan: "Abu Urva bu – Muammar ibn Roshid, Abul-Xattob esa Qatoda ibn Daoma, Abu Hamza bo'lsa, Anas ibn Molikdir. Buyuklarning ishlari inqilobiy tusda ulug'vor bo'lganligi uchun ham ular faqat kunyalari bilan aytilganlar", – dedi.

Hadis rivoyatidagi noqislix va ularning to'g'riligiga ishonch hosil qilish masalalari sahobalar davridan boshlanib, o'sha paytdanoq hadislarni yozib olishda bu masalaga alohida e'tibor berilgan. Chunonchi, sahobalarning o'zlari rivoyat qilgan hadislarida ham illatli

hadislar uchragan hollar aniqdangan edi. Payg‘ambar vafotidan keyin vaqt jihatidan muddat kam o‘tgani, hadislarini naql qilishda vosigalarning ozligi tufayli dastlabida bunga ehtiyoj unchalik katta bo‘lmagandi. Rivoyatda ishtirokchilar soni ko‘payib, vaqt o‘ta borgan sari roviylarning illatini aniqlashga tobora zarurat kuchaydi. Hadis ilmida ham, muhaddislar orasida ham bu masala muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Hadis roviylariga nisbatan alohida diqqat-e’tibor, chuqur munosabat bilan qaralib, har xil uslubi qoidalar yaratildi. Masalan, qaysi holatlarda zamondoshlarning illati (jarhi) qabul qilinmaydiyu, qaysi bir holatlarda qabul qilinadi kabi aniq yo‘l-yo‘riqlar ishlab chi-qqpdi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, hadislarida illat masalasi muhim ahamiyat kasb etib, u bilan shug‘ullanadiganlardan pok diyonat va taqvodorlik, qobiliyat talab Kqlinadi. Imom al-Buxoriy bu sohada o‘ziga asosiy dasturulamal qilib olgan ehtiyotkorlik maslagi uning diyonat, imon-ixlos va xudojo‘ylikda yuksak darajaga erishganini ko‘rsatadi.

Imom al-Buxoriy ustozlarining soni ko‘p bo‘lib, ulardan birining ismi “Musaddid” (lug‘aviy ma’nosi “to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi”) edi. Al-Buxoriy unga qattiq ishonib: “Musaddid – o‘z ismiga monand to‘g‘ri yo‘lga boshlovchidir. Kitoblarim o‘zimda bo‘ladimi yoki unda bo‘ladimi - menga farqi yo‘q”, - deb doimo takrorlar edi. Ushbu ta’kiddan ayon bo‘layotirki, imom al-Buxoriy o‘z kitoblari muhofazasiga alohida ahamiyat bergan. U bu masalaga, bamisoli hadis rivoyatiga e’tibor bergandek, alohida e’tibor bilan qaragan. Shuningdek, ular qanday odamlarning qo‘lida saqlanishiga ham jiddiy qaragan. O‘z kitoblari har qanday kimsaning qo‘liga tushib qolishiga befarq bo‘lmagan.

Imom al-Buxoriy butun faoliyati davomida ham ilmiy, imkoni bo‘lsa, moddiy jihatdan odamlarga, ya’ni Allohning bandalariga biror naf etkazishni o‘zining asosiy maqsadi qilib qo‘ygan edi. U doimo ilm ahllariyu ilm toliblariga, hatto ustozlar (ash-shuyux) va muhaddislarga ham moddiy yordam ko‘rsatardi. Tijorat qilganda har safar o‘zi ko‘rayotgan daromaddan, ya’ni foydasidan besh yuz dirhamni faqiru miskinlarga, ilm toliblariga sarflardi. Tolibi ilmlarga ma’lum mablag‘lar (maoshlar) ajratib, ularni alohida qiziqishu zavq-shavq bilan Payg‘ambar (s.a.v.) ilmlarini (hadisi shariflarini) o‘rganishga rag‘batlantirardi, ahli ilmga nisbatan nihoyatda ko‘p ehson ko‘rsatardi.

Ayni vaqtda imom al-Buxoriy o‘z shaxsiy hayotida, eyish-ichishda va kiyinishda sira ham dabdaba va behuda sarfu xarajatlarga yo‘l qo‘ymasdi, sabr-toqat va qanoat, chidamlilik uning uchun odat tusidagi bir hol edi.

Imom al-Buxoriy g‘oyatda beg‘ubor, halol-pokiza, diyonatli inson bo‘lib, g‘iybatu nohaqliklardan uzoq bir kishi bo‘lgan. U doimo: “G‘iybat qilish harom ekanini bilganimdan boshlab, hech qachon biror kishi haqida g‘iybat gapirmaganman”, – deb ta’kidlardi.

Imom al-Buxoriyning eng ulug‘ fazilatlaridan yana biri u taassub (mutaassiblik)ning har qanday ko‘rinisharidan uzoq bo‘lganidir. Uning shoh asari “Sahih al-Buxoriy” bilan chuqurroq tanishilsa, al-Buxoriyning o‘z kitobidagi ma‘lumotlarga nihoyatda katta sinchkovlik va ehtiyotkorlik bilan yondashganini ko‘ramiz. Qanchadan-qancha mashaqqatlar bilan to‘plangan hadislarining sahihligiga to‘la ishonch hosil qilib, obdon tekshirgandan keyingina o‘z asariga kiritganligi bu fikrni yana bir karra tasdiqlaydi. Imom al-Buxoriyning “Sahih” asari haqida gapirar ekanmiz, shuni ham qayd qilish kerakki, ushbu kitobning sahih isnodlarida ahli sunnatga mansub bo‘lmagan roviylar ham uchraydi. Al-Buxoriy muhaddislarda hadislariga bo‘lgan katta mehr va intilish hamda unga qat’iy amal qilish har qanday tahsinga sazovor, deb hisoblardi. Bu masala g‘oyatda muhim bo‘lib, bu xususda ba’zi muhaddislarning o‘zlari ham fikr-mulohaza bildirganlar. Jumladan, imom Ahmad Ibn Hanbal: «O‘zim amal qilmagan bitta ham hadisni kitobga olmaganman”, – deb ta’kidlagan bo‘lsa, o‘z davrining yirik muhaddislaridan biri sanalgan Vakiy ibn al-Jarroh: “Agar biror hadisni yodlashni istasang, avvalo, unga amal qil”, – degan. Yana bir muhaddis Ibrohim ibn Ismoil esa: “Hadislarni yodlashda, unga amal qilish yo‘lidan foydalanardik”, – deb ta’kidlagan, alloma as-Suyutiy o‘zining “At-Tadriyb” nomli asarida bu jarayonni quyidagicha ifodalaydi: “Ibodatlar, odob-axloq, fazilatlar, soliha’mollar xususida eshitgan hadislardan samarali foydalanish lozim. Bu, birinchidan, ushbu hadisning zakoti; ikkinchidan esa, uni yodlash uchun yaxshi omildir”.

Imom al-Buxoriy yashagan davrda Xolid ibn Ahmad az-Zuhliy Tohiriylar tomonidan bo‘lib, Buxoroning amiri sifatida saltanat yuritardi. Xorijiy yurtlarga qilgan uzoq yil davom etgan safaridan qaytib, imom al-Buxoriy o‘z ona yurti Buxoroda o‘rnashgach, uning shonu shuhrati chor atrofga tarqab, ko‘plab hadis toliblari to‘da-to‘da

bo'lishib, alloma huzuriga kela boshlagach, Xolid ibn Ahmad az-Zuhliy ular bilan garchand mazhabiy masalalarda bir qadar muxolafatda bo'lsada, ularning rivoyatlarini tashlab ketmasdan kitobiga kiritgan. Faqat shu shart bilanki, ular bid'atga da'vat qilmaydigan, yolg'on-yashiq rivoyatlarni tarqatmaydigan, har qanday holatda ham, soxta (yolg'on) aralashishini hatto xayoliga ham keltirmaydigan kishilar bo'lishi talab qilingan. Shu boisdan ham, imom al-Buxoriyning roviylariga nazar solsak, ulardan ba'zilar shia tamg'asi bilan ko'rsatilgan bo'lib, alloma ularning rivoyatni ham "Sahih" kitobiga kiritgan.

Hadislardagi noqisliklarga alohida e'tibor bergani kabi, imom al-Buxoriy roviylarning ibratli, go'zal fazilatlarini urg'ulab ko'rsatishga ham katta ahamiyat bergan. Agar keltirgan rivoyatlari to'g'ri bo'lsa, roviylarning haqiqiy tavsiflariyu adolatli ishlarini batafsil zikr qilgan.

Manbalarda keltirilishicha, imom al-Buxoriy o'z ilmiy-ijodiy faoliyati davrida yigirmadan ortiq asarlar yaratgan. Ular quyidagilardan iborat: "Al-Jomi' as-sahih", "Al-Adab al-mufrad", "Kitob al-kuna", "Kitob al-favoid", "Juz'raf' al-yaddayn", "At-Ta-rix al-kabir", "At-Tarix al-avsat", "At-Tarix as-sag'ir", "Al-Jomi' al-kabir", "Xalq af'ol al-ibod", "Kitob az-zuafo as-sag'ir", "Al-Musnad al-kabir", "At-Tafsir al-kabir", "Kitob al-hiba", "Asomiy as-sahoba", "Kitob ul-vuhdon", "Kitob al-mabsut", "Kitob al-ilal", "Birr al-volidayn", "Kitob al-ashribati", "Qazoyo as-sahoba vat-tobin", "Kitob ar-Riqoq", "Al-Jomi' as-sag'ir fil-hadis", "Al-Qiroatu xalf al-imom".

Imom al-Buxoriy haqida yozgan muarrixlar va solnomachilar uning husnixulqlari va mahosinlarini zikr qilganlarida, albatta, uning quvvai hofizasi va xoti-rasining kuchliligini alohida ta'kiddab ko'rsatadilar.

Chunonchi, manbalarda imom al-Buxoriy xotirasi-ning kuchi xususida ko'pdan-ko'p qiziqarli rivoyatlar keltiriladi. Ta'kidlaganimizdek, uning ustozlari Muhammad al-Buxoriyning yoshligidan Alloh taolo ato qilgan noyob iqtidori va quvvai hofizasini sezib, unga yakdillik bilan tan berganlar. Yoshligidayoq uning haqida "goyatda fozil inson bo'ladi", "dovrug'i el orasida doston zot bo'lib chiqadi", deb aytgan bashoratlari tarix kitoblarida bitilgan.

Buyuk muhaddis Abu Iso at-Termiziy: "Imom al-Buxoriy el orasida tanila boshlagach, Abdulloh ibn Munir; "Ey Abu Abdulloh! Alloh seni bu ummatning ziynati qilib yaratgan!" – degan fikrini

keltiradi. At-Termiziy yana: “Alloh taolo uning barcha xohishini mustajob qilib yaratgan edi”, – deb ta’kidlaydi. Tarixchi Shamsuddin az-Zahabiy quyidagicha hikoya qiladi: “Xolid ibn Ismoil shunday degan edi: Basra mashoyixlari xususida imom al-Buxoriy bilan bizning fikrimizda ko‘pincha ixtilof bo‘lardi. Shu paytda u o‘spirin bola bo‘lib, hadislarni sira yozmasdi. Shu zaylda o‘n olti kun o‘tgach, u bizga: juda ko‘p hadis eshitib yozib olinglar, qani menga ko‘rsatinglarchi, qancha hadis yozib olibsizlar, dedi. Hisoblab ko‘rsak, o‘n besh mingdan ziyod hadis yozgan ekanmiz. Al-Buxoriy ularning hammasini yoddan aytib berdi, hatto yozgan hadislarimizning ko‘plaridagi xatolarni uning yoddan aytganlariga qarab tuzatib ham oldik”. Olim Muhammad ibn al-Azhar as-Sijistoniy “Biz alloma Sulaymon ibn Xarabdan hadis ilmidan saboq olardik. Al-Buxoriy ham biz bilan birga hadis eshitardi-yu, lekin sira yozmasdi. Nega u yozmayotir? – deb so‘raganlar: “O‘z yurti Buxoroga qaytgach, yodidan yozadi”, – deb javob olgandilar. Ushbu Sulaymon ibn Harab o‘z zamonining mashhur allomasi va hadis hofizlaridan hisoblanib, Makkai mukarramada qozi ham bo‘lgan. Uning xotirasi g‘oyatda kuchli bo‘lib, hech bir ki-tob-daftarga boqmay, o‘n minglab hadisni yoddan rivoyat qilgan. Abu Hotam shunday hikoya qiladi: “Men Bag‘dodda Sulaymon ibn Harabning darslaridan saboq olgan-man. Uning sabog‘ini olganlarning soni qirq mingdan ham oshib ketgan bo‘lib, u hijriy 224 yilda vafot etgan. Imom al-Buxoriy ham uning shogirdlaridan hisob-lanardi. Fazlu kamolining shunchalik buyuk bo‘lishiga qaramasdan, u al-Buxoriydan “Sen bizga Shuabaning xatosini tushuntirib ber”, – deb iltimos qilardi. Hifzu zakovat, idroku tafakkurdan rabboniy (ilohiy) bir noyob qobiliyat va iste’dod Imom al-Buxoriyga ato etilgandiki, hatto unga ustozlari tomonidan ham yuksak izzat-ikrom va hurmat ko‘rsatilib, ko‘p muhaddislar uning huzurida dars o‘tishdan ham xijolat bo‘lib, hayiqib turganlar”. Shu xususda Fath ibn Nuh an-Naysoburiyning: “Ali ibn al-Madiyniyning suhbatida hozir bo‘lganimda Muhammad al-Buxoriyning uning o‘ng tomonida o‘tirganini ko‘rdim. Ustoz har bir hadisni :zIkr qilganida hurmat bajo keltirib, al-Buxoriy tomoniga ohista burilib qo‘yar edi”, – deb yozishi ustozlarining imom al-Buxoriyga hurmat e’tibori alohida bo‘lganidan yaqqol dalolatdir.

Ko‘pgina manbalar va tarix kitoblarida imom al-Buxoriyning aql-zakovati va quvvai hofizasini sinash maqsadida qilingan imtihon

(sinov) xususida aniq ma'lumotlar zikr qilingan. Jumladan, shunday jiddiy bir imtihon Bag'dodda Dor al-xilofat (Xalifalik uyi)da Bag'dod ulamolari tomonidan uyushtirilgan. Bag'dodlik olim Abu Bakr al-Kaluzoniy (vaf. 249 x.): "Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyga o'xshash hech bir elimni ko'rmadim. Biror ilmga oid har qanday kitobni olib sinchiklab muyulaa qilardida, unda keltirilgan barcha hadislarni bir marta o'qishdayoq yod olardi», – deb yozgan.

Qachonki imom al-Buxoriy hadis ilmi bo'yicha mukammallikka ega bo'lib, ilmiy majlislar, saboqdar bera boshlagach va uning bu tarzidagi majlislari dovrug'i har tarafga tarqab, el orasida yoyilgach, ilm toliblariyu ahli donish bu saboqlarga shunchalik ko'p yog'ilib kela boshladiki, majlislarga odamlar sig'may ketardi. Bu tartibdagi ilmiy majlislar Basra, Bag'dod, Hijoz, Balx kabi shaharlarda uyushtirilib, alloma umrining oxirlarida o'z vatani Buxoroda ham hadislardan dars bergandi.

Imom al-Buxoriy shogirdlari haqida gapiradigan bo'lsak, ular son-sanoqsiz ko'p bo'lgan. Bu xususda olim Al-Firabriy: "Bevosita imom al-Buxoriyning o'zidan to'qson ming odam hadis eshitgan", – deb yozadi. Muarrixlaru muhaddislarning yozishlaricha, hatto al-Buxoriydan saboq olib, undan istifoda qilganlar orasida uning mashhur ustozlari ham bo'lgan. Ular doimo al-Buxoriy-ning ilmiy majlislarida hozir bo'lardilar. Ulardan Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy, Abdulloh ibn Munir, Ishoq ibn Ahmad as-Sarmoriy, Muhammad ibn Xalaf, Ibn Qutayba va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Bularning hammalari ham o'z davrining fazilatli, ilmi komil olimlari hisoblanardi. Shunday ulug' martabaga ega bo'lishlariga qaramay, ular al-Buxoriydan zarur saboqlarni olganlar.

Yoshi imom al-Buxoriyga tengqur bo'lib, unga tayangan va do'sti fazlu kamolining yuksakligini tan olib, uning ilmiy majlislarida qatnashgan buyuk olimlardan imom Abu Zur'a ar-Roziy, Abu Hotam ar-Roziy, Ibrohim al-Harbiy, Abdulloh ibn Mutiyn, Ishoq ibn Ahmad ibn Ziyrak al-Forsiy, Abu Bakr Muhammad ibn Ishoq-ibn Xaziyma, al-Qosim ibn Zakariyo, Muhammad Ibn Abdulloh al-Xadramiy, Muhammad ibn Qutayba, Abu Bakr al-A'yin va boshqa ko'pchilikni ko'rsatish mumkin. Mazkur olimlar rijol (roviylar), tarix, xadis, jarh (illatli hadislar), ta'diyl ilmlari bo'yicha o'z davrining buyuk allomalari edi.

Imom al-Buxoriyning shogirdlari orasida shon-shuhratda yuksaklikka etishib, buyuk sharafga muyassar bo‘lgan, islomiy ilmlar - ilm al-hadis va fiqhning asosiy jihatlarini mukammal bilganlardan “As-Sahih” kitobining muallifi imom Muslim ibn al-Hajjoj, “Sunan” kitobining sohibi imom Abdurrahmon an-Nasoiy, “Al-Jomi” asarining sohibi imom Abu Iso at-Termiziy, islomiy ilmlar bo‘yicha qator tasnifotlarning muallifi imom Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, imom ad-Dorimiy, mashhur faqih, “As-Sahih” nomli asarning sohibi imom Ibn Xuzayma va boshqalar ham bor edi. Imom al-Buxoriyning shogirdlari bo‘lgan ushbu allomalar o‘z davrining yirik muhaddislari va fiqh olimlari bo‘lib yetishdilar.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-892)

Uning to‘liq ismi Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn az-Zahhoq Abu Iso as-Sullamiy az-Zariyr al-Bug‘iy at-Termiziy bo‘lib, 209/824 yili Termiz yaqinidagi Bug‘ (hozirgi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani hududida joylashgan) qishlog‘ida o‘rta hol bir oilada tavallud topgan. Markaziy Osiyolik mashhur tarixchi Abu Saad Abdulkarim as-Samoniyy (1113-1167) at-Termiziy Bug‘ qishlog‘ida vafot etganligi uchun al-Bug‘iy taxallusi bilan ham atalgani, olimning ko‘p yig‘laganidan umrining oxirlarida ko‘zi ojiz bo‘lib qolganligidan az-Zariyr (ko‘zi ojiz) taxallusi olganligini ham qayd qiladi. Lskin el orasida at-Termiziy nomi bilan mashhur bo‘lishiga sabab uning butun hayoti va faoliyati (yoshligidan boshlab) Termiz shahri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganidan, shuningdek, olim tug‘ilgan Vug‘ qishlog‘i Termiz shahriga yaqin, ma‘muriy-idoraviy jihatdan unga mansub qishloqlardan ekanidan, deb izohlash mumkin.

At-Termiziyning oilasi va ota-onasi haqida manbalarda aniq ma‘lumotlar keltirilmagan, faqat tarixchilarning: “Bobom asli marvlik edi, u kishi Lays ibn Siyyor zamonida yashagan, so‘ng u erdan Termizga ko‘chib kelganlarlar”, degan fikrini keltirish bilan chegaralanadilar. Shuningdek, at-Termiziyning ko‘zi ojizligi xususida ham yozma manbalarda turli-tuman ma‘lumotlar keltirilgan. Ba‘zi mualliflar uni tug‘ma ko‘zi ojiz bo‘lgan desa, ko‘pchilik mualliflar olimning keyinchalik umrining oxirlarida ko‘zi ojiz bo‘lib qolganini yozadilar. At-Termiziy yoshligidan g‘oyatda tirishqoq, idrokli va

zakovatli bo'lib, bu fazilatlari bilan o'z tengdoshlaridan batamom ajralib turgan. Uning yoshlik chog'laridan ilmga o'ta qiziqish va ishtiyoqi o'sha davrning qo'pgina ilmlarini, ayniqsa, hadis ilmini chuqur egallashida baralla namoyon bo'ldi. U yoshlik paytlaridan boshlab Termiz, Samarqand, Marv va Markaziy Osiyoning boshqa yirik shaharlarida istiqomat qilgan mashhur ulamolar va muhaddislar asarlarini qunt bilan o'rgana boshladi, keyinchalik qo'shni Balx va Hayraton shaharlaridagi ilm ahllari bilan aloqalar o'rnatdi. At-Termiziy 850 yildan, ya'ni yigirma olti yoshidan boshlab uzoq yurtlarga, qator xorijiy mamlakatlar va shaharlarga safar qiladi. Jumladan, u Hijoz – Makka va Madina, Iroq, Xurosonning qator shaharlarida ko'plab muhaddislar, ulamolar bilan muloqotda bo'lib, ulardan ta'lim oladi, qizg'in ilmiy munozara va bahslarda ishtirok etadi. Tarixchi Shamsuddin az-Zahabiyning ta'kidlashicha, at-Termiziy Misr va Shomni shaxsan ziyorat qilmagan, shu boisdan ham bu mamlakatlar ulamolaridan bilvosita hadislar rivoyat qilgan. Uzoq yillar davom etgan safarlari chog'ida at-Termiziy nafaqat hadis ilmidan, balki ilm al-qiroat, al-bayon, fiqh, tarix va ilm-fanning boshqa sohalarida ham ko'plab ustozlaridan saboq olib, o'z bilimini oshiradi. Bularning hammasi at-Termiziyning yirik olim darajasiga etishiga mustahkam zamin tayyorlaydi.

Shu bilan birga, at-Termiziy o'zi yoshlikdan qiziqqan Payg'ambar (s.a.v.)ning hadislarini to'plashga alohida e'tibor bilan qaraydi, bu borada har qanday qiyinchiliklarga bardosh beradi. U o'zi o'qigan yoki birorta roviydan eshitgan hadisni alohida qog'ozlarga qayd qilib, ularning asli va isnodini izchillik bilan aniqlagach va qayta-qayta tekshirib, to'g'riligiga to'liq ishonch hosil qilgach, ularni alohida-alohida maxsus qog'ozlarga qayd qilib borgan. Turli roviylardan eshitgan hadislarining to'g'riligiga shubha va ikkilanish holati bo'lganda, ularni ham ajratib, alohida, batartib yozib borgan. Shu tariqa, hadislarining to'g'riligi, isnodi tadqiq qilinganligi yoki shubhalilari turli tabaqalarga bo'linib, ular sahih (to'g'ri, ishonchli), hasan (yaxshi, ma'qul), zaif (bo'sh, ishonchsiz), g'ariyb (g'alati) kabi xillarga ajratilgan. At-Termiziy o'z asarlarida keltirilgan hadislarini ushbu tabaqalar asosida ko'rsatib o'tgan.

Hadis ilmini egallashda va takomillashtirishda Imomat-Termiziy o'z davrining ko'pgina mashhur muhaddislari, jumladan, Imom al-Buxoriy, Imom Muslim-ibn al-Hajjoj, Abu Dovud, Qutayba ibn Sa'id,

Ishoq ibn Muso, Mahmud ibn G'iyon, Said ibn Abdurrahmon, Muhammad ibn Bashshor, Ali ibn Hajar al-Marvaziy, Ahmad ibn Muniy', Muhammad ibn al-Musanno, Sufyon ibn Vaqiy'lardan tahsil olgan. U o'z davrining yetuk muhaddisi sifatida ko'pgina shogirdlarga uotozlik ham qilgan. Uning shogirdlaridan Maqbul ibn al-Fazl, Muhammad ibn Mahmud Anbar, Abu ibn Muhammadan-Nasafiy, Hammod ibn Shokir, Xaysam ibn Kulayb ash-Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf an-Nasafiy, Abul-Abbos Muhammad ibn Mahbub al-Mahbubiy kabi yetuk olimlarni ko'rsatish mumkin.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, at-Termiziyning ustozlari va shogirdlari orasida turli mamlakat va elatlarning vakillari borligi sezilib turibdi. Shu nuqtai-nazardan qaralganda, uzoq o'tmishda ham ilm-fanning taraqqiyot va ma'rifat urug'larini tarqatish borasida turli o'lkalarning vakillari yakdil bo'lib faoliyat ko'rsatib, samarali hamkorlik qilganlari, umumbashariy qadriyatlar ravnaqi yo'lida haqiqiy hamjihatlik ruhi mavjud bo'lgani hozirgi davrimiz uchun ham ibratli bir holdir.

At-Termiziy zehning o'tkirligi, xotirasi hamda qunvai hofizasi kuchliligi xususida tarixiy manbalarda ko'plab misollar, rivoyatlar keltiriladi. Jumladan, tarixchi Shamsuddin az-Zahabiyning (1274-1347) "Tazkiratu-l-huffoz" (Hofizlar haqida tazkira) nomli asarida quyidagi hikoya bor: Abu Iso Muhammad at-Termiziy Makkaga hajga borayotganida yo'lda ko'p mashhur muhaddislar bilan uchrashib, muloqotda bo'lib, olimlarning biridan hadislardan saboq berishini iltimos qilgan. U olim: "Bo'lmasa, qog'oz-qalam ol", - degan. Aksiga olib, shu payt at-Termiziy qalam topa olmagan va olim ro'parasida o'tirib, eshitgan hadislarini go'yo yozib olayotgandek, qo'lini qog'oz ustida harakat qildiravergan. Olim esa turli-tuman hadislar keltirib, ularning etmishga yaqinini hikoya qilgan. Shu orada u qogozga qarab, unda hech qanday yozuv ko'rmagan va at-Termiziy-ning bu ishidan jahli chiqib: "Nima, sen hali mening vaqtimni bekorga olmoqchimisani?", - deb qattiq ranjigan. At-Termiziy bo'lsa, bamaylixotir: "Siz aytgan hadislarini yoddan aytib beraymi?", - degan- u hozirgina o'zi olimdan eshitgan hadislarining hammasini birin-ketin aynan takrorlab bergan. At-Termiziy xotirasining bu qadar kuchliligidan boyagi olim hayratga tushib, qoyil qolgan.

At-Termiziyning xorijiy mamlakatlarga qilgan safari uzoq yillarga cho'zilib, avval eslatib o'tganimizdek, bu safarlar chog'ida

ko‘pdan-ko‘p olimlar, muhaddislar bilan muloqotda bo‘ldi. Shu bilan birga, hadislarni to‘plab, kitoblar ta‘lif qilishga ham kirishdi. Ayniqsa, mashhur muhaddis al-Buxoriy bilan Nishopurda birga faoliyat ko‘rsatib, ko‘plab ilmiy bahslarda ishtirok qiladi, bu haqda at-Termiziy o‘zining “Al-Ilal” kitobida yozadi. U xorijiy ellarga safarlaridan o‘z yurtiga 863 yillar atrofida qaytadi va eldosh olimlar bilan ilmiy munozaralarda qatnashadi, ko‘plab shogirdlarga ustozlik qiladi. At-Termiziyning ko‘pchilik tasniflari, jumladan, mashhur asari “Al-Jomi” ham o‘z vataniga qaytganidan keyin yaratilgan. Imom at-Termiziy 892 yilda Termiz yaqinidagi Bug‘ qishlog‘ida vafot, etib, shu joyda dafn qilingan.

At-Termiziy o‘z ilmiy-ijodiy faoliyati davomida o‘ndan ortiq asarlar yaratdi. Uning ilmiy-ma‘naviy merosida, shubhasiz. “Al-Jomi” asari katta ahamiyatga egadir. Bu asar “Al-Jomi’ as-sahih” (Ishonchli to‘plam). “Al-Jomi’ al-kabir” (Katta to‘plam), “Sahih at-Termiziy”, “Sunan at-Termiziy” (Termiziy sunnatlari) nomlari bilan ham yuritiladi.

Muallifning yirik asarlaridan yana biri “Ash-Shamoil an-nabaviya” (Payg‘ambarning alohida fazilatlaridir). Bu asar “Ash-Shamoil Muhammadiya”, “Ash-Shamoil fi shamoil an-nabiy sallolohu alayhi va sallam” nomlari bilan ham ataladi. Ushbu asarning Saudiya Arabistonida istiqomat qilgan vatandoshimiz Said Mahmud Taroziy (vaf. 1992) tomonidan qilingan o‘zbekcha tarjimai arab va kirill alifbolarida Toshkentda bir necha bor nashr qilingan. Ashyumaning “Kitob at-tarix”, “Kitob al-ilal as-sag‘iyr val-ilal al-kabir”, “Kitob uz-zuhd” (Taqvo haqida kitob), “Kitob al-asmu val-kuna” (Roviylarning ismi va laqablari haqida kitob), “Al-Ilal fil-hadis” (Hadislardagi illatlar yoki og‘ishlar haqida), “Risola fil-xilof val-jadal” (Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola), “Asmou-s-sahoba” (Payg‘ambar sahobalarining ismlari) asarlari ham islom olamida mashhurdir.

Imom at-Termiziyning ilmiy-ma‘naviy merosida salmoqli o‘rin tutuvchi “Al-Jomi’ as-sahih” (Ishonchli to‘plam) nomli asari olti sahifali hadis to‘plamlaridan biri bo‘lib, u yuqorida qayd etilganidek, “Al-Jomi’ al-kabir”, “Sahih at-Termiziy” “Sunan at-Termiziy” kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Tarixchi Ibn Hajar al-Asqaloniyning yoznshicha, at-Termiziy ushbu asarini 270/884 yilda, ya‘ni qariyb yetmish

yoshlarida, ilm-fanda katta tajriba ortirib, imomlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan.

Al-Jomi' al-kabirning qo'lyozmalari dunyoning bir qancha shaharlarida mavjud bo'lib, jumladan, Toshkentda, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Raihon Beru-niy nomidagi Sharqshunoslik institutida ham saqlanmoqda. Muhim manbaa sifatida "Al-Jomi' as-sahih" bir necha marta nashr qilingan. Ulardan 1283/1867-68 yili Mirtohda amalga oshirilgan toshbosmasini, 1292/1876-77 yili ikki jildda Qohirada, shuningdek, 1980 yilda Bayrutda nashr etilgan nusxalari va so'nggi yillardagi qator nashrlarini ko'rsatish kifoyadir. At-Termiziyning bu muhim asariga bir qator sharhlar ham yozilgan bo'lib, ulardan Ibn al-Arabiy (vaf. 543/1148) nomi bilan mashhur bo'lgan imom Hofiz Abu Bakr Muhammad ibn Abdulla al-Ashbiliyning "Oridat al-Ahvaziy ala kitob at-Termiziy" nomli 13 juz'dan (qism)dan iborat asari eng muhim sharhlardan hisoblanadi. Ushbu sharh dastlab 1931 yilda Qohirada nashr qilingan. Imom Hofiz Abu Ali Muhammad Abdurrahmon ibn Abdurahim al-Muborakfuriy (1866-1935) qalamiga mansub yana bir sharh ham "Tuhfat ul-Ahvaziy bi-harhi at-Termiziy" deb ataladi. To'rt juz'dan iborat bo'lgan bu asar 1979 yilda Bayrutda nashr qilingan (Hindiston nashri ham mavjud). Misrlik olim va adib Jamoliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr as-Suyutiyning (1445-1505) at-Termiziy asariga yozgan sharhi "Qut al-mug'taziy ala jomi' at-Termiziy" (undan ikki kismi nashr qilingan) deb atalgan.

Bulardan tashqari, Muhammad ibn Abduqodir Abu at-Tayyib al-Madaniyning "Sharh Sunan at-Termiziy", Ahmad Muhammad Shokirning "Tahqiq va sharh Jomi' at-Termiziy" (o'ndan ikki qismi 1937 yilda Mustafa al-Bobiy al-Halabiy tomonidan nashr qilingan), Muhammad Yusuf al-Bannuriyning "Ma'orif sunan" sharh "Sunan at-Termiziy" (uning birinchi qismi 1963 yil-da Pokistonda nashr qilishan), Siroj Ahmad as-Sarhandiyning "Sharh Sunan at-Termiziy" nomli forscha sharhi, shuningdek, Rashib Ahmad al-Kanuhiyning "Al-Kavkab ad-durriy al-at-Termiziy" (Hindistonda chop etilgan), Muhammad Anvarshoh al-Kashmiriyning ikki juz'dan iborat "Al-urf ash-shaziy ala jomi' at-Termiziy" (bu asar ham Hindistonda chop etilgan) va nihoyat, Abul-Hasan Muhammad ibn Abdulhodiy as-Sanadiyning (vaf. 1138) "Hoshiya ala Sunan at-Termiziy" kabi sharhlarini ko'rsatish mumkin.

Avval eslatib o'tganimizdek, hijriy uchinchi asr (milodiy to'qqizinchi asr) hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblanadi. Dastlab bu davrda yashab ijod qilgan Imom al-Buxoriy, Imom Muslim kabi allomalarning sermahsul faoliyati katta ahamiyat kasb etadi. Mana shu davrdan boshlab Payg'ambar (s.a.v.) sunnatlarini rivojlanib, bu holat hadis ilmi taraqqiyotida katta rol o'ynaydi. Mana shu paytdan etiboran Payg'ambar (s.a.v.) hadisi shariflari birvarakayiga to'planib qolmasdan, balki ular saralanib, toifalarga bo'lina boshladi. Ular sahih (to'g'ri, ishonchli), hasan (yaxshi, ma'qul) zaif (bo'sh) kabi guruhlarga bo'linib, chuqur tadqiq qilingan xodda ilmiy tarzda tartibga solindi.

Imom at-Termiziy o'z ustozlari Imom al-Buxoriy, Imom Muslim asos solgan xayrli ishni chuqur mas'uliyat va katta ixlos bilan davom ettirib, hadisshunoslikning ilmiy asosda rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi, musulmon dunyosidagi eng nufuzli muxaddislardan biri darajasiga ko'tarildi. Abu Iso at-Termiziyning shoh asari bo'lmish "Al-Jomi' as-sahih" hadis ilmida katta ahamiyatga ega muhim manbalardan hisoblanadi. Eng avvalo shuni aytish kerakki, muallif o'z asarini alohida-alohida boblarga bo'lib, imkoni boricha, har bir hadis roviylarini keltirib, har bir hadisdan keyin uning ishonchli yoki ishonchsizlik darajasini aniqlab, alohida ko'rsatadi. Oldinroq biz mazkur asarning "As-Sunan" (Sunnatlar) nomi bilan ("Sunan at-Termiziy") atalishini ham eslatib o'tgandik. Bu nom bilan atalishiga sabablardan biri unda fiqh masalasiga doir ahkom hadislar juda ko'p keltirilganligidir. Shu bilan birga, asarda pand-nasihat, axloq-odob, go'zal xulqu-fazilatlar hususida ham juda ko'p hadisi shariflar keltirilganki, bu darajadagi hadislar hech bir muallif asarida uchratilmaydi, desak mubolag'a bo'lmasa kerak.

Tarkibiy jihatdan asar quyidagi boblarga bo'linadi: tahorat, salot (namoz), zakot, ro'za, haj, janoza, nikoh, emizish, taloq, savdo-sotiq, qozilik ahkomlari, tovon to'lash, me'yor, sayd, qurbonlik, nazr-nuzur, iymon, siyratlar, jihod, kiyim-kechak (libos), taomlar, ichimliklar (al-ashriba), xayr-ehson va saxovat, tabobat, farzlar, vasiyatnomalar, xayrixoxlik va taqdir, xuruju fitnalar, bashoratlar, shahodatlar, zohidlar, jannat sifatleri, jahannam sifatleri, ilm, izn so'rash va odob masalalari, Qur'on fazilatleri, qiroat, tafsir, duolar, manonqiblar (fazilatlar), illatlar.

Boblar asarda sarlavha tarzida, bo‘limlarga bo‘lingan holda tuzilgan bo‘lib, muayyan bobga doir keltirilgan hadislar ushbu bo‘lim mazmunini to‘la-to‘kis ifodalaydi. Ushbu bobga doir masala bo‘yicha muallif bir, ko‘pincha esa, bir qancha hadislarni keltiradi, so‘ng bu masala yuzasidan boshqa ulamoyu faqihlarning fikrlarini ham batartib keltiradi. Undan keyin, rivoyat qilingan. hadisning sahih, hasan, zaif yoki g‘aribliigi darajasiga o‘z munosabatini bildiradi. Shundan so‘ng, hadisning roviylari, sanadlari va sanad o‘z ichiga olgan illatlari xususida ham o‘z fikrini bayon qiladi. Shunnngdek, mazkur hadisning boshqa yo‘llar bilan qilingan rivoyatlari, shu masala xususida boshqa munosib hadis bo‘lsa, ular haqida ham zikr etib o‘tadi.

Imom at-Termiziyning hadis ilmidagi juda katta xizmatlari, uni har tomonlama takomillashtirishda va kelgusi avlodlarga sof holda etkazishdagi buyuk faoliyatini ko‘p taniqli olimlar yuqori baholaganlar. Hadis imomlaridan biri Abdurahmon Ibn Muhammad al-Idrisiy: “At-Termiziy hadis ilmida iqtido qilinadigan imomlardan biridir”, - deb yozsa, Taqiuddin Ibn Taymiya: “Abu Iso at-Termiziy birinchi bo‘lib hadislarni sahih, hasan, zaifga taqsim qilgan olimdir”, – deb fikr bildiradi.

Hofiz ibn Rajab o‘zining “Sharh ilal-Jomi” nomli kitobida: “Bilgilki, imom at-Termiziy birinchilardan bo‘lib o‘z kitoblarida hadisni sahih, hasan va g‘ariybga bo‘lganlar”, – deb allomaning hadis ilmi sohasidagi xizmatlarini alohida ta’kidlaydi. At-Termiziy asarining barchaga – keng ommaga foydasi haqida al-Hofiz Abul Fazl Muhammad ibn Tohir al-Muqaddasiy (vaf. 507/1113 y.): “Men uchun imom at-Termiziyning “Al-Jomi” tasnifi imom al-Buxoriy va imom Muslim ibn al-Hajjoj asarlaridan ko‘ra ham foydaliroqdir. Chunonchi, al-Buxoriy va Muslimning kitoblaridan ko‘pincha faqat o‘qimishli, ziyoli kishilargina foydalanadi. Ammo Abu Iso at-Termiziyning asaridan esa har bir istagan kishi bimalol foydalana oladi”, – deb yozgan edi.

Shu narsani alohida qayd etish zarurki, imom at-Termiziyning ushbu asarida hadis ilmining turli masalalari kabi roviylar masalasiga ham alohida e’tibor berilgan. Bu jihatdan asar muallifning boshqa asarlaridan tubdan ajralib turadi va bu hol uning katta ilmiy va amaliy ahamiyatga molik asar ekanligini tasdiqlaydi.

Imom at-Termiziy o‘z asarida xuddi imom Muslim ibn al-Hajjojdek isnodlar san’atiga ham alohida e’tibor qaratib, ularni bir

o‘ringa muxtasar holda jamlagan, hadislarni har xil turlarga ajratib, ulardan illatlilarini alohida sharhlab bayon qilgan. Shunga binoan, komil ishonch bilan aytish mumkinki, uniig kitobi hadis ilmining ko‘pdan-ko‘p foydali masalalarini o‘zida qamragan muhim asardir. Asarning afzal jihatlari haqida alloma al-Hofiz Abu Ja‘far ibn az-Zubayr: “Hadisiy ilmlarning turli sohalarida imom at-Termiziyning benazir xizmatlari bor”, – deb ta’kidlagan. Darhaqiqat, hadislarning har xil turlarga ajratilgani va ularning har birining rutbasi (darajasi) bayon qilinganligi boisidan ham imom at-Termiziyning “Al-Jomi” asari sahih hadislar uchun ham, hasan hadislar uchun ham, shuningdek, illatli hadislar va ular bilan bog‘liq masalalar uchun ham muhim bir manba vazifasini o‘taydiki, bu masalalar boshqa asarlarda kuzatilmaydi. Imom at-Termiziy asarining boshqa asarlardan ajratib turgan yana bir jihati – asarda muallif o‘z maqsadini - bu roviylar haqidami, hadislarning darajasi xususidami, hadislardagi illatlarni bayon qilishdami, fiqhiy boblardagi ma’nolardami ochiq-oydin va tushunarli holda ifoda qiladi. U o‘z kitobida faqat eng to‘g‘ri (asahhu) hadislar bilan chegaralanib qolmaydi. U sahih va eng to‘g‘ri (asahhu), hasan, zaif, solim (sog‘lom), illatli hadislarni ham zikr qiladi. Imom at-Termiziy asarining ana shunday afzal va foydali tomonlari xususida al-Hokim an-Naysoburiy “Al-Madxal ilo ma‘rifat kitob al-ikliyl”, al-Muqaddasiy “Shurut al-aimmat as-sitta” kabi asarlarida alohida ta’kidlab o‘tganlar.

Hadis ilmining istilohlarini yaratishda ham imom at-Termiziyning hissasi kattadir. Hadis ilmiga doir istilohlarni o‘rganishda asosiy manba hisoblangan “Ulum al-hadis” (Hadis ilmlari) kitoblarida uchraydigan barcha istilohlar imom at-Termiziyning “Al-Jomi” asarida keng ko‘lamda keltirilgan. Binobarin, imom at-Termiziy asari bu sohada ham muhim amaliy qo‘llanma vazifasini o‘taydiki, ayni xildagi ko‘p asarlar xususida bu fikrni ayta olmaymiz. At-Termiziyga ergashib, uning asaridan ta’sirlanib, uning uslubiga taqlid qilib asar yaratgan mualliflardan imom ad-Doruqutniyni (vaf. 995) ko‘rsatish mumkin. U o‘zining ulkan asari “As-Sunan”ni yaratishda aynan at-Termiziy yo‘lidan yurib, hadislarni turli toifalarga ajratib, ularni sahih, hasan va zaif darajalariga taqsimlab keltirdi. Shuningdek, imom Abdulazim al-Munziri (vaf. 1258) ham “At-Targ‘iyb vat-tarhiyb”da imom at-

Termiziy uslubidan foydalanib, har bir hadis haqida alohida fikr yuritdi.

Imom at-Termiziy o‘zining “Kitob al-Ilal” asarida hadis ilmining turli masalalariga doir qimmatli bahslarni jamlaganki, undan oldin bironta ham olim bunday ishlarni amalga oshirmagan.

Hadis ilmining rivojida ulkan hissasi uchun imom at-Termiziy va uning muhim asarlari olimu ulamolar tomonidan yuksak baholanib keldi. Jumladan, alloma al-Idrisiy: “U ilm al-hadisda iqtido qilinadigan olimlardan biri bo‘lib, “Al-Jomi”, “Tarixlar”, “Al-Ilal” kabi buyuk asarlar tasnif etdi. Hifzda (yodlashda) u haqida masalalar keltiradilar”, – desa, muarrix Ibn al-Asir u haqda: “Hadis ilmida iqtido qilinadigan buyuk olimlardan biri, u eng buyuk hofizlardan ham sanaladi”, – deb yozgan. Imom at-Termiziy o‘z ustoz va safdoshi imom al-Buxoriy suhbatida bo‘lganda, u at-Termiziyga: “Men sendan ko‘rgan foyda sen mendan ko‘rgan foydadan ko‘proq”, – deb uning bilimi va aql-idrokiga yuksak baho bergan.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, imom at-Termiziy hadis ilmining ravnaqiga munosib hissa qo‘shgan buyuk alloma sifatida ulug‘langan. Shu bilan birga, uning faoliyatiga bir qadar ta‘na bilan qaragan olimlar ham bo‘lgan. Uni Sahih va hasan hadislar darajasi (rutbasi)ni aniqlashda biroz ko‘ngli bo‘sh, iltifotli bo‘lgan, bu shundan iboratki, ba‘zi bir sahih yoki hasan hadislar ushbu darajaga loyiq bo‘lmasa ham, ularni sahih va hasan deb qabul qilgan, deyishadi. Mana shunday ta‘na bildirganlardan biri tarixchi Shamsuddin az-Zahabiy bo‘lib, u o‘z asari “Mizon al-e’tidol”da shu e’tirozini bildirgan. Lekin imom at-Termiziy ijodini chuqur o‘rganish qator tadqiqotchilar az-Zahabiy e’tirozlari aksar qolda asossiz ekanligini ilmiy, asosli xulosalar bilan isbotlaganlar. Ayni vaqtda imom at-Termiziyning o‘zi ham ushbu asarini yozib tugatgach, o‘z davrining yyetuk olimlari hukmiga havola etgan va ular muhokamasidan o‘tkazgan. Bu haqda alloma shunday hikoya qiladi: “Ushbu asarimni tasnif etgach, Hijoz ulamolariga taqdim qildim, ular ma‘qulladilar, keyin Iroq ulamolariga ko‘rsatdim, ular ham ma‘qulladilar, keyin Xuroson ulamolariga ham asarimni ko‘rsatganimda, ular ham ma‘qul topdilar”.

Abu Iso at-Termiziyning boshqa bir muhim asari “Ash-Shamoil an-nabaviya” (Payg‘ambarning alohida fazilatlarini) deb ataladi. Bu asar, yuqorida aytilganidek, ba‘zi manbalarda “Ash-Shamoil fi

shamoil an-nabiy sallolohu alayhi va sallam”, “Ash-Shamoil Muhammadiya” nomlari bilan ham keltirilgan. Asar Payg‘ambar (s.a.v.)ning shaxsiy hayoti, u zotning suvrat va siyratlari, ajoyib fazilat va odatlariga oid to‘rt yuzu sakkiz hadisi sharifni o‘ziga jamlagan qimmatli man-baadir. Bu o‘rinda shuni ta’kiddash kerakki, ushbu mavzu, ya’ni Payg‘ambar (s.a.v.)ning fazilatlarini, odatlari haqidagi hadislarini to‘plash bilan juda ko‘p olimlar, muhaddislar shug‘ullanganlar va bu xildagi hadislar turli-tuman kitoblardan o‘rin olgan. Lekin at-Termiziy asarining boshqalardan afzalligi va qimmatini shundaki, muallif imkoni boricha Payg‘ambar (s.a.v.) fazilatlariga doir barcha hadislarini muntazam ravishda to‘plab, mantiqan izchil bir holatda tartibga keltirgan va o‘ziga xos mustaqil, yaxlit kitob shaklida tasnif qilgan. “Ash-Shamoil an-nabaviya” azaldan islomshunos olimlar va tadqiqotchilarning diqqatini o‘ziga jalb qilib keladi. Arab tilida bitilgan ushbu asarga bir qancha sharhlar va hoshiyalar ham yozilgan. Ulardan Abdu-rauf al-Munoviy al-Misriyning (vaf. 1003 h.) “Sharhush-Shamoil”, Ali ibn Sulton al-Haraviy al-Qoriyning (vaf. 119 h.) “Jam‘ul-vasoil fi sharhish-Shamoil”, Sulaymon ibn Umar ibn Mansur al-Jumalning “Al-Mavohib al-Muhammadiya bi sharh ash-Shamoil at-Termiziya” (bu asarning bir qo‘lyozmasi Qohiradagi al-Azhar kutubxonasida 144 (hadis ilmi) - raqami ostida saqlanmoqda), Muhammad ibn Jasus al-Molikiyning (vaf. 1182 h.) “Al-Favoid al-jaliyla al-bahiya ala Ash-Shamoil al-Muhammadiya” (bu asar 1927 yilda nashr qilingan) va nihoyat, al-Azharning sobiq shayxi Ibro-him al-Bojuriyning (vaf. 1277 h.), “Al-Mavohib al-Laduniya ala ash-Shamoil at-Termiziya” kabi sharhlarini ko‘rsatish mumkin.

Kezi kelganda shuni ham ta’kidlash kerakki, asarning tili oddiy va ravon bo‘lib, uslubi goyatda soddaligi bilan ham ko‘pchilik asarlardan ajralib turadi. Muhim tarixiy manba sifatida “Ash-Shamoil an-naba-viya» fors va turk tillariga ham tarjima qilingan. 1248 hijriy yili Hisomiddin an-Naqshbandiya tomonidan turkiy tilga qilingan tarjimasi arab tilini bilmaydigan turkiy xalqlar uchun g‘oyatda foydali qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. At-Termiziyning ushbu asariga sharh yozgan shayx Ibrohim al-Bojuriy: “Imom at-Termiziyning “Ash-Shamoil an-nabaviya” kitoblari o‘z bobida yakkayu yagona asardir. Tartibi va o‘z ichiga olgan mavzulari jihatidan yagona bo‘lib, nodir kitoblar jumlasidan hisoblanur. Uning ovozasini Mag‘ribu Mashriqqa borib etdi”, deya ta’kidlaydi. Mashhur olim Ali Ibn Sulton al-Haraviy

al-Qoriy o‘zining “Jam’ul-vasoil fi sharh ash-Shamoil” nomli sharhida at-Termiziyning ushbu asari xususida shunday deb yozadi: “Rasululloh sallolohu alayhi va sallamning fazilatlari, axloqlari haqida tasnif etilgan musannafotlarning eng chiroyli va yaxshisi bu imom at-Termiziyning Payg‘ambar siyratlari haqidagi mukammal va muxtasar kitobidir. Bu kitobni mutolaa qiluvchi, janobi Payg‘ambarni ko‘rganday va ul zotning har bobdagi mahosini shariflaridan bahramand bo‘lganga o‘xshaydi”. Oldinroq eslatib o‘tganimizdek, asarning Saudiya Arabistonida istiqomat qilgan vatandoshimiz Sayyid Mahmud Taroziy tomonidan ona tilimizga qilingan muxtasar tarjimasi 1990 yili imom at-Termiziyning 1200 yillik yubileyi munosabati bilan Toshkentda qaytadan nashr qilindiki, bu hol buyuk muhaddisning qimmatli asarini o‘rganishda katta ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

“Ash-Shamoil an-nabaviya”ning tuzilishi va tarkibi haqida gapiradigan bo‘lsak, bu muxtasar asar ellik olti bobga bo‘linib, “Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning jismi karimlari haqida rivoyat qilingan hadisi shariflar bobi” kabilardan tashkil topgan. Umuman olganda, mazmun-mohiyatiga ko‘ra asarni ikki asosiy qismga bo‘lish mumkin. Birinchi qismga mansub hadislar Payg‘ambar (s.a.v.)ning suvrat (tashqi qiyofa)lariga bag‘ishlangan. Bularga ko‘ra Payg‘ambarimiz novcha ham, pakana ham bo‘lmay, balki o‘rta bo‘yli, yag‘rindor, qo‘llari bo‘lali, go‘shtdor va doimo tuk bilan qoplangan, kaftlari bo‘liq, qirg‘iyburun, peshonalari keng, ko‘zlari katta-katta bir zot bo‘lganlar.

Asarning ikkinchi qismida keltirilgan hadisi shariflar esa Payg‘ambar (s.a.v.)ning siyrati – ichki dunyosi va axloqiy fazilatlarini bayon qiladi. Bu hadislar bilan tanishar ekanmiz, Muhammad (s.a.v.) axloqiy jihatlardan namunaviy, mukammal bir siymo ekanligini, muomalada u zotning kattalaru-kichiklar, ayollaru- erkaklar, boylaru-kambag‘allar bilan o‘zini bir xil darajada tutishlarini, ro‘zg‘or va oila yumushlarida o‘z ayollariga astoydil ko‘maklashib yordam berishlarini, basharti biror gunoh kilib qo‘ygan kishi uzr so‘rasa, uning gunohlarini kechirganlarini, barcha odamlar – katta-kichik bilan o‘ta iltifotli muomalada va g‘oyat shirin-suxan bo‘lganlarini, yo‘lda uchragan barcha kishilarga birinchi bo‘lib salom berib, samimiy hol-ahvol so‘rashlarini bilib olamiz.

Asarda bekamu ko‘st keltirilgan Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ga mansub yuksak insoniy fazilatlar, u zotning go‘zal xulqi muboraklari,

har qanday tahsinga sazovar sifatu siyratlari haqida to'la va mukammal ma'lumotga ega bo'lamizki, shubhasiz, bularning hammasi zamonamiz ahlining, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy va ax-loqiy tarbiyasida muhim ahamiyatga molikligi bu bebaho asarning bugungi kunda ham naqadar katta qimmatga egaligini ko'rsatadi.

“Ash-Shamoil an-nabaviya”ning XVI asrga oid bir ajoyib qo'lyozmasi Toshkentda, O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanmoqda. 1980 yilda mazkur idora buyurtmasi bilan “Ash-Shamoil an-nabaviya”ning ushbu qo'lyozmasi ofset tariqasida nashr etilgan bo'lib, undagi qisqacha so'zboshi sobiq O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi hay'atining raisi, marhum muftiy Ziyovuddinxon Ibn Eshon Boboxon hazratlari tomonidan yozilgan. Bundan tashqari, “Ash-Shamoil an-nabaviya”ning ayrim qo'lyozmalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ham saqlanmoqda.

Imom at-Termiziyning bizgacha etib kelgan “Al-Ilal fil-hadis (Hadislardagi illatlar yoki nuqsonlar) nomli muhim asari ham bo'lib, u, asosan, ikki mustaqil asardan tashkil topgan. Ulardan biri “Al-Ilal al-kabir” yoki “Al-Mufrad” nomi bilan atalib, ba'zi olimlarning fikricha, at-Termiziyning bu asari bizgacha etib kelmagan. Garchand aksar tadqiqotchilar ham shunday fikrda bo'lsalarda, imom at-Termiziyning hayoti va faoliyatiga doir maxsus risola yozgan olim Nuriddin Atar (ushbu risolaning Bayrutda 1988 yilda chop etilgan ikkinchi nashrida) Turkiyaning qimmatli qo'lyozmalarga boy kutubxonalaridan birida at-Termiziyning “Al-Ilal al-kabir” asarining yagona qo'lyozmasini ko'rgani va undan fotonusxa olib o'z tadqiqotining ushbu qayta nashrida foydalangani haqida yozadi. Uning aytishicha, at-Termiziy “Al-Ilal al-kabir”ni ta'lif etgan paytda uni boblarga bo'lmagan holda yozgan. Ammo keyinchalik bu ajoyib kitob olim Abu al-Valid al-Qoziy tomonidan tartibga keltirilib, boblarga ajratilgan va kitob oxiridagi mustaqil bir bob hadislar rijol (roviy)lari haqida fikr-mulohazalarni o'z ichiga kamragan.

“Al-Ilal”ning ikkinchisi “Al-Ilal as-sag'ir” deb atalib, u muallifning bosh asari “Al-Jomi' as-sahih”ga bevosita aloqador bo'lganligi sababli xotima tariqasida ushbu asarning oxirida keltirilgan. Umuman olganda, arabcha “ilal” so'zi “illat”ning ko'pligi bo'lib, o'zbekcha kasal, betob, xasta, noqis, illatli, og'ish kabi

ma'nolarni anglatadi. Hadis ilmida ilal masalasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu soha hadislarda har xil sabablarga ko'ra roviylar tomonidan sodir etilgan zaiflik, noaniqlik, g'alat, xato, sahv u yanglishlarni tadqiq qilishdek nozik va o'ta mas'uliyatli vazifa bilan shug'ullanadi. Ko'pgina muhaddislarning hadislarga bu jihatdan ham katta e'tibor berib asarlar yaratgani bu ilmning islom ta'limotida g'oyatda foydali va muhim ahamiyat kasb etganidan dalolatdir.

Imom at-Termiziyning o'zi "ilal" masalasi xususida: "Bu (ilal) masalada uzoq vaqt fikr-mulohaza yuritdim, buning boisi shundaki, bizdan shu xususda so'ralganda, oldin o'z nuqtai nazarimizni ochiq-oydin aytmadik. Sababi – birinchidan, bizdan avval ilal masalasi xususida so'ralgan bir qancha ulamolar ham o'z fikrlarini bildirmaganlar, ikkinchidan, ba'zi muhaddislar o'rtalarida hadisda bo'lgan roviylarning xato, yanglish va vahmlarini aytish g'iybat bo'ladi, degan ulamolar ham bor edilar. So'ng odamlar jamiyat manfaatlarini o'ylab, bir qancha mashhur muhaddislar, xususan, imom al-Buxoriy bilan bir necha yillik muloqot bo'lganidan keyin hamda mazkur fikrga aloqador rivoyatlarni eshitgandan keyin ilal masalasini oshkora qilishga jazm qildim. Na Iroqda, na Xurosonda ilal, tarix va isnodlar sohasida imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydan bilimdonroq kishini ko'rmadim", – deydilar.

Illatli hadislar xususida imom al-Buxoriyning ustozlari Ali ibn Abdulloh al-Madiyniy, imom Ahmad ibn Hanbal, imom al-Buxoriy, imom Muslim, imom at-Termiziy, Abu Hotam va boshqalar asarlar yozganlar. Mana shu buyuk muhaddislar uchun ham imom at-Termiziyning ilal to'g'risidagi asarlari hadislarning siqasi (to'g'riligi, aniqligi)ni tekshirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar.

1. Hadis ilmining rivojida oltin davr.
2. Imom al-Buxoriyning hayoti va ilmiy merosi
3. Abu Iso Muhammad at-Termiziy hadisshunos olim
4. Mustaqillik yillarida allomalarimiz yubileylarining nishonlanishi.

4 – MAVZU: ABU NASR FOROBIY O`RTA ASRNING BUYUK QOMUSIY OLIMI (873-950)

Reja

1. Abu Nasr Forobiy jahon madaniyatiga katta hissa qo`shgan Markaziy Osiyolik mashhur faylasuf
2. Abu Nasr Forobiy ilmiy merosi va uning jahon tarixida tutgan o`rni
3. Fanda Farobiyshunoslik

Tayanch so‘z va iboralar: Uslug‘ Tarxon, “Al-Muallim assoniy”, “Sharq Arastusi”, Halab ,Aleppo, “Metafizika”, ”Etika”, “Ritorika”, “Sofistika”, aristokratiya, demokratiya

Forobiy uning taxallusi bulib, to‘liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uslug‘ Tarxon – jahon madaniyatiga katta hissa qo‘shgan Markaziy osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy olim. O‘rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji uning nomi bilan bog‘liq. Forobiy o‘z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo‘shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug‘lanib, “Al-Muallim assoniy” – “Ikkinchi muallim” (Aristoteldan keyin), “Sharq Arastusi” deb yuritilgan.

Forobiy turkiy qabilalardan bo‘lgan harbiy xizmatchi oilasida, Sirdaryo qirg‘og‘idagi Forob – O‘ror degan joyda tug‘ilgan. U tug‘ilgan hudud Somoniylar tomonidan boshqarilib, arab xalifaligining shimoliy chegarasi hisoblangan. Forobiy boshlang‘ich ma‘lumotni ona yurtida oddi. So‘ng Toshkent (Shosh), Buxoro, Samarqandda o‘qidi. Keyinroq o‘z ma‘lumotini oshirish uchun arab xalifaligining madaniy markazi bo‘lgan Bag‘dodga keldi. Bag‘dodda bu davrda musulmon dunyosining turli o‘lkalaridan, xususan Markaziy Osiyodan kelgan ko‘p ilm ahllari to‘planishgan edi. U yerga bora turib Forobiy Eron shaharlari – Isfahon, Hamadon, Rayda va boshqa joylarda bo‘ldi. Forobiy Bag‘dodda al-Mutaddil (829–902), al-Muqtafiy (902–908), al-Muqtadir (908–932) xalifaliklari davrida

yashadi. U bu erda oʻrta asr fani va tilining turli sohalari, yunon falsafiy maktablari bilan chuqur tanishib, oʻzga diniy eʼtiqod, falsafiy fikrdagi kishilar bilan ilmiy muloqotda boʻddi. Abu Bashar Matta ibn Yunusdan (870–940) yunon tili va falsafasini, Yuhanna ibn Xiylon (860–920)dan tabobat va mantiq ilmini oʻrgandi.

Taxminan 941 yildan boshlab Forobiy Damashqda yashagan. Shahar chekkasidagi bogʻda qorovul boʻlib, kamtarona kun kechirib, ilm bilan shugʻullangan. Soʻnggi yillar u Halab (Aleppo hokimi Sayfuddavla Hamdamid (943–967) iltifotiga sazovor boʻldi. Tadqiqotchilar uning Halabdagi hayotini eng samarali davr hisoblaydilar. Chunki bu hokim hurfikrliligi, ilm-fanga eʼtibor berganligi bilan ajralib turgan. U Forobiyni saroyga taklif etadi, lekin Forobiy bunga koʻnmaydi, oddiy hayot kechirishni afzal koʻradi.

Forobiy 949–950 yillarda Misrda, soʻng Damashqda yashab, shu yerda vafot etgan va “Bob as-sagʻir” qabristoniga dafn qilingan deyiladi.

Forobiy oʻrta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yaratgan. U turli bilimlarning nazariy tomonlari, falsafiy mazmuni bilan koʻproq qiziqqanligi uchun uning asarlarini 2 guruhga ajratish mumkin:

1) yunon faylasuflari, tabiatshunoslarining ilmiy merosini izohlash, targʻib qilish va oʻrganishga bagʻishlangan asarlar;

2) fanning turli sohalariga oid mavzulardagi asarlar.

Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari – Platon, Aristotel, Evklid, Ptolemey, Porfiriylarning asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa, Aristotel asarlari (“Metafizika”, ”Etika”, “Ritorika”, “Sofistika” va b.)ni betafsil izohlab, qiyin joylarini tushuntirib bera olgan, kamchiliklarini koʻrsatgan, ayni vaqtda bu asarlarning umumiy mazmunini ochib beruvchi maxsus asarlar yaratgan. Forobiy sharhlari Oʻrta va Yaqin Sharq ilgʻor mutafakkirlarining dunyoqarashini shakllantirishda, ularni Aristotel gʻoyalari ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega boʻldi. Abu Ali ibn Sino Forobiy sharhlari (“Metafizika” – “Mobaʼdiy tabiat”)ni oʻqib, Aristotel asarlarini tushunganligini alohida taʼkidlaydi. Forobiyning sharh yozish faoliyati faqat Sharqningina emas, oʻrta asr Yevropasini ham yunon ilmi bilan tanishtirishda katta rol oʻynadi. Bu faoliyat uning ilmiy faoliyati taraqqiyotining birinchi bosqichini tashkil etadi. Bu bosqich

Forobiyga o‘ziga xos maktab xizmatini o‘tagan va yangi mavzularda tadqiqotlar olib borish uchun zamin hozirlagan.

Forobiyning bunday asarlarini mazmuniga qarab quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

falsafaning umumiy masalalariga, ya’ni bilimning umumiy xususiyatlari, qonuniyatlari va turli kategoriyalariga bag‘ishlangan asarlar: “Substanstiya haqida so‘z” (“Kalom fi-l javhar”), “Masalalar manbai” (“Uyunul masoil”), “Qonunlar haqida kitob” (“Kitob fi-l navomis”), “Falak harakatining doimiyliigi haqida” (“Kitob fi-l harakat al-falaka doimatun”) va b.;

inson bilish faoliyatining falsafiy tomonlariga bag‘ishlangan, ya’ni bilishning shakllari, bosqichlari, usullari haqidagi asarlar. Mantiq (logika)ning turli muammolariga doir asarlari ham shunga kiradi: “Kattalarning aqlii haqida so‘z” (“Kalom fi-l aql al-Kabir”), «Yoshlarning aqlihaqida kitob» («Kitob fi-l-aql as-sag‘ir»), «Mantiq haqida katta qisqartma kitob» («Kitob al-muxtasar al-kabir fi-l mantiq»), «Mantiqqa kirish kitobi» («Kitob al-madخال ila-l mantiq»), «Isbot kitobi» («Kitob al-burxon»), «Silloqizm shartlari kitobi» («Kitob sharoit al-qiyos»), «Jon (ruh)ning mohiyati haqida risola» («Risola fi mohiyat an-nafs») va b.;

falsafa va tabiiy fanlarning fan sifatidagi mazmuni, tematikasi haqidagi asarlar: «Ilmlarning kelib chiqishi va tas-nifi» («Kitob fi ixso al-ulum va at-ta‘rif»), qisqacha nomi «Ixso al-ulum»), «Falsafa tushunchasining ma‘nosi haqida so‘z» («Kalom fi ma‘oni ism al-falsafa»), «Falsafani o‘rganishdan oldin ni-mani bilish kerakligi haqida kitob» («Kitob fi ashyo allati yaxto-ju antallama kabl al-falsafa»). «Falsafaga izohlar». («Taoliq fi-l hikmat») va b.;

moddaning miqdori, fazoviy va hajmiy munosabatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan, ya’ni matematika fanlari – arifmetika, geometriya, astronomiya va muzikaga oid asarlar: «Hajm va miqdor haqida so‘z» («Kalom fi-l xiyz val miqdor»), «Fazo geometriyasi-ga kirish haqidagi qisqartma kitob» («Kitob al-madخال ila-l han-dasat al-vaxmiyati muxtasarsan»), «Astrologiya qoidalari haqida mulohazalarni to‘g‘rilash usuli haqida maqola» («Maqola fi-l ji-hat allayati yassexxu alayxo al qavl bi axkom an-nujum»), «Muzika haqida katta kitob» («Kitob ul-musika al-kabir»), «Muzika haqida so‘z» («Kalom fi-l musiqiy»), «Ritmlar turkumlari haqida kitob» («Kitob ul fi ixso-il-iqo») va b.;

modda xossalari va turlarini, noorganik tabiatning, hay-vonlar va inson organizmining xususiyatlarini o'rganuvchi, ya'ni tabiiy fanlar – fizika, kimyo, optika, medistina, biologiyaga ba-g'ishlangan asarlar: «Fizika usullari haqida kitob» («Kitob fi usul ilm at-tabiat»), «Alkimyo ilmining zarurligi va uni inkor etuvchilarga raddiya haqida maqola» («Maqola fi vujub sanoat al-kimyo va-r radd ala mubtiluho»), «Inson a'zolari haqida risola» («Risola fi a'zo al-insoniya»), «Hayvon a'zolari to'g'risida so'z» («Kalom fi a'zo al-hayvon») va b.;

tilshunoslik, she'riyat, notiqlik san'ati, xattotlikka oid asarlar: «She'r va qofiyalar haqida so'z» («Kalom fi she'r val qavofi»), «Ritorika haqida kitob» («Kitob fi-l xitoba»), «Lu-g'atlar haqida kitob» («Kitob fi-l lug'at»), «Xattotlik haqida ki-tob» («Kitob fi san'at al-kitobat») va b.;

ijtimoiy-siyosiy hayot, davlatni boshqarish masalalariga, axloq, tarbiyaga bag'ishlangan, ya'ni huquqshunoslik, etika, pedago-gikaga doir asarlar: «Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola» («Risola fi-t tanbih ala asbob as-saodat»), «Shaharni boshqa-rish» («As-siyosat an-madaniya»), «Urush va tinch turmush haqida kitob» («Kitob fi maoyish val xurub»), «Fazilatli xulqlar» («As-siyrat al-fazila») va b.

Forobiyning ilmiy merosi, umuman, o'rta asr Sharqining ma-daniy-ma'naviy hayotidan, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy masa-lalaridan juda boy ma'lumot beradi. Mutafakkir o'z asarlarini o'sha davrda Sharq mamlakatlarida ilmiy-adabiy til hisoblangan arab tilida yozadi. Forobiy shuningdek, arab va fors tillarida falsafiy mazmundagi she'rlar ham yozgan.

Forobiy asarlari XII–XIII asrlardayoq lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga, keyinchalik boshqa tillarga tarjima qilinib, dunyoga keng tarqalgan. So'nggi asrlarda ko'chirilgan nusxalari ko'p mamlakatlarning kutubxona va muassasalarida saqlanadi. Toshkentda Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida qadimgi Sharq faylasuflari asarlaridan jami 107 risolani, jumladan, Foro-biyning 16 risolasini (arabcha) o'z ichiga olgan «Hakimlar risolalari to'plami» («Majmuat rasoil al-hukamo», Qo'lyozmalar fondi, 2385-in.) bor. Bu noyob qo'lyozma Forobiy asarlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. To'plamdagi Forobiy risolalari 1975 yili qisman o'zbek tiliga tarjima qilinib nashr etildi.

Forobiyning tabiiy-ilmiy fanlar haqidagi qarashlari «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi» asarida batafsil yoritilgan. Kitobda oʻrta asrda maʼlum boʻlgan 30 dan ortiq fanning taʼrifi, ahamiyati koʻrsatib beriladi. Barcha fanlar 5 guruhga ajratiladi:

1) til haqidagi ilm (7 boʻlim – grammatika, orfografiya, sheʼriyat);

2) mantiq va uning boʻlaklari;

3) matematika (arifmetika, geo-metriya, optika, astronomiya, muzika, ogʻirlyklar haqidagi ilm, mexanika);

4) tabiatshunoslik va metafizika (8 boʻlim – bashorat qilish, tibbiyot, alkimyo);

5) shahar haqidagi fanlar – siyosiy ilm, fiqh, kalom (etika, pedagogika).

Fanlarning bu tasnifi oʻz davrida ilmiy bilimlarni maʼlum tizimga solishning mukammal shakli boʻlib, bilimlarning keyingi rivoji uchun katta ahamiyatga ega boʻldi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, Forobiy tabiiy va ijtimoiy fanlarni vazifasidan kelib chiqib toʻgʻri farqlagan. Uning talqinicha, matematika, tabiatshunoslik, metafizika fanlari inson aqlini bilimlar bilan boyitish uchun xizmat qilsa, grammatika, mantiq, sheʼriyat kabi ilmlar fanlardan toʻgʻri foydalanishni, bilimlarni boshqalarga toʻgʻri tushuntirish, yaʼni aqliy tarbiya uchun xizmat qilgan. Siyosat, axloq, taʼlim-tarbiyaga oid bilimlar esa kishilarning jamoalarga birlashuvini, ijtimoiy hayotga tegishli qoidalarni oʻrgatadi.

Forobiy insonning amaliy faoliyati uchun tabiiy fanlarning ahamiyatini yaxshi tushunadi. Bunday fanlarni u real narsalar haqidagi ilmlar deb ataydi. U yunon tabiatshunoslari Evklid, Ptolemey, Galen kitoblariga yozgan sharhlarida, oʻzining geometriyaga doir kitobida antik dunyo, oʻrta asr matematik gʻoyalarning yirik bilimdoni sifatida maydonga chiqdi, matematikaning bir qancha murakkab kategoriyalari va mavhum tushunchalarini ilmiy nuqtai nazardan hal etish yoʻllarini qidirdi, xususan son haqidagi ehtimollik nazariyasi toʻgʻrisidagi gʻoyalarni boyitdi.

Forobiy “Yulduzlar haqidagi qoidalarda nima toʻgʻri va nima notoʻgʻriligi toʻgʻrisida” risolasida osmon jismlari bilan erdagi hodisalar oʻrtasidagi tabiiy aloqalarni, xususan bulutlar va yomgʻirlar paydo boʻlishining Quyosh issiqligi taʼsirida bugʻlanishga sababiy bogʻliqligini yoki Oy tutilishi Yerning Quyosh bilan Oy oʻrtasiga

tushib qolishiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatgan edi. Bu bilan u osmon jismlariga qarab «fol ochuvchilar»ni fosh qildi. Forobiy arzon metallarni qimmatbaho metallarga aylantirishga urinuvchilarni (q. Alkimyo) tanqid qilib, kimyoga tabiiy ilmlarning bir qismi sifatida qaradi. Forobiy tabiblik bilan bevosita igug‘ullanmagan bo‘lsada, nazariy tibbiyotni yaxshi bilgan. Uning tibbiy qarashlari «Inson a’zolari haqida» risolasida bayon qilingan. U inson a’zolarini, turli xil kasalliklar sababini, ularning paydo bo‘lish sharoitlarini alohida-alohida o‘rganishni, organizmning salomatligini tiklash uchun kerakli oziq-ovqatlarga e’tibor berishni qayd etadi. Insonning ruhiy vajismoniy holati tashqi omillar, muhit ta’siriga bog‘liqligiga e’tibor beradi. Uning tibbiyot vazifasi, maqsadi haqidagi qarashlari Ibn Sinoning bu haqstagi qarashlariga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Forobiy dunyoqarashining shakllanishiga asosan Sharqning qadimgi ilg‘or madaniyati an‘analari, arab xalifaligiga qarshi xalq harakatlari, o‘rta asr tabiiy-ilmiy tafakkur yutuklari, Yunonistonning falsafiy merosi ta’sir ko‘rsatdi. Forobiy avvalambor Aristotel ta’limotini tiklash, asoslash va ilg‘or tomonlarini so‘nggi ilmiy yutuqlar asosida rivojlantirishga harakat qilib, Sharq aristotelizm oqimini vujudga keltirdi. Bu oqimning uslubi, muhim masalalari, kategoriyalarini ishlab chiqdi.

Forobiyning falsafiy ta’limoti mohiyat-e’tibori bilan an’anaviy ilohiyot – kalomdan tubdan farq qilib, ilmiy g‘oyalar bilan yo‘rilgandir. Forobiy falsafasiga ko‘ra, olam yagona mavjudotdan iborat, yagona vujud-vujudi vojib, ya’ni azaliy vujud – birinchi sabab hamda vujudi mumkin – yaratilgan, kelib chiqqan vujudlar natijalaridan iboratdir. Alloh – azaliy vujud (vujudi vojib) hamma narsaning ibtidosi, barcha vujudlar – vujudi mumkin undan asta-sekinlik bilan pog‘onama-pog‘ona kelib chiqadi, buning so‘nggi pog‘onasi moddadir. Uning fikricha, tabiat moddaning turli shakllarining paydo bo‘lishi, sabab-oqibat munosabatlari asosida, muayyan izchillik va zarurat bo‘yicha kechadigan tadrijiy jarayondir. Forobiy «Masalalar mohiyati», «O‘zgaruvchan narsalar haqida» risolalarida modda fazoda ham, vaqtda ham cheklanmagan, intihosiz degan fikrni ilgari suradi. Shu tarzda panteizmning Sharqdagi ko‘rinishi vujudiyun ta’limotini yangi g‘oyalar bilan boyitdi.

Borliqning kelib chiqishi haqida Forobiy ta’limotida – mavjudot 4 unsur – tuproq, suv, havo, olovdan tashkil topadi; osmon jismlari

ham shu unsurlarning birikuvidan vujudga keladi. Moddiy jismlarning o‘zaro farq qilishiga sabab, ularning ibtidosidagi unsurlarning turlicha bo‘lishidir: olov – issiqlik sababi; suv – sovuqlik, namlik; tuproq – qattqlik sababi. Forobiy butun mavjudotni sabab va oqibat munosabatlari bilan bog‘langan 6 daraja (sabab)ga bo‘ladi: Alloh (as-sabab al-avval), osmon jinlari (as-sabab as-soniy), aql (al-aql al-faol), jon (an-nafs), shakl (as-surat), materiya (al-modda). Bulardan Alloh – vujudi vojib, ya’ni zaruriy mavjuddiqdir, qolganlari esa – vujudi mumkin, ya’ni imkoniy mavjud narsalardir. Bular bir-birlari bilan sababiy bog‘langan.

Forobiy uchun dunyo g‘uncha bo‘lib, asta-sekin o‘zining rang-barang tomonlarini va bitmas-tuganmas boyliklarini tobora ko‘proq namoyon qilib ochila boradi. Borliqning bunday talqini tabiiy-ilmiy g‘oyalarning yanada rivojlanishi uchun keng yo‘l ochdi. Abu Ali ibn Sino va undan keyingi mutafakkirlar o‘zlarining falsafiy qarashlarida shu borliq tizimi asosida ish olib bordilar.

Ilm, bilish va aql haqidagi ta’limot Forobiy asarlarida izchil va mukammal ishlangan. Ilm olish masalasiga u inson mohiyatini tushuntirib berishning tarkibiy qismi sifatida qaradi.

Forobiy fikricha, insonning bilishini, ruhiy qobiliyatlarini miya boshqaradi, yurak esa barcha a’zolari hayot uchun zarur bo‘lgan qon bilan ta’minlovchi markazdir, barcha ruhiy «quvvatlar», jumladan bilish qobiliyati muayyan a’zoga bog‘liq.

Forobiy «Ilm va san’atning fazilatlarini» risolasida tabiatni bilishning cheksizligini, bilim bilmasliqdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga, sifatlardan akstidenstiya (al-oraz)dan substansiya – mohiyat (javhar)ga qarab borishini ilmning borgan sari ortib, chuqurlashib borishini ta’kidlaydi.

Insonning ibtidosida, avvalo «oziqlantiruvchi quvvat» paydo bo‘lib, uning yordamida inson ovqatlanadi. Shundan so‘ng «tashqi quvvat», ya’ni bevosita tashqi ta’sir natijasida sezgi organlari orqali vujudga keluvchi «quvvat»lar – 5 turlidir: teri-badan sez-gisi; ta’min bilish sezgisi; hid bilish sezgisi; eshitish sezgisi; ko‘rish sezgisi. Bularning hammasini Forobiy «hissiyot quvvati» («quvvai hissiyya») deb atab, hissiy bilish qismlari sifatida qaraydi. «Ichki quvvat»ga esda olib qolish, xayol (xotira, tasavvur), his-tuyg‘u, nutq (fikrlash) «quvvat»lari kiradi. «Ichki quvvat»da Forobiy aqliy bilish bosqichini nazarda tutadi. Ilmni egallash shu quvvatlar orqali amalga oshiriladi.

Forobiy bilish jarayoni har 2 bosqichga bog‘liqligini, aqliy bilish hissiy bilishsiz vujudga kelmasligini alohida ta’kid-laydi.

Forobiy «Aql ma’nolari haqida» risolasida aql masalasini chuqur talqin qiladi. U aql bir tomondan, ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan, tashqi ta’sir – ta’lim-tarbiyaning natijasi ekanligini uqtiradi. Forobiy fikricha, aql faqat insongagina xos bo‘lgan tug‘ma quvvat – ruhiy kuch bilan bog‘liq.

Forobiyning aql, umuman bilish haqidagi ta’limotida mantiq (logika) ilmi muhim o‘rin tutadi. «Mantiq san’ati kishiga shunday qonunlar haqida ma’lumot beradiki, – deb yozgan edi u, – bu qonunlar vositasida aql chiniqadi, inson sog‘lom fikr yuritishga o‘rganadi». Forobiy mantiq ilmi bilan grammatika o‘rtasidagi mushtaraklikni qayd etadi: mantiqning aqlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabidir. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi, mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo‘ldan olib borish uchun aqlni to‘g‘rilab turadi.

Forobiy logikasi musulmon Sharqidagi so‘nggi mantiqqa oid fikrlarning rivojiga katta turtki berdi.

Forobiyning bilish, mantiq, aql haqidagi fikrlari uning inson haqidagi ta’limoti uchun xizmat qiladi, unga bo‘ysundi-rilgandir. Aqlga ega bo‘lish, bilimli, mantiqli bo‘lish bilan che-garalanmay, u ma’lum axloqiy prinsiplarga, axloqiy madaniyatga egalik bilan yakunlanishi kerak.

Forobiy aqlli inson haqida gapirib bunday yozadi: «Aqlli deb shunday kiigalarga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etish-ga zo‘r iste’dodga ega, yomon ishlardan o‘zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydir. Yomon ishlarni o‘ylab topish uchun zehnidrokka ega bo‘lganlarni aqlli deb bo‘lmaydi, ularni ayyor, aldoqchi degan nomlar bilan atamoq lozim».

Forobiy o‘rta asrlar sharoitida birinchi bo‘lib jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida izchil ta’limot yarat-di. Bu ta’limotda ijtimoiy hayotning ko‘p masalalari – davlatni boshqarish, ta’lim-tarbiya, axloq, ma’rifat, diniy e’tiqod, urush va yarash, mehnat va boshqalar qamrab olingan.

Forobiy «Fozil shahar aholisining maslagi» risolasida jamiyat («inson jamoasi»)ning kelib chiqishi haqida bunday yozadi: «Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi

yyetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kiritmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi... Bunday jamoa a‘zolarining faoliyati bir butun holda, ularning har biriga yashash va yyetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni etkazib beradi. Shuning uchun insonlar ko‘paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o‘rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keladi».

Forobiy shaharni ijtimoiy uyushishning yyetuk shakli, insoniyat kamolotga erishishining zaruriy vositasi, deb hisoblaydi. Butun insonlarni o‘zaro hamkorlikka, xalqlarni tinchlikka chaqiradi, dunyoda yagona inson jamoasini tuzish haqida orzu qiladi. Mutafakkir inson qadr-qimmatini kamsituvchi jamiyatga qarshi chiqadi. «Davlat arbobining hikmatlari» risolasida esa u doimiy urushlar va bosqinchilikka asoslanuvchi jamiyatni adolatsiz, johil jamiyat sifatida qoralaydi.

Forobiy o‘zining fozil jamoasida odamlarni turli belgilarga qarab guruhlariga bo‘ladi. Kishilarning diniy mazhabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, avvalo aqliy iqtidoriga hamda ilmlarni o‘rganish, hayotiy tajriba to‘plash jarayonida orttirgan bilim va ko‘nikmalariga katta ahamiyat beradi. Itoatkorlikka da‘vat etuvchi ta‘limotlarni keskin qoralaydi.

Forobiy «Baxt-saodatga erishuv yo‘llari haqida risola», «Baxt-saodatga erishuv haqida risola» asarlarida o‘zining orzu qilgan fozil jamiyatini yana ham yorqin tasvirlaydi. «Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, – deb yozadi u, – bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo‘lga kiritiladi». Forobiy davlatni yyetuk shaxs (monarxiya), yyetuk xislatlarga ega bo‘lgan bir necha shaxslar (aristokratiya) va saylangan shaxslar (demokratiya) yordamida boshqarish shakllarini qayd etadi.

Forobiy jamiyat o‘z rivojida yyetuklikka tomon intilishi, shuning uchun kurash olib borishi va nihoyat fozil jamiyat, fozil shahar darajasiga ko‘tarilishi haqida fikr yuritadi.

U shunday yozadi: «Fozil jamiyat va fozil shahar (yoki mamlakat) shunday bo‘ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo‘lgan har bir odam kasb-hunar bilan shug‘ullanadi. Odamlar chin ma‘nosi bilan ozod bo‘ladilar... Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo‘ladi». Forobiy bunday fozil jamoani boshqaruvchi podshoh, rahbarlarga ham ma‘lum talablar qo‘yadi. U xalq haqida doimo

g'amxo'rlik qilishi, boshqalar manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ya bilishi zarur. Bunday jamoani idora etuvchi yoki idora etuvchilar guruhi o'zlarida muhim olti xislatni ifodalashlari kerak, ya'ni adolatli, dono bo'lishi, qonunlarga rioya etishi va qonunlar yarata olishi, kelgusini oldindan ko'ra bilishi, boshqalarga g'amxo'r bo'lishi kerak.

Forobiyning fozil jamoa haqidagi ta'limoti, uning komil inson haqidagi fikrlari bilan uzviy bog'lanib ketadi. Fozil jamoada komil inson xislatlari vujudga keladi. Masalan, axloq odobli yyetuk inson o'n ikki fazilatga ega bo'lmog'i lozim. Bu fazilatlar insonlarning o'zaro munosabatlari mustahkamlanib, yaxshilik tomon yo'nalishida vujudga kela boradi. Forobiyning fozil jamoa va komil inson haqidagi ta'limotlari olim-mutafakkirlarga katta ta'sir ko'rsatdi.

Umuman olganda Forobiyning fozil jamiyati, komil insoni baxt-saodat, o'zaro yordam, dono boshliq, tenglik haqidagi fikrlari o'z davri uchun xayoliydir. Lekin insonni ma'naviy ozod etishga, uning imkoniyatlarini ochishga, gumanistik yo'nalishni asoslashga qaratilgan bu ta'limot ilg'or ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga buyuk hissa bo'lib qo'shildi. Umumbashariy intilishlarni ifodaladi. Uning ijtimoiy g'oyalari keyinchalik so'nggi mutafakkirlar: Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Baxmanyor, Nizomiy, Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bedil, Iqbol, Ahmad Donish va boshqalar ijodida rivojlantirildi.

Forobiy «Muzika haqida katta kitob» degan ko'p jildli asari bilan o'rta asrning yirik muzikashunosi sifatida ham mashhur bo'ldi. U muzika ilmini nazariy, amaliy tarmoqlarga, kuylarning ichki tuzilishi, qonuniyatlarini hisobga olib ta'rif va ilmi ikkiga ajratadi.

Forobiy muzika nazariyasida tovushlar vujudga kelishining tabiiy-ilmiy ta'rifini beribgina qolmay, kuylar garmoniyasining matematik prinsiplarini ochadi, turli jadvallar, geometriya qoidalari asosida ko'plab murakkab chizmalar keltiradi. U Sharq muzikasining ritmik asosini dalillar bilan sharhlab beradi. U ritmlarni tashkil etgan zarb birliklari bo'lmish naqralar, ularning birikmasidan hosil etiladigan ruknlarning turli xillari asosida yaratiladigan ritm o'lchovlari va turlarini yoritib bergan.

«Muzika haqida katta kitob»da faqat muzika nazariyasi va tarixi bayon etilmay, Sharqda ma'lum bo'lgan rubob, tanbur, nog'ora, ud, qonun, nay kabi muzika asboblari hamda ularda kuy ijro etish qoidalari tafsiloti ham berilgan. Forobiyning o'zi mohir sozanda,

bastakor, manbalarda yangi muzika asbobini ixtiro etganligi, unda nihoyatda ta'sirchan kuylar yaratgani qayd etiladi. Forobiy muzikaga inson axloqini tarbiyalovchi, sihat-salomatligini mustahkamlovchi vosita deb qaragan. Uning muzika sohasida qoldirgan merosi muzika madaniyati tarixida olamshumul ahamiyatga ega.

Forobiy o'z davridayoq buyuk olim sifatida mashhur bo'lgan. Sharq xalqlarida u haqta turli hikoya, rivoyatlar vujudga kelgan. O'rta asr olimlaridan ibn Xallikon, ibn al-Qiftiy, ibn Abi Usabi'a, Bayhaqiylar o'z asarlarida Forobiy ijodini o'rganib, uning g'oyalarini rivojlantirganlar. Xususan, ibn Rushd Forobiy asarlarini o'rganibgina qolmay, ularga sharhlar ham («Sillogizmga nisbatan al-Forobiyning fikri», «Abu Nasrning mantiqqa doir asarida ifodalangan fiqrning bayoni» «Al-Forobiy, xususan uning «Organon» izohlariga turli sharhlari» va b.) yozdi. Averroizm nomi bilan mashhur bo'lgan uning falsafiy ta'limotining shakllanishi dastlab Forobiy va Ibn Sino faoliyati bilan bog'liq. Averroizm ilmiy tendenstiyalarni ifodalovchi ilg'or yo'nalish sifatida keng yoyilgan va Uyg'onish davrining ko'p ilg'or mutafakkirlari dunyokarashiga ta'sir ko'rsatgan.

Taraqqiyparvar insoniyat Forobiy ijodiga hurmat bilan qarab, uning merosini chuqur o'rganadi. Yevropa olimlaridan B. M. Shtrenshneyder, Karrade V, T. U. Buur, R. Xammond, R. De Erlanje, F. Deteristi, G. Farmer, N. Rishar, G. Ley, Sharq olimlaridan Nafisiy, Umar Farrux, Turker, M. Mahdi va boshqalar Forobiy merosini o'rganishga muayyan hissa qo'shganlar. Keyingi yillarda uning ijodi va ta'limotiga bag'ishlangan bir qancha tadqiqotlar, asarlar yuzaga keldi.

O'zbekiston va Qozog'istonda Forobiy nomiga qo'yilgan ko'cha, maktab va kutubxonalar mavjud.

Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar

1. Forobiy jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan Markaziy Osiyolik mashhur faylasuf.
2. Forobiyning Damashqdagi faoliyati.
3. Forobiyning boy ilmiy merosi
4. 1975 yilda UNESCO qarori bilan uning 110 yillik yubileyni keng nishonlanishi.

5 – MAVZU: ABU MANSUR AL-MOTURUDIY – BUYUK KALOM IMOMI VA FIQH ALLOMASI. QAFFOL ASH-SHOSHIY O’RTA OSIYOLIK BUYUK ALLOMA

Reja

1. Abu Mansur al-Moturudiy – buyuk kalom imomi
2. Abu Mansur al-Moturudiy ilmiy merosi va uning o`rganilishi
3. Qaffol ash-Shoshiy O`rta Osiyolik buyuk alloma
4. Qaffol ash-Shoshiy ilmiy merosi va uning ahamiyati

Tayanch so‘z va iboralar: Abul-Hasan Ali ibn Sayyid ar-Rustag‘foni, Abu Muhammad Abul-Karim ibn Muso ar-Pazdaviy, Abul-Lays as-Samarqandiy, Abul-Hasan al-Pazdaviy, Abul-Yisr al-Pazdaviy, Abul-Mu’in an-Nasafiy, As-Safar al-Buxoriy, Najmiddin Umar an-Nasafiy, As-Sabuniy al-Buxoriy,

Imom al-Moturidiy (870-944)

Ma’lumki, yurtimizdan azal-azaldan ko‘plab buyuk allomalar yetishib chiqqanlar. Ayniqsa, o‘rta asrlarda (IX–XII) o‘z kashfiyotlari va ta’limotlari bilan jumlai jahonni lol qoldirgan yuzlab ulug‘ allomalar samarali faoliyat ko‘rsatganlar. Mana shunday mashhur siymolar silsilasida kalom ilmining asoschilaridan biri imom Abu Mansur al-Moturidiy hazratlari alohida o‘rin egallaydi. Hayot falsafasini qarangi, aynan 870 yilda buyuk vatandoshimiz, hadis ilmining sultoni imom al-Buxoriy hazratlari vafot topgan yili azim Samarqandning Moturid degan mahallasida ilohiyot ilmining bo‘lg‘usi yorqin yulduzlaridan biri imom Abu Mansur al-Moturidiy dunyoga keladi. Imom al-Moturidiyning hayoti va ilmiy merosi, ayniqsa, yoshlik yillari haqidagi mufassal bo‘lmagan muxtasar ma’lumotlar, asosan, o‘rta asr mualliflari al-Xatib al-Bag‘dodiy, Abdukarim Saa’d as-Sam’oniy, Abul-Fido Zayniddin Qosim ibn Qutlubug‘a, Muhitdin al-Qurashiy, al-Kafaviy, Abul-Mu’in an-Nasafiy, Toshko‘prizoda va Hoji Xalifaning asarlarida keltirilgan.

Allomaning to‘liq ismi Muhammad ibn Mahmud Abu Mansur al-Moturidiy as-Samarqandiy bo‘lib, Samarqandning Moturid (ba’zi manbalarda Moturit) deb ataladigan mahallasida tug‘ilgan. Uning tug‘ilgan yili haqida ham manbalarda juda kam ma’lumotlar

keltirilgan bo‘lib, aksar hollarda 236/870 yil qayd qilingan. Alloma 333/944 yilda vafot etib, Samarqandning mashhur Chokardiza qabristonida dafn etilgani aniq ko‘rsatilgan.

U dastlabki ma‘lumotni otasi Muhammad ibn Mahmuddan, so‘ngra o‘sha davrda boshlang‘ich maktab hajmida bilim beruvchi Kuttobda oladi. Undan keyin Samarqanddagi Raboti g‘oziyon masjidi qoshidaga madrasada ta‘lim olganligi haqida ma‘lumotlar bor.

Imom al-Moturidiyning ilohiyot ilmlarida o‘z davrining yetuk allomasi bo‘lib etishishida ustozlarining hissasi katta bo‘lgan. Uning ustozlari jumlasidan o‘z davrining taniqli olimlaridan Abu Nasr Amad ibn al-Abbos ibn al Husayn al-Iyodiy, Abu Bakr Ahmad al-Juzjoniy, Nusayr ibn Yahya al-Balxiy, Muhammad ibn Muqotil ar-Roziylarni (u Ray shahrining qozisi bo‘lgan) ko‘rsatish mumkin.

Imom al-Moturidiyniig shogirdlari va izdoshlari ko‘p bo‘lib, ulardan Abu Ishoq ibn Muhammad ibn Ismoil, Abul-Hasan Ali ibn Sayyid ar-Rustag‘foniy, Abu Muhammad Abul-Karim ibn Muso ar-Pazdaviy, Abul-Lays as-Samarqandiy, Abul-Hasan al-Pazdaviy, Abul-Yisr al-Pazdaviy, Abul-Mu‘in an-Nasafiy, As-Safar al-Buxoriy, Najmiddin Umar an-Nasafiy, As-Sabuniy al-Buxoriy, Umar al-Hanafiy larni zikr etish mumkin.

Moturidiya ta‘limotining taraqqiy etishiga hissalarini qo‘shgan Imom al-Moturidiy shogirdlarining eng taniqlilaridan biri Abul-Mu‘in an-Nasafiy bo‘lib, u o‘z asarlarida, ayniqsa, “Tabsirat al-adilla” (Dalillar tilga kirganda) nomli tasnifida imom al-Moturidiy va uning ta‘limoti haqqida ko‘p muhim ma‘lumotlarni keltiradi.

Imom Abu Mansur al-Moturidiy haqida yozgan tarixchilar uning tabarruk nomini xilma-xil yuksak va sharafli laqablar bilan bezab zikr qilganlarki, ehtimol, butun musulmon olamidan chiqqan allomalardan birortasiga ham shu tarzdaq fazilatli laqablar nasib etmagan bo‘lsa kerak. Taniqli muarrix al-Kafaviy va boshqa qator mualliflarning yozisharicha, imom al-Moturidiy o‘z zamonasidayoq “Qudvat ahl as-sunna val-ihtido” (Sunnat va hidoyat ahliga ibrat zot), “Rofi’ a’lom al as-sunna val-jamoa” (Ahli sunnat va jamoaning bayrog‘ini baland ko‘taruvchisi), “Qoli’ azoliyl al-fitna val-bid’at” (Xurofot va bid’atga botgan uydirmalarni ildizi bilan qo‘poruvchisi), “Imom al-mutakallimiyn” (Barcha mutakallimlarning imomi), “Musahhah aqid al-muslimiyn” (Barcha musulmonlar aqidalarining tuzatuvchisi), ash-Shayx al-Imom kabi yuksak laqablarga sazovor bo‘lgan alloma

sifatida tan olingan. Bu zotning benazir salohiyatini e'tirof etgan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari ham o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" nomli mashhur asarida: "Shayx Abu Mansur al-Moturidiy o'z zamonining a'lam ulamosi erish. Ul vaqt ulamosi alarni "Sulton al-muizzin" der erishlar. Zohir va botin ulumlari bila orosta erishlar", deb lutf qilgan edilar.

Bu o'rinda taniqli tarixchi at-Tamimiyning ul zoti sharif haqida yozganlariga ham e'tibor qiling: "Imom al-Moturidiy o'z zamonasining eng buyuk allomalaridan biri sifatida tan olinib, barcha uning ilmiyu ma'rifatiga iqtido qilib, uning ta'limoti ziyosini ko'zlariga to'tiyo sifatida surtganlar. Shu bois imom al-Moturidiy nafaqat unga xayrixoh kishilar, balki raqiblari nazdida ham "Imom ahl as-sunna val-jamo'a», "Imom al-hudo" (Rushdi hidoyatga boshlovchi imom) degan eng oliy unvonga sazovor bo'lib, kalom ilmida o'ziga xos bir mo'jiza sifatida dovrug'i doston bo'lgan".

Kezi kelganda aytish kerakki, sunniy oqimida kalom ilmining yana bir yirik namoyandasi imom al-Ash'ariydir va uning ta'limoti al-ash'ariya nomi bilan mashhur. Bu ikkala yirik alloma, bir davrda yashagan bo'lsalarda, adabiyotlarda ular bir-birlarini yaqindan bilmagan degan fikr mavjud. Ularning ta'limotida sezilarli farqlar ham bor. Chunonchi, Moturidiy o'z ta'limotini hanafiya mazhabiga asoslanib yaratgan bo'lsa, al-Ash'ariy shofi'iya mazhabiga asoslangan. Lekin ikkala allomaning ham asosiy maqsadi yagona, unga erishish yo'llari ham deyarli mushtarak bo'lgan. Imom al-Moturidiy ilgari surgan aqida aql va naql asosiga, aniqrog'i, ular o'rtasida qurilgan.

Abu Mansur al-Moturidiyning kalom va fiqh ilmlari sohasidagi qarashlari uning ikki – "Kitob at-Tavhiyd" va "Kitob ta'viylot ahl as-sunna" nomli asarlarida bayon etilgan. Bu boradagi muhim ma'lumotlar allomaning vafotidan keyin moturidiya ta'limotiga bag'ishlanib yaratilgan qator asarlarda ham o'z aksini top-gan.

Imom al-Moturidiy yashagan davr – IX asrning ikkinchi, X asrning birinchi yarmi - tom ma'noda islomiy ilmlar va islom ma'rifatining turli sohalari, jumladan, kalom ilmi ham gullab-yashnagan, aytish mumkinki, ushbu ilmning oltin asri bo'lgan edi. Zamon taqozosi bilan ayni shudavrga kelib ilm-fanda hurfikrlilik alohida ahamiyat kasb etadi. Olimu ulamolar o'z qarashlaridan kelib chiqib, diniy e'tiqod va uning usullari haqida o'z fikr-mulohazalarini

emin-erkin ifoda qila boshlaydilar. Bu hol, o‘z navbatida, turli-tuman guruhlar va firqalar, ularning tarafdorlariga o‘z aqidalarini oshkora izhor qilish imkoniyatini ham yaratadi. Aynan shu asrlarda Movarounnahrda turli-tuman diniy guruhlar va firqalar paydo bo‘ladi. Ulardan keng tarqalganlaridan biri mu‘tazila oqimi edi. Aslida, mutazila oqimi kalom ilmidagi dastlabki yirik yo‘nalish sifatida VIII-IX asrlarda arab xalifa-ligining diniy-siyosiy hayotida salmoqli o‘ringa ega bo‘lgan. Undan keyin paydo bo‘lgan qator oqimlar - jahmiylar, qaramiylar, murji‘lar va boshqa toifalar iymon-e‘tiqod va bilish nazariyasidagi xato qarashlarga ega edilar. Binobarin, imom al-Moturidiyning ilmiy-ma‘naviy merosida aqliy dalil va isbotlarga tayangan holda islom dini aqidasiining sofligini himoya qilish va hidoyat yo‘lidan adashgan mazkur oqimlarga qarshi kurash alohida ahamiyat kasb etgan.

Imom al-Moturidiyning qalamiga mansub asarlarning soni o‘n beshtaga etib qoladi. Ulardan fiqh ilmi va uning usuliga bag‘ishlanganlari quyidagilardir: “Kitob al-jadal” (Dialektika haqida kitob), “Kitob moaxaz ash-shari’a” (Shariat asoslari manbai).

Shu bilan birgalikda, kalom ilmining turli masalalari va to‘g‘ri yo‘ldan adashgan har xil oqimlarga raddiyalar bildirishga bag‘ishlangan asarlar imom al-Moturidiy ijodining asosini tashkil qiladi. Ulardan “Kitob at-tavhiyd”, “Kitob al-maqolot”, “Kitob radd a‘lo-l-karomita”, “Kitob bayon vahm al-mu‘tazila”, “Kitob radd usul al-xamsa li-Abi Muhammad al-Bohiliy”, “Kitob radd avoil al-adillat lil-Ka‘biy”, “Kitob va‘id al-fussoq lil-Ka‘biy”, “Kitob radd tahziyb al-jadal lil-Ka‘biy” kabilarni ko‘rsatish mumkin. Ushbu asarlardan “Kitob at-tavhiyd” kalom ilmiga oid eng dastlabki asar hisoblanib, unda mu‘tazila va boshqa oqimlarning noto‘g‘ri nuqtai nazarlari tanqid ostiga olingan.

Imom al-Moturidiyning boshqa bir yirik asari “Ta‘vilot ahli as-sunna” yoki “Ta‘vilot al-Qur‘on” deb ataladi. Mazkur asarning ilmiy va amaliy ahamiyati juda katta bo‘lib, u ahli sunna ulamolari tomonidan Qur‘oni karimni sharhlash (ta‘vil) bo‘yicha qilingan dastlabki jiddiy urinish bo‘lib, bu sharh aql va naql nuqtai nazaridan amalga oshirilganligi bilan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, Qur‘oni karim imom al-Moturidiyning kalom ilmiga oid ta‘limotlari nuqtai-nazaridan turib tafsir qilingan.

Yuqorida bayon etilganlardan xulosa qilib aytish mumkinki, imom al-Moturidiyning bizgacha etib kelgan ikki yirik asari – “Kitob at-tavhid” va “Ta’vilot ahli as-sunna” buyuk alloma merosida alohida ahamiyatga egadir. Mazkur asarlarda islom dinining falsafasini tashkil etuvchi kalom ilmining turli masalalarida ibratli fikrlar ilgari surilgan, haqiqatdan adashgan firqalar ilmiy nuqtai nazardan tanqid qilingan.

Imom al-Moturidiy fikricha, insonlarning yomon xulqdi ishlari, gunohlari Alloh taoloning irodasi bilan (chunki Alloh shu ishlarni takdir qilgan), lekin uning roziligisiz amalga oshiriladi. Alloh taolo insonlarga o‘z erkini qo‘liga bergan holda yaratgan, ya’ni uning harakatlari azaldan taqdir etib qo‘yilgan bo‘lsada, insonning ba’zi ishlarga sohib ixtiyorigini ham bergandir. Bu ishlarni imom al-Moturidiy “af’oli ixtiyoriy, ya’ni insonda iroda erkinligi mavjud” deb ataydi. Imom al-Moturidiy hazratlarining bundan o‘n bir asr muqaddam aytgan bu ajoyib fikri bugungi kunda ham g‘oyatda dolzarb bo‘lib, inson aql-zakovati va tafakkurining imkoniyatlari cheksiz, uning o‘z xatti-harakatlari uchun esa javobgar ekanligiga ishoratdir. Alloma faoliyatida, yuqorida aytilganidek, muborak islom dinimizning hayotbaxsh mazmun-mohiyatini ravshan talqin qilish, turli bid’at va xurofotlarga botgan guruh va toifalarga qarshi kurash alohida o‘rin egallaydi. Shu nuqtai nazardan ham imom al-Moturidiy ilgari surgan g‘oyalar bugungi kunda ham g‘oyatda dolzarb bo‘lib, nafaqat ilmiy, balki katta amaliy ahamiyatga ham ega.

Imom al-Moturidiyning o‘ziga xos ta’limotini o‘rganish uchun olimlarimiz oldida katta imkoniyatlar mavjud. Chunonchi, allomaning asosiy asarlari qo‘lyozmalari va ularga yozilgan ba’zi sharhlar nafaqat Misr, Turkiya, Hindiston, Angliya kabi mamlakatlarda, balki respublikamizdagi qo‘lyozmalar xazinasida ham saqlanadi. Mavridi kelganda zo‘r mamnuniyat bilan aytish kerakki, imom al-Moturidiyning hayoti va merosini ilmiy asosda har tomonlama chuqur o‘rganib, keng xalq ommasiga etkazishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori muhim ahamiyatga molik hujjat bo‘ldi.

Allomaning jasorati

Buyuk mutakallim imom al-Moturidiy yashagan davrda, undan oldin islom nazariyasini tashkil qilgan kalom ilmi, unga munosabat

qanday bo'lgani haqidagi masalalar ko'pchilikni qiziqtirishi tabiiy, albatta. Shu bois quyida ana shu mavzu xususida fikr yuritamiz.

Imom al-Moturidiyning zalolatning har qanday ko'rinishlaridan yiroq, musulmonlar orasida sog'lom islomiy tafakkurni targ'ib qilish borasidagi sa'y-harakatlari hamda uning barhayot ta'limotlari mazmun-mohiyatini to'liq idrok qilish uchun alloma yashagan davrdagi mavjud diniy-ma'naviy muhitni yaxshi tasavvur qilish kerak, zero, o'sha davrda islom dunyosining qator o'lkalarida diniy mutaassiblar va buzg'unchi guruhlarning xatti-harakatlaridan aziyat chekib, iymon-e'tiqod masalasidagi noto'ri talqinlar va chalkashliklardan musulmonlar jiddiy muammolarga duch kelgan edilar. VIII asrdan e'tiboran islom dinida paydo bo'la boshlagan turli toifa va guruhlarning soni imom al-Moturidiy yashagan IX asrning oxiri va X asrniig birinchi yarmiga kelib yanada ko'paydi, bu hol iymon-e'tiqod masalalarida katta ixtiloflar va parokandalikning g'oyatda kuchayishiga olib keldi. Mana shunday guruhlardan biri mu'taziliylar bo'lib, ular aqidaviy masalalarni sharhlashda ham, o'z goyaviy raqiblariga qarshi kurashda ham tor, bir tomonlama fikrlarga, faqat aqlga tayanib ish tutdilar. Mutaziliylar o'zlarining bu maslaklariga haddan ortiq yopishib olib, hatto jamiyatda yuzaga kelgan masalalar bo'yicha muqaddas manbalarda ochiq-oydin keltirilgan ko'rsatmalarni ham o'z fikr-mulohazalariga moslashtirib talqin qila boshladilar. Mu'taziliylarning namoyandalaridan ba'zilari shu darajaga borib etdiki, ayrim sahobalar va tobi'iylar tomonidan aytilgan hadislar, bordiyu ularning usullariga to'g'ri kelmasa, bunday hadislarini noto'g'ri, deyishdan ham tap tortmadilar. Ayrim olimlarning qayd qilishlaricha, mu'taziliylarning fikriga ko'ra, haq va botilni ajratadigan yakkayu yagona mezon aklga tayanish bo'lib qolgan. Iymon-e'tiqodning ayrim masalalarida ham mu'taziliylar noto'g'ri yo'l tutdilar. Bu fikrimizniig isboti uchun atigi bir masalani, aytaylik, gunohi azimni sodir qilgan musulmonga munosabat masalasini olib ko'raylik.

Ma'lumki, islomiy bir toifa vakillari bo'lmish xavorijlar, gunohi kabirani sodir qilgan musulmon kishini musulmonchilikdan chiqib, kofir bo'ladi, degan bo'lsalar, boshka bir toifa - murji'alar esa bunday kishi, agar qalbida Alloh bo'lsa, musulmon bo'lib qolaveradiyu ammo qilgan qilmishiga yarasha jazosini oladi, degan g'oyani ilgari surganlar. Ayni shu masalada mu'taziliylar xavorijlar va murji'alar

qarashlaridan farqli o'laroq, o'rtalik (tavassut) nuqtai nazarini qo'llab-quvvatladilar. Buning ma'nosi shuki, gunohi azimni sodir qilgan kishi musulmon ham emas, kofir ham bo'lmay, balki ikkovining o'rtasi – arosatda (arabcha manzila baynal-manzilatayn) qolib, garchand gunohkor qalbida iymonni tasdiq qilib, tilida iqror bo'lsa va solih ishlarni ko'p qilgan bo'lsada, jahannam olovida azob chekishi hukmini chiqarganlar.

Mu'taziliylarning garchand niyatlari pok, maqsadlari xolis bo'lgani bilan ular aql bilan naql o'rtasida yoki boshqacha aytganda, din bilan falsafa o'rtasidagi mo''tadil uyg'unlikka erisha olmaganlar. Aksincha, ular aksar masalalarda faqat aqlga tayanib ish tutib, yunon falsafasiga yopishib oldilar. Hatto Qur'oni karim oyatlarini idrok etishda boshqalarning (g'ayridinlarning) qarashlariga ergashib, ayrim hollarda nafaqat Qur'on oyatlariga va payg'ambar (s.a.v.) hadislariga, balki oddiy sog'lom fikrga xilof bo'lgan g'oyalarni ilgari surdilar, muqaddas manbalardan falsafaga oid asarlarni afzal ko'rib, oxir oqibatda, bu asarlarni o'z aqidalarining ishonchli manbai sifatida qabul qildilar. Kalom ilmiga oid boshqa qator masalalarda ham mu'taziliylar shu tarzda bir tomonlama yo'l tutdilar.

Mu'taziliylardan avval o'tgan (salaf) ulamolar – faqihlar va muhaddislarga kelsak, ular ham aqidaviy masalalarniig nozik jihatlari xususida chuqur bahsu munozaralar yuritishni rad qilgandilar. Ularning fikricha, go'yo iymon-e'tiqod masalalarida bahslashib, munozara yuritish dinni tafriqa va ajratishga olib ke-larmish.

Islom dini sunniy yo'nalishidagi uchta mazhabning asoschilari bo'lmish imom Molik ibn Anas, imom ash-Shofi'iy va imom Ahmad ibn Hanballar, manbalarda yozilishicha, kalom ilmuni umuman tan olmay, bu ilm bilan shug'ullangan olimlar-mutakallimlarni, imkon qadricha badnom qilgan ekanlar. Hatto imom Molik: "Bizning yurtimizdagi musulmonlar dinda kalom ilmuni rad qilganlar", "ahl al-kalom ahl al-bid'atdir", deya gapning po'stkallasini aytib qo'yaqolgan. Imom ash-Shofi'iy esa: "Odamlar agar kalom ilmida qanchalik ko'p havoyi gaplar borligini bilganlarida edi, undan go'yo dahshatli sherdan qo'rqib qbchgandek tiraqaylab qochardilar", deb bu ilmga o'z munosabatini bildirgan.

Bizning diyorumizda keng tarqalgan xanafiy mazhabining asoschisi imom A'zam Abu Hanifa hazratlarining kalom ilmiga munosabati haqida gap ketganda, manbalarda bir-biriga zid ikki xil

fikr keltiriladi. Ulardan biriga ko‘ra, imom Abu Hanifa kalom ilmi bilan bir qadar shug‘ullangan va bu sohaga oid masalalarni sharhlab, ba‘zi risolalar ham tasnif etgan. Shuningdek, yozma manbalarda keltirilishicha, u Basraga kelgan paytida bu shaharda kurtak otgan e‘tiqodda hidoyat yo‘ldan adashgan turli firqa va guruhlariga qarshi keskin kurash ham olib borgan. Mana shu dalillar Abu Hanifa hazratlarini sunniy kalom ilmining dastlabki namoyandalaridan biri, deyishimizga yetarli asos bo‘ladi. Ammo ikkinchi fikrga ko‘ra, imom Abu Hanifa janoblari kalom ilmidan batamom uzoq bir olim sifatida gavdalanadi. Aslini olganda ham, Abu Hanifa hazratlari fiqh (islom qonunshunosligi) ilmining benazir allomasi sifatida jumlai jahonga dong‘i ketgan. Balki shuning ta‘siridanmi, u kalom ilmi bilan astoydil shug‘ullanmagan. Bu haqda u: “Qancha bilimga va salohiyatga ega bo‘lganlariga qaramay, sahobayu kiromlar va tobi‘iyalar kalom ilmi bilan jiddiy ravishda shug‘ullanmaganlar va boshqalarni ham bu yo‘ldan qaytarganlar. Ular bu ilmdan faqat shariat ahkomlari va fiqhiy masalalarni bilishda va odamlarga ta‘lim berishdagina foydalanganlar, xolos”, degan. Taniqli tarixchi Toshko‘prizoda o‘zining “Miftof as-saodat” (Saodat kaliti) nomli asarida yozishicha, Abu Hanifa hazratlari hatto o‘g‘li Hammodga ilm al-kalom bilan shug‘ullanishni man qilgan ekanlar.

Mana shunday murakkab sharoitda kalom ilmining yirik namoyandasi sifatida imom al-Moturidiy etishib chiqib, vujudga kelgan qaltis vaziyatni tuzatish masalalari bilan shug‘ullandi. Musulmonlar o‘rtasida turli-tuman nifoqu ixtiloflar sodir bo‘lib, ular o‘zaro kelishmagan har xil guruhlariga bo‘linib, birliklariga putur etgan, tang bir diniy-ma‘naviy vaziyat vujudga kelgan edi. Ana shunday og‘ir paytda imom al-Moturidiy hazratlari e‘tirozga o‘rin qoldirmaydigan aqliy va naqliy dalillarga tayanib, islom ahli aqidasiini sog‘lom fikrga, rushdi hidoyatga va dini islomning asl mazmun-mohiyatiga mos keladigan mustaqil yo‘lga boshladi. O‘zining ulug‘vor, hayotbaxsh ta‘limotlari bilan millionlab musulmon ahli aqidasiini bir-biriga zid bo‘lgan buzg‘unchi, fosiq g‘oyalardan saqlab qoldi. Shu boisdan bo‘lsa kerak, buyuk vatandoshimiz aqidaviy masalalardagi benazir xizmatlari uchun, ehtimol, jahonning bironta ham allomasiga nasib etmagan “Musulmonlar aqidasiining tuzatuvchisi” (“Musahhah aqid al-muslimiyn”), “Xurofot va bid‘atga asoslangan uydirmalarni ildizi bilan qo‘poruvchi” (“Qoli’ azoliyn al-

fitna val-bid'at") degan o'ta sharaflil laqablarga sazovor bo'lgan allomadir. Aslida, imom al-Moturidiy tayangan asosiy manba bu Qur'oni karimning chuqur ma'noli yorqin oyatlaridir.

Alloma turli xil aqidaviy masalalarni mana shu keng qamrovli qur'oniy ahkomlarni aqliy dalillar bilan uyg'unlashtirgan holda talqin qiladi, zarur hollarda o'z g'oyaviy muxoliflariga keskin va asosli raddiyalar bilan javob qaytaradi. O'sha zamonlarda musulmonlar o'rtasidagi katta ixtilof iymon va amal masalasida kelib chiqqan edi. Aynan shu masalada shialar, xavorijlar, mu'taziliylar, murji'a, karromiylar va boshqa toifalar o'rtasida bir-biriga zid fikrlar paydo bo'ldi. Chunonchi, salaf (avval o'tgan) olimu ulamolar amalni iymon tushunchasiga kiritgan, bundan maqsad ahli islomni go'zal axloq va fazilatli ishlarga undab, ularni har qanday nomarg'ub va qabih ishlardan muhofaza qilib asrash edi. Janob payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning payg'ambarlik maqomi bilan yuborilishi-dan ham ko'zda tutilgan maqsad va yakkayu yagona muddao insoniyat jamiyatini aqidaviy va hayotiy masalalardagi har qanday illatlardan toza-pokiza holda saqlash edi. Shuningdek, Rasululloh hazratlari bani basharning qalblariyu dillarini har qanday buzg'unchi, fosid aqidalar va yaramas fikrlardan pokiza tutishga da'vat qildilar, savob, xosiyatli va barokatli ishlarga chorladilar. Iymon, islom nuqtai nazaridan qaralganda, har tomonlama afzal hayot uchun uzluksiz taraqqiyot yo'lida, inson va jamiyat baxtu saodati yo'lida zarracha beg'amlik va tanballikka yo'l qo'ymasdan qilingan tinimsiz mehnatdir. Amal qilinmagan iymonni, islom nazarida, mevasiz daraxt, ruhsiz jism bilan tenglashtirish mumkin. Bu fikrlar shunday azaliy haqiqatki, islomning asl ruhini tushungan biror kimsa uni inkor eta olmaydi. Insonning iymoni haqida yana bir qancha fikrlar borki,, ulardan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Ulardan biri shuki, mo'min kishining iymoni qancha kuchli bo'lmasin, u har doim ham gunohlardan batamom xolis bo'lish darajasiga etishga qodir emas, chunonchi, ba'zan undan shahvoniy xirslar ustun keladi, ba'zan esa jahli chiqib darg'azab bo'lganda o'zini tuta olmaydi, ba'zida ortiqcha ehtirolarga berilish ham inson oyog'ini toydiradi. Shular sabab bo'lib, gunoh ishlarni qilib qo'rganini o'zi sezmay ham qoladi. Axir "beayb Parvardigor" degan azaliy hikmat ham bejizga aytilmagan-da! Binobarin, mana shu bir lahzada mo'min kishi iymondan chiqib kufrga kiradi, deyish durustmi? Mantiqan to'g'rimi? Butun umri davomida namoz o'qib ro'za tutgani, haj va

shariatning boshqa arkonlarini bardavom ado etganiyu qilgan in'om-ehsonlari, amalga oshirgan xayrli va ezgu ishlarining hammasi beiz bo'lib o'chib ketadimi? Mana shu boisdan ham sahobayu tobi'iylar gunohi azimni sodir qilgan mo'minni kofir deb e'lon qilmaganlar va uning taqdirini Alloh taoloning irodayu xohishiga tashlaganlar. Xorijiyalar esa bu masalada har qanday mantiqdan chiqib ketib, nafaqat gunohi azimni, balki gunohi sahiyrni (kichik gunoh) sodir qilgan mo'minni ham kofir deb e'lon qilganlar. O'sha davrda mavjud bo'lgan boshqa toifalar – jaxmiylar, karromiylar, mu'tazi-liylar ham bu masalada o'ziga xos qarashlarga ega edilar.

Imom Abu Hanifa hazratlari ham bu mavzuni har tomonlama chuqur o'rganganlar. Natijada, shu xulosaga kelganlarki, gunohi azimni sodir qilgan mo'min osiy (gunohkor) mo'mindir va bu osiyliги evaziga, albatta, u tegishli jazosini oladi. Iymon-e'tiqodi va qilgan ezgu, xayrli ishlari uchun uning afv etilishi ham mantiqan to'g'ri bo'ladi. Uning qismatiyu taqdiri Alloh taoloning hukmiga havola bo'lib, Alloh xohlasa, gunohiga yarasha uni azoblaydi, xohlasa, uni afv etib, gunohidan mag'firat tutadi. Mo'tadil fikrlovchi olimu ulamolar bu holni obdon o'rganib, salaflarning aqidasiга muvofiqliги uchun ham to'g'ri deb hisobladilar. Abu Hanifaning fikrlarini qo'llab-quvvatlovchi bu xulosalarni asoslash uchun imom al-Moturidiy xilmaxil aqliy va naqliy dalillar keltirdi. Ularga ko'ra, haqiqiy, chinakam iymon qalb bilan tasdiq bo'lishi lozim. Bunday tasdiqsiz na ma'rifat, na nutqning bo'lishi mumkin, shar'iy ahkomlarni ijro qilish uchun iqror bo'lishi shart bo'lgani kabi iymonning komil bo'lishi uchun amal ham shartdir, degan goyani ilgari surdi alloma. Shunga binoan, gunohi azimni sodir qilgan mo'min iymondan ham chiqmaydi, kofir ham hisoblanmaydi. Yoinki mu'taziliylar hisoblaganlaridek, iymon va kufr o'rtasidagi arosatda ham bo'lmaydi.

Shuningdek, imom al-Moturidiy musulmoni komil haqida ham o'z fikrlarini bildirib, musulmoni komil kishi iymon-e'tiqodli bo'lib, bardavom solih ishlar bilan shug'ullansa, har xil yomon ishlardan o'zini tiyib, shariat halol bilgan narsani halol, shariat harom hisoblagan narsani harom deb bilgan, o'zini batamom rabbi ixtiyoriga topshirgan kishi bo'lishi kerakligini talqin qilgan. Ayni shu tarzda fikrlarni kalom ilmining buyuk allomalaridan biri - ash'ariya maktabining asoschisi imom al-Ash'ariy ham ilgari surgan.

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan ayon bo'layotirki, imom al-Moturidiy bir tomonlama fikr yuritib, zalolat yo'llariga kirib ketgan turli guruhlarini, xato qarashlarini qiyosiy ravishda chuqur o'rganib, ulardan mantiqiy, adolatli xulosalarni chiqardi va o'ziga xos maktabga asos soldi, o'zining to'g'ri, ilmiy qarashlarini sunniylar aqidasi-ga singirdi. Imom al-Moturidiyning o'lmas ta'limoti dastlab Movarounnahrda, so'ngra Turkiya, Afg'oniston, Hindiston, Xitoy va boshqa qo'shni yurtlarda ham keng ko'lamda tarqaldi. Millionlab musulmonlar qalbiga muborak islom dinining hayotbaxsh g'oyalarini singdirishda buyuk vatandoshimiz imom al-Moturidiy hazratlari va u asos solgan moturidiya maktabiga mansub allomalarning xizmatlari benihoya kattadir.

Imom Abu Mansur al-Moturidiyning ta'limoti haqida

Imom Abu Mansur al-Moturidiyning hayoti va ilmiy faoliyati haqida yozgan tarixchilar, afsuski, o'z asarlarida uning xayoti haqida juda kam ma'lumotlarni kel-tirganlar. Allomaning hayoti haqida hozircha yuqorida bayon etilgan ma'lumotlargagina egamiz. Ayni vaqtda uning ta'limoti haqida keyingi asrlarda yashagan olimu ulamolar tomonidan ko'plab ma'lumotlar yozib qoldirilganligini katta mamnuniyat bilan qayd etish lozim.

Buyuk vatandoshimiz, eng avvalo, kalom ilmi sohasida tom ma'noda tarixiy ishlar qilgan bo'lib, o'ziga xos maktab yaratgan va bu maktab uning tabarruk nomi bilan moturidiya maktabi (yo'nalishi) deb ataladi.

Kalom ilmiga ta'rif beradigan bo'lsak, bu ilm diniy aqidalar va ularniig usullarini aqliy dalillar va isbotlar asosida talqin qilib, ulardagi har qanday shubhali, bir tomonlama qarashlarga barham beradigan ilm hisoblanadi. Kalom ilmi bilan shug'ullanadigan olimlar esa mutakallimlar deyiladi.

Avval qayd etganimizdek, Imom Abu Mansur al-Moturidiy yashagan davrda islomiy ilmlar va goyalar gurkirab taraqqiy qilgan bo'lib, bu ilm tarkibiy qismla-ridan birini tashkil qiladigan kalom ilmi ham o'z taraqqiyot bosqichining ayni gullagan davriga kirgan edi. Ayni vaqtda barcha ilmlar qatori islomiy ilmlarda ham hurfikrlilik keng yoyilib, o'z nuqtai nazari va qarashlarini dalil va isbotlarga tayanib erkin ifoda qilish tendsnstiyasi kuchayadi. Bu hol, o'z navbatida, jahmiylar, qaromitlar, rofiziylar, murjiiylar, karromiylar va boshqa hidoyat yo'lidan adashgan oqim va guruhlarining paydo

bo'lishiga ham olib kelgandi. Ayniqsa, bundan ancha oldin paydo bo'lib, ko'pchilik o'lkalar kabi Movarounnahrni ham qamrab olgan mu'tazila oqimining xato qarashlari jamiyat a'zolari o'rtasida xilma-xil ziddiyatlar va ixtiloflarga sabab bo'lardi.

Imom al-Moturidiy ilgari surgan kalom ilmini kuzatar ekanmiz,u,asosan, ikkita asosiy manbaga:aql va naqlga tayanib ish tutganini, agar fikrimizni aniqroq aytadigan bo'lsak u o'z nazariyasini mana shu ikki manba o'rtaligida yaratganini ko'ramiz.Binobarin,muborak islom dinimiz ta'limotida ham diniy va dunyoviy ishlarda o'rtacha bo'lish g'oyasi ilgari surilgan.Uning bu g'oyalari bizgacha yetib kelgan ikki yirik asari –“Kitob at-Tavhid”va”Ta'vilot ahli as sunna”da batafsil bayon qilingan.

Imom al-Moturidiy faoliyatida muborak islom dinining hayotbaxsh g'oyalari sofligi uchun fidoiylik, e'tiqodiy masalalarni bir tomonlama va xato talqin qilishga, zalolatga botgan har xil toifalar va oqimlarga qarshi kurash, Qur'oni karim va hadisi sharifga tayangan holda asosli raddiyalar berish salmoqli o'rinni egallaydi. Shu boisdan, allomaning o'lmas ta'limoti bugungi kun uchun ham katta amaliy ahamiyatt kasb etib, hidoyat yo'lidan adashgan ba'zi buzg'unchi guruhlarni fosh etishda asqotishi shubhasizdir.

Abu Bakr Qaffol Ash- Shoshiy (904-976)

Islom olamida Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom al-Moturidiy kabi imom darajasiga erishgan ko'plab buyuk allomalar orasida Imom Abu Bakr al-Qaffol ash-Shoshiy ham alohida o'rin egallaydi. Zamondoshlari Hazrati Imom deb ulug'lagan bu zotning to'liq ismi Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil al-Kaffol ash-Shoshiy bo'lib, arab manbalarida unga alohida hurmat bajo keltirish uchun nomiga katta, ulug' ma'nosini ifodalaydigan al-Kabir so'zini qo'shib yozadilar. Alloma mohir hunarmand bo'lib, qulfsozlikda shuhrat qozonganligi bois al-Qaffol, ya'ni qulfchi, qulfsoz degan nom bilan e'zozlangan va bu so'z uning taxallusiga aylanib ketgan. Bu haqda mashhur tarixchi Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad Sam'oniyy o'zining “Al-Ansob” (“Nasabnoma”) asarida shunday yozadi: “al-Qaffol – qulfsozlik kasbiga nisbat berilgan. Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil al-Qaffol ash-Shoshiy Shosh ahlidan bo'lib, qulfsozlikda shuhrat qozongan. U o'z zamonasining imomi

(peshvosi) bo‘lib, fiqh, hadis, usul, tilshunoslik ilmlari bo‘yicha tengi yo‘q olim edi. Qaffol ash-Shoshiyning nomi Mag‘ribu Mashriqqa yoyilgan”.

Shamsuddin az-Zahabiy esa uni nafaqat Movarounnahr, balki Xuroson olimi sifatida ham e’tirof etadi: “Alloma, lug‘at, usul, fiqh imomi, Xuroson olimlaridan Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil ash-Shoshiy ash-Shofi’iy “Katta Qaffol” nomi bilan mashhur bo‘lgan. U zot Movarounnahrda o‘z davrining imomi bo‘lib, bir necha kitoblar musannifi bo‘lgan.

Shayx Muhyiddin an-Navaviyning aytishicha, agar Qaffol Shoshiy deb zikr qilinsa, bundan maqsad ana o‘sha biz tanigan buyuk imom Abu Bakr Qaffol ash-Shoshiy tushuniladi. Agar Qaffol Marvaziy deb aytilsa, unda bu zotdan keyin yashab, faoliyat ko‘rsatgan “Kichik Qaffol” tushuniladi. Shoshiy (Katta Qaffol) atamasi tafsir, hadis, usul, kalom ilmlarida takror-takror zikr etiladi. Ammo Marvaziy (Kichik Qaffol) so‘zi esa fiqhga taalluqli asarlardagina uchraydi.

Tojuddin as-Subkiy esa vatandoshimizni quyidagicha ta’riflaydi: “U zamonasining ulug‘ imomlaridan biri, bir qancha ilmlarda keng qobiliyat va ochiqqo‘l egasi bo‘lgan buyuk insondir. Abu Bakr al-Qaffol ash-Shoshiy tafsir, hadis, kalom, usul, lug‘at va she’riyat ilmlarida hamda zuhd va gaqvoda imom(peshvo)lardan biri bo‘lgan. U ko‘plab ilmlarni muhofaza qilgan, o‘zi keltirgan narsalarni tahqiq etib, ularni go‘zal tasarruf qiluvchilardan biri edi”.

Abu Bakr al-Qaffol ash-Shoshiyning islom olamidagi obro‘-e’tibori va mavqei, ilmiy salohiyati haqida o‘rta asr arab mualliflari o‘z asarlarida alohida ta’kidlab o‘tishgan. Jumladan, Ibn Xallikon o‘zining “Vafoyot al-a’yon” kitobida: “Abu Bakr al-Qaffol ash-Shoshiy o‘z zamonasining imomi bo‘lgan. U fiqh, hadis, usul, tilshunoslik fanlari va she’r bitish bo‘yicha Movarounnahrda shofi’iy mazhabiga mansub olimlar orasida tengi yo‘q edi. U Xuroson, Iroq, Hijoz, Shom va Sug‘ur (Shimoliy Suriya) safarida bo‘lgan, uning dong‘i bu o‘lkalarda ham keng tarqalgan”, deb qayd etgan.

Abu Sa’d Abdulkarim ibn Muhammad Sam’oniyy o‘zining “Al-Ansob” (Nasabnoma) kitobida Toshkentni shunday ta’riflaydi: “Sayxun daryosi ortidagi, turklar bilan chegaradosh shahar bo‘lib, u “Shosh” deb ataladi. Bu yerdan ko‘plab imomlar etishib chiqqan”. Sam’oniyy shoshlik imomlar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirib, jumladan,

Qaffol Shoshiy haqida shunday yozadi: “Imom Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil Qaffol Shoshiy bo‘lib, tafsir, hadis, fiqh, tilshunoslik ilmlari bo‘yicha zamonasida unga teng keladigan olim yo‘q edi... Qaffol Shoshiy to‘g‘risida shunday naql mavjud bo‘lgan:

«Bu Abu Bakr – qulfsoz faqih,

Fiqh bilan qiyin qulflar (masalalar)ni ochuvchidir”.

Ma‘lumki, Qaffol ash-Shoshiy 291/904 yilda Shoshda tug‘ilib, dastlabki bilimni o‘z yurtida, keyinchalik, Movarounnahrda mavjud ma‘rifat o‘choqlarida oladi. Samarqand, Buxoro, Termiz kabi shaharlarni kezib, bu erlarda o‘zidan sal oldinroq o‘tgan va bebaho diniy-ilmiy meros qoldirgan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy kabi yirik olimlar asarlari bilan tanishadi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislarini eshitadi va o‘rganadi.

Shuningdek, Abu Bakr Qaffol ash-Shoshiy Xurosonga borib, Muhammad ibn Ishoq ibn Xuzayma, Muhammad ibn Ishoq as-Sarroj, Umar ibn Muhammad ibn Buxayr as-Samarqandiydan, Iroqda buyuk mufassir Muhammad ibn Jarir Tabariy, Muso ibn Abdulhamid va Abdulloh ibn Muhammad al-Bag‘oviy, ibn Abu Dovud, ibn Sog‘iddan, Kufada esa Abdulloh ibn Zaydon, Ali ibn Abbos al-Muqoni‘iydan, Shomda Abulhamiydan, Jazira (Arabiston yarim oroli)da esa Abu Aruba al-Harroniy kabi katta olimlardan dars olgan va boshqa tabaqalardan hadislar eshitgan.

Shamsuddin az-Zahabiy “Siyar a‘lom an-nubalo” (Olijanob allomalar siyratlari) asarida keltirishicha, “Hokim aytadi: Movarounnahrda usul ilmi va hadis talabi ila eng ko‘p safar qilgan olim Kaffol ash-Shoshiy edi”.

O‘z navbatida, Qaffol ash-Shoshiydan ham ba‘zi olimlar hadislar eshitishgan va o‘rganishgan. “Tadvin fi axbori Qazvin” (Qazvin xabarlar haqida bitiklar) nomli kitobda bu xususda ma‘lumotlar berilgan. 350/962 yildan keyin Qaffol ash-Shoshiy Qazvin shahriga keladi. Bu yerda Abu Mansur al-Qatton va shunga o‘xshash olimlar Qaffol ash-Shoshiyning majlislarida hozir bo‘lishib, undan hadislar va ba‘zi ma‘lumotlarni yozib olishgan.

Turli manbalarda Qaffol ash-Shoshiydan rivoyat qilingan hadislar mavjud: “Abu Hotam Muhammad ibn Abdulvohid Abu Bakr Muhammad ibn Ali Ismoil Qaffol Shoshiydan, undan Abu Ali Hasan ibn Sohib Shoshiy, undan Yunus ibn Ibrohim Adaniy, undan Abdulhamid ibn Solih, undan Solih ibn Abduljabbor al-Hazramiy,

undan Muhammad ibn Abdurahmon Baylamoniy, bu zot otalaridan, otalari esa Ibn Umardan, Ibn Umar Rasululloh (s.a.v.)dan rivoyat qilishgan. Rasululloh (s.a.v.): “She’rni o‘rganinglar, chunki unda hikmat va masallar bordir, deb marhamat qilgan”.

Shuningdek, Abula’lo Muhammad Abdurahmon ibn Abdurahim al-Muborakfuriy (1283-1353) “Tuhfat al-Ahvoziy” (Ahvoziy tuhfası) asarida Abu Bakr Qaffol ash-Shoshiydan quyidagi xabarnı rivoyat qilgan: “Qozi Husayn va Abu Sa’id Mutavalliy: Ba’zi kishilarning xayrlashayotganda salom berish odati bor. Bu salomning javobi mustahab bo‘lgan. Lekin vojib emas. Chunki uchrashganda ham, xayrlashganda ham salom beriladi. Abu Bakr Qaffol ash-Shoshiy bufikrni inkor etib, shunday degan: “Xayrlashayotganda salom berish uchrashgandagi kabi sunnatdir. Xayrlashganda salomga alik olish uchrashgandagi kabi vojibdir. Bu sahihdir, to‘g‘ridir”.

Qaffol ash-Shoshiy she’rlar bitganligi to‘g‘risida ham manbalarda ma’lumotlar bor. Bu borada Tojuddin Subkiyning “Tabaqot ash-shofi’iya al-kubro” asarida al-Qaffol ash-Shoshiyning she’rlaridan ham parchalar keltirilgan:

Bisotim keng ochiqdur mehmonlarimga,
Taomim haloldur, kelgil yonimga,
Armug‘on etamiz neki qo‘lda bor,
Sirka’-va ko‘kat bor, boq dasturxonimga.
Ko‘ngli keng odashar bo‘lg‘usi mamnun,
Baxilga mutlaqo beg‘arazdurman.

Arab tilining balog‘atida bitilgan ushbu she’riy misralarning mazmuni.

Kimki uyimga mehmon bo‘lib keladigan bo‘lsa, dasturxonim doimo uning uchun yozilgan bo‘ladi. Kimki mening dasturxonimdan biror narsa esa, (bilsinki) undagi barcha nozu ne‘mat peshona terim bilan topilgan, (ya’ni) halol bo‘ladi. Biz bor-budimizni mehmon oldiga qo‘yamiz. Bordiyu (qo‘yishga) narsa topolmasak, u holda sabzavot bilan sirka qo‘yamiz. Shunda beg‘araz, ko‘ngli ochiq odam bo‘lsa, u bunga rozi bo‘lib qo‘nadi; bordiyu baxil bo‘lsa, u holda uni men tuzata olmayman.

Tojuddin Subkiyning “Tabaqot ash-shofi’iya al-kubro” asarida Vizantiya imperatori bilan Arab xalifasi o‘rtasidagi diplomatik yozishmalar haqidagi tarixiy ma’lumotlar ham berilgan. Bu haqda Xoja Ahrorning shogirdi Shayx Abu Ahmad Muhammad Qoziy

Shoshiy qalamiga mansub “Silsilat al-orifin” (Oriflar silsilasi) kitobida batafsil yozilgan.

Ta’kidlanganidek, Qaffol Shoshiy islom dunyosining turli o’lkalariga ilm-ma’rifat izlab safar qilgan. O’z navbatida, u tez-tez hajga - Makkaga borgan va qaytayotganida Bag’dodda birmuncha vaqt istiqomat qilib, o’z bilimlarini yanada oshirish maqsadida u erdagi yirik olimlar bilan ilmiy muloqotlar olib borgan. Bir gal Qaffol ash-Shoshiy Bag’dodda to’xtaganida noxush voqea ustidan chiqib qoladi. Bu esa hijriy sananing to’rtinchi asriga to’g’ri kelib, Vizantiya imperatorining qo’mondoni Tag’fur abbosiylar xalifaligiga tegishli Shomning Shimoliy qismi va Antokiyani bosib olib, xalifalik poytaxtiga ham xavf solgan edi.

Sharqshunos olim Bahridin Mannonovning yozishicha, o’z vaqtida, ya’ni IV asrda Rum imperiyasining ikkiga bo’linib ketishi oqibatida uning sharqiy qismida qaror topgan mustaqil Vizantiya imperiyasi X asrga kelib, o’z sarhadtarini qayta tiklash yo’lida katta muvaffaqiyatlarga erishadi va uning ta’sir doirasi nafaqat Bolqon yarim oroli hamda Sharqiy Yevropaning ma’lum qismi, balki Qora dengiz qirg’oqlari, Kavkazning g’arbiy qismi, Kichik Osiyoning sharqigacha bo’lgan joylarda ham mustahkamlanadi. Shunday bir sharoitda Konstantinopol Arab xalifaligi tasarrufiga o’tgan sarhadlarni qaytadan zabt etish, iloji boricha uni mahv qilish rejalarini amalga oshirishga kirishadi. Shu maqsadda olib borilgan janglarda Vizantiya qo’shinlari bir necha bor g’alabaga erishadilar... Ana shunday bir tarixiy vaziyatda Vizantiya imperiyasining Bag’dod xalifaligi, umuman, islomga qarshi xurujlari har taraflama avj olib ketadi. Shu jarayonning ko’rinishlaridan biri sifatida Tag’fur tomonidan Bag’dod xalifasiga yuborilgan va bizgacha etib kelgan she’riy maktub – ultimatum vujudga kelgan.

O’sha davrda Vizantiya va Arab xalifaligida she’riyatga qiziqish yuksak darajada bo’lgan. Davlatlar o’zaro aloqalaridagi diplomatik yozishmalar she’rlar va qasidalarda o’z aksini topgan. Vizantiya imperatori Arab xalifaligiga do’q-po’pisa bilan murojaat qilib, bir vaqtlar go’yo uning yerlari bo’lgan, hozir esa Bag’dod xalifasi egallab turgan o’lkalarni tinchlik bilan, yaxshilikcha ularga qaytarib berishni talab qiladi. Vizantiya hukmdorlari maktubning balandparvoz chiqishi uchun uni arab tilida she’r bilan bitadilar.

“Hoshimiylar xonadonidan bo‘lmish hukmron xalifaga” deya atalgan she’riy maktubda “Biz sherdek otilib chiqib, o‘z yerlarimizni egalladik. Damashq o‘lkasi esa ota-bobolarimiz maskani edi, biz bu diyor mol-mulkiga ega bo‘lamiz. Misrni ham qilichimiz tig‘i bilan egallaymiz. Hijoz, Bag‘dod, Sheroz, Ray, Xuroson, Quddus, Sharqu G‘arb hammasini egallaymiz”, degan mazmundagi do‘q-po‘pisalar bilan xalifa va uning sarkardalariga dag‘dag‘a soladi, ularni ayyorlik bilan qo‘rqitmoqchi va nihoyat, o‘lxalarni osonlikcha qo‘lga kiritmoqchi bo‘ladi. Xuddi mana shu voqealar bo‘lgan kezda Qaffol ash-Shoshiy Bag‘dod shahrida edi. U xalifalikda iqtidori zo‘r olim, saroy a‘yonlari o‘rtasida yaxshigina qonunshunos, zabardast shoir sifatida tanilgan edi.

O‘sha vaqtda Bag‘dodda ko‘zga ko‘ringan olim va shoirlar ko‘p bo‘lsa ham, hech kim Tag‘furning bu tahdid xatiga javob yozishga botina olmaydi. Xalifa tahdid xatiga javob yozishni Imom Qaffol Shoshiyga topshiradi.

Shubhasiz, Tag‘fur tahdid xati orqali musulmonlarning o‘sha vaqtdagi ma’naviy saviyasini bilmoqchi bo‘lgan. Imom Qaffol Shoshiyning she’riy maktubi esa unga munosib javob bo‘lib, sezilarli zarba bo‘lib tushgan. Hatto Vizantiya adiblari, kohinlari ham: “Musulmonlarning shunday shoirlari borligini bilmas ekanmiz”, deb tan olishlari juda e‘tiborlidir. Ba’zi rivoyatlarda, ayni shu qasida evaziga Imom Shoshiy Hazrati Usmon mushafini olgan, deb aytiladi.

Rossiyalik sharqshunos prof. S. Prozorovning ham ta’kidlashicha, Vizantiya imperatori Nikifor Foki (963–969) nomidan musulmonlarga yuborilgan haqoratli she’riy maktubga javoban Qaffol Shoshiyning qasidasi yuksak darajada yozilgani vizantiyalik adiblar tomonidan e’tirof etilgan.

Muhimi, o‘sha paytda Arab xalifaligining poytaxti Bag‘dodda qanchadan-qancha mashhur va zabardast shoirlar bo‘lishiga qaramasdan, Xalifa Muti‘lilloh (946-974) tomonidan Vizantiya hukmdoriga raddiya yozishdek o‘ta muhim vazifaning Qaffol Shoshiyga topshirilishi uning qanchalik zo‘r iste’dod sohibi, ayni paytda, kuchli diplomat ekanligini ko‘rsatadi.

Qaffol Shoshiy mashhur olim va tarixchi Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy (vaf. 923), Abu Bakr ibn Xuzayma (vaf. 933), Abu Bakr Muhammad al-Bog‘andiy, Abu Zayd al-Marvaziy va boshqalardan fiqh ilmini o‘rgangan.

Yirik tarixchi Abu Sa'd Sam'oniyy Abu Bakr Qaffol Shoshiy ilm talabida Xuroson, Iroq, Hijoz, Shom, Sug'ur (Shimoliy Suriya)ga safar qilganligini ta'kidlab, uning ustozlari sifatida Abu Bakr Muhammad ibn Ishoq ibn Huzayma, Abulabbos Muhammad ibn Ishoq as-Sarroj, Abulqosim Abdulloh ibn Muhammad al-Bag'aviy, Abu Aruba al-Husayn ibn Mo'shar as-Sullamiy, Abuljahl Ahmad ibn al-Husayn ibn Tilab al-Mashg'aroylarni ko'rsatadi.

Qaffol Shoshiyning shogirdlariga asli jurjonlik, bolaligidan Buxoroda, keyin Nishopurda yashab, hadis to'plagan, Buxoro va uning tevaragida hadis ahllariga rahnamolik qilgan, turli shaharlarda qozilik lavozimida faoliyat olib borgan, o'zining "Shua'b al-imon" (Imonning tarkibiy qismlari) asarida ustozni "O'z asrining olimlari ichida undan bilimdonrog'ini uchratmadim", deb sifatlagan Abu Abdulloh al-Halimiy (339/950-430/1012), ko'pgina asarlari qatorida hadis ilmining peshvolaridan bo'lmish Abu Dovud (202/817-275/888)ning "Musnad"iga sharh bitgan mashhur muhaddis Abu Sulaymon al-Bustiy (vaf. 388/998), "Nishopur voqealari" muallifi Abu Abdulloh al-Hokim an-Nisoburiy (vaf. 405/1014), "Ahli tasavvuf siyrati" muallifi Abu Abdurahmon as-Sulamiy (vaf. 412/1021), Ibn Mandah, faqihlardan Abu Abdurahmon al-Ibri-samiy, Abu Ishoq ash-Shoshiy, Nosir ibn al-Husayn al-Marvaziy, Abu Nasr Umar ibn Qatodani misol qilib keltirish mumkin. Abu Bakr al-Qaffol ash-Shoshiy dunyo kezib, bir necha olimlardan nafaqat ta'lim olgan, balki o'zi ham ilm o'rgatgan. Shuning uchun shoshlik alloma qomusiy ilmlar bilimdoni sifatida shuhrat qozongan.

Allomaning ilmiy merosiga to'xtaladigan bo'lsak, tadqiqotlar davomida uning qalamiga mansub 9 ta asari mavjud ekanligi aniqlandi. Shundan ikkitasi sharh bo'lib, bittasi Imom Shofi'iyning mashhur Ar-Risola asariga yozilgan. Ikkinchisi Abulabbos Ahmad ibn Yoqub ibn apg-Qos at-Tabariy (vaf. 335)ning "At-Talhis fi-l-furu" (Furu'dagi qisqartma) asariga yozgan sharhidir. Shoshlik allomaning asarlari to'g'risida o'rta asr arab manbalarida alohida qayd etilgan. Jumladan, "Imom Abu Bakr al-Kaffol ash-Shoshiyning ko'plab asarlari mavjudki, hech bir kishi hali shuncha asarlar-ni tasnif etmagan", – deb yozadi Shayx Ishoq ash-Shero-ziy. – Qaffol ash-Shoshiy faqihlar ichida birinchi bo'lib "Al-Jadal al-hasan" (Yaxshi bahs-munozara) bo'yicha asar yozgan. Shuningdek, uning "Kitob fi

usul al-fiqh” (Fiqh asoslari bo‘yicha kitob), “Sharh ar-risola” (Risola sharhi) asarlari bor.

Ma’lumki, fiqh ilmini rivojlantirishda Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ibn Abbos ash-Shofi’iy (767-820)ning xizmatlari katta. Uning “Ar-Risola”, “Al-Umm” asarlari islom olamida mashhurdir.

Hoji Xalifaning ta’kidlashicha, Imom Shofi’iyning “Risola ash-Shofi’iy fil-fiqhi alo mazhabih” (O‘z mazhabi fiqhi haqida Shofi’iy risolasi) asari mashhur bo‘lib, uni Imom Shofi’iydan bir jamoa kishilar rivoyat qilishgan va bu asarni sharhlashda o‘zaro bahslashishgan. Bu kitobni Abu Bakr Muhammad ibn Ab-dulloh ash-Shayboniy an-Nisoburiy (vaf. 388), Abulvalid Hasson ibn Muhammad al-Qurashiy al-Umaviy (vaf. 349) hamda Imom Abu Bakr Muhammad ibn Ali al-Kaffol al-Kabir ash-Shoshiy (vaf. 365) va boshqalar sharhlagan.

Shuningdek, shofi’iya olimlaridan Abulabbos Ahmad ibn Muhammad ibn Yoqub ibn al-Qos at-Tabariy ash-Shofi’iy (vaf. 335) qalamiga mansub “At-Talhis fil-furu” (Furudagi qisqartma) asar mavjud. Bu kitob hajmi kichikligi va vazni engilligiga qaramay, usul va furu’larni jamlagan asardir. Uning bir qancha sharh-lari bo‘lib, ular orasida Imom Abu Bakr Muhammad ibn Ali al-Qaffol ash-Shoshiy sharhi ham bor.

Imom an-Navaviyning xabar berishicha, Qaffol Shoshiyning bir necha asarlari mavjud. U birinchi bo‘lib jadal (bahs-munozara) bo‘yicha “Al-Jadal al-hasan» (Yaxshi bahs-munozara) degan asar yozgan.

Imom an-Navaviy ham “Qaffol ash-Shoshiy jadal ilmi bo‘yicha birinchi kitob ta’lif etgan zotdir. Shayx Abu Ishoq o‘z “Tabaqot”ida zikr qilishicha, biron-bir kishi Qaffol Shoshiydek ko‘p kitob tasnif etgan emas. Bundan tashqari, u “Usul al-fiqh” kitobi va Imom Shofi’iyning “Risola”siga sharh yozgan”, deb ta’kidlagan.

Abu Bakr Qaffol Shoshiyning yana bir asari “Adab al-qozi” (Qozining odobi) deb nomlanadi. Hoji Xalifaning ta’kidlashicha, xuddi shu nomda Abulabbos Ahmad ibn al-Qos at-Tabariy (vaf. 335), Abu Sa’id Hasan ibn Ahmad ach-Istaxriy (vaf. 328)lar ham kitob tasnif etishgan. Lekin ular orasida Qaffol Shoshiyning kitobi mashhur bo‘lib ketgan.

Hoji Xalifaning xabar berishicha, Abu Bakr Qaffol Shoshiy “Vuzu’i qoziy” (Qozining tahorati) degan nomda asar ham yozgan. Tarixchi Abu Sa’d Abdulkarim as-Samoniyning zikr qilishicha, Qaffol Shoshiy “Daloil an-nubuvvat” (Payg‘ambarlik dalillari), “Mahosin ash-sharia” (Shariat go‘zalliklari) kitoblarini ham ta’lif etgan. Imom an-Navaviy esa: “Men Qaffol Shoshiyning yurakdan yozilgan “Daloil an-nubuvvat” kitobi va “Mahosin ash-sharia” katta kitobini ko‘rganman”, deydi.

Hoji Xalifaning xabar berishicha, “Mahosin ash-sharia fi-furu’ ash-hofi’iya» (Shofi’iya furu’larida shariat go‘zalliklari) asari muallifi al-Qaffol ash-Shoshiy deb tanilgan Imom Abu Bakr Muhammad Alidir. Ushbu asar ajoyib masalalarni o‘z ichiga olgan. Lekin kitobning adadi juda kam. Uning bir nusxasi Qohiradagi “Foziliya” madrasasiga 3 jildda vaqf qilingan. Qaffol ash-Shoshiyning unda zikr qilishicha, kitobni shariat dalillari haqida so‘rganlar uchun yozgan.

Abdulkarim ibn Muhammad ar-Rofi’iy al-Qazviniy esa bu borada quyidagi ma’lumotlarni keltirgan: “Abu Bakr Qaffol ash-Shoshiy buyuk imomlardan va shofi’iy mazhabi olimlaridan edi. Bu zot tafsir, hadis, usul va fiqh ilmlarida peshqadam edi va ko‘plab asarlar yozgan. U kishining “Mahosin ash-sharia” kitoblari bo‘lib, unda Rasululloh (s.a.v.) mo‘‘jizalarini badiiy uslubda jamlagan. Ushbu kitobda 1000 dan oshiq hadislar bor”.

Shunkshdek, uzoq yillar O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasi (hozirda O‘zbekiston musulmonlar idorasi) kutubxonasida faoliyat olib borgan marhum olim Nodirxon Maxdum Alouddmya o‘g‘li ba’zi mualliflar “Usuli Shoshiy” kitobini Qaffol Shoshiyning asari deb hisoblaydilar. Qaffol Shoshiy maqbarasiga dafn etilgan Nizomudstin Shoshiy asari deb hisoblaymiz. Asarda muallifniig nomi yo‘qligi hozirgi zamon olimlarini noto‘g‘ri fikrga olib kelgan bo‘lsa kerak”, deb yozgan.

Abu Bakr Qaffol ash-Shoshiyning shaxsiyati va ilmiy salohiyati nafaqat o‘rta asr Sharq mualliflari, balki G‘arb olimlari tomonidan ham e’tirof etiladi. Sharqshunos K. Brokkelmak va yirik rus olimi V. Bartoldlar Qaffol Shoshiy ilmiy faoliyatiga yuksak baho berishgan.

Xulosa qilib aytganda, Qaffol Shogaiy qomusiy olim sifatida ham diniy, ham dunyoviy bilimlarni chuqur bilganligi tufayli ilm-fanning qator sohalari rivojida muhim o‘rin tutgan.

Abu Bakr Qaffol ash-Shoshiy ilmiy merosida “Ja-vomi’ al-kalim” (Hikmatli iboralar to‘plami) asari etakchi o‘rinni egallaydi. “Javomi’ al-kalim” kitobi Imom Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil Qaffol Shoshiy qalamiga mansub bo‘lib, unda Imom al-Buxoriy sharhi majmualaridagi Rasululloh (s.a.v) kalimalaridan to‘plangan. Ushbu asar qo‘lyozmasining foto nusxasi O‘zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanadi. Marhum muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon hazratlari 1970 yili Damashq shahridagi “Zohiriya” kugubxonasida saqlanadigan “Javomi’ al-kalim” asarining qo‘lszmasi (32 sahifadan iborat) fotonusxasini olib kelgan.

Qaffol ash-Shoshiy “Javomi’ al-kalim” asarining xususiyatini qo‘lyozmada quyidagicha ta’riflaydi: “Bu kitobimda Rasululloh (s.a.v.) hadislari ichida eshitganlarimdan mingta so‘z (kalima) to‘pladim. Ular tuzshshshi murakkablikdan xoli, ma’nolari chigallikdan yiroq, payg‘ambar hyadoyati bilan qo‘llab-quvvatlangan va tarbiyalangakligi sababli fasihlarning fasohatidan va balog‘at ahlining balog‘atidan uschundir. Men ularni o‘zlashtirish va eslab qolishini osonlashtirish maqsadida biri ikkinchisining ketidan keladigan, isnodlari olib tashlangan, so‘zlarning yaqinligiga ko‘ra boblarga bo‘lingan holda keltirdim”.

«Javomi’ al-kalim» asarida Qaffol ash-Shoshiy hadislarni quyidagi holatda keltirgan:

Amallar niyatlarga bog‘liqdir.

Maslahatgo‘y omonatdordir.

Karam sohibi bo‘lish taqvodir.

Qur‘on dardlarga davodir.

Duo ibodatdir.

Avval salom, keyin kalom.

Yaxshi savol ilmning yarmidir.

Jamoat bilan bo‘lish rahmatdir

Firqalanish ayni azobdir.

Ko‘rinib turibdiki, Qaffol ash-Shoshiy to‘plagan hadislar qisqa, lo‘nda hamda ma’nolarga boydir. Muhimi, har qanday; o‘quvchi uchun tushunarli shaklda berilgan. Ayni paytda “Javomi’ al-kalim” ma’rifiy va didaktik ahamiyatga egaligi bilan boshqa hadis to‘plamlari ichida ajralib turadi. Shuningdek, Qaffol Shoshiy asarida berilgan hadislarda islom dini ahkomlaridan tashqari odob-axloq, ilm-ma’rifat,

ta'lim-tarbiyaga doir hikmatli iboralar qayd etilgan. Bu esa hadislarning keng xalq ommasi uchun ravon va tushunarli bo'lishi, tarqalishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Sahih hadis to'plamlari ichidan hikmatli iboralarni saralab olish Qaffol Shoshiydan katta mehnat va mashaqqatni talab etgan. E'tirof etish kerakki, islom ilmlari bo'yicha yyetuk alloma o'zining ulkan ilmiy salohiyatini namoyon etib, "Javomi' al-kalim" asarini yaratishga muvaffaq bo'lgan. Fikrimizning isboti sifatida ushbu hadislardan ba'zilarining roviy va isnodlariga murojaat qilaylik:

"Amallar niyatlarga bog'liqdir". Bizga xabarni Abdulloh ibn Zubayr al-Hamidiy Sufyondan bergan. Unga Yahyo ibn Sa'id al-Ansoriy Muhammad ibn Ibrohim at-Taymiydan xabar bergan. U Allama ibn Vaqqos al-Laysiy Umar ibn al-Xattob (r.a.) minbarda turib shunday deganlarini eshitganligini aytgan. Umar ibn al-Xattob minbardan turib, Rasululloh (s.a.v.): "Albatta, barcha amallar niyatga bog'liqdir. Har bir kishi o'z niyatiga etgusidir. Biror kishi Alloh taolo va Uning Rasuli (payg'ambari) uchun hijrat qilsa, Alloh va uning Rasuli uchun hijrat qilganlik savobini topadi. Har kim dunyo uchun hijrat qilsa, dunyoga, ayol uchun hijrat qilsa, ayolga etishgusidir. Bas, nimani niyat qilib hijrat qilsa, o'shanga etishgusidir», – deganlarini aytdi".

Ushbu hadis sahih bo'lib, uni Imom al-Buxoriy Molikdan keltirgan. Bundan tashqari, bu hadis bir necha hadis to'plamlarida ham mavjud. Qaffol ash-Shoshiy ushbu hadasdan bor-yo'g'i ikkita kalimani ajratib olgan va u omma orasida mashhur bo'lib ketgan.

"Maslahatgo'y omonatdordir". Abu Muhammad Abdurahmon ibn at-Tajibiy Abu Sa'id Ahmad ibn Donuqo al-Jamoldan, u Muslimdan, u Hasandan, u esa Samura ibn Jundubdan Rasululloh (s.a.v.): "Maslahat beruvchi xiyonatchi emas, balki omonatdordir (ishonchga loyiqdir), zero, u xohlasa, maslahat beradi, xoxlasa, sukut saqlaydi. Agar maslahat bersa, o'zi o'sha ahvolda nima qilsa, o'shani maslahat beradi", – dedilar.

Yana bir rivoyatda hadisning davomida shunday deyilgan: "Shuning uchun (maslahat beruvchi birovning sirini saqlashga ishonchli bo'lganligi uchun) u istasa, maslahat beradi (omonatni sir tutishga ko'zi etsa), xohlasa sukut saqlaydi (omonatni sir tutishga ko'zi etmasa)".

Majlislar omonat bilandir (ularda aytilgan soʻzlarning sir saqlanishiga bogʻliq).

Boshqa bir hadisda: “Bir odam bir soʻzni aytib boʻlganidan soʻng (hadiksirab) u yoq-bu yoqqa qarab qoʻysa, demak, uning soʻzi (eshituvchi uchun) omonatdir (sirdir)”, -deyilgan.

Islom dini taʼlimotiga koʻra, bir odamning boshqa bir odamga ishonib berib qoʻygan puli, moli va boshqa narsalari omonat boʻlganidek, uning boshqalar eshitmasligini nazarda tutib aytgan gapi ham omonat, yaʼni sir hisoblanadi. Omonat soʻzga xiyonat qilib bironing sirini fosh qilish ham molu dunyoga xiyonat qilingani kabi qoralanadi.

Abu Muslim Ibrohim ibn Abdulloh ibn Muslim Abu Osimdan, u Ibn Jurayjdan, u Abdulkarimdan, u Usmon ibn Affonning xizmatkoridan, u Abdulloh ibn Maʼqildan, u Abdulloh ibn Masʼuddan rivoyat qilishlaricha, Rasululloh (s.a.v.): “Pushaymonlik (nadomat chekish) tavbadir”, – dedilar.

“Bemaza gap jafo keltiradi”. Bu hadis aslida quyidagicha: Muhammad ibn Solih ibn Zurayh Ismoil ibn Muso al-Fizoriydan, u Hushaymdan, u Mansurdan, u Hasandan, u Abu Bukradan xabar berishlaricha, Rasululloh (s.a.v.) dedylar: “Bemaza gap jafo keltiradi, jafo esa doʻzaxga olib boradi. Hayo imondandir, imon esa jannatga kiritadi”.

Oʻzbek xalqi orasida “Oltin olma, duo ol” degan naql mavjud. Qaffol ash-Shoshiy oʻzining “Javomiʼ al-kalim” asarida “Duo ibodatdir” degan hadisni keltiradi. Ushbu hadis deyarli barcha muhaddislarning toʻplamlarida uchraydi. Bu oʻrinda “Javomiʼ al-kalim”da berilgan 1000 dan ortiq hadislarni sharhlashning imkoni yoʻq, albatta. Muhimi, Qaffol ash-Shoshiyning ushbu asari hadis ilmida katta ahamiyatga ega. Chunki unda berilgan hadislar keng xalq ommasi oʻrganishi uchun juda ravon va qulay yozilgan.

Qaffol ash-Shoshiy “Javomiʼ al-kalim” asarining muqaddimasida “hadis isnodlariga bir kitob bagʻishladimki, ularni bilish uchun oʻsha kitobga murojaat qilinadi” deb yozadi. Demak, muallifning hadis ilmiga oid “Javomiʼ al-kalim”dan boshqa yana bir asari mavjud ekanligi maʼlum boʻlmoqda. Unda olim oʻzi toʻplagan sahih hadislarning roviy va isnodlarini toʻliq keltirgan.

“Javomiʼ al-kalim” tom maʼnoda moʻtabar asarlar sirasiga kiradi. Zero, unda Paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning

hikmatlari, hadislarini o‘z ifodasini topgan. “Javomi’ al-kalim”, ya’ni “Hikmatli iboralar to‘plami” nomidan ham ma’lumki, undan dini, millatidan qat’iy nazar har bir inson uchun kundalik turmush va ijtimoiy hayotda zarur bo‘lgan odob-axloq mezonlari, bebaho ko‘rsatmalar o‘rin olgan.

Xulosa qilib aytganda, Qaffol Shoshiy hayoti davomida musulmon dunyosi bo‘ylab safar qilgan, eng mashhur olimlarga shogird tushib, ulardan ilm o‘rgangan. Mashhur ulamolar bilan suhbatlashgan Qaffol Shoshiy diniy ilmlardan tashqari dunyoviy bilimlarni ham chuqur o‘rgangan. Shuning uchun ham, xalq uni Hazrati Imom - Hastimom deb ulug‘lagan.

Marhum muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon hazratlari “Imom al-Qaffol o‘lkamizda diniy bilimlarning, arab tilining tarqalishida, musulmon qonunshunosligining asosiy qonun-qoidalarini ko‘rsata bilish muhim o‘rin tutadi”, - deb e’tirof etganlar. Tafsir, hadis, fiqh va adabiyotga doir ko‘plab manbalarda Imom Kaffol Shoshiyning asarlaridan iqtiboslar keltirilgan. Bu ilmiy e’tiroflar esa uning islom ilmlari bobida yyetuk alloma ekanligini ko‘rsatadi. Toshkentning xalq orasida “Hastimom” (Hazrati Imom) deb ataladigan, istiqlol tufayli obod maskanga aylangan tabarruk go‘shasi ul zotga nisbatan chuqur ehtirom namunasidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar

1. Abu Mansur al-Moturdiy sunniy e’tiqodidagi ikki yirik oqimlardan biri bo‘lmish Moturudiya oqimining asoschilaridan.
2. Abu Mansur al-Moturudiyning “Kitob at-tavhid” asari va uning ahamiyati.
3. Qaffol ash Shoshiyning hayoti va uning fiqh bilimlarini atroflicha o‘rganishi
4. Qaffol ash-Shoshiyning diplomatik nomalari. Qaffol ash - Shoshiyning “Hazrati Imom” deya ulug‘lanishi.

6 – MAVZU. ABU ALI IBN SINO (980 – 1037) – O‘RTA OSIYOLIK BUYUK ENSIKLOPEDIST ALLOMA

Reja

1. Abu Ali ibn Sino yashagan davrga tavsif
2. Ibn Sinoning ilmiy merosi va uning ahamiyati
3. Abu Ali ibn Sino – “Shayx ur – rais”
4. Abu Ali ibn Sino - Sharq uug`onish davrining buyuk mutafakkiri

Tayanch so`z va iboralar: «Kitob al-qonun fit-tibb», «Kitob un-najot», «Kitob ul-insof», «Metafizika maqsadlari», «Fusus ul-hikam», «Kitob al-qonun fit-tibb» («Tib qonunlari»), «Kitob ul-qulanj» («Ichak sanchiqlari»), «Kitob un-nabz» («Tomir ko`rish haqida kitob»), «Fuj ul-tibbiya joria fi majlisih» («Tib haqida hikmatli so`zlar»), «Tadbir ul-manzil» («Turar joyning tuzilishi»), «Fi-l-hindubo» («Sachratqi o`simligi haqida»), «Risola fi-dastur it-tibbiy» («Tibbiy ko`rsat-malar haqida»)

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini o`rta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkirardan biri Abu Ali ibn Sino bo`lib, u Yevropada Avistenna nomi bilan mashhurdir.

Ibn Sino (asl ismi Husayn, otasining ismi Abdulloh) Buxoroning Afshona qishlog`ida hijriy 370 (980) yilning safar oyida, amaldor oilasida tug`ildi. 986 yidda ibn Sino oilasi Buxoroga ko`chib keladi va shu vaqtdan boshlab yosh Husayn boshlang`ich ma`lumot olishga, ilm-fanni o`rganishga kirishadi. Uning yoshligi, yigitlik chog`lari somoniylar hukmronligining so`nggi yillariga, xususan Nuh II ibn Mansur Somoniy hukmronligi davri (976–997) ga to`g`ri keladi.

Ibn Sino iste`dodli, xotirasi kuchli, zehni o`tkir bo`lganligidan o`z davrida ma`lum bo`lgan ilmlarni tezda egallay boshladi. 10 yoshidayoq Qu`roni Karimni boshdan-oyoq yod o`qir edi. 13 yoshlaridan boshlang`ich matematika, mantiq, fiqh, falsafa ilmlari bilan shug`ullana boshlaydi. Ibn Sino yosh bo`lishiga qaramay, Abu Abdullo Notiliy rahbarligida falsafani, Hasan ibn Nuh al-Qumriydan tibbiyot ilmini har tomonlama o`rganadi, asta-sekin tabiblik bilan ham shug`ullanadi. U o`zidan avval o`tgan Sharq mutafakkirlarining asarlarini chuqur o`rganish bilan birga, qadimgi yunon tabiiy-ilmiy,

falsafiy merosini, xususan Aristotel, Evklid, Ptolemey, Galen, Gippokrat, Pifagor, Porfiriylarning asarlarini ham qunt bilan o'rgandi. 16–17 yoshidayoq ibn Sino mashhur tabib – hakim bo'lib tanildi. 999 yilda Buxoro Qoraxoniylar tomonidan zabt etilgach, Somoniylar hokimiyati inqirozga uchradi. 1000-yilda Ibn Sino Buxorodan chiqib ketdi va madaniyat markazlaridan biri hisoblangan Xorazmga bordi, u erda Xorazm hokimi Ali ibn Ma'mun saroyidagi olimlarni birlashtirgan o'z zamonasining akademiyasiga qabul qilindi. Ibn Sino Beruniy, ibn Miskavayh, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr Hammor, Abu Nasr ibn Iroq kabi yetuk olimlar bilan yaqindan tanishdi. Lekin bu davrda kuchayib borayotgan Mahmud G'aznaviyning ta'qibidan qochib, Xorazmni tashlab ketishga va Xuroson, Eronning turli shaharlarida sarson-sargardonlikda yurishga majbur bo'ldi. Abivard, Tus, Nishopur shaharlari orqali Jurjon shahriga kelgan ibn Sino hokim Qobus ibn Vashmgir saroyida mashhur tabib sifatida yashadi, bo'lajak shogirdi Juzjoniy bilan tanishdi. 1019–21 yillarda Hamadonda vazir lavozimida xizmat qilarkan, hokim bilan kelisha olmay, 4 oy qamoqda yotib chiqdi. 1023 yilda Isfahonga qochdi va butun umrini ilmiy asarlar yozishga bag'ishladi. Ibn Sinoning «Kitob al-qonun fit-tibb», «Kitob un-najot», «Kitob ul-insof» kabi mashhur asarlari, geometriya, astronomiya, o'simlik, hayvonot olami, mantiqqa oid risolalari, «Hayy ibn Yaqzon» falsafiy qissasi so'nggi yillarda yozilgan. U Isfahonda rasadxona qurish bilan mashg'ul bo'ldi. Umrining so'nggi yillarida feodal urushlar kuchayib ketganligi, ijtimoiy-siyosiy hayotda o'zi ham faol qat-nashganligi tufayli u Isfahon, Ray, Hamadon shaharlari orasida sarson-sargardonliqda yurib, 1037 yil 18 iyunda Isfahon shahrida 57 yoshida qulunj kasalligidan vafot etdi.

Ibn Sinoning hayot yo'li o'zi yozgan tarjimai holi va shogirdi Juzjoniy tomonidan qoldirilgan manbalardan ma'lum. Ibn Sinoning ilmiy qiziqishlari, dunyoqarashining shakllanishida qadimgi Sharq madaniyati, yunon ilmi, falsafasi, Markaziy Osiyo xalqlarining mustaqillik uchun olib borgan kurashlari muhim rol o'ynadi. Ibn Sino tarjimai holida Forobiyning «Metafizika maqsadlari», «Fusus ul-hikam» kabi muhim risolalarini qunt bilan o'rganganligi, ulardan keng foydalanganligini ta'kidlab o'tadi.

Ibn Sino asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi, lekin bizgacha faqat 160 ga yaqin asari etib kelgan, xolos. Ko'p risolalari shaharma-shahar ko'chib yurish, feodal urushlari, saroy to'polonlari, turli falokatlar tufayli yo'qolib kettan. Ko'p manbalarda ibn Sino

avvalo tabib sifatida talqin etiladi, holbuki tabobat uning ilmiy sohalari orasida eng muhimlaridan biridir, xolos. Ibn Sino asarlarining asosiy qismi Yaqin va O'rta Sharqning o'sha davr ilmiy tili hisoblangan arab tilida, ba'zilar fors tilida yozilgan. Uning bizga ma'lum bo'lgan katta asari «Kitob ush-shifo» («Shifo kitobi») 22 jilddan iborat bo'lib, 4 ta katta bo'limini mantiq, fizika, matematika, metafizikaga doir masalalar egallagan. Uning ayrim qismlari lotin tiliga, Yevropadagi boshqa tillarga, sharq tillariga, shuningdek, rus, o'zbek tillariga tarjima qilingan. 20 jilddan iborat bo'lgan «Kitob ul-insof» («Insof kitobi») bizgacha etib kelmagan, chunki Isfahondagi yon-g'inda yo'qolgan. «Kitob un-najot» («Najot kitobi») 4 katta qismdan – mantiq, fizika, matematika, metafizikadan iborat, «Kitob lison ul-arab» («Arab tili kitobi») 10 jildni tashkil etadi. «Donishnoma» fors tilida yozilgan bo'lib, 4 qismni – mantiq, fizika, matematika, metafizikani o'z ichiga oladi (Rus tiliga tarjima etilgan, bir qismi o'zbek tilida bosilgan).

Ibn Sino asarlari o'rta asrlarda Yevropada ilmiy til hisoblangan lotin tiliga, u orqali Yevropaning boshqa tillariga tarjima etilgan. Ibn Sino ilmiy risolalardan tashqari, chuqur falsafiy mazmunli badiiy obrazlar va ma'lum voqealar orqali ifoda etuvchi «Tayr qissasi», «Salomon va Ibsol», «Hayy ibn Yaqzon» kabi falsafiy qissalar yaratgan.

Ibn Sino zamonasining yyetuk shoiri ham bo'lgan. U Sharq, xususan, fors poeziyasida ruboiy janrining asoschilaridan biri bo'lib, ruboiylari o'zida chuqur falsafiy xulosalarni ifodalaydi. Ibn Sino arabcha qit'alar ham yozgan (Uning she'riy merosi qisman rus va o'zbek tillarida nashr etilgan). Ibn Sino tabobat masalalarini ommabop holda nazm bilan izohlovchi «Urjuza» nomli tibbiy asar yaratdi. Uning Aristotel (Arastu) ta'limoti xususida Abu Rayhon Beruniy bilan va o'zining shogirdi – ozarbayjonlik mutafakkir Baxmanyor bilan yozishmalari fan olamida mashhur. Ayniqsa, tabobat, u bilan bog'liq holda anatomiya, psixologiya, farmakologiya, terapiya, xirurgiya, diagnostika, gigiena kabi ilmlar ibn Sino ijodida bir qancha yangi ixtirolar bilan boyidi va yangi bosqichga ko'tarildi. Bulardan tashqari, kimyo, mineralogiya, astronomiya, matematika, o'simlik dunyosi, geologik jarayonlarni o'rganish sohasida ham u yangi-yangi fikrlarni olg'a sura oldi. Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi asarlaridan «Kitob al-qonun fit-tibb» («Tib qonunlari»), «Kitob ul-qulanj» («Ichak sanchiqlari»), «Kitob un-nabz» («Tomir ko'rish haqida kitob»), «Fuj

ul-tibbiya joria fi majlisih» («Tib haqida hikmatli soʻzlar»), «Tadbir ul-manzil» («Turar joyning tuzilishi»), «Fi-l-hindubo» («Sachratqi oʻsimligi haqida»), «Risola fi-dastur it-tibbiy» («Tibbiy koʻrsat-malar haqida») kabi asarlari mavjud. Uning tibbiyotga oid qomusiy asari «Kitob al-qonun fit-tibb» 5 mustaqil katta asardan tarkib topgan: ularning har biri maʼlum sohani izchil, har tomonlama yoritib beradi.

Birinchi kitobda tibbiyotning nazariy asoslari, uning predmeti, vazifalari, boʻlim va metodlari, kasallikning kelib chiqish sabablari, belgilari, sogʻliqni saqlash yoʻllari, kishi anatomiyasi haqida mazmundor, aniqligi bilan kishini taajjubda qoldiruvchi qisqacha ocherk, sogʻliqni qanday saqlash kerakligi haqidagi taʼlimot (keyinchalik gigiena deb nomlangan) bayon etiladi.

«Qonun»ning bu kitobini hozirgi zamon ichki kasalliklar propedevtikasi darsligiga tenglashtirish mumkin.

«Qonun»ning oddiy dorilarga bagʻishlangan ikkinchi kitobida 800 ga yaqin dorining xususiyatlari, ularni tayyorlash va isteʼmol qilish usullari bayon etilgan. Ibn Sino simob, uning birikmalarini dori qilib ishlatishni birinchi boʻlib tavsiya etadi, sharobni quvvatga kirituvchi, jarohatlarni tozalovchi dori sifatida ishlatadi.

Uchinchi kitobda ayrim organlar (hatto soch, tirnoqlar)ning kasalliklari, ularni davolash usullari bayon etiladi, uni maxsus patologiya darsligi deb atasaham boʻladi. Bu kitobda bosh miya, nerv, koʻz, quloq, burun, tomoq, qorin, tish, yurak, jigar, buyrak kasalliklari batafsil tahlil qilinadi.

«Qonun»ning toʻrtinchi kitobi organizmning umumiy kasalliklariga bagʻishlangan. Unda isitmalar, oʻsmalar, ularning sababi, xirurgik kasalliklar (suyak sinishi, chiqishi, jarohatlanish) va ularni davolash usullari har xil dorilardan zaharlanish va bunda koʻriladigan choralar toʻgʻrisida maʼlumot beriladi. Chechak, qizamiq, moxov, toun, vabo va boshqa yuqumli kasalliklar tasvir etiladi.

«Qonun»ning beshinchi kitobida murakkab dorilarning organizmga taʼsiri, ularni tayyorlash, isteʼmol qilish usullari bayon qilingan. Bu kitob dorishunoslik ilmiga – farmakologiyaga bagʻishlangan.

Tibbiyotning asosiy vazifasi, uning taʼbiricha, «inson sogʻligʻini saqlash, agar kasallik paydo boʻlgan boʻlsa, bu kasallikni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va ularni yoʻqotish orqali sogʻliqni tiklashdan iborat». Ibn Sino fikricha, tib ilmida nazariy bilimlar va amaliyot oʻzaro bogʻliq boʻlishi, bir-biriga asoslanmogʻi zarur, aks

holda u rivoj topmaydi, o'z maqsadiga erisha olmaydi. «Tib ilmi avvalo ikki qismga - nazariy va amaliy qismlarga bo'linadi.

Nazariya deb ataluvchi qismi tabiblarning fikrlarini ifoda qilib, maxsus amaliya deb ataladigan qismi tadbir va amalning qanday bo'lishi kerakligini o'rgatadi. Tibning amaliy qismi ikkiga bo'linadi. Birinchi qismi sog'lom tanlarning tadbirini bilish: bu sog'liqni saqlashga taalluqli bo'lgani uchun sog'liqni saqlash ilmi deb ataladi. Ikkinchi qismi – kasal tananing tadbirini bilish bo'lib, sog'lom holatga qaytarish yo'llarini ko'rsatadi, bu davolash ilmi deb ataladi». Ibn Sino kasallikni o'rganishda ob'ektiv sharoitni har tomonlama bilishga katta ahamiyat berdi, muhitdagi turli tabiiy narsalar, havo orqali kasallik tarqatuvchi ko'zga ko'rinmaydigan «mayda hayvonotlar» haqidagi fikrni olg'a surdi.

«Qonun» 800 yil davomidanhakimlar uchun asosiy qo'llanma bo'lib keldi. Urta asrlarda «Qonun» Sharqdagina emas, balki G'arb mamlakatlarining universitetlarida ham talabalar uchun tibbiyotdan yagona qo'llanma edi.

Ibn Sinoning «Kitob ush-shifo» asarida turli tibbiyot imlariga: botanika, geologiya, mineralogiya, astronomiya, matematika, kimyoga oid ko'p ma'lumotlar keltiriladi. Uning tog'larning vujudga kelishi, er yuzasining davrlar o'tishi bilan o'zgarib borishi, zilzilaning sabablari kabi turli jarayonlar haqidagi fikrlari keyinchalik geologiya ilmining mustaqil ravishda rivoj topishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ayrim joylarning bir vaqtlar dengiz bo'lganligi, shu sababli qattiq qatlamlarda turli dengiz hayvonlarining izlari saqlanib qolganligi haqida ham turli misollar asosida fikr yuritiladi; meteoritlar, vulqonlar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Mineralogiya ilmining rivojida ham ibn Sinoning xizmati katta. U minerallarni 4 guruhga ajratadi: 1) toshlar; 2) eriydigan jism (metal)lar; 3) oltingugurtli yonuvchi jismlar; 4) tuzlar.

Kimyoda ham ibn Sino zamonasining bilimlarini umumlashtirishga harakat qilib, turli asarlar yozdi, tajribalar o'gkazdi. Xususan, uning organik kimyo sohasidagi fikrlari keyingi davr mutaxassisleri tomonidan yuqori baholandi. U odstiy metallni qimmatli metallga aylantirish ustida fikr yurituvchi alximiklarni tanqid qildi. Ibn Sino astronomiya sohasida Ptolemeyning geopentrik nazariyasidan tashqariga chiqmagan bo'lsada, tabiiy hodisalarning ichki sababiy bog'lanishini aniqlashga harakat qildi, inson hayoti va ijtimoiy hodisalarni osmon jismlari harakati, holatiga bog'lovchi

astrologiyaga shubha bilan qaradi, turli tajribalar o'tkazish uchun yangi astronomik asbob yaratish, botanikada turli o'simliklarning tabiiy xususiyatlarini o'rganish, ilmiy terminologiya yaratish sohasida ish olib bordi.

Ibn Sino dunyoqarashi Forobiy asarlari ta'sirida shakllandi, u ijtimoiy-falsafiy masalalarda Forobiy qarashlarini davom ettirdi, ilg'or falsafiy oqimni yangi tabiiy-ilmiy fikrlar bilan boyitib sistemalashtirdi va yangi bosqichga ko'tardi. Ibn Sino fikricha, falsafaning vazifasiga mavjudotni – barcha mavjud narsalarni, ularning kelib chiqishi, tartibi, o'zaro munosabati, biridan ikkinchisiga o'tishini har tomonlama tekshirish uchun zaruriyat, imkoniyat, voqelik, sababiyat prinstiplarini asos qilib oladi. Olam – barcha mavjud narsalar ikkiga bo'linadi: zaruriy vujud (vujudi vojib) va imkoniy vujud (vujudi mumkin). Zaruriy vujud hech narsaga bog'liq bo'lmagan bir butunlikni tashkil etib, u eng irodali, qudratli, dono Tangridir. Qolgan hamma narsalar imkoniy tarzda mavjud bo'lib, zaruriy vujud – Tangridan kelib chiqadi. Vujudi vojib va vujudi mumkin – sabab va oqibat munosabatidadir. Bu jarayon emanastiya tarzida, ya'ni quyoshdan chiqayotgan nur shaklida asta-sekin amalga oshadi. Shu tartibda imkoniyat shaklidagi mavjud bo'lgan aql, jon (nafs) va jism, ular bilan bog'liq holda osmon sferalari kelib chiqadi, mavjud narsalarga aylanadi. Bular hammasi substanstiya (javhar)dir. Bundan tashqari borliqda akstidenstiya (obraz) – narsalarning belgilari, rang, hajmi, hidi va boshqa hislari mavjud. Jism shakl va modda (xayulo)dan tashkil:topadi. Xudo abadiy, uning oqibati bo'lmish materiya ham abadiydir. Uning o'zi boshqa konkret jismlarning asosidir. Narsalarning konkret ko'rinishlari, shakllari o'zgaradi, lekin ularning moddiy asosi yo'qolmaydi. Materiya doim vujudga kelishi mumkin bo'lgan narsalardan avval mavjud bo'lib, bu narsalar ularni tashkil etuvchi materiyaga muhtojdir. Materiyaning eng sodda, bo'laklarga bo'linmaydigan shakli to'rt unsur: havo, olov, suv, tuproqdan iborat. Ularning turlicha o'zaro birikuvi natijasida murakkab moddiy narsalar tashkil topadi. Murakkab narsalar o'zgarib, turli shakllarga ega bo'lishi mumkin, lekin ularning moddiy asosi bo'lgan to'rt unsur yo'qolmaydi, abadiy saqlanadi. Uning fikricha, avval tog'-toshlar, so'ng o'simlik, hayvonot va taraqqiyotning yakuni sifatida inson vujudga kelgan. Inson boshqa barcha hayvonot olamidani so'zi, tili va aqli, tafakkur qilishi bilan farq qiladi.

Real hodisalarni chuqur bilish, fan bilan shugʻullanish insongagina xosdir. Ibn Sino «Risolatun fi taqsim al-mavjudot» asarida butun borliqni tarkibiy qismlarga boʻlib, birma-bir sanaydi va ularga taʼrif berib oʻtadi. Vujudi vojib, vujudi mumkin, substanstiya, akstidenstiya, materiya, shakl, akd, unsur, jism, quvvat, sezish, mineral, hayvon, nutq, lison kabi kategoriyalar bu risolada qisqacha taʼriflanadi.

Inson bilimlari narsalarni bilish yordamida vujudga keladi. Bilish hissiy bilish va tushunchalar yordamida fikrlashdan tashkil topadi. «Sezish, – deb yozgan u, – bu shunday taʼsirki, u tashqi narsalarning oʻzi boʻlmay, balki bizning hislarimizda vujudga keladi. His moddiy obrazning oynasi boʻlib, moddiy shakllarning boʻyi, eni bilan birga ifodalanganligi sababli, ularni inson moddiy asossiz inʼikos eta olmaydi va jismlarni bilolmaydi».

Inson aqli turli fanlarni oʻrganish yordamida boyiydi, rivoj topadi. Bunda, xususan, u mantiq ilmiga katta eʼtibor beradi. Aql har qanday bilishning va amaliy faoliyatning mezoni sifatida talqin etiladi. «(Aql) tarozisida oʻlchanmagan har qanday bilim, – deb yozadi ibn Sino, – chin boʻlolmaydi, demak, u haqiqiy bilim emas». Oʻrta asrda Yaqin va Oʻrta Sharq, jumladan, Markaziy Osiyo falsafasida aql nazariyasi juda muhim oʻrin egallaydi.

Ibn Sino ijodida fanning strukturasi tekshirish, ilmlarning tartibini aniqlash, ularni tasnif qilishga eʼtibor alohida oʻrin egallaydi. Bu masalada ham olim Forobiy boshlab bergan fanlar tasnifi haqidagi masalani yanada taraqqiy etirishga harakat qiladi. Ibn Sinoning falsafiy sistemasini ifodalovchi asarlarida («Kitob ush-shifo», «Kitob un-najot», «Donishnoma») falsafiy bilimlar: mantiq, fizika, matematika, metafizika tartibida beriladi. Bulardan mantiq – bilishning metodi, mavjudotni oʻrganish, u haqda fikr yuritishning ilmiy usuli sifatida talqin etiladi. «Mantiq, – deb yozadi ibn Sino, – insonga shunday bir qoida beradiki, bu qoida yordamida inson xulosa chiqarishda xatolardan saqlanadi». Mantiq yordamida inson haqiqiy bilimni yolgʻondan ajratadi va nomaʼlum narsalarni oʻrganadi. U - mantiq ilmini tadqiq etishga katta eʼtibor beradi, unga maxsus risolalar bagʻishlaydi. Xususan, u mantiqiy usullar, taʼriflash, hukm, xulosa chiqarish, isbotlash masalalarini oʻrganishga katta hissa qoʻshdi, mantiq fanini Forobiydan soʻng bilishning toʻgʻri metodi sifatida rivojlantirdi. Mantiqdan tashqari barcha qol-gan ilmlarni ibn Sino tabiat va ijtimoiy hodisalar haqidagi ilmlar sifatida oʻzining «Aqsom

ul-ulum ul-aqliya» («Aqliy bi-limlar tasnifi») asarida alohida-alohida sanab, ta'rif berib o'tadi. Ibn Sino falsafiy ilmlarni avvalo ikkiga bo'ladi: nazariy va amaliy ilmlar.

Nazariy ilmlar haqiqatni bilishga, amaliy ilmlar yaxshi ishlarni bajarishga qaratilgan. Falsafaning nazariy qismi uchga bo'linadi: 1) quyi darajadagi ilm, ya'ni tabiatshunoslik; 2) o'rta darajadagi ilm – matematika; 3) oliy darajadagi ilm – metafizika. Falsafaning amaliy qismi ham uchga bo'linadi: a) shaxs haqidagi ilm; b) insonning o'zaro munosabatlari haqidagi ilm; v) davlatni, mamlakatni boshqarish haqidagi ilm. Nazariy-falsafiy ilmlarga kiruvchi har uch turdagi ilmlar asosiy va yordamchi bo'laklarga ajraladi; tabiatshunoslik ilmlari astrologiya, meditsina, alkimyo kabi etti xil tarmoqni o'z ichiga oladi. Matematika esa arifmetika, geometriya, astronomiya, muzika nomi bilan 4 tarmoqqa bo'linadi. Asarda 29 ilm tarmog'i tilga olinadi.

Ibn Sino o'z dunyoqarashida panteistik printsiptga asoslanadi: Tangri va borliq bir-biriga zid, bir-birini inkor etuvchi narsalar emas, aksincha, ular bir butun holda mavjudotni tashkil etadi. Abadiylik Tantriga xos. Tangri va tabiat ma'lum pog'onalar yordamida bog'lanadi. Uzun va yaxlit zanjirning bir tomonida yaratuvchi Tangri – zaruriy vujud, ikkinchi chekkasida tabiat yotadi.

Ibn Sino haqiqiy axloqiy fazilatlar va ideal jamoaga shu mavjud dunyoda erishuv mumkin, jamiyatda insonlar o'zaro yordam asosida yashashlari kerak deb ta'kidlaydi. Jamiyat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida kabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini ta'kidlaydi. Jamiyat a'zolarining hammasi bu qonunga itoat etishlari, qonunni buzish va adolatsizlik jazolanishi, basharti podshoning o'zi adolatsizlikka yo'l qo'ysa, xalqning unga qarshi qo'zg'oloni to'g'ri va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmog'i lozim.

Ibn Sino o'zining ko'p tarmoqli ijodi, boy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotida katta rol o'ynadi. O'z ijodi, ilmiy faoliyatida ibn Sino Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi yuqori madaniy ko'ratinkilik, madaniy «uyg'onish»ning ma'naviy yutuqlarini mujassamlashtira oldi, bu bilan butun Sharq va Yevropadagi ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. U o'z davrida Sharq va Yevropada «Shayx ur-ra'is», «Olimlar boshlig'i», «Tabiblar podshohi» kabi eng buyuk nomlarga sazovor bo'ldi. Ibn Sino mashhur murabbiy sifatida Abu Ubayd Jurjoniy, Umar Isfahoniy, Muhammad Sheroziy, Ahmad Ma'suriy, mashhur

ozarbayjon mutafakkiri Baxmanyor ibn Marzbon, Yusuf Iyloqiy, ajoyib olim va shoir Umar Hayyom kabi shogirdlarini tarbiyaladi. Uygʻonish davri miniatyura va suratlarida ibn Sino mashhur qadimgi yunon olimlari Aristotel, Galen, Gippokrat, Ptolemey, Evklid bilan bir qatorda tasvirlangan. Oʻsimliklarning birinchi ilmiy tasnifini yaratgan tabiatshunos Karl Linney doimo yashil boʻlib turuvchi bir oʻsimlikni ibn Sino sharafiga «Avisteniya» deb atadi.

Ibn Sino asarlari Yevropada XII asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilina boshladi. «Tib qonunlari» asarining oʻzi lotinchada 30 martadan ortiq nashr qilindi. «Kitob ush-shifo»ning koʻp boʻlimlari, mantiq, muzika, yerning tuzilishi, geologik jarayonlar, metafizikaga oid qismlari ham lotinchada nashr etildi. Soʻnggi ilmiy tadqiqotlar ibn Sinoning Sharq adabiyotiga ham taʼsir koʻrsatganligini, chuqur falsafiy mazmunni ifodalovchi ruboiy va falsafiy qissalar janrining taraqqiyotiga turtki berganligini koʻrsatadi. Ibn Sino xalq orasida shu darajada hurmatga sazovor boʻldiki, u folklor qahramoniga aylanib ketdi. Sharq xalqlarida uning toʻgʻrisida turli hikoya, rivoyat, afsonalar vujudga keldi. Jahon olimlari ibn Sino asarlari, uning faoliyati toʻgʻrisida koʻpdan beri ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradilar. Hozirda jahonning deyarli barcha yirik tillarida ibn Sino haqida asarlar yaratilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar

1. Abu Ali ibn Sino yashagan davrga tavsif
2. Abu Ali ibn Sinoning boy ilmiy merosi va uning ahamiyati
3. Ibn Sinoning Musulmon Sharqidagi qadimgi dorishunoslikdagi oʻrni.
4. Ibn Sinoning falsafiy qarashlari
5. Abu Ali ibn Sino Sharq Uygʻonish davrining buyuk mutafakkiri.

7 – MAVZU. ABU RAYHON BERUNIY (973 – 1048) - XORAZM MA'MUN AKADEMIYASINING RAISI

Reja

1. Abu Rayhon Beruniy yashagan davrga tavsif
2. Abu Rayhon Beruniyning Xorazmshohlar saroyidagi faoliyati
3. Beruniy ilmiy merosi va uning jahon tarixidagi o`rni
4. O`zbekistonda Beruniyshunoslik

Tayanch so`z va iboralar: Abu Sa'd Abdulkarim as-Sam'oni, «Nasablar kitobi», Beruniy, nisba, Kot, Munajjim, Abu Rayhon afrig'iyalar, sulola, poytaxt, O'rta Osiyoning, savdo markazi, Eron, Kavkaz, madaniy aloqalar.

Abu Rayhon Beruniy – o'rta asrning buyuk qomusiy olimi. U bir vaqtning o'zida astronom, astrolog, matematik, geolog, geograf, o'lkashunos, biolog, medik, o'sim-likshunos, ma'danshunos, tarixchi, manbashunos, dinshu-nos, astabiyotshunos, faylasuf, sostiolog, mantiqshunos, ilohiyotchi va shoir bo'lgan. O'z davrida uning «shug'ullangan sohasini sanashdan ko'ra, shug'ullanmagan sohasini sanash osonroq» edi deyishadi. Beruniy astronomiyaga, astrolyabiyaga, geodeziyaga, mineralogiyaga, farmakognoziyaga, geografiyaga, astrologiyaga, toponomikaga, dinshunoslikka, tarixga oid maxsus asarlar yozgan.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy ismidagi «Abu Rayhon» qismi Rayhonning otasi, «Muhammad» mutafakkirning o'z ismi, «ibn Ahmad» Ahmadning o'g'li ekanligini anglatadi. Beruniy esa uning nisbasidir.

Beruniy 362 yilning 3 zulhijjasi/973 yil 9 sentyabrida Xorazmning qadimiy poytaxti hisoblangan Kot (Kat) shahrida tug'ilgan. Ayrim manbalarda Beruniyni Kot shahrining tashqarisida tug'ilgan, shu sababli uni «Beruniy», ya'ni «tashqarilik» degan taxallus bilan atashgan deyishadi. Abu Sa'd Abdulkarim as-Sam'oni (vaf. 1165) «Nasablar kitobi» nomli asarida shunday deb yozadi: «Beruniy degan nisba Xorazm (ya'ni uning poytaxti Kot shahri)ning tashqari qismiga oiddir. Kimki shahardan tashqarida tug'ilgan bo'lsa, bunday odamni «fa-lonchi beruniy» deyilar. Munajjim Abu Rayhon shunday nisba bilan mashhurdir». Kot shahri X asrda xorazmshohlar –

afrig'iylar sulolasining poytaxti, O'rta Osiyoning eng yirik savdo markazlaridan biri edi. Bu davrda Xorazm bilan Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharq davlatlari, Eron, Kavkaz va Yevropa davlatlari o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar ancha rivojlangandi. Xorazmliklar asosan mo'yna, qoramol, baliq va hunarmandchilik buyumlari bilan savdo qilishgan. Xitoydan chinni va ipak buyumlar, Hindistondan ziravorlar xarid qilishgan. Yevropalik, rum va suriyalik savdogarlar turli-tuman hunarmandchilik, zargarlik buyumlarini keltirishgan. Xorazmda hunarmandchilikning kulolchilik, shishasozlik, zargarlik, to'quvchilik, qandakorlik va yog'och o'ymakorligi rivojlangan. Qadimdan Xorazmda matematika, astronomiya, geodeziya, matematik geografiya fanlari taraqqiy etib kelgan. Tarixchilar keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, bu ilmlarga qiziqqan kishilar dunyoning uzoq-uzoq burchaklaridan Xorazmga kelishgan. Kot shahrida xitoylik, suriyonlik, rumlik, yunonistonlik va hatto andalusiyalik (ispaniyalik) kishilarni ham uchratish mumkin edi. Ular nafaqat ilm o'rganish uchun, balki o'z ilmlarini yoyish uchun ham kelishardi. Bu holat Xorazmda ilm egallashga sharoit keng bo'lganligidan dalolat beradi. Beruniy ana shunday muhitda aqlini tanidi. U yoshligidan ilmga mehr qo'ygan edi. Beruniy o'zining yoshligi haqida xotirlab: «Men bir Yunonistondan kelib qolgan olimdan turli xil o'simliklarning yunonchada qanday atalishini so'rab, bir daftarchamga batafsil yozib borar edim va ularni yodlab olardim», – deydi. Kot shahri bir necha bor istilochilar tomonidan qayta-qayta vayron qilingan va har safar yangidan tiklanganda boshqa nomlar bilan atalgan. Yaqin tarixda va 1957 yilgacha Shabboz (Shayx Abbos Vali) deb atab kelingan va o'sha yil unga Beruniy nomi berilgan. Beruniy shahri hozir Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan.

Beruniyning oila a'zolari, ota-bobolari va nasl-nasabi haqida ma'lumotlar saqlanmagan. Beruniyning o'zining yozishicha, onasi o'tin terish bilan tirikchilik qilgan. Bu ma'lumot Beruniyning muhtojlikda kun kechiruvchi oilada voyaga etganligidan dalolat beradi.

Ta'kidlanganidek, X asrning ikkinchi yarmi va XI asr Xorazmda ilm-ma'rifat nihoyatda rivojlangan bir davr edi. Bir tomondan Xorazmda «Avesto» g'oyalari va zardushtiylik dini bilan bog'langan qadimiy ilmlar ravnaq topgan bo'lsa, Qadimgi Yunonistondan kelgan falsafiy ta'limotlar, Erondan kelgan majusiylilik, koinlik an'analari,

isaviylik, musaviylik, Kushonlar davrida tarqalgan buddaviylik va nihoyat, islom dini va madaniyati xalqning ma'naviy dunyosiga ta'sir qilgan edi. Ayniqsa, arab olimlarining ta'limotlari, Qur'oni karim va hadislarga asoslangan g'oyalar keng tarqalgandi. Shunday bir sintetik madaniyatlar rivojlangan sharoitda xalqning ilg'or ziyolilari turli tillarni egallashga intilishgan. Beruniy ham qadimgi xorazm tilidan tashqari, arab, so'g'diy, fors, yunon, suriyoniy va qadimiy yahudiy tillarini puxta bilgan va shu tillarda yozilgan adabiyotlarni o'qiy olgan. Keyinchalik Mahmud G'aznaviy bilan Hindistonga borganida sanskrit tilini ham o'rganib olgan. Beruniy yashagan davrda Qur'onni yod olish odati keng yoyilgandi. Bu odat kishilarning xotirasini chiniqtirgan va turli tillarni o'rganishga rag'batni kuchaytirgan. Bundan tashqari, xorazmliklarning xotiraga zo'r berishlarining sababi Beruniy shunday izohlaydi: «Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimni boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin, haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoddi... Keyin Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy xorazmliklarning kotiblarini halok etib, bilimdonlarini o'ldirib, kitob va daftarlarini kuydirganligi sababli ular savodsiz qolib, o'z ehtiyojlarida yodlash quvvatiga suyanadigan bo'ldilar».

IX-X asrlarda somoniylar saltanati vujudga kelib, fan va madaniyat yana yuksala boshlaydi. Turkiy xalqlarning Sharqiy hududlarida mustaqil davlatchilik an'analarini tiklab olgan qoraxoniylar 995-997 yillari somoniylar davlatiga qarshi yurish qiladi. Kot shahri Urganch amiri Ma'mun I (995-997) tomonidan bosib olinadi va afrig'iylar sulolasi barham topadi. Qoraxoniylar asta-sekin butun Movarounnahrni egallaydi. Ular arab hukmdorlari bilan kelishib, Amudaryoning o'ng sohilidagi erlarni butunday o'zlariga qaratib oladi. 997-1017 yillarda hokimiyat Ma'mun birinchining o'g'li Ma'mun ikkinchi qo'lga o'tadi. U poytaxtni Urganchga ko'chiradi va ancha ma'rifatparvar inson bo'lganligi sababli ilm-fan taraqqiyotiga rahnamolik qiladi. Urganchda «Ma'mun akademiyasi» tashkil etiladi. Ko'p mamlakatlardan ilm-fan bilan shug'ullanuvchi olimlar bu erga olib kelinib, ularga yaxshi sharoitlar yaratiladi. Beruniy shu olimlarning etakchilaridan biri edi. Uning atrofida yaxshi ilmiy jamoa to'plangan. Bu davrda yurtimizda ilm-ma'rifat, fan va

madaniyat yana yuksala boshlagan edi. Afsuski, 1017–1018 yillar Xorazmda yana notinchlik davri boshlandi. Bir tomondan Mavorounnahrda qoraxoniylar hukmronligi, ikkinchi tomondan Xuroson va Afgʻonistonda oʻrnatilgan Mahmud Gʻaznaviy hukmronligi (998–1030) oʻrtasidagi nizolar Xorazmda shakllangan maʼrifat oʻchogining barbod boʻlishiga sabab boʻldi.

Beruniy umrining oxirigacha gʻaznaviylar qoʻlida xizmat qiladi. XIII asrning ikkinchi yarmida yashagan mashhur hakim va xattot Gʻazanfar at-Tabriziyning yozishicha, Abu Rayhon Beruniy 440 xijriy yil rajab oyining 3 kuni/1048 yilning 13 dekabrda Gʻazna shahrida vafot etgan.

Bu olim Beruniyning soʻnggi asari «Saydana»ni koʻchirgan. Beruniyning tarjimai holini yozgan tarixchi olim, Abu Abdulloh Shahobiddin Yoqub (Yoqut) ibn Abdullbh ar-Rumiy Hamaviy (1179-1229) Beruniy vafot etganida, ancha keksayib, saksondan oshib qolganligini taʼkidlab, uning vafot sanasini 443/1051-1052 yil etib koʻrsatadi.

Beruniy yoshligida ustoz, mashhur olim Abu Nasr ibn Iroq Mansur ibn Alidan (vaf. 1036) taʼlim olib, ilm sirlarini oʻrgangan. Beruniy bu ustozini koʻpgina asarlarida hurmat bilan tilga oladi. Ibn Iroqning ham Beruniyga mehri kuchli boʻlgan. U astronomiya, geometriya va matematikaga oid 12 ta asarini shogirdi Abu Rayhon Beruniyga bagʻishlab yozgan va bu ulugʻ shogirdini koʻp asarlarida hurmat bilan tilga olgan. Ibn Iroq Beruniyni Evklid geometriyasi va Ptolomeyning ast-ronomik taʼlimoti bilan tanishtirgan. U shogirdining nihoyatda isteʼdodli ekanini taʼkidlab, Beruniy yoshligidan mustaqil astronomik kuzatish ishlari olib bor-ganini (994-995), buning uchun maxsus astronomik as-bob ham ixtiro qilganini yozib qoldirgan.

995-997 yillari Kot Maʼmun I tomonidan bosib olingandan keyin afrigʻiylar sulolasi tugatildi. Shu davrda taxtdan tushirilgan amir xizmatida boʻlgan Beruniyning hayoti ham xavf ostida qoladi va u 22 yoshida Xorazmdan chiqib ketishga majbur boʻladi. U dastlab Kaspiy dengizining janubi-sharqida joylashgan Jurjon shahriga borib, u erda muhojirlikda yashaydi. Soʻngra Eronning Ray shahrida istiqomat qiladi va u yerda nihoyatda faqirlikda kun kechiradi. Hatto ilmiy munoza-ralarda ham puldor olimlar uning muhtojligi ustidan masxara qilib kulishardi. Bu haqda Beruniy shunday eslaydi: «Ray shahrida bir olim astronomiya sohasida men bilan bahsga kirishdi va garchi u

ilmda mendan ancha past tursada, mendan o'zini yuqori olib, hatto kaminani haqorat ham qildi. Vaholanki, oramizda faqat boy-lik ortiqchaligi va maqtovlarni yomonliklarga, faxr-larni ayblarga aylantiruvchi kambag'allik bor edi, xolos. Chunki men u vaqtda hamma tomondan qiyinchilikka uchrab, parishonhol edim».

Beruniy Ray shahrida isfahonlik bir savdogar do'stining uyida mehmon bo'lib yashagan. O'rta Osiyoda vaziyat mo'tadillasha boshlagach, olim Raydan yana Jurjonga qaytib keladi va bu joyda ikkinchi ustoz – tabib, astronom va faylasuf Abu Sahl Iso bin Yah'yo al-Masihiy al-Jurjoniy (vaf. 1010) bilan tanishadi, undan ta'lim oladi.

928–1012 yillar Xorazm va Kaspiy dengizi oddi viloyatlariga ziyoriyalar sulolasining mashhur vakili Qobus ibn Vashmgir hukmdorlik qilgan. Bu hukmdor Beruniyga vazirlik lavozimini taklif qilgan, ammo Beruniy bu lavozimni rad etib, ilm bilan shug'ullanishga jazm etadi. 1000 yil Beruniy jahon fani tarixida qimmatbaho manba hisoblangan «Osor al-boqiya» («Qadimgi xalqtardan qolgan yodgorliklar») asarini yozadi va mazkur asarni «Shams al-ma'aliy» («Oliy mar-tabalar quyoshi») laqabi bilan mashhur bo'lgan hukmdor Qobus ibn Vashmgir (vaf. 1012)ga bag'ishlaydi. Qobus ibn Vashmgir hukmdorlar orasida ilm-ma'rifatga berilgan, adolatparvar inson bo'lgan. Beruniyning yozishicha, uni Yaratgan «xalqqa adolatli, Tangrining dini va xalqiga yordamchi, musulmonlar haramlarini qo'riq-lovchi, ular mulklarini talon-tarojlardan asrovchi yo'l boshchi qilib, bandalarini o'zidan minnatdor etdi». Shunisi borki, bu hukmdor shia mazhabining tarafdori bo'lgan. Beruniy uning saroyida yashagan davrlarida o'zini shia mazhabiga yon bosganday qilib ko'rsatsada, dinda to'la mo'tadillikni yoqdagan va barcha mazhablarga nisbatan bag'rikenglik bilan qarash tarafdori bo'lgan. 1005 yili Beruniy o'z yurti – Xorazmga qaytadi. 1010 yili Abul-Abbos Ma'mun II ibn Ma'mun (vaf. 1017) Beruniyni Xorazmning yangi poytaxti Urganchga olib kelishga farmon beradi. U Beruniyni ustoz sifatida hurmat qiladi. Beruniy ham «Xorazmning mashhur kishilari» degan asarida Abul-Abbos Ma'mun II ning yaxshi sifatlarini tavsiflab o'tgan. Ma'mun I ning o'g'li Ma'mun II abbosiyalar xalifaligining 3-avlodi edi. U o'zining bobosi Xorun ar-Rashid izidan borib ilm-fan taraqqiyotiga homiylik qiladi, Xorazmda ilmiy akademiya tashkil etadi. Xorazm Ma'mun akademiyasida Abu Sahl al-Masihiy, Abu Nasr Ibn Iroq, tabib Abul-Hasan Hammor,

mashhur tarixchi Ibn Miskavayh (vaf. 1030), Ibn Sino va Beruniy singari zamonasining taniqli olimlari to‘plangan edi. Beruniy Ma‘mun II saroyida katta obro‘-e‘tiborga sazovor bo‘lgan va o‘z mavqeidan foydalanib, qimmatbaho toshlar, kamyob metallar ustida kuzatishlar olib borib, «Kitob al-jamohir fi ma‘rifat al-javohir» («Qimmatbaho toshlarni bilib olish bo‘yicha ma‘lumotlar to‘plami») nomli mineralogiya sohasiga bag‘ishlangan yirik asar yozadi.

Ma‘mun saroyida Beruniy 7 yil ishlaydi. Zamonasining yetuk olimi Abu Ali ibn Sino (980–1037) bilan ilmiy hamkorlik qiladi, munozaralar olib boradi. Beruniyning Ibn Sino bilan fizik qonuniyatlarga oid yozishmalarining bir qismi saqlanib qolgan. 1017 yili Xorazmga arab hukmdori Mahmud G‘aznaviy hujum qiladi. Mahmudning kelishidan xabardor bo‘lgan Ma‘mun II saroy a‘yonlari va olimlarni to‘plab, ularga, agar xohlasa, Mahmud G‘aznaviy saroyida xizmat qilishni davom ettirishi, xohlamasa, vaqt borida Urganchdan ketishi lozimligini uqtiradi. Ko‘pchilik amaldorlar va ba‘zi olimlar, ular orasida Ibn Sino ham, saroydan ketishga qaror qiladilar. Bu vaziyatdan foydalangan muxolif kuchlar 1017 yili Ma‘munga suiqasd uyushtirishadi. Ma‘mun o‘limidan so‘ng Beruniy ham saroy-dagi boshqa olimlar qatorida Mahmud G‘aznaviyning asiri sifatida G‘azna shahriga olib ketiladi. Bu Beruniy uchun juda tahlikali hol edi. Mahmud G‘aznaviy farmoniga ko‘ra. Beruniy bilan Abdussamad Avval qatl etilishi lozim edi, chunki ular Ma‘mun II ning sadoqatli amaldorlari qatoriga kirar edilar. Mahmudning vaziri Xo‘ja Hasanning oraga tushishi tufayli Beruniy omon qoladi. 1017 yildan to 1030 yilgacha Beruniy G‘aznaviy qo‘l ostida tahlikali hayot kechiradi. Mahmud doimo o‘zining barcha yurishlarida, jumladan, Hindistonni zabt etishida munajjim sifatida Beruniyni birga olib yurgak. U Beruniyni bir necha bor o‘limga hukm qiladi, zivdonga tashlaydi, xullas, Beruniy Mahmudning qosh-qovog‘iga qarab yashashga majbur edi. Mahmud saroyida ham Beruniy o‘zining ilmiy izlanishlarni to‘xtatmagan, G‘aznaviyning Hindistonga yurishi davrida to‘plagan ma‘lumotlari asosida yirik «Hindiston» («Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta‘limotlarini aniqlash») nomli asarini yozgan. 1030 yilda Mahmud vafot etgach, uning vasiyatiga ko‘ra, kichik o‘g‘li Muhammad taxtga o‘tiradi. Ammo bir necha oydan keyin Mahmudning katta o‘g‘li Mas‘ud (1030-1041) ukasini taxtdan ag‘darib, hokimiyatni undan tortib oladi. Mas‘ud davrida Beruniyning

ahvoli yaxshilanadi, chunki Mas'ud Beruniyga xayrixoh bo'lib, undan ko'p narsalarni o'rgangan edi. Beruniy Mas'udga arab tilini o'rganishiga, astronomiya asoslarini egallashiga ko'maklashgan. Mas'ud esa Beruniyning hurmatini joyiga qo'yib, uning ilm bilan shug'ullanishiga yaxshi shart-sharoitlar yaratib, har doim in'om va hadyalar bilan taqdirlab turgan. Mas'udning homiyligi-dan minnatdor bo'lgan Beruniy unga bag'ishlab «Mas'ud qonuni» degan asar yozgan. Shu asarning so'zboshisida Mas'ud haqida «u... ilmga xizmat qilishim uchun ochiq yuz bilan imkoniyat berdi, chunki u menga ziynat libosini kiygizib inoyat ko'rsatdi», - deb yozadi Beruniy. Bu asar astronomiya va matematika ilmlariga oid mukammal qo'llanma sifatida o'sha davrda shu sohalarga oid ilgarilari yaratilgan barcha asarlarning eng a'losi edi.

Beruniyning shogirdlari haqida quyidagi ma'lumotlar bor. Avvalo, Abul-Abbos Ma'mup II ibn Ma'mun o'zini Beruniyga yaqin tugib, undan saboqlar olgan va o'zini Beruniyning shogirdiman deb hisoblagan. Shuningdek, Qobus ibn Vashmgir saroyida ham Beruniydan saboq olgan shogirdlari bo'lgan, ammo ularning nomlari saqlanib qolmagan. Mahmud G'aznaviy ham ba'zan Beruniyga ustozim deb murojaat qilgan. Uning katta o'g'li Mas'ud ham Beruniyni eng ulug' ustozim deb bilgan va unga hsmkylik ko'rsatgan. Beruniy bilan Ibn Sino bir-biriga ustoz-shogird bo'lishgan. Ularning o'zaro yozishmalaridagi savollardan 18 tasi bizgacha etib kelgan. Bu yozishmalarda ikki zabardast olimning bir-biriga bo'lgan e'tiqodiniig naqadar kuchliligi sezilib turadi.

1035–1036 yillari Beruniy o'zi yozgan asarpari ro'yxatini tuzgan va mazkur ro'yxatda 113 ta asarning nomini keltiradi. Bu asarlardan 70 tasi astronomiyaga, 20 tasi matematikaga, 12 tasi geografiya va geodeziyaga, 3 tasi mineralogiyaga, 4 tasi kartografiyaga va boshqa fanlarga oid edi. Agar olimning undan keyin yashagan 13 yil ichida yozgan 50 dan ziyod asarlarini ham qo'shadigan bo'lsak, ularning umumiy soni 160 dan oshadi. Ayrim manbalarda Beruniy 200 dan ziyod asar yozgani haqidagi ma'lumotlar ham uchraydi. Beruniy yozgan har bir asar uziga xos ensiklopediya edi. Masalan, uning dastlabki asarlaridan «Qadimgi xalqdardan qolgan yodgorliklar» («Al-osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya») asari Qadimgi Xorazmda o'tgan xadqlarning, qadimgi yahudiylar, nasroniylar, majusiylar va musulmonlarning urf-odatlarini, an'analari, bayramlari, kalendarlari,

dinlari, paygʻambarlari, muqaddas kitoblari haqidagi barcha maʼlumotlarni oʻzida toʻplagan yaxlit ensiklopediya boʻlib, u Evropada «Xronologiya» nomi bilan mashhurdir. Bu asarni olim 27 yoshida, yaʼni 1000-yili arab tilida yozib tugallagan. Uni Qobus ibn Vashmgirga bagʻishlagan. Bu asarning birinchi nashrini nemis olimi, beruniyshunos Eduard Zaxau 1876– 1887 yillarda Leypstigda nashrdan chiqaradi. 1879 yili esa uning inglizcha tarjimasini eʼlon qiladi. 1950 yili sharqshunos olim A. Rasulov mazkur asarning bir qismini oʻzbekchaga tarjima qiladi, 1957 yili asar arabshunos olim M. A. Sale tomonidan rus tiliga tarjima qilinadi va nashr etiladi. 1968 yilsh A. Rasulov tomonidan bu asarning oʻzbek tilidagi toʻliq tarjimasini «Fan» nashriyatida bosilib chiqadi. Beruniyning «Kitobu-l-maqolot val-arz vad-diyonot» («Maqolalar, eʼtiqodlar va dinlar haqida kitob»), «Kitob fi axbori Xorazm» («Xorazm xabarlar haqida kitob»), «Kitob tarixi ayyom as-sulton Mahmud va axbori abihi» («Sulton Mahmud davri tarixi va otasi haqidagi xabarlar kitobi») kabi kitoblari hali topilmadi. Ularni jahon kutubxonalar va shaxsiy kitob xazinalaridan axtarishni davom ettirish lozim. Eslatganimizdek, Beruniy Jurjon hukmdori Vashmgir saroyida yashab yurgan davrida qimmatbaho toshlar va minerallar haqida «Mineralogiya» asarini yozgan. Bu asarda muallif 300 dan ziyod minerallar va ularning fizik (qattiqligi, solishtirma ogʻirligi, rangi, qirralarining tuzilishi va boshqalar), ximiyaviy (tarkibida qanday moddalar borligi, suv va olovga chidamliligi) xususiyatlarini tushuntirib bergan. Beruniyning «Mineralogiya» asarini 1963 yil SSSR Fanlar akademiyasi nashriyatida moskvalik sharqshunos A. M. Belinistkiy rus tilida nashrdan chiqardi.

1025 yil 18 noyabrda Beruniy «Geodeziya» («Taʼhdid nihoyot al-amokin li tashih masofot al-masokin») («Turar joylar (orasidagi) masofalarni aniqlash uchun manzillarning chegaralarini belgilash») asarini yozib tugatgan. «Geodeziya»da matematik geografiya asoslari mufassal bayon qilinadi. U 1966 yil Toshkyontda Istanbul nashridan rus tiliga tarjima qilinib chop etildi.

«Munajjimlik sanʼatidan boshlangich tushunchalar» asari esa 1029 yil Gʻaznada yozilgan boʻlib, unda astrologiyaga oid asosiy tushunchalar sodda qilib izohlab berilgandir. Uni yevropacha qilib «Astrologiya» deb atasak boʻladi. Bu asarni Oʻzbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik

instituti va Moskva sharqshunoslaridan A. Ahmedov, B.A. Rozenfeld, M.M. Rojanskaya, A. Abdurahmonov va N.D. Sergeeva hamkorlikda rus tiliga tarjima qilishib, «Kniga vrazumeniya nachatkam nauki o zvezdax» nomi bilan 1975 yil «Fan» nashriyotida nashr etishdi. U davrda astrologiya tushunchasini qo'llash kitobning nashr etilishiga xalaqit berar edi. Shu sababli kitob nomi g'alatiroq bo'lib qolgan.

Mutafakkirning «Hindiston» («Tahqiq mo lil hind min ma'qula maqbula fil-aql av marzula» («Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash»)) deb nomlangan asari 1030 yil yozib tugatilgan. Bu kitobda Hindiston xalqlari tarixining turli sohalari (aniq fanlar, adabiyot, falsafa, elshunoslik (etnografiya), geografiya, demografiya, qonunlari va urf-odatlar, dini, diniy rivoyatlari, hind yozuvining turlari, e'tiqod usullari) haqida batafsil ma'lumotlar berilgandir. Shuningdek, Beruniy bu asarida sanskrit tilidagi manbalardan ham keng foydalangan. Bu til bizgacha yetib kelmagan. Beruniy esa bundan ming yil ilgari bu tilni maxsus o'rgangan. Kitobning arabcha matni birinchi bor 1887 yil, inglizcha tarjimasi esa 1888 yil Londonda E.Zaxau tomonidan nashr etiladi. Arabcha matn 1858 yil Haydarobodda ham nashrdan chiqarilgan. Bu kitob 1963 yil rus tilida, 1965 yil esa o'zbek tilida chop etilgan.

«Mas'ud qonuni» («Al-Qonun al-Mas'udiy») nomli asar 1030 yilda yoziladi. Unda matematik astronomiyaning asosiy qoidalari, yoritqichlarning koordinatlari, ularning harakatlanish tartiblarini hisoblab chiqarish yo'llari batafsil tushuntirilgan. Bu kitobda bayon etilgan ta'limotlarning aksariyatini Beruniy «Qur'on» oyatlari bilan solishtirgan. Bu uning «Qur'on»ni mukammal bilganligidan dalolat beradi. Shuningdek, mazkur kitobda Beruniy tuzgan yulduzlar jadvali - Beruniy ziji ham ilova qilingan bo'lib, mazkur jadvalda 1029 ta yulduzning koordinatalari va yulduz kattaliklari Ptolomey va arab astronomi as-So'fi jadvallariga asoslanib berilgan. Bu asar birinchi bor bir qancha arab qo'lyozmalari asosida Haydarobodda nashr qilinadi. Rus tilida Moskvada 1962 yilda bosib chiqarilgan. O'zbekistonda esa 1973 yil rus va o'zbek tillarida 2 kitobdan iborat qilib «Fan» nashriyotida e'lon qilindi.

Beruniy «Hindiston» asarida Yerning harakatlanishi haqidagi mulohazalarini bayon etar ekan, bu asarni yozishdan ilgari Yerning harakatlanishi to'g'risida «Miftohu ilmil-hay'a» («Astronomiya kaliti») degan asarida chuqurroq to'xtalganligini bayon etgan. Mazkur

risolasida Yer shari harakatlanishining xususiyatlarini batafsil tushuntirib bergan. Lekin bu asar bizgacha yetib kelmagan.

Beruniy umrining oxirida, ya'ni 1045-1048 yillarda «Dorivor o'simliklar haqida kitob» («Kitab as-say-dana fi-t-tibb») asarini yozgan. Bu asar tarixga «Say-dana» («Farmakognoziya») nomi bilan kirgan bo'lib, uning to'liq qo'lyozmasi 20 asrning 20-30 yillarida Turkiyada topilgan. Bu asarda Sharqda, xususan, Turkistonda o'sadigan barcha dorivor o'simliklar va ularning farmakologik xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Mazkur asarni taniqli sharqshunos olim U. I. Karimov rus tiliga tarjima qilib, 1974 yil «Fan» nashriyotida bosmadan chiqargan.

Bundan tashqari, Beruniyning adabiyotshunoslik, dinlar tarixi, kalom ta'limoti, hadislarga oid maqolalari, badiiy yo'nalishdagi asarlari - hikoyalari, rivoyatlari va she'rlari ham bo'lgan. Ularni qidirib topish, to'plash, nashr etish manbashunoslar, tarixchilar, sharqshunoslar zimmasidagi xayrli va tabarruk vazifalardan biridir.

Abu Rayhon Beruniy jahon stizilizastiyasi taraqqiyotiga o'zining yirik ilmiy kashfiyotlari bilan salmoqli hissa qo'shgan buyuk olim hisoblanadi. Hozirgi zamon fanlarining barchasida Beruniyning ilmiy kashfiyotlaridan u yoki bu tarzda foydalanishadi. Beruniy o'z kashfiyotlari bilan hissa qo'shmagani fan sohasi kam bo'lsa kerak.

U birinchi bo'lib Yer shari globusini yasagan. Bu ixtirodan barcha geograflar, har bir ziyoli bugungi kunda ham bahramand bo'lmoqda.

Beruniyning yirik hissasi, jumladan, astronomiya sohasiga qo'shilgan. U garchi olamning tuzilishiga Ptolemeyning geostentrik (ya'ni olamning markazida Yer turadi, deb hisoblaydigan) sistemadan turib yondashsa ham, bu masalaga original tarzda, ya'ni Yer sharini harakatlanuvchi sistema deb yondashadi. Bunday qarash o'sha davrlarda Yerni harakatsiz deb hisoblovchi hukmron qarashlarga zid keladigan ilmiy jasorat edi. Beruniy «Hindiston» asarida shunday deb yozadi. «Yerning aylanish harakati astronomiya fani hisoblariga hech qanday zid kelmaydi, balki yerda yuz beradigan hodisalar, uning harakati bilan birga bir tekis davom etaveradi». Bunday fikrga Galileo Galiley (1564–1642) Beruniydan 600 yil keyin kelgan.

Beruniy «Istagan xil astrolyabiyani tayyorlashning turli usullari haqida» deb nomlangan asarida Abu Sa'id as-Sijziyning astrolyabiyasi xususida to'xtalib: «Uning negizi osmon harakatlanishiga emas, balki

Yerning harakatlanishiga asoslanganligi uchun men uni juda ham ajoyib kashfiyot deb hisoblayman», – deb yozadi. Beruniy o‘zining geostentrizmga bo‘lgan shubhalarini «Geodeziya» asarida ham ochiq bayon etgan. Beruniyning bu yo‘nalishdagi fikrlari geliostentrizmning vujudga kelishiga yo‘l ochdi va polyak astronomi Nikolay Kopernik (1473–1543) Beruniydan 500 yil keyin olamning geliostentrik sistemasini o‘rtaga tashladi.

Beruniy turli xil astronomik kuzatish asboblarini ham yasagan. Ulardagi kuzatish prinsiplari bugungi kungacha o‘z qiymatini yo‘qotmagan.

Beruniy osmon yoritqichlarining harakatlanish traektoriyalari doira shaklida emas, balki ellipsis shaklida ekanligi haqidagi g‘oyani birinchi bo‘lib ilgari surgan va uni hisoblash usullarini kashf etgan. Bu usullar Yevropada yangi davrga kelib I.Kepler tomonidan nihoyasiga etkazildi.

Beruniy Jurjonda yurgan paytlarida Quyoshni kuzatishga ham jiddiy e‘tibor qaratadi, astronomiyada birinchi bo‘lib Quyosh tojining xususiyatlarini to‘g‘ri talqin qilib berdi va Quyoshni kuzatishga juda berilib ketganligidan bir qancha vaqt ko‘zlari yorug‘likni sezmay qolganligini o‘z xotiralarida yozib qoldirgan.

Beruniy yoritqichlardan kelayotgan nurlar nafaqat yorug‘lik to‘lqini, balki zarrachalardan iborat ekanligi haqidagi goyani ilgari surdi. Yorug‘lik bir vaqtning o‘zida ham to‘lqin, ham zarracha tabiatiga egadir degan g‘oya XX asrdagina o‘z isbotini topdi.

Beruniy matematika fani rivojiga ham juda katta hissa qo‘shgan olimlardan. U birinchi bo‘lib trigonometriyani alohida mustaqil fan sifatida tahlil etdi.

«Mas’ud qonuni» asarida yassi va sferik trigonometriyani bayon qilib, trigonometrik funkstiyalarning chiziqli va kvadrat interpolitiv qoidasini yaratdi.

Beruniy geografiya, geodeziya, geologiya fanlariga ham sezilarli ulush qo‘shgan. «Geodeziya» va «Mineralogiya» nomli asarlari bevosita yuqorida aytilgan fanlarga oiddir.

Mutafakkir «Hindiston» asarida Yer yuzasining tuzilishi, dengiz va quruqlikning nisbati to‘g‘risida to‘xtalib, shunday yozgan: «Yerning choragi ma‘muradir. Ma‘murani g‘arb va sharq tomondan Muhit okeani (Atlantika va Tinch okeani) o‘rab turibdi. Bu Muhit okeani, yerning obod qismini dengizlarning narigi tomonida bo‘lishi

mumkin bo'lgan quruqlik yoki odam yashaydigan orollardan ikki yoqdan, g'arb va sharqdan) ajratib turadi...» Bu fikrni «Mas'ud qonuni»da ham ta'kidlaydi. Xullas, Beruniy matematik hisob-kitob asosida Kolumbdan qariyb 450 yil ilgari hozirgi Amerika qit'asi bo'lishi mumkinligini bashorat qilgandi.

Beruniy Atlantika va Tinch okeanlarining janubiy qismi bir-biri bilan tutashganligini isbotlagan, Yer sharining janubiy tomonida muz qoplagan quruqlik bo'lishi kerak, deb faraz qilgan.

U geografik kenglikni hisoblashda qo'llagan usul XVI asrda Tixo de-Brage tomonidan kashf etilgan, deb kelinadi, vaholanki, bu usulni Beruniy undan 6 asr ilgari ishlatgan.

Jinslarning geologik kelib chiqishi, quruqlikning dengizlarga, dengizlarning quruqlikka aylanish nazariyalarini ham Beruniy ishlab chiqqan. Jismlarning Yer markaziga qarab tortilish kuchi haqidagi g'oyani birinchi bo'lib Beruniy ilgari surgan.

Beruniy mineralogiya va iqlimshunoslik fanlariga ham jiddiy hissa qo'shgan. Minerallarning tarkibiy tuzilishi, kristallanish hodisasi, yorug'lik nuri ta'sirida kristallarning tovlanishi tabiati haqidagi g'oyalarni ham Beruniy ishlab chiqqan.

Beruniy dunyolarning ko'pligi va xilma-xilligi haqidagi falsafiy g'oyani ilgari surgandi. Bu g'oya 600 yildan so'ng Jordano Bruno (1548-1600) tomonidan aytili va u shu g'oya tufayli inkvizistiyaning gulxanida yondirildi.

Beruniy ijtimoiy hodisalar, jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy muhitning o'rni, odamlar tabiatiga, ko'rinishiga geografik iqtimning ta'siri, mehnat qurollarining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, kishilarning moddiy ehtiyojlari, mulk va meros masalalarini birinchi bor sostiologik tahlil qilgan.

O'rni kelganda Beruniy hayotidan bir qator ibratli voqealarga e'tiboringizni jalb qilamiz.

Beruniy yoshligidan sinchkov, masalalarga rastional yondashuvchi kishi bo'lgan. Hukmdorlarga ham, ularning ko'ngli uchun, yolg'on gapirmagan. Mahmud G'aznaviyi ko'p nojoiz ishlardan qat'iyat bilan qaytargan. Beruniy rostgo'yli tufayli ko'pincha hokim va amaldorlarning g'azabiga uchrab nohaq jazolangan. Mahmud G'aznaviy bir necha marta Beruniy o'limga hukm qilgan. Shunga oid bir ibratli hodisani beruniyshunos olimlar yozib qoldirishgan:

Kunlardan birida Mahmud Beruniyni sinamoqchi bo‘lib, unga savol beribdi:

Ey, munajjim! Aytginchi, Qur’oni karimda bashoratchilik qoralangan, lekin, ayrim munajjimlar Quyosh va Oy tutilishini oldindan bashorat qilaman, deb da’vo qilishadi, Sen ham shu fikrdamisan?

Men masalaga mantiqan yondashish tarafdoriman. Shunday hodisalar borki, ularning harakatlanishini o‘lchab, agar unga tashqi kuch xalaqit bermasa, falon narsa, falon vaqtda, falon joyda bo‘ladi, deb bashorat qilish mumkin. Shunday hodisalar borki, ularning holati biz biladigan ta’sirlardan yashiringan bo‘ladi, ularning sababini bilmaganimiz uchun bashorat qilib bo‘lmaydi. Qur’oni karimda ana shunday hodisalarni nazarda tutib soxta bashoratchilik, folbinlik qoralangan. Yolg‘onchilardan bizni xudoning o‘zi asrasin. Osmon yoritgichlarining harakatlanishi bir tekisda o‘zgarishsiz boradi va muayyan qonuniyatdarga bo‘isunadi. Shu sababli ularni oldindan aytib berish mumkin. Falakiyot ilmiga tayanib, Quyosh va Oy tutilishini oldindan bashorat qilish mumkin.

Mahmud bu fikrni eshitgach, g‘azabi qaynaydi va ataylab Beruniyni mulzam qilish niyatida yana savol beradi:

- Ey «bashoratchi», sen hozir men shu binoning qaysi eshigidan chiqishimni o‘z ilmingga tayanib topginchi?

Mahmud shu payt 12 ta eshigi bor aylana shaklidagi binoda majlis qurayotgan edi. Beruniy Mahmudning vajohatini yaxshi anglab etdi va bir qog‘ozga bir qancha so‘zni yozib, uni Mahmudga uzatdi. Mahmud qogozni o‘zi o‘tirgan o‘rindiqlik tagiga bekitib qo‘ydi. Mahmud shunda Beruniyga istehzoli qarab, xizmatkoriga buyurdi:

- Zudlik bilan bu yerga duradgorni chaqirib kel, mening ro‘paramdagi devordan 13-eshikni ochsin!

Duradgor kelib 13-eshikni o‘rnatdi. Mahmud shu eshikdan chiqib ketdi. Bir oz vaqtdan so‘ng, hammalari shu joyga yana to‘plangach, Mahmud Beruniy yozgan qogozni bekitilgan joydan oldi. Majlisda guvoh bo‘lganlardan biri qog‘ozni o‘qidi. Qog‘ozga shunday so‘zlar bitilgan edi: «Hukmdor! Siz bu binodagi 12 ta eshikning birortasidan chiqmaysiz. Ro‘parangizdan 13-eshikni ochtirib, o‘sha eshikdan tashqariga chiqasiz». Majlis ahli bu holatdan nihoyatda hayratga tushishdi. Mahmudning esa g‘azabdan yuzlari qizarib ketdi va amr qildi:

– Bu shakkok olimni zindonga tashlanglar!

Hukm ijro etildi...

Beruniy umr bo‘yi ilm-ma‘rifat egallash yo‘lida tinimsiz mehnat qilgan. Hatto umrining so‘nggi daqiqalarida ham unda ilmga intilish tuyg‘usi so‘nmagan. Yoqut Hamaviy Beruniyning yaqin kishilaridan biri bo‘lgan qozi Valvolijiy tilidan quyidagi voqeani keltiradi: «Men Abu Rayhon huzuriga u og‘ir nafas olayotgan, xirillab jon berayotgan vaqtda kirdim. U mendan «Meroslarni noto‘g‘ri bo‘lish haqida aytganlaringni takrorlab ber», - dedi. Men unga rahm qilib: «Shunday ahvolda!» - dedim. U esa: «Ey, falonchi, men uchun bu masalani bilib dunyodan o‘tib ketish, uni bilmay o‘tib ketishdan afzalroq emasmi?» - dedi. Men uni (masalalarni) takrorlab bsrishga majbur bo‘ldim. U buni yodda saqladi. Keyin menga bu haqda o‘ylaganlarini aytib berdi, shundan so‘ng men chiqib ketdim. Ko‘chaga chiqishim bilan uning uyidan yig‘i ovozi eshitildi».

Beruniy adolatli va muruvvatli bo‘lishni yoqdagan. Bu borada olimning o‘zi shunday hikoyani keltiradi: Xalifa Umar ibn Abdulazizning o‘g‘li Abdulloh ming dirhamga bir qimmatbaho toshni sotib olganini eshitib qolib, o‘g‘liga xat yozibdi: «Menga yetib kelgan xabarlarga qaraganda, bir uzuk olibsan. Senga nasihatim shu, darhol o‘shani sotib, uning qiymatiga mingta ochning qornini to‘yg‘az. O‘zingga bo‘lsa, kumushdan uzuk qildir, uning ko‘zi ham o‘zidan bo‘lsin».

Abdulloh otasi aytganday qilibdi.

Bir kishi Beruniydan iltimos qilib, «Menga foyda keltiradigan biror narsani o‘rgatib qo‘ying», – debdi.

Beruniy unga al-Kindiyning Ishoratlar kitobidan o‘tkir narsalardan tayyorlanadigan bir dori tarkibini yozib beribdi. Bu dori suvga tomizilib, hosil bo‘lgan suvga qalamni botirib, aqiqtoshga chizilsa, toshdagi yozuv oq bo‘lib ko‘rinarkan. Buni o‘rganib olgan boyagi mardum Muhammad, Ali va boshqa ismlarni toshga yozib, «Bu falon joydan topilgan tabiiy yozuv», deb da‘vo qiladigan va sodda odamlarning pulini shiladigan bo‘libdi. Beruniy esa o‘zining bu darsidan pushaymon bo‘lib, boshqa bunday kishilarga kimyo ilmining sirlarini oshkor qilmaydigan bo‘libdi va «Ilmni nafi uchun ishlatadiganlarga o‘rgatish – uning jinoyatiga sherik bo‘lishdir» – deb Allohga tavba qilgan ekan.

Ingliz sharqshunosi J.Sartonning «Beruniy - IX asrning Leonardo da-Vinchisidir» - degan fikriga javoban akademik S.Tolstov shunday yozadi: «Beruniyni Leonardo da-Vinchi bilan taqqoslab, uni IX asr Leonardo da-Vinchisi deyishdi. Bu noto‘g‘ri qiyoslash. Aslida, Leonardo da-Vinchini «XVI asr Beruniysi» desak, mantiqli bo‘lar edi».

Beruniyshunoslar Beruniyning bir o‘zi butun boshli ilmiy-tadqiqot institutlari ham bajara olmaydigan ishlarni uddalagan, deb qayd qilishgan.

Abu Rayhon Beruniy merosi mustaqilliqdan ilgari ham o‘rganilgan edi, ammo u davrlarda Beruniyning tabiiy-ilmiy merosigina materialistik dunyoqarash nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Mustaqillik davridagina Beruniy merosiga keng qamrovli yondashuvga yo‘l ochildi. Uning Qur‘oni karim va hadisi sharifga munosabati, diniy mazhablar tadqiqi bugungi kunda olim va ulamolarimiz tomonidan keng miqyosda o‘rganilmoqda. Hozirgi paytda Beruniyning noma‘lum asarlarini izlab topish davom ettirilyapti. Beruniy rahbarlik qilgan Xorazmdagi «Ma‘mun akademiyasi»ning 1000 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi va bu tadbirlarda olimning xizmati yuqori darajada qayd etildi. Beruniyning jahon fani taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini ta‘kiddovchi asarlar yozilmoqda, tadqiqotlar olib borilmoqda. Beruniyning G‘aznadagi qabrini O‘zbekiston Respublikasidan yuborilgan maxsus ekspedistiya a‘zolari ziyorat qilishdi va ta‘mirlash ishlarini olib borishdi. Mustaqillik davrida Beruniy asarlarining ko‘pchilikka ma‘lum bo‘lmagan qirralarini ochib beruvchi ommabop nashrlarni chiqarish yo‘lga qo‘yilmoqda va bu alloma nomini abadiylashtirish borasidagi xayrli ishlardandir.

Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar.

1. Beruniy o‘rta asrlarning qomusiy allomasi
2. Beruniy asarlarining musulmon Sharqi madaniyatiga ta‘siri.
3. Beruniy asarlariga bag‘ishlangan yevropalik olimlar asarlari.
4. O‘zbekistonda Beruniyshunoslik

8 – MAVZU. ABU AL-MU'YIN AN-NASAFIY, MAXMUD AZ-ZAMAXSHARIY VA BURXONUDDIN AL-MARG'INONIYLARNING ILMIIY MEROSI

Reja

1. Abu al-Mu'yin an-Nasafiy – islom ilohiyoti, falsafasi va kalom ilmini rivojlantirgan alloma
2. Maxmud az-Zamaxshariy – Xorazm zaminida jahon fani va madaniyati rivojiga munosib hissa qo`shgan alloma
3. Burxonuddin al-Marg'inoniy – O`rta Osiyodagi buyuk fiqhshunos alloma
4. Mustaqillik yillarida allomalar yubiley yoshlarining nishonlanishi

Tayanch so`z va iboralar: Kalom ilmi, naql, dalil, taraqqiyot, bosqich, ahli as-sunna val-jamoat maktabi, moturidiya maktabi, al-madrasat al-moturidiyya, ash'ariya maktabi, al-madrasat al-ash'ariyya tayanganliklariga ko'ra, hamfikir, hammaslak

Abu Al-Mu'in an-Nasafiy (1027-1114)

Kalom ilmining buyuk allomasi imom Abu Mansur al-Moturidiy (870–944) tomonidan yaratilgan al-moturidiya maktabining yirik namoyandalaridan biri Abul-Mu'in an-Nasafiyning Movaraunnahrda hanafiya mazhabining qaror topishida beqiyos xizmatlari bor. Abul-Mu'in an-Nasafiy nafaqat kalom ilmining al-lomasi, balki o'z davrining faqih va usuliyotchi olimi sifatida ham shuhrat qozongan siymolardan biridir. Shu boisdan ham, «Al-qand fi zikri ulamoi Samarqand» nomli asarda boshqa bir nasaflik olim Najmiddin Umar an-Nasafiy u haqda: «Sharqu G'arbning olimu ula-molari Abul-Mu'in an-Nasafiy ilmining dengizi-dan bahra topib, ul taratg'on ziyo nurlarini ko'zlariga to'tiyo qilib surtg'onlar», – deya uning ilmiy salohiyati-ga yuksak baho bergan.

Avvalgi maqolalarda ta'kidlanganidek, kalom ilmi aqidaviy masalalarni aqliy va naqliy dalillarga taya-nib talqin qiladigan va ulardagi har qanday ishtiboh-larga barham beradigan ilmdir. Bu ilmning taraqqiyot bosqichlarida imom A'zam Abu Hanifa an-Nu'mon as-Sobit al-Kufiy (699–767) safdoshlarining alohida xizmatlari bor. Movarounnahrda ular yarattan maktablar ahli as-sunna

val-jamoat maktabi nomi bilan mashhur bo'lib, uning yirik vakili imom Abu Mansur al-Motu-ridiy nomiga mansub etilib, moturidiya maktabi (al-madrasat al-moturidiyya) deb atalgan edi. Ayni shu maktab bilan bir davrda Iroqda imom Abul-Hasan al-Ash'ariy (873–935) asos solgan al-ash'ariya maktabi (al-madrasat al-ash'ariyya) keng tarqalgan edi. Bu ikkala maktab ta'limotlari orasidagi farqlar juz'iy bo'lib, ular lafziy yoki bo'lmasa, ma'noviy (mazmuniy) tusga egadir. Bu o'rinda shuni ham aytish kerakki, dastlabki islomiy mutafakkirlar va kalom ilmining allomalari – mutakallimlar kalom ilmiga bir necha xil ta'rif bergan bo'lsalar-da, barchalari bir masalada, ya'ni diniy-aqidaviy masalalar xususida fikr yuritganlarida, akdiy nazarga tayanganliklariga ko'ra, hamfikr, hammaslak bo'lganlar. Biroq kalom ilmining allomalari bu ishlarni akd va nazar ko'zi bilan qabul qilishda ikki toifaga ajralganlar. Birinchi toifa diniy masalalarni aql yo'li bilan hal qilish, ya'ni ularni sharhlash, ularning tafsilotlarini har tomonlama ochish yo'li bilan chuqur o'rganish g'oyasini ilgari surgan. Bu yo'nalish, asosan, ilk mutakallimlarning yo'li bo'lib, davriy jihatdan birinchi va ikkinchi hijriy (milodiy ettinchi va sakkizinchi) asrlarga to'g'ri keladi. Bu davr-da samarali faoliyat ko'rsatgan olimlardan imom Abu Hanifani ko'rsatish mumkin. Chunonchi, u o'zining «Al-Fiqh al-akbar» («Buyuk fiqh») nomli asarida fiqh ilmining asoslari bilan bir qatorda aqidaviy masalalar bo'yicha ham qimmatli ma'lumotlar keltirgan. Ikkinchi toifaning yo'li diniy-aqidaviy masalalarni aqliy dalillar va isbotlarga tayangan holda himoya qilishga urinishdir. Bu yo'nalish davriy jihatdan nisbatan keyinroq paydo bo'ldi. Bu yo'nalishning vujudga kelishiga islom diniga yot bo'lgan turli-tuman falsafiy fikrlar va qarashlarni o'zida mujassam qilgan asarlarning arab tiliga tarjima qilinishi katta ta'sir ko'rsatdi. Kalom ilmining (islom falsafasi) birinchi yo'nalishi bo'yicha faoliyat ko'rsatgan olimlardan Sa'daddin at-Taftazoniy, Toshko'priyzoda, shayx imom Muhammad Abdo kabilar bo'lsa, ikkinchi yo'nalish na-moyandalari sifatida Abu Nasr al-Forobiy, imom al-G'azzoliy va Ibn Xaddun kabi mashhur allomalarni aytish mumkin.

Kachom ilmi (ilm al-kalom)ning tarixiga nazar solsak, azaldan bu ilmning turli nomlar bilan atalgani-ni ko'ramiz. Masalan: al-fiqh al-akbar (ulug' fiqh), usul ad-din (din asoslari), ilm at-tavxid vas-sifat (Al-lohning yagonaligi va sifatleri haqidagi ilm), hatto

mu'taziliylar bu ilmni «bahr fil-adl vat-tavhid» (adolat va Allohning yagonaligi haqida bahs), ba'zi keyingi davrlarda o'tgan olimlar tomonidan ilm at-tavhid (Allohning yagonaligi haqidagi ilm) degan nom bilan ham atalgan. Yuqorida zikr etilganidek, bu ilmning ilm al-kalom nomi bilan atalishi juda barvaqt paydo bo'lgan. Chunki bu tarzdagi nomlashni imom Abu Hanifada uchramiz. E'tiborga molik tomoni shundaki, fiqh ilmi bo'yicha buyuk alloma sifatida tanilgan imom Abu Hanifa fiqhdan oldin kalom ilmi bilan shug'ullangan ham yaxshi ma'lum. Yuqorida zikr qilingan kalom ilmining har xil nomlar bilan atalishi ham uning bir qancha taraqqiyot bosqichlaridan o'tganligini ko'rsatadi. Shu boisdan ham, odatda, tadqiqotchilar kalom ilmi-ning rivojlanish davrini uch bosqichga bo'lib sharhlaganlar:

birinchi bosqich Rasululloh davridan e'tiboran to hijriy birinchi yuz yillikning oxirigacha;

ikkinchi bosqich hijriy ikkinchi yuz yillikdan uchinchi hijriy asrning oxirigacha;

uchinchi bosqich hijriy uchinchi asrdan to beshinchi asr oxirigacha bo'lgan davrni qamraydi.

Hanafiya mazhabi islom dinining sunniy yo'nalishdagi to'rt mazhabning biri bo'lib, uning asoschisi, yuqorida qayd qilganimizdek, imom A'zam Abu Hanifa an-Nu'mon ibn as-Sobit al-Kufiydir. Sunniy yo'nalishdagi uch mazhab – shofi'iy, molikiy va hanbaliy mazhablarining asoschilari bo'lmish imom ash-Shofi'iy (767-820), imom Molik ibn Anas (712-795), imom Ahmad ibn Hanbal (780-855) kabi Abu Hanifa ham islomiy aqidalarni sof holda saqlash yo'lida din dushmanlariga qarshi kurashda ulkan xizmatlar ko'rsatgan.

Diyorimizdan chiqqan buyuk mutakallimlardan biri Abul-Mu'in an-Nasafiyning hayoti va uning ilmiy ma'naviy merosi, xususan, kalom ilmiga oid ta'limotlarini o'rganish katta ahamiyatga egadir. Chunonchi, an-Nasafiy hijriy uchinchi asrning oxiri va to'rtinchi asrning boshlarida Movarounnahrda ahli sunna val-jamoat mazhabining karor topishi va uni hayotga tatbiq etishga katta hissa qo'shganlardan biri edi. Imom an-Nasafiy o'z davrining taniqli allomalaridan biri bo'lib, u mutakallim, faqih va usuliyotchi olim sifatida shuhrat qozongan edi. Uning asarlari ilm ahli tomonidan yuksak baholanib, hatto «Kashf az-zunun» nomli mashhur kitobning muallifi Hoji Xalifa an-Nasafiyning «Tafsirat al-adilla» asari xususida to'xtalib: «Najmiddin Umar an-Nasafiyning «Al-Aqoid» asarining

matni go‘yo bunga («Tabsira»)ga nisbatan bir fihrist kabidur», – deb yozgan edi.

Imom Abul-Mu‘in an-Nasafiy hakida yozgan mual-liflarning aksariyati uning to‘liq ismini Abul-Mu‘in Maymun ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Mu‘tamid ibn Muhammad Makhul an-Nasafiy deb keltirganlar. Bundan biroz farq bilan yozilgan shakllari ham uchray-di. Uning kunyasi barcha manbalarda Abul-Mu‘in deb zikr qilinadi. Ammo an-Nasafiyning laqablariga kelsak, yozma manbalarda ko‘rsatilishicha, u bir qancha la-qablar bilan atalgan, jumladan, imom fozil, sayful-haq (haqiqat qilichi), jomi’ al-usul, al-imom az-zohid, al-faqih al-hanafiy, al-olim al-bori’ (yuksak bilimdon olim) kabi laqablarni olgan. Abul-Mu‘in an-Nasafiy ilmu irfonda yetuk, ziyoli bir oilada ulg‘aygan, uning ajdodlaridan ko‘plari, ayniqsa, fiqh ilmi sohasidagi ulkan salohiyatlari bilan el-yurt ora-sida tanilgan edilar. Katta bobosi, o‘z davrining taniqli olimi Makhul Abul Fazl an-Nasafiy – an-nasafiylar sulolasining sardori-boshlovchisi hisoblanib, uning oilasidagilar fiqh ilmining hanafiya mazhabi asoschisi imom Abu Hanifa ta‘limotlariga tayanib amal qilganlar. Shuningdek, u fiqh ilmi sohasida imom Abu Hanifaning shogirdi Muhammad ibn al-Hasan ash-Shayboniyning safdoshi Abu Sulaymon al-Juzjoniydin rivoyat qilardi.

Uning an-Nasafiy nisbasi bilan atalishi xususida esa barcha tarixnavislar yakdillik bilan bir xil yozganlar. Shu bilan birga, ba‘zi manbalarda an-Nasafiyning bir qancha muddat Samarqandda yashaganligi va so‘ngra uzoq yillar Buxoroda muqim istiqomat qilganligi haqida ham xabarlar keltirilgan.

Abul-Mu‘in an-Nasafiy tavallud topgan sana haqida yozgan tarixnavislardan biri, arab olimi Xayriddin az-Zirikliy o‘zining «al-A‘lom» va Umar Rizo Kahlola «Mu‘jam al-muallifiyn» nomli asarlarida uning 418/1027 yidda Nasaf (hozirgi Karshi) shahrida tug‘ilganligini zikr etganlar. Uning vafoti haqida esa aksar manbalarda 508/1114 sana beriladi. Shunga ko‘ra, alloma Abul-Mu‘in an-Nasafiy uzoqumr ko‘rib, 87 yoshida vafot etgan. Uning qabri Qarshi shahri yaqinidagi Qovchin qishlog‘ida joylashgan.

Abul-Mu‘in an-Nasafiyning ustozlari haqida manbalarda aniq bir ma‘lumot uchratmadik. Faqat Abu Muqotil as-Samarqandiyning (vaf. 2081823) «Kitob al-olim val-mutaallim» («Ustoz va shogird kitobi») nomli asarida keltirilishicha, an-Nasafiy o‘z asarlariga keltirilgan

hadislarni otasi Muhammaddan rivoyat qilganligi qayd etiladi. Bu ma'lumotning ahamiyatli tomoni shundaki, Abul-Mu'inning otasi Muhammad ibn Mu'tamid o'z farzandiga ustozlik qilish darajasiga etishgan: ilmiy salohiyatga ega kishi bo'lgan ekan. Yozma manbalarda hanafiya mazhabining boshqa faqihlari misoli uning ilmiy iqtidori haqida boshqa biror xabar keltirilmagan. Shunga qaramasdan, an-nasafiylar xonadoni sohiblarining ilmiy nufuzi, ayniqsa, hanafiya fiqhi ilmi sohasida elu yurt orasida yaxshi ma'lum edi. Abul-Mu'inning to'rtinchi (katta) bobosi Abu Mu'in Makhul ibn al-Fazl an-Nasafiy bir qator asarlarning muallifi sifatida tanilgan olim bo'lib, u Yahya ibn Muoz (u 258/871 sanada Nishopurda vafot etgan), shuningdek, al-karromiya maktabining asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Karromning shogirdlaridan edi. O'z davrida u termizlik buyuk muhaddis Abu Iso at-Termiziy, shuningdek, Muhammad ibn Ayyub ar-Roziy, Abdulloh ibn Ahmad ibn Hanbal kabi o'sha davrning mashhur olimlaridan hadislardan saboq olgan edi. U, shuningdek, Abu Sulaymon az-Juzjoniya ham shogird bo'lgan, undan esa o'g'li Abul-Mu'in Muhammad ibn Makhul hadislar rivoyat qilgan edi. U hanafiya mazhabining to'rtinchi tabaqa faqihlaridan biri edi. Uning qalamiga mansub «Fiqhda ash-shua'» nomli kitobi bo'lib, unda Abu Hanifaning kimki ruku'da boshini ko'targan paytda ikki qo'lini ko'tarsa, namozi buziladi degan fikrini zikr qiladi. Shuningdek, uning «Al-Lu'lu'-iyat» degan asari mav'izalarga, Allohning fazli subhoniga aloqador «Al-Lubob» nomli, jamoat hayotiga doir «Kitob fit-tasavvuf» hamda ilohiyat masalasiga oid «Radd a'lo ahl al-bida' val-ahva» nomli asarlari mavjud. Makhul an-Nasafiy 318/930 yilda vafot etgan bo'lsada, Abul-Mu'inning uchinchi bobosi Abul-Mu'in Muhammad ibn Makhul otasi Makhuldan rivoyatlar qilgan.

Shunday qilib, yuqorida bildirilgan fikrlardan ma'lum bo'layotirki, uning oila a'zolarining hammalari ilmu irfonda mashhur bo'lgan va o'z farzandlarining ham ilmi bo'lishiga alohida e'tibor bilan qaraganlar. Binobarin, Abul-Mu'in an-Nasafiyning ota-bobolari uning uchun ustoz hisoblanadilar.

Abul-Mu'in an-Nasafiyning shogirdlari

1. Najmiddin Umar an-Nasafiy. U imom, fozil usuliyotchi, mutakallim, mufassir, muhaddie, faqih, hofiz, jahviy (grammatik) sifatida o'z davrining yetuk olimi sanalgan. U o'z zamonining juda ko'plab taniqli olimlaridan saboq olgan bo'lib, o'zining «Ta'dod

shuyux Umar» («Umar (an-Nasafiy) ustozlarining adadi») nomli asarida ularni nomma-nom keltirgan. Najmiddin Umar an-Nasafiy yuzdan ortiqasar yaratgan bo‘lib, u ilm-fanning turli sohalarida, xususan, tafsir, hadis, lug‘at, adabiyot, kalom, tarix sohalarida dong taratgan mual-liflardan edi. Uning asarlaridan «Al-Aqoid an-Nasafiyya», «Tarix Buxoro», «Al-qand fi zikri ulamoi Samarqand», «Majma’ al-ulum», «An-Nashoh fi sharh axbar as-Sihoh» va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Najmiddin Umar an-Nasafiy «Muftiy as-sakdayn» («Odamlar va devlar muftiysi») degan laqab olgan edi. U 1068 yilda Nasafda tug‘ilgan bo‘lib, 1142 yilda Samarqandda vafot etgan.

Alouddin as-Samarqandiy. Muhammad ibn Ahmad ibn Ahmad Abu Bakr Alouddin as-Samarkandiy - «Tuhfat al-fuqaho» («Faqihlarga tuhfa») nomli mashhur asarning muallifi. U fiqh ilmidan Abul-Mu’in Maymun al-Makhuliy va Sadr al-islom Abul Yasr al-Pazdaviydan ta’lim olgan. Undan qizi - fiqh bo‘iicha yetuk alloma Fotima fiqhdan saboq olgan. Uning «Al-Lubob fil-usul al-fiqh» degan asari ham bor. Taxminan, 1180 yilda vafot etgan.

2. Abu Bakr al-Kosoniy. Abu Bakr ibn Mas‘ud ibn Ahmad Alouddin ash-Shoshiy al-Hanafiy. U Halab shahrida: yashab Malik al-ulam al-Kosoniy laqabi bilan mashhur edi. U turli ilmlarni «Tuxfat al-fuqaho» asarining muallifi Alouddin Muhammad as-Samarqandiydan olib, o‘z asarlarini, xususan, «At-Tuxfat fil-fiqh» va ilm al-usulga bag‘ishlangan boshqa asarlarini unga o‘qib bergan edi. U, shuningdek, Abul-Mu’in Maymun al-Makhuliy va Majd al-Aimmat al-Sadaxsiydan turli ilmlar bo‘yicha ta’lim olgan edi. Undan o‘g‘li Mahmud, shuningdek, «Al-Muqaddima al-G‘aznaviyya» asarining muallifi Ahmad ibn Mahmud al-G‘aznaviy fiqh ilmidan saboq olishgan. U o‘z ustoz Alouddin as-Samarqandiyning «Tuhfat al-fuqaho» asarining sharhi xususida «Badoe’ as-sanai’ fi tartiyb ash-sharoi’» degan kitob ham yozgan. Yana uning qalamiga mansub «As-Sulton al-mubiyn fi usul ad-diyn» degan asari ham bor. U hijriy 578 yil rajab oyining o‘ninchisida yakshanba kuni peshindan keyin (1182) Halabda vafot etdi va shahar tashqarisidagi Ibrohim al-Xalil maqomining ichkarisiga, xotini Fotimaning qabri yoniga dafn etildi.

4. Abul-Muzafsrar at-Talaqoniy. Uning to‘liq ismi Ismoil ibn Adiy ibn al-Fazl ibn Ubaydulloh Abul-Muzaffar at-Talaqoniy al-Variy bo‘lib, hanafiy faqihlaridan biridir. U o‘z davrining muftiysi, yyetuk

fozil faqihlaridan sanalardi. Burhon an-Nasafiy nomi bilan mashhur bo'lgan Muhammad ibn Muhammad Abul Fa-zoil va boshqalardan fiqh ilmini egallagan. Buxoroda bir talay ustozlardan hadis eshitgan. Ulardan biri Abul-Mu'in Maymun ibn Muhammad ibn Muhammad ibn al-Mu'tamid al-Makhuliy an-Nasafiydir. Balxda Abu Ja'far Muhammad ibn al-Husayn as-Sam'oniyy va Abu Bakr ibn Abdurrahmon ibn al-Qusayr al-Xatibdan hadis ilmidan ta'lim olgan. As-Sam'oniyy o'zining mashhur «Al-Ansob» asarida: «U menga barcha tomonidan eshitiladigan (masmu'otihi) asarlari xususida ijizat bergan edi. U Xurosonning turli tomonlariga ko'p safarlar qilgan, Movarounnahrda ham borib, u erda fiqh ilmidan saboq olgan. Uning vafoti, bizning fikrimizcha, 540/1145 yillar hududida bo'lgan. Uning haqida al-hofiz Abu Ali al-Vaziyr ad-Dimashqiy va al-hofiz Abul Hajjoj al-Andalusiy muhim ma'lumotlar qoldirgan», – deb yozgan.

5. Ahmad al-Pazdaviy. Ahmad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn al-Husayn ibn Abdul Karim ibn Muso ibn Abdulloh ibn Mujohid ibn Abul-Yusr. U yana Sadr al-Aimmatu Abul-Maoliyy al-Pazdaviy, an-Nasafiy al-Pazdaviy, al-Qoziy as-sadr nomi bilan ham tanilgan edi. Al-Imom az-Zohid ibn al-Imom Muhammad al-Pazdaviy nomlari bilan tanilgan bo'lib, u Buxoro ahlidan edi. U hijriy 481 yoki 482 yilda Buxoroda tug'ilgan bo'lib, Movarounnahrning yetuk faqihi, Abu Hanifa mazhabidan yuruvchi tariqatning sohibi Abul-Hasan Ali ibn Muhammad ibn al-Husayn ibn Abdulkarim al-Pazdaviy akasining o'g'li edi.

U fiqh ilmini otasidan o'rganib, bu ilmda o'z davrining bilimdon olimi darajasiga etdi. Abul-Mu'in Maymun ibn Muhammad an-Nasafiydan hadislar eshitgan va boshqa bir qancha ulug' olimlardan ham saboq olgan, u o'z bilimi va favqulodda salohiyati bilan boshqalardan tamoman ajralib turardi. Ahmad al-Pazdaviy bir qancha muddat Buxoroda qozi lavozimida ham samarali faoliyat ko'rsatgan.

Ahmad al-Pazdaviy go'zal xulq-atvori bilan ham el orasida tanilgan edi. Haj ibodatini ado etishga ketayotib, Marv shahrida to'xtaganda, bu shaharda yashovchi taniqli olim as-Sam'oniyy undan saboq olgan edi. Shuningdek, Bag'dodda hadislardan dars bergandi. U Haj safaridan qaytayotib, hijriy 541 yilning jumodul-uvlo oyida (1146 yil)da Saraxsda vafot etdi, keyin uning jasadi Buxoroga keltirilib, dafn kilindi. Ahmad al-Pazdaviy fazilatli imom, akl-idrok bilan ish

yurituvchi muftiy sifatida tanilgan, go‘zal siyratli, axloqi mukammal, hadis va boshqa ilmlarning yetuk bilimdoni.

6. Abul-Hasan al-Balxiy. Uning to‘liq ismi Ali ibn al-Hasan ibn Muhammad ibn Abu Ja‘far Abul-Hasan al-Balxiy al-Ja‘fariy bo‘lib, al-Burhon al Balxiy nomi bilan mashhur, zohid va obid inson edi. Qator manbalarda ko‘rsatilishicha, Abul -Hasan al-Balxiy islom mamlakatlarida ilmu irfonni tarqatgan olimlardan biri hisoblanadi. O‘zi esa fiqh ilmini Buxoroda imom Abdulaziz ibn Umar ibn Moza va o‘sha davrning boshqa taniqli faqihlaridan egallab, bu ilm sohasidagi yetuk olim darajasiga erishdi. Hadis ilmiii ham Movarounnahrda aynan shu ustoz – Ibn Moza va Abul-Mu‘in an Nasafiydan o‘rgandi. Keyinchalik, Makkai mukarramada bo‘lganida Vaziyn al-Andariydan ham hadislardan saboq oldi va boshqa bir guruh olimlardan fiqh ilmi sohasidash bilimlarini takomillashtirdi. Shundan keyin, 510/1516 yilda Damashqqa keldi va bu shahardagi al-madrasat as-sodiriyyada o‘rnashib, unda faoliyat ko‘rsatadi. Ayni shu vaqtda uning bilan ushbu madrasaning mudarrislaridan bo‘lgan Ali ibn Makkiy al-Kosoniyy o‘rtasida aqidaviy masalalar-dagi ixtiloflar xususida qizg‘in munozaralar ham bo‘lib o‘tgan edi. Damashqda bo‘lgan paytida Abul-Hasan al-Balxiyning obro‘-e‘tibori baland bo‘lib, hatto u bir qancha ilmiy majlislarga ham boshchilik qilgan edi. Biroquningbu yutuqlari, oxir-oqibatda, yuqorida zikr etilgan al-Kosoniyyning hasadini keltirdi, shuningdek, hanbaliya mazhabida bo‘lgan bir toifa olimlar ham uning fikrlariga bir tomonlama, mutaassiblik bilan qaradilar, chunki alloma ularning qarashlaridagi ang-lashilmovchiliklarni ochib tashlagan edi. Natijada, al-Balxiy Damashqda istiqomat qilishdan voz kechib, Makkai mukarramaga borib, Baytulloh al-haramning yonida (mujovir bo‘lib) yashay boshladi. Shundan bir qancha vaqt o‘tgach, Abul-Hasan al-Balxiy taniqli faqih Saad ibn Ali ibn Abdulloh bilan uchrashib qoladi va u Abul-Hasan al-Balxiyni Bag‘dodga borishga ko‘ndi-radi va keyin ikkovlari Damashqqa yo‘l oladilar. Al-Balxiy Damashqda xursandchilik bilan kutib olinib, shahardagi al-madrasat as-sodiriyyada o‘rnashib, unda mudarrislik bilan mashg‘ul bo‘ladi. Tez orada uning do‘stlari ko‘payib, shaharning xosu avom aholisi o‘rtasida katta hurmat-e‘tiborga sazovor bo‘ladi. Shaharda uning boshchiligida ilmiy anjumanlar (majlis al-imlo – ustozning aytib turganini tinglovchilar yozardilar) uyushtirilib, bu yig‘inlarga juda katta jamoat yig‘ilar edi. Keyin unga Halab shahri ahliga fiqh ilmidan

saboq berish va shaharda Muhammad payg'ambar sunnatini yoyish uchun Halabga borish lozim bo'ldi. Uningbu yo'nalishdagi faoliyatidan shahar ahli katta manfaat ko'rdi va ular o'rtasida mavjud bo'lgan bid'atga barham berildi. Shundan keyin, u cheksiz maqtovlari minnatdorchilikka sazovor bo'lgan holatda Damashqqa qaytdi. U omma orasida muttasil ravishda amri ma'ruf va nahiy anil-munkar bilan shug'ullanar edi. Biroq, keyinchalik, uning bu darajada jamoatchilikning yuksak ehtiromiga sazovor bo'lishi Damashq shahar hokimini bir qadar tashvishga tushirdi-yu, natijada, Abul-Hasan al-Balxiyga shahardan chiqib ketishi haqida xabar etkazildi. Shunga binoan, u Damashqdan chiqib, Basraga bordi va bir qancha muddat shu shaharda yashadi. Shahar voliysi uning Basraga qadam ranjida qilganligi uchun katta izzat-ikrom ko'rsatib, alohida ehtiromini bildirdi. So'ngra uni yana Damashqqa qaytarib jo'natdi.

Abul-Hasan al-Balxiy shunday inson ediki, agar biror masalada omadi yurishmay qolsa, darhol namoz o'qib, ibodatga berilardi. U tahorat olib, eshikni ichidan berkitib, namoz o'qish bilan mashg'ul bo'lardi. U iymon-e'tiqodi komil, ezgulik ishlarga moyil, ilmu ma'rifat tarqatishga o'zini butunlay baxshida etgan saxovatli bir inson edi. U o'z do'stlariga mehri benihoya va g'oyatda e'tiborli, ilm ahllariga nisbatan hurmat-ehtiromi cheksiz edi. Hatto avvaliga unchalik el naza-riga tushmagan bir guruh ma'rifat ahli uning suhbatlaridan bahramand bo'lib, barakotidan istifoda etgach, elu yurt e'tiborini qozongan kishilarga aylangan edilar. Abul-Hasan al-Balxiy 548/1153 yilda vafot etgan edi.

7. Abul-Fath al-Hilmiy. Uning to'liq ismi Ahmad ibn Muhammad ibn Ahmad Abul-Fath al-Hilmiy bo'lib, 470/1078 yilda tavallud topgan. U Buxoroda yashagan pay-tida fiqhstan saboq olib, qozi Abul-Yusr Muhammad ibn Muhammad ibn al-Husayn al-Pazdaviy, Abul-Mu'in Maymun ibn Muhammad ibn Muhammad an-Nasafiy va Sayyid Abu Ibrohim Ismoil ibn Muhammad Abul-Hasandan hadislar eshitib, ulardan hadislar ham yozib olgan edi. Taniqli olim Abu Saad as-Sam'oni «Al-Ansob» nomli asarining «Zayl» qismida u haqida shunday deb yozgan: «Abul-Fath al-Hilmiy solih, beozor va o'ta xotirjam yuradigan kishi bo'lib, ba'zi paytlarda qozining o'rniga qozilik vazifasini ham bajarar edi. Haj ibodatini ado etish uchun Makkaga borayotib, u 517/ 1123 yilda Bag'dodda ham to'xtab, shahardagi bir kancha taniqli olimlardan

hadislar ham eshitgan edi. Keyinchalik men uni Balxda uchratgandim. Shunda u menga ul-kan bir kitobni ko'rsatgan ediki, unda mashhur allomalardan eshitgan hadislardan o'z qo'li bilan yozganlari jamlangan edi».

Abul-Fath al-Hilmiy hijriy 547 yil safar oyining yigirma birinchisi, chorshanba kuni (1157) da vafot etgan.

8. Abdurashid al-Valvolijiy. Uning to'liq ismi Abdurashid ibn Abu Hanifa No'mon ibn Abd ar-Roziq ibn Abdulloh al-Valvolijiy al-Qoziy Zahiriddin Abul-Fath bo'lib, u hanafiya mazhabining yetuk faqihlaridan biri edi. U hijriy 467 (1075) sananing jumodul-uvlo oyida Valvolij (Balx Toharistonining bir shaharchasi) degan shaharchada tavallud topgan. So'ngra u Balxga borib, bir muddat Ati al-Burhon degan olimdan fiqh ilmini o'rgangan, shundan keyin, Samarqandga kelib, Abu Muhammad al-Qastavoniy bilan uchrashib, undan va shahardagi boshqa ko'plab olimlardan hadislar yozib olgan. Shundan so'ng Keshga borib, u erda bir muddat yashadi, keyin yana Samarqandga qaytib keldi. Abul-Muzaffar Abdurahim ibn as-Sam'oniyy: «Men Abdurashid al-Valvolijiy bilan uchrashib, undan hadislar eshitgan edim. U yetuk olim, faqih, fozil, mazhabi sahih, go'zal siyratli inson edi», – deb yozgan. U Abul-Qosim al-Xaliliydan buyuk muhaddis Abu Iso at-Termiziyyning «Ash-Shamoil Rasululloh sallallohu alayhi va sal-lam» asarini eshitgan edi. Samarqandda undan bu asar bo'yicha mashhur tarixchi as-Sam'oniyy ta'lim olgan edi. Abdurashid al-Valvolijiy 540/1145 yilda vafot etgan. Uning fiqh ilmiga oid «Al-Amoliyy» nomli asari ham bor. Shuningdek, unga hadislarini o'zida mujassam qilgan «Al-Valvolijiyya» nomi bilan mashhur bo'lgan bir asar ham mansub qilinadi, lekin ba'zi olimlar bu asar Abdurashid al-Valvolijiyning bo'lmay, boshqa muallifga tegishli deb yozganlar.

9. Mahmud as-Sog'arjiy. Uning to'liq ismi Mahmud ibn Ahmad ibn al-Faraj ibn Abdulaziz as-Sog'arjiy as-Safadiy Abul Muhomid bo'lib, u fozil imom, turli ilmlarning bilimdoni, fiqh va hadis ilmlari bo'yicha yetuk olim sifatida tanilgan edi. Mahmud as-Sog'arjiy 480/1087 yilda Samarqandda tavallud topgan. Uning odati shunday bo'lganki, har payshanba kuni ertalab, barvaqt hadis ilmidan imlo majlisi o'tkazgan. Undan hadis yozib olgan taniqli olimlardan biri alloma as-Sam'oniyy edi. Shuningdek, as-Sam'oniyy Mahmud as-Sog'arjiydan Abul-Lays as-Samarqandiyning «Tanbeh al-

g'ofiliyn» asaridan ham dars olgan edi. U bu asarni al-Xatib an-Nuhiydan, u esa al-Yazyiddan rivoyat qilgan edi. U 560/1165 yilda vafot etgan.

10. Ldi ibn ad-Husayn as-Sakalkandiy. Uning to'liq ismi Ali ibn al-Husayn ibn Muhammad al-Balxiy as-Sakalkandiy bo'lib, u Damashqda yashagan, Buxoroda imom Abdulaziz ibn Umar ibn Mozadan fiqh ilmini o'rgangan, Damashqda esa Abul-Mu'in al-Makhuliy an-Nasa-fiydan hadislar rivoyat qilgan. Uning mujodala ilmida o'ziga xos e'tiborga molik qarashlari bo'lib, butun umri davomida ilmu irfonni tarqatish bilan shug'ullangan. U fazilatli faqih, zohid kishi bo'lgan, 547/ 1152 yilda Hadabda vafot etgan.

Yuqorida zikri o'tgan olimlar, albatta, Abul-Mu'in an-Nasafiy shogirdlarining hammasi bo'lmay, balki bir qismidir. Lekin mana shu shogirdlarining nomlari ham, ularning ilm-fanning turli sohalarida qanchalik yuksak darajaga erishganliklari ham ularning ustozlari Abul-Mu'in an-Nasafiy hazratlari o'z davrining mashhur allomalaridan biri bo'lganligidan dalolat beradi. Shu boisdan bo'lsa kerak, allomaning taniqli shogirdlaridan biri Najmiddin Umar an-Nasafiy, eslatganimizdek, o'zining «Al-qand fi zikri ulamoi Samarqand» («Samarqand olimlari zikrida qanddek (shirin) kitob») nomli asarida o'z ustozlari Abul-Mu'in an-Nasafiy haqida «Sharq va G'arb olimlari uning bilimi dengizlari qa'ridan turli ilmlarni ; olib, ularning nurlarini ko'zlariga to'tiyo qilib surtg'onlar»,– deb yozgan edi.

Abul-Mu'in an-Nasafiyning asarlari

Uning ilmiy-ma'naviy merosi haqida yozgan olimlar an-Nasafiyning o'nga yaqin asarlar yaratganini ko'rsatganlar. Ushbu asarlar haqida quyidagi ma'lumotlarni keltirish mumkin:

Abul-Mu'in an-Nasafiy o'zining kalom ilmiga bag'ishlangan bosh asari «Tabsirat al-adilla»da zikr qilishicha, uning «Qasiyd al-qavoid fi ilm al-aqoid» nomli asari bo'lgan. Bu asarning bir qo'lyozma nusxasi Istanbul universiteti kutubxonasida 268 raqami ostida saqlanadi.

Abul-Mu'in an-Nasafiyning «Tabsirat al-adilla» nomli asarida yozishicha, u o'zining «Al-Ifsod li had' al-ilhod» deb atagan asarida botiniy toifasiga mansub kishilarning xato qarashlariga raddiyalar keltirgan.

Muallifning qalamiga mansub «Iyzoh al-manhajjati fi kavn al-aqdi hujjatan» deb atalgan asari borligi haqida u o'zining «Tabsirat al-

adilla» va «At-Tamhiyd li qavoid at-tavhiyd» nomli asarlarida zikr qilgan. Shuningdek, an-Nasafiyning shu nomdagi asari borligi haqida boshqa manbalarda, xususan, al-Bag‘dodiyning «Iyzoh al-maknun» va «Hadiyat al-orifiyn» kabi asarlarida ham zikr etilgan, lekin muallifning ushbu asari bizgacha etib kelmagan hisoblanadi.

Abul-Mu‘in an-Nasafiyning «Manohij al-aim-mati fil-furu’» nomli asari haqida al-Kafaviyning «Katoib a‘lom al-axyor», Abdulhay al-Laknaviyning «Al-Favoid al-bahiyya fi tarojum al-hanafiyya», al-Bag‘dodiyning «Iyzohal-maknun», «Hadiyat al-orifiyn», Xayriddin az-Zirikliyning «Al-A‘lom» va Umar Rizo Kahholaning «Mu‘jam al-muallifiyn» nomli asarlarida zikr qilingan. Istanbuldagi «Lolaliy» kutubxonasida mazkur asarning (tavhiyd 1147 raqami ostida) bir qo‘lyozma nusxasi saqlanadi, biroq u «Manohij al-iqtido bil-aimmat al-muhtadiyn» nomi bilan qayd etilgan.

Yuqorida zikr qilingan asarlarda va boshqa ba‘zi bir tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, Abul-Mu‘in an-Nasafiy «Sharh al-Jomi‘ al-kabir li-sh-Shayboniy fi furu‘ al-hanafiyya» nomli sharh ham bitgan.

Taniqli olim Hoji Xalifa o‘zining mashhur «Kashf az-zunun» nomli asarida «Murattib ash-shayx» nomli asar Abul-Mu‘in an-Nasafiyga mansubligini qayd etib o‘tgan. Bu asarda muallif alloma Xusomiddin Umar ibn Abdulaziz ibn Mozaning (u 506/1142 sanada vafot etgan) «Jomi‘ as-sadr» nomli asarini sharlagan. Bu asar hanafiyya ta‘limotining furu‘ qismiga bag‘ishlangan. Yana shuni aytish kerakki, olim Xayriddin az-Zirikliy va boshqa qator mualliflar «Kitob al-olim val-mutaallim («Ustoz va shogard kitobi»)» nomli asarni ham xato ravishda Abul-Mu‘in an-Nasafiyga mansub deb ko‘rsatgan, vaholanki, bu asar to‘qqizinchi asrda yashab o‘tgan olim Abu Muqotil as-Samarqandiyning qalamiga mansubdir. Shuningdek, manbatarda bu masalada yana bir xatolikka yo‘l qo‘yilgan. Gap shundaki, ba‘zi mualliflar «Kitob al-u‘mda fi usul ad-diyn» nomli asar Abul-Mu‘in an-Nasafiyniki deb noto‘g‘ri ko‘rsatganlar. Aslida, bu asar Abdulloh an-Nasafiy ismli nasaflik boshqa bir olim tomonidan yozilgan. Abdulloh an-Nasafiy qahramonimiz Abul-Mu‘in an-Nasafiydan ikki asr keyin yashagan bo‘lib, u 720/1320 sanada vafot etgan. Mavridi kelganda aytish kerakki, «Kitob al-u‘mda»ning ikki qo‘lyozma nusxasi Qohiradagi «Dor al-kutub al-Misriyya»da saqlanib, ulardan birinchisi 711 (Aqoid Taymur), ikkinchisi esa 37830

(B Aqoid) raqami ostida saqlanadi. Kimki bu kitobga kiritilgan mavzularni diqqat bilan ko'zdan kechirsa, ularda Abul-Mu'in an-Nasafiy asarlarining bevosita ta'siri bo'lganligini osongina anglaydi. Shu bilan bir qatorda, Abul-Mu'in an-Nasafiy ilmiy-ma'naviy merosining muhim tarkibiy qismi bo'lgan, asosan, kalom ilmiga bag'ishlangan uchta yirik asari mavjud bo'lib, ular haqida batafsil ma'lumot berish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

«Tabsirat al-adilla»

Abul-Muin an-Nasafiyning qisqacha «Tabsirat al-adilla» nomi bilan keng ko'lamda ma'lum bo'lgan bu asari to'lig'icha «Tabsirat al-adilla fi usul ad-diyin a'la tariqat Abi Mansur al-Moturidiy» («Din usullarini (asoslarini) Abu Mansur al-Moturidiy uslubi asosida dalillar bilan sharhlash») deb ataladi. Abul-Mu'in an-Nasafiyning ushbu asari katta ilmiy va amaliy ahamiyatga molik bo'lib, allomaning eng yirik kitobi hisoblanadi. Shu boisdan ham, Abul-Mu'in an-Nasafiy «Sohib at-Tabsira» nomi bilan ham shuhrat qozongan. Bu asarda kalom ilmining turli masalalari atroflicha chuqur sharhlanib, ulardagi muammoli-munozarali fikrlar ushbu ilmning buyuk allomasi Abu Mansur al-Moturidiy ta'limotiga asoslangan holda isloh qilinadi. Mavridi kelganda yana bir bor ta'kidlamoq kerakki, imom Abu Mansur al-Moturidiy (870-944) Movarounnahrda ahli sunna val-jamoaning ulkan namoyondasi sifatida bu mintaqada at-moturidiya maktabiga asos solgan va shu bois ham, bu maktab bevosita uning nomi bilan ataladi. Deyarli shu davrda Iroqda imom Abul-Hasan al-Ash'ariy (873-935) ham aynan shu yo'nalishda ash'ariya maktabining asoschisi sifatida tanilgan bo'lsa, Misrda keng tarqalgan tahoviya maktabiga esa imom Ahmad ibn Muhammad Abu Ja'far at-Tahoviy (852-933) asos solgan edi. Bu uchala maktabning ham asosiy yo'nalishi umumiy bo'lib, bu ahli sunna val-jamoaning yo'nalishidir. Shu bilan bir qatorda, har bir maktabning o'ziga xos jihatlari, ayricha fikr-mulohazalari va og'ishmay ustozlari yo'lidan yuradigan ko'plab shogirdlari va tarafdorlari bor edi. Bunga qo'shimcha bu uchala maktabning jug'rofiy jihatdan turli mintaqalarda (Movarounnahr, Iroq, Misr) qaror topishlari ular qarashlarida lafziy yoki ma'noviy-mazmuniy tushdagi juz'iy tafovutlar bo'lishini taqozo qilardi. Binobarin, ayni shu masalalar bu uchala maktabning yagona bir maktab bo'lib birlashishiga yo'l qo'ymasdi, garchand tub mohiyati jihatdan ular uchulasi ham, yuqorida zikr qilganimizdek, yagona

yoʻnalishda boʻlganlar. Mavjud juzʻiy tafovut va farqlar lafziy (ifodaviy) yoki boʻlmasa, maʼnoviy (mazmuniy) xarakterga ega. Shu bois, aytish kerakki, Abul-Muʼin an-Nasafiy ushbu asarida yangi bir taʼlimotni ilgari surmagan, balki hanafiya yoʻnalishidagi oʻz ustozlariga sodiq shogird sifatida ular yoʻlidan borib, ahli sunna val-jamoaning moturidiya maktabiga oʻz sadoqatini izhor qiladi. Bir tomondan, u oʻzining ushbu kitobi orqali oʻz ustozlari qarashlarini yanada ulugʻlagan boʻlsa, ykkinci tomondan esa, ular raqiblarning xato fikrlariga keskin raddiyalar biddirgan. Bu xususda muallif oʻz asarining xutbasida ham alohida taʼkidlagan.

«Tabsirat al-adilla» asarida bahs yuritilgan mavzularga kelsak, muallif muqaddimadan keyin ilm va maʼrifat haqida bahs ochib, ularga aniq taʼriflar beradi. Shundan keyin, iymon al-muqallid (taqlid qiluvchining imoni) xususida oʻz qarashlarini bayon qiladi. Olamning yaratilishi isboti orqali Allohning mavjudligi isboti haqidagi masalaga toʻxtaladi. Bu masalani atroflicha yoritish uchun kitobda olam qanday yaratilgani, uning yaratuvchisi kimligi kabi masalalar oʻz ifodasini topgan. Allohning yagonaligi va gʻayridinlar vakillarining asossiz fikrlariga raddiyalar biddirish kabi masalalar ham bu asarda atroflicha yoritilgan. Muallifning salbiy va ijobiy sifatlar haqidagi fikrlari ham eʼtiborga molikdir. An-Nubuvvat (paygʻambarlik) haqidagi masala, insonlarning feʼllari (harakatlari) xususida va insonning xatti-harakatlari bilan bogʻliq ishlar – uning tugʻilishi, ajali etishi, rizqiroʻzi kabi masalalarga ham katta oʻrin berilgan. Asarning alohida boblari iroda, qazo va qadar, hidoyat va zalolat kabi masalalarga bagʻishlangan. Muallif taqdir xususidagi muʼtaziliylarning notoʻgʻri qarashlariga asosli dalillarga tayangan holda keskin javoblar bildirgan. Shundan keyin, asarda qabr azobi, ismlar va ahkomlar, vaʼad va vaʼid, shafolat va iymon kabi eʼtiqodiy masalalar ham oʻz ifodasini topgan. Kitob oxirida imomlik haqida bir nechta boʻlimlar keltirilgan.

Abul-Muʼin an-Nasafiyning «Tabsirat al-adilla» asarini ilmiy asosda maxsus oʻrgangan arab tadqiqotchisi Muhammad al-Anvar Qohiradagi al-Azhar universitetining usul ad-diyin fakultetida doktorlik ilmiy darajasini olish uchun ushbu asar boʻyicha dissertastiya yoqlagan. «Tabsirat al-adilla»ning gʻoyatda muhim asar ekanligi haqida «Kashf az-zunun» nomli mashhur asarida Hoji Xalifa: «Abul-Muʼin an-Nasafiyning bu asari gʻoyatda muhim kitob boʻlib, kimki unga diqqat nazari bilan qarasa, Najmiddin Umar an-

Nasafiyning «Al-Aqoid» asarining matni unga nisbatan bir fihris misolida ekanligiga to‘liq ishonch hosil qiladi», – deb, bu asarga g‘oyatda yuksak baho bergan.

Asar, nomidan ham ko‘rinib turganidek, butun mazmun-mohiyati bilan imom Abu Mansur al-Moturidiy ta‘limotini dalillarga tayangan holda sharhlashga bag‘ishlangan.

Ma‘lumki, Abu Mansur al-Moturidiyning kalom ilmiga bag‘ishlangan asosiy asarlaridan biri «Kitob at-Tavhiyd» («Yakka xudolik haqida kitob») bo‘lib, bu asar 1970 yilda Bayrutda arab olimi Fathulloh Xulayf tomonidan nashr etilgan. An-Nasafiyning «Tabsirat al-adilla» asari imom al-Moturidiyning mazkur asaridan keyin moturidiya ta‘limoti bo‘yicha yaratilgan ikkinchi asosiy manba hisoblanadi. Kalom ilmining ba‘zi masalalari batafsil yoritilgani va o‘z uslubining oddiyliги jihatidan «Tabsirat al-adilla» ba‘zi olimlar tomonidan, hatto «Kitob at-Tavhiyd»ga qaraganda ham yuqori baholangan. Binobarin, komil ishonch bilan aytishimiz mumkinki, Abul-Mu‘in an-Nasafiyning ushbu asaridan boshqa birorta ham asarda imom al-Moturidiyning kalom ilmi sohasidagi ta‘limoti bunchalik mukammal ifodasini topmagan.

An-Nasafiy yashagan o‘n birinchi asrning ikkinchi yarmi va o‘n ikkinchi asrning boshlarida kalom ilmi o‘zining yuksak cho‘qqisiga ko‘tarilgan edi. Shu boisdan ham «At-Tabsira»da kalom ilmida mustaqil maktab yaratgan imom al-Moturidiy va imom al-Ash‘ariyning bu ilm sohasidagi nazariyalari bilan bir qatorda boshqa ko‘plab mutakallimlarning fikr-mulohazalari, ularning xilma-xil qarashlari atroflicha tahlil qilinib, ilmiy jihatdan tegishli bahosini olgan. Ayniqsa, asarda an-Nasafiy yashagan davrda ham qisman mavjud bo‘lgan mu‘tazila oqimining vakillari bilan keskin bahsu munozaralar, ularning xato qarashlariga dalillar bilan isbotlangan raddiyalar keltiriladi. Shuningdek, asarda o‘sha paytda islom dinida keng tarqalgan turli-tuman firqalar va toifalar hamda g‘ayriislomiy guruhlariga ham keskin javoblar beriladi. Eng muhimi, muallif kalom ilmi sohasidagi bu yirik asarida moturidiya, ash‘ariya va mu‘taziliya oqimlari o‘rtasidagi asosiy farqlarni dalillarga tayangan holda alohida ajratib ko‘rsatadi.

Bu asarning qimmatli tomonlaridan yana biri shundaki, unda o‘sha davrda Movarounnahrda faoliyat ko‘rsatgan qator olimlar haqida muhim ma‘lumotlar o‘z aksini topgan. Jumladan, an-

Nasafiyning ustozimom Abu Mansur al-Moturidiy haqidagi ma'lumotlardan shuni qayd qilish kerakki, alloma 944 yilda vafot etganda uning shogirdlaridan biri, o'sha paytda Samarqandda bosh qozi lavozimini egallab turgan ash-Shayx Abul-Qosim ap-Hakim as-Samarqandiy (vaf. 953) imom al-Moturidiy qabri ustiga «Bu qabr o'z aql-zakovati va tafakkuri bilan ko'plab ilmlarning yuksak cho'qqisini zabt etgan, ularning dunyo bo'ylab tarqalishida butun kuch-quvvati va salohiyatini ayamay sarflagan, dinu diyonat sohasidagi asarlari unga mislsiz shonu shavkat keltirgan, umri bo'yi insonlarga ilmning lazzatli mevasini ulashgan allomaning qabridir» degan bitikni yozishlarini amr qilgan ekan. Bundan tashqari, ushbu asarda o'sha davrdagi taniqli olimlardan Abu Nasr al-Iyodiy, Abul-Hasan Ali ibn Saad ar-Rustag'foniy, Abu Muhammad Abdulkarim ibn Muso al-Pazdaviy kabi allomalar haqida ham qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

«Bahr al-kalom»

Tasnifiy hamda qomusiy asarlarni varaqlar ekansiz, al-Buxoriy, at-Termiziy, al-Xorazmiy, as-Samarqandiy, an-Nasafiy, ash-Shoshiy (at-Toshqandiy), al-Farg'oniy va boshqa katta-kichik shaharu qishloqlarimizga mansub taxallusli olimlarning nomlarini ko'p uchratasiz. Dunyoning hech bir mamlakatidan bunchalik ko'p ilm ahillari etishib chiqmagan bo'lsa kerak. Ayniqsa, o'rta (IX-XII) asrlarda o'lkamizda tom ma'noda haqiqiy madaniy yuksalish yuz berib, ilmu irfon juda yuksak pog'onalarga ko'tarilgan. Ayni shu davrlarda yurtimizda ilm-fanning turli sohalari bo'yicha olamshumul ahamiyatga molik asarlar yaratgan buyuk allomalar ijod qilganlar. Mustaqilligimiz keltirgan buyuk ne'matlar bois, biz endi mana shu allomalarimizning hayoti va ijodiy faoliyatini ilmiy nuqtai nazardan xolisona o'rganib, ular ma'naviy meroslaridan bahramand bo'la boshladik.

1998 yili ham ikki buyuk allomamiz – imom al-Bu-xoriyning 1225 yilligi, Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yilligi dunyo miqyosida keng nishonlandi. Shu munosabat bilan ko'plab tashkiliy, ma'rifiy tadbirlar amalga oshirildi. Buyuk allomalarimizning merosi, shaxsiyatlari haqidagi ma'lumotlarni to'plash, asarlari qo'lyozmalaridan fotonusxalar, mikrofilmlar olish, ijodlarini o'rganuvchi xorijiy olimlaru tadqiqotchilar bilan muloqotda bo'lib, ilmiy hamkorlik o'rnatish maqsadida, respublika tavallud sanalarni nishonlash tashkiliy qo'mitasining qaroriga binoan, bir guruh olimlar

Turkiya, Suriya, Iordaniya va Misr kabi mam-lakatlarda ilmiy safarda bo'lindi. Uch haftalik bu safar davomida Imom al-Buxoriy va Ahmad al-Farg'oniy davriga, ular hayoti, ilmiy merosiga oid yuzga yaqin nomdagi turlituman risolalar, kitoblar, buyuk allomalarimizning ayrim qo'lyozma asarlaridan mik-rofilmlar olingan. Ayni chog'da diyorimizdan chiqqan boshqa olimlar haqidagi ma'lumotlarni to'plashni ham e'tibordan chetda qoldirilmagan. Masalaga shu nuqtai nazardan qaraganda, suriyalik taniqli olim doktor Valiyuddin Muhammad Solih al-Farfur janoblari bilan muloqot g'oyatda foydali bo'lgan. Doktor Solih al-Farfur asosan o'rta asrlarda yashagan movarounnahrlik olimlarning hayoti va asarlarini o'rgangan. Doktor Solih al-Farfur kalom ilmining yirik namoyandasi, nasaflik mashhur olim Abul-Mu'in an-Nasafiyning «Bahrul-kalom» («Kalom (ilmi)da dengiz») nomli asarining tanqidiy nashrini tayyorlab chop ettirgan va ushbu kitobdan ilmiy safar a'zolariga hadya qilgan.

Islom dini falsafasining tarkibiy qismini tashkil qilgan kalom ilmining darg'alaridan biri bo'lmish vatandoshimiz Abul-Mu'in an-Nasafiy merosi haqida biz hozirgacha hech qanday ma'lumotga ega emasdik. Shu bois doktor Solih al-Farfur tadqiqotiga tayangan holda, Abu Mu'in an-Nasafiy va uning «Bahr ul-kalom» asari haqida ba'zi ma'lumotlarni qayd etib o'tishni lozim topdik.

Kalom ilmining bir qancha yo'nalishlari bo'lib, ular-dan al-ash'ariya va al-moturidiya kabilari g'oyatda keng tarqalgan. An-Nasafiy al-ash'ariya maktabining asos-chisi bag'dodlik olim Abdulhasan al-Ash'ariy, al-moturidiya maktabining asoschisi samarqandlik taniqli olim Abu Mansur al-Moturidiy ta'limotidan saboq olgan, asosan, al-moturidiya maktabiga mansub imom al-G'azzoliyning maslagiga amal qilgan olimlardan hisoblanadi. O'z navbatida, al-Ijjiy (vaf. 1355), Sa'duddin at-Taftazoniy (vaf. 1390) va boshqa ko'plab taniqli olimlar an-Nasafiy ta'limotiga tayangan holda faoliyat ko'rsatib, kalom ilmida yirik olim darajasiga ko'tarilganlar.

An-Nasafiyning ilm-fanning turli sohalariga oid asarlaridan quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

Al-U'mda fi usul al-fiqh.

Bahr al-kalom fi ilm al-kalom.

Tabsirat al-adillati fi ilm al-kalom.

At-Tamhiyd li-qavoi'd at-tavhiyd fi ilm al-kalom.

Al-O'lim val-mutaallim.

I'zoh al-mahajatiy li-kovn al-aqp hujjatan.

Sharhal-Jomi' al-kabir li-sh-Shayboniy fi furu'.

Manohij al-aimmati fil-furu'.

Mu'taqidot (Toshkentdagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida Abul-Mu'in an-Nasafiyning bu asaridan bir qo'lyozma saqlanadi (inv. № 40008|2). Arab tilida yozilgan ushbu asar 52 varaqdan iborat).

Allomaning «Bahr al-kalom» asari alohida ahamiyatlidir. Shu o'rinda asardagi ayrim ma'lumotlar haqida fikr yuritamiz. «Bahr al-kalom»ning oltinchi bobidagi birinchi fasl (bo'lim) to'rt bandedan iborat bo'lib, ulardan birinchisi «Al-Imomat» (Imomlikka oid) deb atalgan. Mana shu bandeda keltirilgan Payg'ambar (s.a.v.)ning ikki hadisi katta ilmiy ahamiyatga ega.

Birinchisi: «Iqtadu bil-laziyna min ba'diy Abu Bakr va Umar» (bu hadislarni Imom at-Termiziy, imom ibn Moja, Ahmad ibn Hanbal va boshqa bir qancha muhaddislar o'z asarlarida rivoyat qilganlar). «Mendan keyin Abu Bakr va Umarga iqtido qilinglar», – degan bo'lishiga qaramay, xalifalik ustida ikki kun bahs bo'lgan.

Ikkinchi hadis: «Mendan keyin xalifalik o'ttiz yil, undan keyin amirlik, podshohdik va hokazolar bo'ladi», – degan fikrlari naqadar rostligi, dalillanganini alohida qayd qilish zarur. Chindan ham bu muddat (ya'ni, o'ttiz yil) choryorlar paytida tugagan. Hozirgi vaqtda «xalifalik»ni orzu qilib yurgan ba'zi kimsalar ucho'n ham Payg'ambarimizning bu hadislari asosli javobdir. Bu kitob kalom ilmi bo'yicha al-moturidiya maktabining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Chunonchi, bu asar ash-shayx Abu Mansur al-Moturidiy asos solgan islomiy aqidaning eng bosh manbalaridan sanaladi. Ayniqsa, islom dinida turli-tuman oqimlar va ta'limotlar yaratilayotgan hozirgi paytda mazkur asar-ning ilmiy va amaliy ahamiyati beqiyos kattadir.

Abul-Mu'in an-Nasafiy o'z kitobini yaratishda qu-yidagi asosiy manbalardan foydalangan:

Imom Abu Mansur al-Moturidiyning «At-Tavhiyd» kitobi.

Imom Abul-Hasan al-Ash'ariyning «Al-Lam'a» kitobi.

Imom Abul-Hasan al-Ash'ariyning «Maqolot al-islomiyyin» asari.

Imom Al-Haramayn, Imom Abu al-Maoliy Abdul-malik al-Juvayniyning «Al-Irshod» nomli asari.

«Bahr al-kalom fi ilm al-kalom» asari alloma ijodining gultoji hisoblanadi. U islom dini falsafasini tashkil qilgan kalom ilmi bo'yicha eng kimmatli manbalardandir. Asarni ilmiy asosda har tomonlama chuqur o'rganish va o'zbek tiliga tarjima qilish olimlarimiz oldida turgan vazifalardan biri. «Bahr al-kalom» ning bir qancha qo'lyozma va kitobiy nashrlarining mavjudligi ham uning muhim manbalardan biri ekanligidan dalolat beradi. Uning qimmatli qo'lyozmalaridan biri Dubaydagi Jum'a al-Mojid nomli madaniyat va meros markazida (766-raqamdagi bu qo'lyozma 1167 hijriy yilda ko'chirilgan), ikkinchisi Damashqdagi az-Zohiriya kutubxonasi qo'lyozmalar bo'limida (4970-raqam ostida), uchinchisi Bag'doddagi «Maktabat al-avqofda»da (4365-raqamda), to'rtinchisi Qohiradagi mashhur «Dorul-kutub»ning (113-raqamida) qo'lyozmalar bo'limida saqlanadi. Ushbu qo'lyozmaning 950 hijriy yilda oddiy xat bilan ko'chirilgan boshka bir nusxasi Iskandariyaning (Misr) «Maktabat al-baladiyya» nomli kutubxonasida saqlanmoqda.

«Kitob at-tamhiyd li-qavo'id at-tavhiyd»

Kalom ilmining yirik yo'nalishlaridan biri bo'lgan al-ash'ariya ta'limotining keng ko'lamda tarqalishida alloma al-Boqilloni, mu'taziliyaning tarqalishida qozi Abduljabborning xizmatlari katta bo'lgani kabi imom Abu Mansur al-Moturidiy asos solgan moturidiya ta'limotining dunyo bo'ylab yoyilishida alloma Abul-Mu'in an-Nasafiyning hissasi beqiyosdir. Ayniqsa, uning qalamiga mansub «Kitob at-tamhiyd li qavo'id at-tavhiyd» («Tavhid (yakkaxudolik) qoidalari sharhi bo'yicha qo'llanma kitob») asari bu borada alohida ahamiyatga ega. 1986 yilda Qbhirada arab tadqiqotchisi Habibulloh Hasan al-Ahmad tomonidan nashr etilgan bu asar ikki katta kismdan iborat bo'lib, o'z navbatida, bu qismlar ham ko'plab bob va fasl (bo'lim)lardan tashkil topgan. Masalan, birinchi qismning dastlabki boblarida imom Abul-Muin an-Nasafiy yashagan davr, uning hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar keltiriladi. Bular da an-Nasafiy yashab o'tgan davrdagi siyosiy, ijtimoiy, ayniqsa, ilmiy-madaniy hayot o'z aksini topgan. Shundan keyin, imom an-Nasafiy tug'ilgan yili, uning ustozlari va o'ndan ortiq shogirdlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Asarning ikkinchi qismida an-Nasafiyning «Kitob at-tamhiyd li-qavo'id at-tavhiyd» asarining to'liq matni keltirilib, ilmiy ravishda har tomonlama chuqur tadqiq etilgan. Dastlab mazkur asarning muallifi Abul-Mu'in an-Nasafiy ekanligi ishonchli dalillar

bilan isbotlanadi, asarning qo‘lyozmalari haqida gapirilib, jahonning turli qo‘lyozma xazinalarida, asosan, Misr va Turkiya kutubxonalarida uning yettita qo‘lyozma nusxalari mavjudligi takidlanadi. Muallif ushbu asariga yozgan muqaddimasyda bu asarini o‘sha davr hokimlaridan birining ahl as-sunna val-jamoaning aqidasi haqida bir kitob bitish xususidagi iltimosiga ko‘ra yozganligini bayon qiladi. Shundan keyin, asarning mazmuni va ma‘nosi tahlil etilib, jumladan, muallif bilish (ma‘rifat) na-zariyasining yo‘l-yo‘riqlarini bayon qilib, ularni uch xil toifaga ajratadi:

sezgi a‘zolari (beshta);

haqiqiy, ishonchli axborotlar;

aql-idrok.

Muallif iymon-e‘tiqod, imomlik (imomat) va xa-lifalik haqidagi o‘z fikr-mulohazalarini bayon qilgan. Ushbu bobda bildirgan qarashlaridan xulosa qilib aytish mumkinki, Abul-Mu‘in an-Nasafiy kalom yushi, ayniqsa, uning asoschilaridan biri Abu Mansur al-Moturidiy g‘oyalarini himoya qylib, uning keng qo‘lamda tarqalishiga munosib hissa qo‘shgan dastlabki allomalardan biri bo‘lgan.

Tadqiqotning ikkinchi qiemila ham «Kitob at-tam-hiyd li-qavo‘id at-tavhiyd» asarining mazmun-mohiyati haqida xulosalar chiqarilgan. Unda asar bobma-bob keltirilib, olamning tuzilishi, Allohning zotu sifatleri, insonda iroda erkinligining mavjudligi, qabr azobi kabi turli-tuman aqidaviy masalalar haqida muallifning fikrlari keltirilgan. Imom an-Nasafiyning hidoyat yo‘lidan adashgan ba‘zi islomiy firqa va guruhlariga (masatan: jabariya, xavoryajlar, mu‘taziliya) bergan asosli raddiyalari ham asarda o‘z ifodasini topgan.

Yuqorida bayon qilinganlarni xulosalab aytish mumkinki, alloma Abul-Muin an-Nasafiy, bir tomondan, o‘z ma‘naviy ustozini, buyuk mutakallim Abu Mansur al-Moturidiy asos solgan al-moturidiya ta‘limotini dunyo bo‘ylab tarqalishida beqiyos xizmat ko‘rsatgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan o‘zining «Tabsirat al-adilla», «Bahr al-kalom», «Kitob at-tamhiyd li-qavo‘id at-tavhiyd» kabi muhim asarlari bilan kalom ilmining keyingi taraqqiyotiga salmoqdi hissa qo‘shgan. Chunonchi, bu bebaho asarlarda har qanday davrda ham, har qanday jamiyatda ham uchraydigan hidoyat yo‘lidan adashgan turli firqa va guruhlariga qarshi, shuningdek, dinda muhim o‘rin egallaydigan aqidaviy masalalarni talqin qilishda muqaddas manbalar – Qur‘oni karim va janob payg‘ambarimiz Muhammad

(s.a.v.)ning muborak hadislariga tayangan holda ish tutish lozimligi singari ilg'or g'oyalar ilgari surilgan. Binobarin, bundan qariyb o'n asr muqaddam yashagan buyuk vatandoshimiz Abul-Mu'in an-Nasafiy qoldirgan boy ilmiy-ma'naviy meros nafaqat o'z zamoni uchun, balki hozirgi davrda ham amaliy ahamiyatga ega ta'limot sifatida har tomonlama chuqur o'rganishga loyiq.

Mahmud az-Zamaxshariy (1075-1144)

Xorazm vohasi azaldan jahon ilm-fani va madani-yati ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalar yurti sifatida mashhur bo'lib kelgan. Ayniqsa, o'rta asrlarda ilm-fanning turli sohalari bo'yicha samarali faoliyat ko'rsatgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon al-Beruniy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Ibn Miskavayh, Abu Nasr al-Iroq, Abu Sahl al-Masihiy, Abu Xayr ibn al-Xammor, Abul-Fath al-Mutarriziy kabi xorazmlik allomalarning dovrug'i butun Mag'ribu Mashriqqa tarqalgan. Xorazm zaminida tavallud topib faoliyat ko'rsatgan ana shunday buyuk allomalardan biri Mahmud az-Zamaxshariydir.

Uning to'liq ismi Abul-Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad bo'lib, hijriy 467 sana, rajab oyining yigirma ettinchisida chorshanba kuni (1075 yilning 19- mart)da Xorazmning yirik qishloqlaridan biri – Zamaxsharda tavallud topgan va shu boisdan ham az-Zamaxshariy taxallusini olgan. U Makkai mukarramada yashagan paytida iskandariyalik shogirdi Shihobuddin Ahmad ibn al-Husniy al-Molikiyga yo'llagan maktubida o'zi haqida: «Men Mahmud ibn Umar ibn Muhammad ibn Ahmad al-Xorazmiyman, keyin az-Zamaxshariyman. Xo-razmning katta bir qishlog'i – Zamaxsharga mansubman. Zamaxshar – tug'ilgan yurtimdir», – deb yozgan. Az-Zamaxshariydek buyuk zotning kindik qoni to'kilgan Zamaxshar qishlog'i, allomaning yurti bo'lganligi tufayli ham, keyinchalik jumlai jahonga dong'i ketgan qishloqqa aylandi.

Az-Zamaxshariyning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar, asosan, o'rta asr arab manbalarida, qisman Az-Zamaxshariy hayoti bilan tanishar ekanmiz, uning ilm talabida qator xorijiy mamlakatlarga safar qilganligini ham ko'ramiz. Darhaqiqat, u Xuroson, Shom, Iroq, Hijozda bo'lganligi yozma manbalarda qayd etilgan. Mana shu yurtlarda bo'lganida az-Zamaxshariy o'sha davrning ko'p mashhur

olimlaridan saboq oldi, ular bilan ilmiy, ijodiy munozaralarda ishtirok qildi, samarali hamkorlik rishtalarini bog'ladi.

Allomaning Sharqning turli shaharlarida juda ko'plab shogirdlari bo'lgan. Ayniqsa, Makkai mukarramada besh yildan ortiq yashagan paytlari olim uchun g'oyatda serunum bo'ldi, desak, hech bir mubolag'a bo'lmaydi. Chunonchi, Makkai mukarrama bepoyon musulmon olamining turli burchaklaridan kelgan ziyoratchilar uchun nafaqat muqaddas bir sajdagoh, balki yetuk olimlar, ilm toliblari to'planadigan katta ilmiy markaz, ijodiy maskan vazifasini ham o'tagan. Ilm toliblari, muqaddas shaharda yashagan az-Zamaxshariydek allomalardan har qadamda foydalanardilar. Ma'lumki, biron-bir allomaga nasib etmagan yuksak maqom – Jorulloh («Allohning qo'shnisi») degan laqabga faqat buyuk vatandoshimiz az-Zamaxshariy musharraf bo'lgan. Arab olimi ash-Shayx Muhammad Abu Zahro Makkada yashagan davrida az-Zamaxshariy aksar vaqtini Baytulloh al-haramda o'tkazib, har doim uning atrofini adab ilmining toliblari, she'riyat ixlosmanddari, mav'izayu hikmatli iboralar shaydolari o'rab olib, undan saboq olganliklarini aloxida ta'kidlagan.

Mana shu mulohazalarga tayanib aytish mumkinki, uning ustozlariyu shogirdlari turli elatlar va millatlarga mansub ilm ahllari bo'lgan, ilm yo'lida az-Zamaxshariy tom ma'noda haqiqiy baynalmilallik fazilatlarini namoyon qilgan. Chunonchi, unga bevosita shogird bo'lib olimdan to'g'ridan-to'g'ri saboq olgan shogirdlari ona yurti Zamaxsharda, Xorazmda, Tabaristonda, Abivardda, Samarqandda, Bag'dodda, Damashqda, Halabda bo'lib qolmay, balki uning yetuk asarlari orqali undan saboq olib, o'zini g'oyibona az-Zamaxshariyning shogirdiman, deguvchilar musulmon dunyosining turli burchaklarida ko'plab topilardi.

Az-Zamaxshariy Qur'oni karim nozil bo'lgan arab tilini yoshligidan katta havas va ishtiyoq bilan o'rgandi, arablarning hayoti va ularning urf-odatlarini, turli lahjalarini uzoq davr tinimsiz tadqiq etdi. Allomaning arab tiliga nisbatan mehri va ixlosi alohida bo'lgan. Shu boisdan ham, bu tilning grammatikasi, leksikasi, umuman arab tilshunosligiga oid bir qancha muhim asarlarni shu nogiron donishmand yaratgan. Uning jumlai jahonga dong'i ketgan «Muqaddamat al-adab», «Al-Mufassal», «Asos al-balog'a» kabi yirik ta'liflari mana shu yo'nalishda yozilgan asarlardir. Arablarning: «Agar

xorazmlik shu ko'sa, cho'loq az-Zamaxshariy bo'lmaganida arablar o'z tillarini bilmas edilar!» – deb lo'nda qilib allomaga bergan yuksak bahosiga hech bir izohning hojati bo'lmasa kerak.

Arab tilini, uning behad katta imkoniyatlarini teran anglagan alloma barcha asarlarini arab tilida yaratgan. Bu tilni mukammal o'zlashtirib olishi, albatta, katta mehnat va tinimsiz izlanishlar samarasidir. Alloma bir oyog'i cho'loqligiga qaramasdan, sayohatu safarlar-ga o'ch bo'lganligini yuqorida qayd qilgan edik. Darhaqiqat, ilm olishdek olijanob maqsad donishmandni uzoq o'lkalarga chorlagandi. «Mening sochlarimni oqartirgan narsa bu muttasil kitob mutolaa qilish va tinimsiz sayohatlardir», – deb allomaning o'zi ham e'tirof etgan. Chindan ham bu hol ko'plab insonlarni hayratga solgan. Mashhur sharqshunos olim, akademik I. Yu. Krachkovskiyning: «Yog'och oyoqda yurganligiga qaramasdan, Mahmud az-Zamaxshariy hazratlari o'ta harakatchanligi bilan ajralib turgan», - deb yozishi ham bejiz emas.

Alloma az-Zamaxshariy o'z umrining aksar qismini xorijiy yurtlarda, musofirchilikda o'tkazgan bo'lsada,

o'z ona qishlog'i Zamaxshar, ona vatani Xorazmni juda qattiq sevgan, haqiqiy vatanparvarlik hissiyotlarini namoyon qilgan holda yurtiga bagishlab madhiyalar yaratgan. «Xorazm zaminida shunchalik ko'p ne'matu fazilatlar mavjudki, dunyoning boshka biror mamlakatida ham bularga o'xshashlarini aslo ko'rmadim», – deya, kindik qoni to'kilgan yurti Xorazmni alohida iftixor va g'urur bilan ta'riflaydi. Shu bilan birga, alloma jami besh yildan ortiq vaqt yashagan muqaddas shahar Makkai mukarramani ham o'zining ikkinchi vatani o'rnida ko'radi. Chunki Makka ahli, ayniqsa, uning amiri Abul-Husayn Ali ibn Iso ibn Hamza ibn Vahhrs al-Husayniy az-Zamaxshariyni katta izzat-ikrom va alohida hurmat bilan kutib olib, olimning samarali ilmiy, ijodiy va mudarrislik faoliyati uchun barcha shart-sharoitlarni yaratadi. Hattoki amirning buyrug'i bilan Ka'batullohning yaqinidagi Bob al-Ajyod mahallasida olim uchun maxsus bir uy ham qurib beriladi. Makka amiri Ibn Vahhos bilan az-Zamaxshariy o'rtasidagi do'stlik va birodarlik iplari tobora mustahkamlanib, hatto az-Zamaxshariy ushbu do'stona aloqalariga atab bir qasida ham bitadi va amirning o'ziga ko'rsatgan katta iltifotini minnatdorlik tuyg'usi bilan tarannum etadi. Makka amiri Ibn Vahhos ham yetuk olim va iqtidorli shoir bo'lgani uchun ular bir-birlarining

ijodlaridan o‘zaro unumli foydalanadilar. Az-Zamaxshariydagi buyuk daho, ulkan ilm va yuksak insoniy fazilatlarining shohidi bo‘lgan Ibn Vahhos unga alohida mehr bilan munosabatda bo‘ladi. Prezidentimiz Islom Karimov Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan tantanada so‘zlagan nutqi va keyinroq, xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining navbatdan tashqari sessiyasida qilgan ma‘ruzasida ham Makka amiri Ibn Vahhosning alloma az-Zamaxshariy haqidagi: «Dunyodagi barcha qishloqlar jam bo‘lib Xorazmning birgina Zamaxshar qishlog‘iga fido bo‘lsa, arziydi. Chunki bu qishloq ming yillarda bir marta tug‘ilishi mumkin bo‘lgan az-Zamaxshariydek buyuk allomani dunyoga keltirgan», – degan samimiy e‘tirofi va yuksak bahosini alohida ta’kidlab o‘tgan edi.

Ma’lumki, birinchi marta az-Zamaxshariy Makkada ikki yildan ortiq yashagandan keyin o‘z yurti Xorazmga qaytadi. Oradan bir muncha vaqt o‘tgach, u Makkadan qaytganiga pushaymon bo‘lib, qattiq iztirobga tushadi. O‘zining ushbu mahzun holatini olim bir qancha qasidalarida bayon qiladi. «O‘z umringning ancha qismini Makkada o‘tkazding, yana Makkaga ketaman deyishingning boisi nima»? – deb so‘raganlarida, olim: «Kalb xotirjamligi, dil pokligi va ibodat lazzatini faqat Makkadagina his qilish mumkin», – deb javob qiladi. Shundan keyin az-Zamaxshariy ikkinchi marta Makkaga borish maqsadida yana safarga chiqadi. Safari davomida Suriyaning poytaxti Damashqda birmuncha muddat yashagandan keyin yana yo‘lga chiqib, Makkaga etib boradi va uch yil mobaynida bu muqaddas shaharda yashaydi. Makka amiri Ibn Vahhos bu safar ham az-Zamaxshariyni katta iltifot bilan qarshi olib, unga izzatikrom ko‘rsatadi. Uch yil Makkada yashagandan keyin az-Zamaxshariy o‘z vatani Xorazmni qumsaydi va Makkadan chiqib Bag‘dodga keladi. O‘sha davrda ilm-fan va madaniyatning markazi bo‘lgan Bag‘dodda u ko‘p olimlar bilan muloqotda bo‘ladi va ular bilan ilmning turli sohalari bo‘yicha bahs va munozaralarda qatnashadi. So‘ngra Xorazmga qaytib kelib, bir necha yil yashagandan keyin 538/1144 yili arafa kechasi Jurjoniya (hozirgi Ko‘hna Urganch)da vafot etadi. Shundan deyarli ikki yuz yil keyin, ya’ni 1333 yili Xorazmni ziyorat qilgan mashhur arab sayyohi Ibn Battuta (1304–1377) o‘zining «Ar-Rihla» («Sayohatnoma») nomli asarida Xorazm (Ko‘hna Urganch)ning tashqarisida az-Zamaxshariyning qubballi maqbarasini ko‘rganligi haqida yozadi.

Buyuk mutafakkir az-Zamaxshariy bizga boy va ulkan ilmiy-ma'naviy meros qoldirgan. U tilshunoslik, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz, odob-axloq, mantiq, jug'rofiya, tafsir, hadis, fiqh va ilm al-qiroatga oid oltmishga yaqin asarlar yaratgan bo'lib, ularning aksariyati bizgacha etib kelgan. Az-Zamaxshariy ijodining keng ko'lamliligi va uning ilm-fan olamida tutgan yuksak maqomini bilish maqsadida allomaning zamondoshlari va keyingi asrlarda yashagan tadqiqotchilar u haqsta aytgan fikr-mulohazalardan ayrimlarini keltiramiz. Mashhur arab tarixchisi Ibn al-Qiftiy u haqda bunday degan: «Alloh rahmat qilg'ur az-Zamaxshariy ilmul-adab, nahv-sarf va lug'atshunoslik bobida boshqalarga namuna bo'ladigan benazir alloma edi. U o'z hayoti davomida ko'plab buyuk olimlar va fozillar bilan uchrashgan bo'lib, tafsir, hadis, nahv-sarf va boshqa sohalar bo'yicha bir qancha asarlari bor. U o'z asrida arab tilida ijod qilgan ajamlilar (g'ayri arablar) orasida eng buyugidir». Atoqli olim Ibn Xallikon: «Az-Zamaxshariy hazratlari tafsir, hadis, nahv-sarf, lug'at va ilmul-bayon bo'yicha buyuk allomadir. Hech bir mubolag'asiz, mazkur ilmlarda u o'z davrining yagonasi, ko'pdan-ko'p ajoyib asarlarning muallifi edi», – deb yozadi. Az-Zamaxshariydan bir necha asr keyin yashagan taniqli Misr tarixchisi Ibn Tag'riberdi alloma to'g'risida: «Shayx, buyuk alloma, o'z davrining yagonasi, o'z asrining eng peshvosi va imomi bo'lgan», – deb qayd qilgan.

Tilshunoslik va grammatikaning turli masalalariga oid asarlar az-Zamaxshariy ijodida salmoqli o'rin egallaydi. Jumladan, arab tili grammatikasiga oid «Al-Mufassal fin-nahv» nomli asarini u Makkada yashagan paytida bir yarim yil davomida yozgan. «Al-Mufassal» arab tili nahvu sarfini mukammal o'rganishda eng muhim maibalardan biri sifatida azaldan Sharqda ham, G'arbda ham shuhrat topgan va goyatda qadrlangan. Ko'pchilik olimlar o'z ilmiy qimmatini jihatidan az-Zamaxshariyning bu asari taniqli arab tilshunosi Sibavayhning (vaf. 796) arab grammatikasiga oid mashhur kitobidan keyin ikkinchi o'rinda turadi, deb ta'kidlaganlar. O'sha davrning o'zidayoq arablar orasida az-Zamaxshariyning bu asari katta e'tibor qozongan va arab tilini o'rganishda asosiy qo'llanmalardan biri sifatida keng tarqalgan. Hatto Shom (Suriya) hokimi Muzaffariddin Muso, kimda-kim az-Zamaxshariyning ushbu asarini yod olsa, unga besh ming kumush tanga pul va bosh-oyoq sarupo sovg'a qilishni e'lon qilgan. Bir qancha kishilar asarni yod olib, mukofotga sazovor ham bo'lganligi

haqida manbalarda aniq ma'lumotlar keltirilgan. Bu misol az-Zamaxshariy asarining o'sha davrda ham qanchalik yuksak baholanganligini ko'rsatadi. Bu muhim asar Sharq va G'arb olimlari tomonidan keng tadqiq qilingan va bir necha marta nashr ham etilgan. Asarning bir qancha qo'lyozma nusxalari Toshkentda, O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. «Al-Mufassal»ning ixchamlashtirilib, muxtasar holga keltirilgan nusxasi «Al-Unmuzaj» («Namuna») nomi bilan ataladi. Grammatikaga oid asarlaridan yana biri «Sharh abyat kitob Sibavayh» – yuqorida zikr etganimiz Sibavayhning kitobiga yozilgan mukammal sharhdir.

Az-Zamaxshariyning Xorazmshoh Alouddavla Abulmuzaffar Otsizga (1127–1156) bag'ishlab yozilgan «Muqad-damat al-adab» asari alohida ahamiyatga ega. Asar besh katta qismga bo'lingan bo'lib, otlar, fe'llar, bog'lovchilar, ot o'zgarishlari va fe'l o'zgarishlari haqida batafsil fikr yuritadi. Bu muhim asarning yig'ma ilmiy-tanqidiy matni filologiya fanlari doktori Zohidjon Islomov tomonidan 2002 yilda «Toshkent islom universiteti» nashriyotida chop etilgan. Muhim manba sifatida bu asar 1706 yilda usmonli turk tiliga, so'ngroq fransuz, nemis tillariga tarjima qilingan. Parij, Laypsig, Vena, Leyden, Qozon shaharlari, Norvegiya, Misr va Hindiston davlatlarida bir necha marotaba nashr qilingan. Asarning chig'atoy tiliga qilingan tarjimasi o'zbek tili tarixini o'rganuvchilar uchun muhim manba hisoblanadi. Bu haqda Sadriddin Ayniy ham 1921 yili «Mehnatkashlar tovushi» gazetasidagi maqolasida: «Az-Zamaxshariyning «Muqaddamat al-adab» asari o'zbek tili uchun butun dunyoning xazinasini bilan barobardir», – deb ta'kidlagan edi.

Az-Zamaxshariyning arab lug'atshunosligiga bag'ishlangan asarlaridan, eng avvalo, «Asos al-balog'at» («Ba-log'at (fasohati) asoslari») asarini aytish zarur. Arab tilining fasohati, fikrni chiroyli ibora va so'zlar bilan ifodalash, lug'at boyligidan o'rinli va g'oyatda mohirlik bilan foydalanish va bularning hammasini amalda tatbiq etish kabi masalalar bu asarda mukammal ravishda o'z ifodasini topgan. Bu qimmatli asar ham arab mamlakatlarqsta bir necha bor nashr etilgan va qo'lyozma nusxalari Sharqning ko'p shaharlaridagi qo'lyozma xazinalarida saqlanadi. Allomaning «Atvoquz-zahab fi-l-mavo'iz val-xutab» («Va'zlar va xutbalar bayonida oltin shodalar») nomli asari nasihatimiz maqolalar va ibratli hikoyatlardan tashkil topgan qimmatli kitobdir. Asar birinchi marta 1835 yili nemis olimi Fon

Xomer tomonidan nemis tiliga tarjima qilinib, arabcha matni bilan nashr etilgan. Bundan ellik yilcha o'tgach, fransuz tiliga ham tarjima qilinib, 1886 yili Parijda chop etilgan. 1873 yili esa usmonli turk tiliga qilingan tarjimasi Istanbulda nashrdan chiqarilgan.

Az-Zamaxshariyning «Rabiy' al-abror va nusus al-axyor» («Ezgular bahori va yaxshilar izhori») asarida adabiyot, tarix va boshqa fanlarga oid hikoyatlar, latifalar va suhbatlarning eng saralari jamlangan. 97 bobdan iborat bu asarning nodir bir qo'lyozma nusxasi Toshkentda, O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Bundan tashqari, Leydeya, Berlin kutubxonalarida ham asarning qo'lyozmalari mavjud.

Qomusiy bilimlar sohibi bo'lgan alloma az-Zamaxshariy jug'rofiyaga oid ham asar yaratgan bo'lib, u «Kitob al-jibol val-amkina val-miyoh» («Tog'lar, joylar va suvlar haqida kitob») nomi bilan ataladi. Olim bu asarini Makkada bo'lgan paytida o'z do'sti, Makka amiri Ibn Vahhosdan olgan aniq va mufassal ma'lumotlar va o'z shaxsiy mushohadalariga tayanib yozgan. Arabiston yarim orolining jug'rofiyasiga oid qimmatli ma'lumotlarni qamragan bu asar Yevropada birinchi marta 1856 yilda Leydenda taniqli olim Joynbollning shogirdi sharqshunos Salver de Grave tomonidan lotincha tarjimasi bilan nashr qilingan. Asar bir necha marta chop etilgan. Bu manbada keltirilgan qimmatli ma'lumotlardan mashhur arab olimi Yoqut al-Hamaviy o'zining «Mu'jam al-buldon» («Mamlakatlar qomusi») nomli asarida ko'p o'rinlarda foydalangan.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hadislariga bag'ishlangan asarini az-Zamaxshariy «Al-Foiqfi g'arib al-hadis» («G'arib hadislar haqida ajoyib asar») deb atagan. Mashhur garixchi Ibn hajar al-Asqaloni: «Az-Zamaxshariyning «Al-Foiq fi g'arib al-hadis» kitobi g'oyatda ixcham bo'lgani bilan mazmunan keng qamrovliligi va naqlari to'g'riligi bilan ajralib turadigan yaxlit bir asardir», – deb yozadi. Bu asar bir necha marta nashr ham etilgan (Haydarobod, Bag'dod, Qohira).

Az-Zamaxshariy ijodida muhim o'rin egallab, ilm-fan olamida keng tanilgan «Al-Kashshof» asari Qur'oni karimga bag'ishlangan mashhur tafsirdir. Bu tafsir az-Zamaxshariy Makkada turgan paytida uch yil (1132– 1134) davomida yozilgan. Az-Zamaxshariy bu tafsirini yozishdan oldin Qur'oni karimga bag'ishlab yaratilgan ko'plab tafsirlarni qunt bilak o'rgangan va ulardan unumli foydalangan.

Garchand bu tafsir muayyan darajada mu'taziliya oqimi nuqtai nazaridan yozilgan bo'lsada, lekin ilohiy Kitobga bag'ishlangan tafsirlar o'rtasida o'z o'rniga ega. Ayniqsa, unda Qur'oni karimning filologik nuqtai nazardan tahliliga katta e'tibor berilgan, Qimmatli manba sifatida «Al-Kashshof»ning ko'plab qulyozma nusxalari dunyoning turli shaharlarida mavjudligi, asarga yozilgan sharh va hoshiyalarning ko'pligi bilan ham belgilanadi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan yaqqol ko'rinib turibdiki, ko'hna Xorazm zaminida tavallud topgan buyuk alloma az-Zamaxshariy hazratlari beqiyos boy ilmiy-ma'naviy meros qoldirgan. Alloma butun umrini va jo'shqin faoliyatini ilm-fan yo'liga baxshida etgan, fanning turli sohalariga oid ko'plab asarlar yaratgan. Shu bilan birga, Xorazm o'lkasida va o'zi ziyorat qilgan. Sharqning turli shaharlaridan bo'lgan ko'p-dan-ko'p shogirdlariga juda katta e'tibor bilan qarab, ularni kamol toptirishga o'z hissasini qo'shgan. O'z davrining ko'plab mashhur olimlari bilan do'stona munosabatda bo'lib, ular bilan ilm-fan taraqqiyoti yo'lida samarali hamkorlik qilgan.

Az-Zamaxshariyning chuqur bilimi va ilm-fanning turli sohalariga oid qimmatli, o'lmas asarlari hali u hayot paytidayoq butun musulmon Sharqida unga betakror shuhrat keltirgan. Az-Zamaxshariyning chuqur hurmat va alohida mehr bilan «Ustoz ad-dunya» («Butun dunyoning ustozisi»), «Ustoz al-arab val-ajam» («Arablar va g'ayri arablarning ustozisi»), «Jorulloh» («Allohning qo'shnisi»), «Faxru Xvarazm» («Xorazm faxri») kabi birorta ham allomaga nasib etmagan o'ta sharafli laqablar bilan ataganlar. Mashhur olimlar, shoirlar va adiblar davrasida u doimo peshvolardan biri bo'lgan, qizg'in ilmiy bahs va munozaralarda uning fikr-mulohazasi, albatga, inobatga olingan. Mana shu zayldagi beqiyos ulkan obro'-e'tibor va buyuk dahoga xos fazilatlar ehtimol unga o'z asarlaridan birida: «Inniy fi Xva-razm Ka'bat al-adab» («Chindan ham men Xorazmda adib-lar uchun bir Ka'badekdurman»), - deb yozishiga asos bo'lgan bo'lsa, ajab emas.

Yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, az-Zamaxshariyning boy ilmiy-ma'naviy va adabiy merosi Sharqda ham, G'arbda ham azaldan qadrlangan va ilmiy asosda muayyan darajada o'rganilgan, uning qator asarlari bir necha G'arb tillariga tarjima ham qilingan. Binobarin, komil ishonch bilan aytish mumkinki, xorazmlik buyuk alloma az-Zamaxshariy hazratlari nafaqat O'zbekiston, O'rta Osiyo

xalqlari, balki butun jahon xalqlariga mansub bo‘lib, allomaning bebaho ilmiy-adabiy merosi dunyo miqyosida hazrati Insonning ma’naviy kamolotiga xizmat qiladigan noyob durdonalardir.

Mavridi kelganda aytish kerakki, mustaqillik yillarida az-Zamaxshariyning hayot yo‘llari va betakror ilmiy merosini o‘rganish sohasida samarali ishlar amalga oshirildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov imzo chekkan qaroriga ko‘ra, 1995 yilda az-Zamaxshariy hazratlari tavalludining 920 yilligining mamlakatimizda keng nishonlanishi, ayniqsa, alohida ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga ta’kidlash joizki, az-Zamaxshariy asarlarini mukammal, har tomonlama chuqur o‘rganib, o‘zbek tiliga tarjima qilish, ulug‘ mutafakkir qalamiga mansub boy ilmiy-ma’naviy merosni keng jamoatchilikning haqiqiy boyligiga aylantirishdek sharafl va xayrli ish olimlarimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Burhoniddin Marg‘Inoniy (1123-1197)

O‘rta Osiyolik faqihlarning har biri o‘z ilmiy uslubi va yashagan davri sharoitiga qarab islom huquqi, ayniqsa, hanafiy mazhabi rivoji yo‘lida unutilmas xizmatlar qilib, avlodlarga barhayot asarlar qoldirganlar. Ular orasida imom Marg‘inoniy yozgan qimmatli huquqiy asar – «Al-Hidoya» o‘z ixchamligi, mukammalligi, hanafiya mazhabini boshqa sunniylik mazhablari bilan qiyosiy uslubda o‘rganib, har tomonlama chuqur yoritgani bilan katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

«Al-Hidoya» VIII asrdan buyon hanafiylik bo‘yicha eng muhim va mo‘tabar qo‘llanma sifatida barcha musulmon mamlakatlari madrasalari va islomiy oliy o‘quv yurtlarida o‘qitib kelinmoqda. Uning matni va qisqartmalari ustidan mashhur faqihlar tomonidan 60 dan ortiq sharh va hoshiyalar yozilib, ushbu mazhabning tarqalishi yo‘lida ta’sirchan manba sifatida xizmat qilib kelgani hammaga ma’lum.

Shuningdek, «Al-Hidoya»ning fors, ingliz va rus tillariga tarjima qilinib, g‘arb olimlari uchun ham mazhabimizni o‘rganish uchun ahamiyatli manba sifatida qo‘llanilayotgani bizni quvontiradi.

Imom Burhoniddin Abul-Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Fargoniy al-Margʻinoniy 1123 yil-da Margʻinon shahrining Rishton tumanida tugʻilib, 1197 yilda Samarqandda olamdan oʻtgan.

Margʻinoniy oʻz oilasi tarbiyasida oʻsib, eng mashhur va iqtidorli olimlardan dars olib, yuksak isteʼdodi va izchil faoliyati tufayli hanafiya mazhabi boʻyicha buyuk faqih va mujtahid darajasiga koʻtarildi va shayxul-islom laqabiga sazovor boʻldi.

Fiqh ilmining ahamiyatini chuqur tushungan Burhoniddin al-Margʻinoniy oʻz farzandlarini ham ushbu sohada tarbiyalab kamolga etkazdi. Uning avlodlari va shogirdlaridan quyidagilar mashhur:

Oʻgʻli: Imoduddin ibn Burhoniddin al-Margʻinoniy yetuk faqih va sheʼriy isteʼdod egasi boʻlgan.

Umar Nizomuddin ibn Burhoniddin al-Fargʻoniy. «Islom enstiklopediyasi» va «Kashfuz-zunun»da koʻrsa-tilishicha, «Al-Favoid» va «Javohirul-fiqh» nomli kitoblar uning qalamiga mansubdir. Ikkinchi kitobning bir qoʻlyozma nusxasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining nodir qoʻlyozmalar fondida R. 9533 raqami ostida saqlanmoqda. Muallif uni «Muxtasarut-Tahoviy», «Muxtasarul-Jassos», «Xizonatul-fiqh» va boshqa bir qator hanafiya mazhabining muhim manbalaridan toʻplab olib, «Hidoya» asari asosida tartibga solgan.

Muhammad AbulfathJaloluddin al-Fargoniy. Al-Margʻinoniyning nevarasi Abulfath Zaynuddin Abdur-rahim ibn Imoduddin al-Fargʻoniy Samarqandda yashab, ilmiy ishlar bilan shugʻullangan. Manbalarda yozilishicha, u 1253 yilda Samarqand shahrida sud mahkamalariga doir «Al-Fusulul-imadiya» nomli asar yozgan.

Burhoniddin al-Margʻinoniy yoshligidanoq tinimsiz ilm oʻrgandi va oʻz davrining hanafiya mazhabi boʻyicha buyuk faqihi (huquqshunosi) darajasiga koʻtarildi. Uning fiqh ilmi boʻyicha bunday yuksak darajaga koʻtarilishiga quyidagi omillar sabab boʻldi.

Birinchiidan, u oliy isteʼdod, oʻtkir tafakkur egasi va ilmu fan shaydosi edi. Fanga qiziqish uni uzoq safarlarga chorlab, oʻsha davrning asosiy fanlarini oʻzlashtirishi uchun imkon yaratib berdi. Avvalambor, fikd ilmini oʻz otasidan, undan keyin Imom Bahouddin Ali ibn Muhammad ibn Ismoil al-Asbijobiydan (vaf. 535) oʻrgandi (Asbijob – hozirgi Sayram). Uning mashhur ustozlari Abdulaziz Margʻinoniy, «Qozixon fatovosi»ning muallifi Faxruddin

Abulmafohir Hasan ibn Mansur O'zgandiy (1196), «Al-Aqoidun-nasafiya» kitobi va fiqh ilmi bo'yicha yuzga yaqin asarlar muallifi Najmuddin Abuhafs Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy (1143), As-Sadru-sh-shahid Hisomuddin Umar ibn Abdulaziz ibn Umar ibn Moza (1140) va As-Saraxsiyning shogirdi bo'lmish Abu Amr Usmon ibn al-Bayqandiy edi. Marg'inoniy Abu Iso at-Termiziyning «Al-Jomi'» asaridagi hadislarini al-Qurashida zikr etilgan isnodlar bilan (isnod – hadislarining birovga nisbat berilishi) Abu Muhammad Said ibn Asaddan va al-Hasan ibn Ali al-Marg'inoniydan o'qib eshitgan. Turli manbalarga binoan, u o'z ustozlaridan ancha yuqori darajalarga ko'tarilgan edi.

Ikkinchidan, u yashagan davr Sharq uyg'onish davrining birinchi bosqichi bo'lmish IX–XII asrlarga, ya'ni O'rta Osiyoda jamiyat taraqqiyoti uchun huquqshunoslik ilmiga katta zarurat tug'ilgan bir davrga to'g'ri keldi. Fiqh ilmi bo'yicha u yozgan asarlar, ayniqsa, «Hidoya» kitobi o'sha davr huquqiy muammolarini yechib berishga qaratilgan edi.

Uchinchidan, Marg'inoniyning imomi A'zam Abu Hanifa Nu'mon ibn Sobit asos solgan hanafiya mazhabi, ya'ni huquqiy maktabiga mansubligi ham uning o'sib kamolot cho'qqisiga ko'tarilishi uchun katta omil bo'ldi. Negaki, Abu Hanifa shariatning uchta asosiy manbai (Qur'on, sunna, ijmo)dan keyin, to'rtinchi rastional (aqliy) manba, ya'ni qiyosga boshqa mazhablarga nisbatan ko'proq e'tibor qaratgani bilan ajralib turadi. Shuningdek, xalq ichida yoyilib, ularning hayotiga singib ketgan urf-odatlar hanafiy mazhabida huquqiy muammolarni hal qilishda qo'shimcha manba sifatida kengroq ko'lamda qo'llaniladi.

Mazkur omillar, ayniqsa, hanafiya mazhabining ra'y (shaxsiy fikr) va qiyosga tayangani Burhoniddin Marg'inoniyga o'z malakasini oshirib, islom huquqi falsafasining tub mohiyatini anglab olish va bu cheksiz sohada erkinlik bilan fikr yuritish uchun munosib sharoit yaratib berdi. Manbalarda aytilishicha, al-Marg'inoniy o'sha davrda rasm bo'lganidek, o'z o'qiganlarini daftarlarda qayd etib borgan ekan. Lekin ular bizlarga etib kelmagan. Buyuk alloma umrining oxirlarida Samarqandda yashab, ijod etib, 593/1196–97 yili o'sha erda dunyodan o'tgan. Shomiy «Radd-ul-muxtor»da yozishicha, ulug' faqih Samarqanddagi 400 ga yaqin Muhammad otli faqihlar dafn etilgan

Muhammadiylar qabristoni – «Turbat-ul-Muhammadiyyiyn» yonida dafn ztilgan ekan.

Bir qancha tekshiruvchilar tomonidan al-Margʻinoniy vafoti Samarqandda yuz berganligi koʻrsatilgan boʻlsa, turk olimi Shamsuddin Somiy «Qomus-ul-aʻlom»-da bu haqda quyidagicha maʼlumot bergan: «Chingiz xuruj qilgan chogʻlarda u (Margʻinoniy) Buxoroda dars oʻtish bilan shugʻullanar ekan. Buxoro aholisi faqihni ushbu jahongir bilan sulh shartnomasini tuzish uchun oʻz tomonlaridan vakil qilib yubordi. Lekin shartnoma ayrim kishilar tomonidan buzilgani sababli Chingiz shaharga oʻt qoʻyib, aholini qatl etishi jarayonida «Hi-doya» muallifi ham hayotdan koʻz yumgan ekan». Biz bun-day maʼlumotni biron-bir boshqa manbada uchratganimiz yoʻq.

Kotib Chalabiy, Abulhasanot Muhammad Abdulhay Laknaviy, «Hidoya»ning ayrim sharhlovchilari, shuningdek, «Islom ensiklopediyasi» maʼlumotlariga koʻra, quyidagi asarlar Burhoniddin Margʻinoniy qalamiga mansub boʻlib, tekshirishlar orqali ularning qoʻlyozmalari borligi aniqlangan:

1. «Nashru-l-mazhab».
2. «Kitobu tanosukil-xos» («Manosikul-haj»).
3. «Kitob fil-faroiz» (meros boʻyicha).
4. «At-Tajniysu val-maziyd» (Ikkita fatvo majmuasi).
5. «Muxtarotun-navozil» («Majmuunna-vozil»).
6. «Maziydun fi furuʻil-hanafiyya».
7. Imom ash-Shayboniyning muhim asari boʻlmish «Al-Jomi-ul-kabiyr»ning sharhi.
8. «Bidoyatul-mubtadiy».
9. «Kifoyatul-muntahiy» («Bidoya»uchun yozilgan katta sharh).
10. Imom Margʻinoniyning shoh asari boʻlmish «Hidoya» («Bidoyatul-mubtadiy» uchun oʻzi yozgan oʻrtacha sharh).

Muallif «Bidoyatul-mubtadiy»ni Abul-Hasan ibn Ahmad ibn Muhammad Quduriyning «Al-Muxtasar» (ilm ahli orasida «Al-Qudariy» deb shuhrat qozongan) kito-bi va Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniyning «Al-Jomius-sagʻiyr» asariga asoslanib, qisqartirilgan fiqh kitobi sifatida yozib, undagi masayaalarni tartibga solishda tabarruk boʻlsin deb, ash-Shayboniy uslubidan foydalangan. U «Bidoyat-ul-mubtadiy» muqaddimasida bunday deb yozgan edi: «Yoshlik chogʻlarimda fiqh ilmining barcha turlarini oʻz ichiga qamrab olgan hajmi kichik, rejasi keng bir kitob boʻlsa, deb oʻylab yurar edim. Ittifoqan, yoʻllarni bosib oʻtish (safar) jarayonida, al-Quduriy qalamiga mansub «Al-Muxtasar»ni eng goʻzal, moʻjaz

(qisqa) ajoyib kitob deb topdim. Yana, zamonning barcha buyuk olimlari, katta-kichikni «Al-Jomius-sag'iy» kitobini o'rganishga ch'rlaganliklarining guvohi bo'ldim. O'shanda har ikkala asarni birlashtirishni o'z oldinga maqsad qilib qo'yib, zarurat sezilmagan chog'da ular chegarasidan chiqmaslikka qaror qildim va uni «Bidoyatul-mubtadiy» («Boshlovchining boshlang'ich kitobi») deb atadim. Agar bu asarni sharhlashga erishsam, uni «Kifoyatul-muntahiy» deb atagumdir».

Muallif «Bidoyatul-mubtadiy» muqaddimasida aytgan uni sharhlash niyatini amalga oshirish maqsadida, asarning nihoyat qisqaligini nazarda tutgan holda, uning ustidan katta sharh yozib, «Kifoyatul-muntahiy» («Yakunlovchilarni qoniqtiruvchi kitob») deb atadi. Lekin muallif bu bilan o'z oldiga qo'ygan maqsadga erisha olmasdi, negaki, ko'p jildli katta hajmli sharhni o'qib, uning ichidan kerakli masalalarni topib olish, shunday katta kitobni ko'tarib olib yurish ilm toliblari uchun qiyinchilik tug'dirardi. Shunga ko'ra, muallif, o'z niyati va do'stlarining maslahatiga binoan, «Bidoya-ul-mub-tadiy»ni qaytadan o'rtacha andozada sharhlashga kirishadi. 573-yil zulqa'da oyining chorshanba kuni boshlangan ushbu asarni yozish muallif uchun oson kechmadi. Olim Shayx Akmaludstinning yozishicha, rivoyatlarga ko'ra, bu ishga uning 13 yillik hayoti sarf bo'lgan. Muallif yangi asarni yaratish uchun butun kuch va iste'dodini ishga soldi. Abdulhay Laknaviy manbalarga tayanib yozishicha, u 13 yil (asarni yozish muddati) davomida ro'za tutardi. Unga ovqat olib kelgan xodimni jo'natib, taomni sho-girdlaridan biri yoki boshqa biron kishiga edirib, bo'sh idishni qoldirardi. Xodim taomni ustozning o'zi yegandir, deb o'ylab idishni olib ketardi. Shu tarzda, u boshqalarga bildirmasdan ro'za tutaveradi. Chunki ro'za insonga ruhiy kuch bag'ishlaydi va fikrni jamlashga yordam beradi.

Nega 4 jilddan iborat ikkinchi sharhni yozish, ko'p jildli sharh mavjud bo'la turib, buncha og'ir kechdi? Nega uni bitkazish uchun 13 yillik katta mehnat sarflandi? Bizning fikrimizcha, uning sabablari quyidagilardan iborat edi.

Birinchiidan, Imom Muhammad ash-Shayboniy va al-Quduriy asarlaridan qisqartirib olinib, «Bidoyat-ul-mubtadiy»ga kiritilgan asosiy huquqiy masalalarga tegishli minglab far'iy (juz'iy) masalalar mavjud zdi. Ular orasida xalqning amaliy hayotiga bog'liq, davlat va jamiyat oddida ko'ndalang turib, o'z yechimini topmagan juda ko'p

muammolar bor edi. Shu nuqtai nazardan, o'sha davrning o'zgaruvchan sharoitini sinchiklab o'rganish, birinchi o'rinda turadigan muammolarni ikkinchi darajali muammolardan ajratib olib, ularni echish yo'llarini belgilab berish muallifdan katta diqqat-e'tibor, og'ir mehnat, har tomonlama tekshirish va chuqur kuzatishlarni talab qilardi.

Ikkinchidan, Burhoniddin Marg'inoniy fiqh ilmi bosib o'tgan olti davrning (Payg'ambar, sahobalar, tobi'iylar, mujtahidlar, muxarrijlar va mukallid (taqlid etuvchi)lar davrlarining) beshinchi bosqichi bo'lmish muxarrijlar (ulardan ilgari o'tgan mujtahidlar va buyuk huquqshunos olimlar asarlariga murojaat qilish orqa-li, yangi topilgan murakkab huquqiy muammolarning echish yo'llarini topuvchilar) davrida yashagani uchun, to'g'ridan-to'g'ri mustaqil fikr yuritib, erkin ijtihod qilish vakolatiga ega emas edi. Chunki IX X asr boshlarida bundan nari hech kim islom huquqi bo'yicha mustaqil ijtihod qilish vakolatiga ega emas, degan fikr shakllangan edi. Huquqshunoslik bo'yicha kelgusi barcha faoliyatlar, buyuk olimlar tomonidan belgilab berilgan asosiy qonun-qoidalarni izohlash, tafsir etish sohasida bo'lishi kerak, degan qarash mavjud edi. Lekin Muhammad Abdulhay Laknaviy mashhur asari «Al-Favoid al-bahiya»da hanafiy mazhabi olimlarini olti guruhga bo'lib, «Hidoya» muallifi va al-Quduriyni «As-habut-tarjiyh», ya'ni ba'zi rivoyatlarni ba'zilariga tarjiyh berish (ustun qo'yish) salohiyatiga ega bo'lgan olimlar qatorida zikr etgan.

Mazkur sharoitda Marg'inoniy oldida turli mualliflar tomonidan turli asrlarda yozilgan ko'p sonli fatvolar (huquqiy majmualar) tog'dek bo'lib uyulib turardi. Ularda minglab masalalar, ayrim muayyan muammolar bo'yicha o'nlab mulohazalar, hatto bir-biriga qarama-qarshi nazariyalar mavjud edi. Muallif nazarda tutgan huquqiy masalani yoritish uchun, birinchidan, shariatning asosiy manbalari, undan keyin Abu Hanifa, Imom Molik, imom Shofi'iy, Imom Ahmad ibn Hanbalning asarlari, ash-Shayboniyning «Zohirur-rivoya» deb atalgan kitobi, Abu Yusufning «Kitob-ul-xiroj», «AdAbul - qoziy», «Abu Hanifa va Ibn Abilaylo orasidagi ixtiloflar», «Avzo'iy va Anas ibn Molikning ayrim huquqiy masalalar bo'yicha bildirgan fikrlariga yozilgan raddiya» kitoblari, Imom Zufar, Shayxul-islom Ibn Taymiya, Ibnul-Javziya asarlari, shuningdek, ulardan keyin islom huquqi turli sohalarida, turli mazhablar bo'yicha juda qo'p asarlar yozgan yirik

fiqh ilmi mutaxassis olimlari qoddirgan son-sanoqsiz kitoblar va to'plamlarni o'qib chiqib, ularda bildirilgan fikr-mulohazalarni bir-biri bilan solishtirib, eng to'g'ri, eng ma'qul va hayotga mos keladigan xulosalarni chiqarishi kerak edi. Uning o'zi «Hidoya» muqaddimasida bu haqda: «... so'ngra Tangri tavfiqi yordamida, tanlangan rivoyatlar bilan kuchli aqliy dalillarni uyg'unlashtirib, har bir bobda ortiqcha so'zlarni tark etib, ko'p yozishdan o'zimni tiygan holda, «Hidoya» deb atalgan boshqa bir sharhni yozishga kirishdim», – deb aytadi.

Albatta, eng hayotiy va zaruriy rivoyatlarni tanlab olib, ularning to'g'riligini naqliy dalillar bilan isbotlab, mustahkamlash, mumtoz asarlarning matn va mazmuniga chuqur kirib borib, ularning huquqiy asoslarini belgilab olish katta mehnat va izchil ishlashni talab qilardi.

«Hidoya» muallifi nihoyatda muhim va munozarali masalalarni yoritmoqchi bo'lganda sahobalar, mazhablar asoschilari, buyuk faqihlar ismlari, jo'g'rofiy va ta-rixiy joylar, turli toifa va qabilalar nomlarini zikr etadi. Abdulhay Laknaviy o'z muqaddimasida «Hidoya»ning birinchi qismida zikr etilgan sahobalar va to-bi'in ismlari 50 dan ko'proq, toifa va urug'lar nomlari 12 ta, jo'g'rofiy va tarixiy joylar nomi 55 ta ekan-ligini ko'rsatib, ularning har biri haqida qisqacha ma'lumot berib o'tgan. U Marg'inoniy asarida keltirilgan 90 dan ortiq buyuk faqihlar, imomlar, mujta-hidlar, jumladan, mashhur sahobalar va muhaddislar ismlarini va ularga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni zikr etadi. Shunga ko'ra, «Hidoya» muallifining ishi kanchalik og'ir va keng kamrovli bo'lganini tushunish qiyin emas.

Burhoniddin Marganoniy «Hidoya» kitobini yozishda o'ziga xos uslub yaratdi. Uning har bir iborasi nihoyat qisqa va muxtasar, fiqhiy hukmlarni ifodalovchi jumlalarning har biri bir umumiy qoida shaklida beriladi. Uning iboralari mo'jaz, ya'ni qisqa va sermazmun, so'zlari tarkibi puxta, nuqsonsiz bo'lib, sun'iyliqstan uzoq. U ko'p zarurat sezmasa, sinonim (mutarodif) so'zlardan foydalanmaydi. Hashv va zavoidni (kerak bo'lmagan ortiqcha so'zlarni) ishlatmaydi. Uning yozish uslubi «Sahli mumtani'» (oson, sodda, lekin uningdek qilib yozish mumkin emas) darajasiga etadi.

Muallif «Hidoya»ni yozishda o'ziga xos bo'lgan qisqa so'zlar, istilohlar (atamalar) va ixcham iboralarni ishlatadi. Ushbu iboralar «Hidoya» yuzasidan yozilgan ko'p sharh va hoshiyalar mualliflari tomonidan belgilab berilgan. Mazkur manbalarga asoslanib, Hoji Xalifa (Kotib Chalabiy), Shayx Abdulhaq Dehlaviy va Abdulhay

Laknaviy o‘z asarlarida ularni izohlab o‘tganlar. Ulardan ayrimlari quyidagilardan iborat:

«Fi diyorino» («Bizning diyorimizda») deganda, Movarounnahr shaharlarini nazarda tutadi.

«Qola mashoixuno» («Bizning shayxlarimiz [ya’ni ustozlarimiz] debdurlar») deganda, Movarounnahr (Buxoro, Samarqand) olimlarini nazarda tutadi.

«Fiqh» so‘zi bilan esa, aqliy dalilni ifodalaydi. Masalan, «Val-fiqhu fiyhi», ya’ni «ushbu masala haqida aqliy dalil quyidagidek...»

Abu Su‘udning yozishicha, «Hidoya» muallifi o‘z fikrini bildirmoqchi bo‘lganda «Qola al-abdu-z-zaif afo anhu» («Bu ojiz banda - Xudo uni kechirsin - bunday deydi») iborasini ishlatgan. Lekin uning vafotidan keyin ayrim shogirdlari ushbu jumlaning «Qola roziyallohu anhu» («Xudo undan rozi bo‘lsin, bunday deydilar») iborasi bilan almashtirganlar.

Muallif o‘zini xudbinlikdan saqlash maqsadida «Men» so‘zini o‘z fikrini bildirishda ishlatmagan.

Uning odatlaridan biri shuki, nazarida ma’qul ko‘ringan mazhab dalilini asar oxirida keltiradi. Qozizoda Rumiylar laqabi bilan mashhur bo‘lgan Zayniddin Shayx Muhammad Afandi «Natoijul-afkor» kitobida yozishicha, muallif turli mavzular uchun dalil keltirish jarayonida eng kuchli dalilni hammasidan oxirida keltiradi. Bundan uning maqsadi, oxirgi so‘zni ilgari zikr etilgan matnlar uchun dalil sifatida qo‘llashdir.

Muallif ilgari zikr etilgan oyatga «Bimo talavna» («Tilovat qilganimizga binoan»), hadisga «Bimo rovayno» («Rivoyat qilganimizga binoan») va ilgari keltirilgan aqliy, mantiqiy dalilga «Bimo zakarno» («Zikr etganimizga binoan») degan iboralari bilan ishora qiladi. Shuningdek, u «Nass», ya’ni oyat yoki hadis matnida kelgan illat yoki sababni tekshiriladigan masalani isbotlash uchun mantiqiy dalil qilib ishlatadi. U, ko‘pincha, aqliy dalilni, naqliy dalil (oyat, hadis)dan keyin keltiradi. Tug‘ilishi mumkin bo‘lgan savol yoki e’tirozga esa, «Fain qiyla kazo qulna kazo» («agar bunday deyilsa, bunday deb javob beramiz») iborasi bilan javob qaytaradi. U, ko‘pincha, avvalambor, Abu Hanifaning buyuk shogirdlari Abu Yusuf va ash-Shayboniyning nazarini, so‘ngra dalilini keltiradi, un-dan keyin Abu Hanifaning nazarini zikr etib, uning dalilini shunday izohlab o‘tadiki, har ikkalasi uchun javob bo‘ladi. Muallifning yozish uslubi, u

ishlatgan o'ziga xos iboralar va atamalarni yaxshi bilib olish, «Hidoya»ni o'qib, undan foydalanishda katta yordam be-radi.

«Hidoya» kitobining yana bir xususiyati shundan iboratki, unda «Ilmul-xilof» orqali belgilab berilgan qoidalar keng ko'lamda nazarda tutiladi. Chunki Marg'inoniy ushbu fan sohasida ham katta olim va mutaxassis hisoblangan.

«Ilmul-xilof» faniga birinchi bo'lib asos solgan alloma Ubaydullo ad-Dobusiy edi. Burhoniddin Marg'inoniy «Hidoya»da huquqiy muammolarni yechish jarayonida 3 ta asosiy mazhab (hanafiya, molikiya, shofi'iy)gagina emas, balki zohiriya va avzo'iya mazhablariga doir fikru mulohazalarni ham o'rni kelganda tekshirib o'tadi va har biri haqida o'z nuqtai nazarini bildiradi. Hanbaliya mazhabi bilan bo'lgan ixtiloflarni yoritmaydi, chunki aytib o'tilgan mazhablar tomonidan ko'p yillar davomida hanbaliya mazhabi tarafdorlari faqihlar emas, balki muhaddislar sifatida qabul qilingan edi. Ushbu nuqtai nazardan «Hidoya» «Ilmul-xilof»ni keng ko'lamda o'rganish uchun ham muhim va e'tiborli manba hisoblanadi. Ayni holda, uni oxirgi davrda yangi bir fan sifatida yuzaga kelgan «qiyosiy huquq»ning o'ziga xos bir shakli, deb e'tirof etish mumkin.

Marg'inoniy fiqhiy nuqtai nazardan, huquqiy masalalarni izohlash jarayonida, ularning mashru (ravo, qonuniy) yoki nomashru' (noravr, vayriqonuniy) ekan-ligini naqliy dalillardan keyin, aqliy dalillar bilan yoritib o'tadi. Ushbu nuqtai nazardan «Hidoya»ni islom huquqi falsafasi va keyingi davrlarda keng rivojlangan «huquq falsafasi» fanining manbalaridan biri, deb qabul qilsak, to'g'ri xulosa chiqargan bo'lamiz.

Shunday qilib, Burhoniddin Marg'inoniy yozgan to'rt jildli «Al-Hidoya» kitobi sunniylik oqimida hanafiya mazhabi bo'yicha juda muhim va mukammal huquqiy manba sifatida 55 dan ortiq kitob, yuzlab bobu fasldan tarkib topgan bo'lib, meros huquqidan tashqari, islom huquqining boshqa barcha sohalarini qamrab oladi. Burhoniddin Marg'inoniy meros huquqini o'z kitobiga kiritmaganining sababi shundaki, Imom A'zam Abu Hanifa meros muammolarini bir mustaqil fan sifatida fiqh ilmidan ajratib, uni «al-Faroiz» deb atagan.

«Hidoya»ning birinchi jildi tahorat va amaliy ibodatlar (namoz, ro'za, zakot va haj)ga, ikkinchi jildi oila huquqi, qul saqlash muammolari, hudud jazolari (Alloh tomonidan belgilangan jazolar), xalqaro huquq me'yorlari, shirkatchilik, islom huquqiga xos bo'lgan

vaqf huquqi kabi masalalarga, uchinchi jildi muomalot turlari (fuqarolik huquqi) sud, sud jarayoni, to'rtinchi jildi esa, ekinchilik va er muammolari, jinoyat turlari, guvohlik va boshqa ko'p mavzularga bag'ishlangan.

Burhoniddin Marg'inoniyning shoh asari «Al-Hidoya» eng mo'tabar huquqiy qo'llanma sifatida sakkiz asrdan buyon butun islom dunyosi, ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari, Hind yarim oroli, Turkiya va ko'pgina Arab mamlakatlari uchun eng daqiq va ishonarli manbalardan biri vazifasini o'tab kelmoqda.

«Hidoya» Misr Arab Respublikasidagi eng qadimiy dorulfunun «Al-Azhar», Afg'oniston Islom dorulfununi, Hindiston Aligarx universiteti, «Devband» dorul-ulumi, boshqa islom mamlakatlari oliy o'quv yurtlarining ta'limiy nisoblari (o'quv dasturlari)ga kiritilgan. Bu ulug' kitob qonun tuzish tizimini rivojlantirish uchun asosiy manbalardan biri sifatida qo'llanib kelinmoqda. Afg'oniston va Hind yarim orolida Kanz va al-Quduriy kitoblaridan keyin «Al-Hidoya»ni yetuk ustozdan o'tib tamomlamagan tolib, haqiqiy fiqh olimi hisoblanmaydi.

«Hidoya» Sharqiy Hindiston shirkati tasarrufidagi Bengaliya viloyati mahkamalari uchun 1190/1776 yil G'ulom Yahyoxon tomanidan fors tiliga tarjima qilinadi. Ushbu tarjima 1221/1807 yil Kalkutta shahrida chop etilgan. Taajjub joyi shundaki, «Al-Hidoya» birinchi marta arab yoki fors tilida emas, balki Charls Xamel-ton tarjimasi asosida ingliz tilida 1791 yil Londonda nashr etilgan. Ushbu 4 jildli tarjima juda qimmat va noyob bo'lgani uchun 1870 yil S. G. Gariyning nazorati ostida yangidan yaxlit holida bir jildda chop etilgan. Oxirgi marta inglizcha tarjimasi 1982 yil Lohurda bosmadan chiqqan.

N. I. Grodekov «Hidoya»ni inglizcha tarjimasidan rus tiliga o'girgan va mazkur tarjima 1893 yilda Toshkentda nashrdan chiqqan.

Olmoniyalik olim doktor Ekart Shiyvak to'plagan ma'lumotlarga ko'ra, «Hidoya»ning mashhur nashrlari quyidagilardan iborat: arabcha asl matni 1234/1818 yilda Kalkuttada, so'ngra Bombay, Laknov, Kavnpore, Dehlida chop etilgan. Qohirada 19 asrda va 1888 yilda Qozon shahrida bosilgan. Uning birinchi tanqidiy matni 1326/ 1908 yilda Qohira shahrida nashr etilgan va eng yangi intiqodiy matni ham 1980 yilda Qohirada bosmadan chiqarilgan.

«Hidoya»ning ruscha tarjimasini nusxalari kamayib, yoʻqolish darajasiga etgan edi. Shu sababli, asarning birinchi jildi 1994 yili professor Akmal Saidov tomonidan nashrga tayyorlanib «Oʻzbekiston» nashriyotida chop etilishi muhim va xayrli ish boʻldi. Asarning boshqa jildlari nashry ham nazarda tutilgan.

«Hidoya» arab tilidan oʻzbek tiliga taniqli olim S. Muhitdinov rahbarligida bir guruh yosh olimlar tomonidan tarjima qilinib, uning birinchi jiddi prof. A.X.Saidovning katta ilmiy soʻzboshisi bilan 2000 yilda «Adolat» nashriyotida bosmadan chiqarildi.

«Hidoya» faqat islom huquqshunoslari uchun emas, balki Gʻarb huquqshunos olimlari uchun ham juda eʼtiborli huquqiy manba sifatida xizmat qilib kelmoqda. 1958 yili Majid Hadduriy va Hebert J.Lebis tomonidan nashr etilgan «Islomda huquqa nomli kitobning muhim va nozik joylarida «Hidoya»dan foydalanilgan. Kitob mualliflari fikricha: «Burhoniddin Margʻinoniy yozgan «Hidoya» boshqa barcha kitoblarga nisbatan koʻproq va yaxshiroq hanafiya mazhabi huquqshunosligining ken-gayib, rivojlanish yoʻlini, tarixini bayon qilgan. Ushbu kitobni oʻqigan kishi shuni bilib olishi mumkinki, muallif juda koʻp oʻrinlarda, oʻz mustaqil fikru aqidasi ilgari surish va takomillashtirishga uringan. Kitobni yozishdan ham uning asosiy maqsadi shu boʻlgan».

Doktor Zabihullo Safo: «Burhoniddin Margʻinoniyning «Hidoya» kitobi hanafiy faqihlari orasida katta ahamiyat va eʼtibor kasb etib, uning ustidan koʻp sharhlar yozilgan», - deb taʼkidlaydi.

«Hidoya» kitobi oʻzining amaliy va nazariy ahamiyatiga koʻra har doim buyuk faqihlar va islom shariati yirik vakillarining diqqat markazida boʻlib kelgan. Har bir olim unga nisbatan oʻz fikru nazarini bildirishga urinadi. Jumladan, «Hidoya» muallifining oʻgʻli Shayxul-islom Imom Imoduddin otasi haqida ««Hidoya» kitobi uni oʻzlashtirgan kishini hidoyat yoʻliga boshlab, koʻzi ojizlarning koʻzini yoritadi. Ey, akd egasi! Uni oʻqib oʻzlashtirgin, uni oʻzlashtirgan kishi eng oliy gʻoyalarga erishgan boʻladi» mazmunidagi sheʼrni yozgan. Alloma al-Haddod esa, uning ustidan yozgan hoshiyasida ushbu soʻzlarni bitgan ekan: «Qurʻon kitobi qanday qilib oʻzidan ilgarigi dinlarni mansux (bekor) qilgan boʻlsa, «Al-Hidoya» kitobi ham oʻzidan ilgari shariat boʻyicha yozilgan barcha asarlarni eʼtiborsiz qoldirdi».

«Hidoya» asari ustidan keng ko‘lamda tadqiqot ishlari olib borib, unga muqaddima va hoshiyalar yozgan Abul-Hasanot Muhammad Abdulhay Laknaviy «Hidoya» muallifini quyidagi iboralar bilan tanitadi: «Imom al-Marg‘inoniy faqih, Qur‘on hofizi, muhaddis, mufassir, barcha ilmu fanni o‘rganib o‘zlashtirgan iqtidorli ustod, o‘tkir nazar bilan tekshiruvchi va diqqat bilan ish yurituvchi zohid, muttaqiy, mahorat va fazilatlar egasi, usuliy (fiqh usullari ilmini chuqur biluvchi), ilmu adabda misli ko‘rilmagan adib va shoir, ilmul-xilof va mazhab sohalari bo‘iicha yuksak salohiyatga ega bir zot edi».

So‘ngra Laknaviy «Hidoya» kitobi haqida quyidagidek fikr bildiradi: «Men «Al-Hidoya» kitobini, uning sharhlari va «Muxtorotun-navozil»ni o‘qib chiqdim. Marg‘inoniy yozgan asarlar, ayniqsa, «Al-Hidoya» maqbul va ishonarlidir, negaki, bugunga qadar ham, barcha fozil kishilar va huquqshunoslar uchun foydalanish manbai bo‘lib kelmoqda».

Yuqorida zikr etilgan fikrlar va boshqa ko‘p tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan ijobiy baholar «Al-Hidoya» kitobining qanchalik ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi borasida qoniqarli dalildir.

Shofi‘iya mazhabining ba‘zi bir namoyandalari «Al-Hidoya» muallifini, ayrim e‘tiborga ega bo‘lmagan hadislardan foydalangan, deb tanqid qilganlar. Lekin tadqiqotchilar, jumladan, Muhammad Abdulhay al-Laknaviy: «Bunday yondashuvlarga Marg‘inoniyning yuksak maqomi va buyuk olimligidan xabarsizlik sabab bo‘lgan», – deb ta’kiddagan. Shayx Muhyiddin Abdulqodir (vaf. 775 h.) ibn Muhammad al-Qurashiy al-Misriy, «Al-Hidoya» kitobida keltirilgan hadislarni taxriy qilib, ya’ni hadislar matni to‘g‘ri ekanligi va roviylarining ishonarli ekanligini isbotlab berib, uni «al-Inoya bima‘rifati ahodiysil-Hidoya» deb atagan. Shuningdek, shayx Alouddin «Al-Kifoya fi ma‘rifati ahodisil-Hidoya» nomli kitobida, shayx Jamoluddin Abdullo ibn Yusuf Zayla‘iy «Nasburra‘ya li ahodiysil-Hidoya» nomli kitobida mazkur hadislarning sahihligini ko‘rsatib berganlar. Oxirgi asarni ibn Hajar Asqaloniy kishqartirib, «Ad-Diroya fi muntaxabi ahodisil-Hidoya» deb atagan.

«Hidoya» ham shakl va tuzilish nuqtai nazaridan, ham ichki mazmun jihatidan hanafiya maktabi ta’limotining yorqin namunasi

bo'lgani uchun, keyingi davrlarda ko'p fiqhiy asarlar unga o'xshatib, uning uslubidan foydalanish asosida yozilgan.

Hindistonlik olim Aziz Ahmad «Hindistonda is-lom tafakkuri tarixi» nomli asarida ta'kidlashicha, hanafiya fikri Hindiston bo'yicha, G'iyosuddin Tug'luq davrida, hadislarga asoslangan hukmlarga nisbatan us-tun turgan, o'lkani idora qilish qonunlari Qur'onga va Hindistonning sobiq sultonlari rusumlariga tayangan holda, butunlay hanafiy mazhabi ta'siri ostida bo'lib, uning o'g'li va o'rinbosari Muhammad ibn Tug'luq «Hidoya» kitobi haqida komil ma'lumotga ega bo'lgan.

Shuningdek, muallif bergan ma'lumotlarga ko'ra, ushbu davrda yaratilgan ikki katta huquqiy asar, ya'ni «Fiqhi Feruzshohiy» hamda Totorxon tashviqoti va na-faqasi bilan Olim ibn-Alo tomonidan yozilgan katta hajmli «Fatovoyi Totorxoniy» asarlari Feruz Tug'luq hokimiyati davri (351–1388)da ta'lif etilib, uni yozishda «Al-Hidoya» uslubidan foydalanilgan edi. Muallif so'ziga qo'shimcha qilib aytish mumkinki, Hindistonda undan keyin yozilgan huquqiy asarlar, jumladan, «Fatovoyi Ibrohimshohiy» va yirik huquqiy manba hisoblanmish boburiylar davlatining 4-jiddli huquqiy kodeksi – «Fatovoyi Olamgiriyy»da ham «Hidoya» ta'sirini to'g'ridan-to'g'ri ko'rish mumkin.

Hindistondan tashqari «Al-Fatovoi al-Hindiya» nomi bilan shuhrat qozongan «Fatovoyi Olamgiriyy» boburiylar sulolasining iqtidorli imperatori Avrangzeb Olamgir buyrug'iga binoan bir guruh salohiyatli faqihlar tomonidan yozilib, uning shaxsiy nazorati ostida tugatilgan. 4 jidd, 3500 betli hajmga ega bo'lgan ushbu Kodeks, Nizomuddin Burhonpo'riy (Shayx Nizom) rahbarligida 24 kishidan iborat olimlar guruhi tomonidan tayyorlanib, sud ishlarini bajarish va davlatni boshqarish uchun asosiy qonun o'rnida ishlatilgan. «Fatovoyi Olamgiriyy» urdu tiliga tarjima qilinib, 1889 yili Laknahuda nashr etilgan. Shuningdek, bu muhim fatovo 2000 yil Beyrutda «Dorulkutubil-ilmiya» tomonidan «Al-Fatovo al-Hindiya» nomi bilan 6 jildda nashr etildi. Ushbu kodeks qo'lyozmalaridan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida bir necha nusxa mavjud.

Aytilganlardan yaqqol ko'rinib turibdiki, «Hidoya» bugungi kunga qadar islom huquqshunosligi bo'yicha barcha sohalarda o'z ta'sirini o'tkazib kelgan va faqihlarning ko'pchiligi, ularning

mazhablaridan qati nazar, asarga katta e'tibor bilan qaraganlar. Shu sababli, unga bag'ishlab juda ko'p sharhlar yozilib, ba'zan esa asar qisqartirilib, qisqartmasi ustidan ham ko'p sharhlar yozilgan. Birinchi bo'lib Tojush-shari'a Mahmud ibn Sadrush-shari'a Birinchi «Hidoya»ni o'z nevarasi - buxorolik Ikkinchi Sadrush-shari'a Ubaydullo ibn Mas'ud uchun qisqartirgan. Kisqartmasini «Viqoyatur-rivoya fi masoilil-Hidoya» deb atab, uning muqadimmasida «Al-Hidoya» haqida quyidagi fikrni bildirgan: «Al-Hidoya» faxrlanishga arzigulik bir nafis va oliy asar, to'lqinlanuvchi bir ummon, yuksak o'rinli, qimmatli, o'z aniq dalillari va burhonlari bilan katta ahamiyatga ega, cheksiz yaxshi tomonlari va porloq jumalari bilan hammaga fayzu baraka manbai bo'lib kelgan bir kitobdir».

Agar biz «Al-Hidoya»ning qisqartmasi «Al-Vaqoya» va uning qisqartmasi bo'lmish «Muxtasarul-viqoya» ustidan yozilgan ko'p sonli sharhlarni ham nazarda tutadigan bo'lsak, unda «Al-Hidoya» va uning qisqartirilgan matnlari ustidan yozilgan sharhlar soni 50 dan oshadi. Ammo atamalar, nomlar, joylar, ayrim e'tirozlar va savollarga oydinlik kiritish va javob berish maqsadida yozilgan hoshiyalar va matn iboralari ostida berilgan izohlar haqida ham so'z yuritmoqchi bo'lsak, alohida tadqiqot olib borish zarurati tug'iladi.

Qur'oni karimdan keyin islom huquqining asosiy manbalaridan biri bo'lmish sunna sohasida to'plangan Imom Buxoriyning «Al-Jomi' as-sahih» kitobi ustidan, Brokkelman «Arab adabiyoti tarixi»da yozishicha, 43 sharh yozilgan. Ahlvardning yozishicha, faqatgina Berlindagi qo'lyozmalar ro'yxatiga uning 60 ta sharhi kiritilgan. Shunga binoan aytish mumkinki, al-Buxoriy asaridan keyin al-Marg'inoniyning «Al-Hidoya»si eng ko'p sharhga ega bo'lgan asardir. Bu esa «Hidoya»ning qanchalik buyuk ilmiy-amaliy va hayotiy ahamiyatga molik ekanining inkor etib bo'lmaydigan dalillaridandir.

Endi e'tiboringizni Burhoniddin Marg'inoniyning shogirdlaridan biri bo'lmish Burhonul-islom az-Zarnujiy, o'zining «Ta'limul-mutallim» nomli kitobi-da, undan rivoyat qilgan bir qit'a she'r va bir qisqa so'z tarjimasiga jalb etamiz:

«Buyuk imom, ustoz, «Al-Hidoya» muallifi menga quyidagi she'rlarini o'qigan edilar:

Obro' va e'tiborsiz olimdan katta fasod kelib chiqadi. Undan ham kattaroq fasod manbai obidlik va zohidlik da'vosini qilgan kishidur.

O‘z dinlari bo‘yicha ularga ergashgan dunyo ahli buyuk fitnalarga duchor bo‘lg‘usidurlar.

Shuningdek, ustoz menga bunday degan edilar: «Hech qachon ilm o‘rganish ishida uzilish yuz bermasligi kerak, negaki, bu katta yo‘qotishga olib boradi. Men ilm o‘rganish jarayonida hech qachon uzilishga yo‘l qo‘ymaganim sababli barcha safdoshlarimdan o‘zib o‘tdim».

Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar

1. Abul al Mu‘iyn an-Nasafiy islom ilohiyoti, falsafasi, kalom ilmini rivojlantirgan alloma.

2. Mahmud az-Zamahshariy Xorazm zaminida jahon fani va madaniyati rivojiga munosib hissa qo‘shgan alloma.

3. Burxonuddin al-Marg‘inoniy (1123-1197 y.y.) O‘rta Osiyodagi buyuk fiqhshunos alloma.

4. Mustaqillik yillarida allomalar tavallud sanasining keng jamoatchilik tomonidan nishonlanishi.

9 –MAVZU. MIRZO ULUG‘BEK , ALI QUSHCHINING , ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HAYOTI VA FAOLIYATI

Reja

1. Mirzo Ulug`bek va uning Samarqand ilmiy muhitini shaklanishidagi roli.
2. Mirzo Ulug`bek ilmiy merosining dunyoga yoyilishi va bugungi kundagi ahamiyati
3. Ali Qushchiniing hayoti va ilmiy merosi
4. Alisher Navoiy – ulug` mutafakkir shoir, alloma
5. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati

Tayanch so‘z va iboralar: Samarqand madrasasi, ilmiy to‘garak, Sharq madaniyati, ravnaq, madaniy rivojlanish, buyuk siymolar, «Ziji Elxoniy», Jamshid Koshiy, «Ziji Xoqoniy», Ko‘hak tepaligi, Obi Rahmat ari-g‘i

Mirzo Ulug‘bekning hayoti va ilmiy merosi (1394 1449)

Ulug‘bek 1394 yilning mart oyida Eronning g‘arbidagi Sultoniya shahrida, bobosi Temurning harbiy yurishi paytida tug‘ildi. U Shohrux Mirzoning to‘ng‘ich o‘g‘li bo‘lib, unga Muhammad Tarag‘ay ismi berilgan, lekin bolaligidayoq u Ulug‘bek deb atala boshlab, bu ism keyinchalik uning asosiy ismi bo‘lib qoldi. Ulug‘bekning bolalik yillari bobosi Temurning harbiy yurishlarida o‘tdi. 1405 yil Xitoyga qilinayotgan yurish boshida Temur vafot etgach, ikki yil davomida uning avlodlari o‘rtasida taxt uchun kurash davom etdi va bu kurashda Temurning kenja o‘g‘li Shohruxning qo‘li baland keldi. Lekin Shohrux o‘ziga poytaxt qilib Hirotni tanlab, Movarounnahr poytaxti Samarqandni esa o‘g‘li Ulug‘bekka topshirdi. Shunday bo‘lsa ham Shohrux Eron va Turonning yagona xoqoni deb hisoblanardi.

Shohrux to‘ng‘ich o‘g‘li Ulug‘bekni 1411 yili Movarunnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlaydi. Ulug‘bek 17 yoshida hokim bo‘lib, bobosidan farqli o‘laroq harbiy yurishlar bilan qiziqmas, ko‘proq ilm-fanga moyil edi. Afsuski, Ulug‘bekning boshlang‘ich ma‘lumoti va murabbiy hamda ustozlari haqida aniq ma‘lumot saqlanmagan. Ulug‘bek bolalik yillarida buvisi Saroymulk xonim tarbiyasida bo‘lgan. Albatta biz bu ayol o‘zining sevimli nabirasiga o‘quv-yozuvni o‘rgatgani hamda tarixiy mavzudagi hikoya va ertaklarni so‘ylab berganligini taxmin qilishimiz mumkin. 1405–1411 yillarda amir Shoh Malik yosh mirzoning otabegi bo‘lgan. Lekin u Ulug‘bekka asosan harbiy va siyosiy tarbiya bera olishi mumkin edi.

Ulug‘bekning ustozlaridan biri munajjim Mavlono Ahmad bo‘lganligini taxmin qilish mumkin, chunki bu kishi Temurning saroyidagi eng yirik olimlardan bo‘lib, sayyoralarning kelajak ikki yuz yillik taqvimlari jadvallarini tuza olgan. Lekin Ulug‘bekning o‘zi keyinchalik asosiy asari bo‘lmish «Zij» ida faqat Qozizoda Rumiyni «ustozim» deb ataydi. Haqiqatan ham Qozizoda 1360 yillarda tug‘ilgan bo‘lib, 20–25 yoshlarida, ya‘ni Ulug‘bek tug‘ilmasidanoq Temurning safiga o‘tadi. Natijada Ulug‘bek umrining ilk davridanoq Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiyni kabi astronom va matematiklar ta‘sirida ulg‘ayadi. Shu sababli uning hayotida aniq fanlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug‘bek yigirma yoshlarida o‘z davrining yirik olimlaridan bo‘lib, uning hokimligi davridagi muhim yangiliklar butun o‘rta asr madaniyati tarixida ulkan ahamiyat kasb etdi.

Ulug‘bekning xodimi bo‘lmish G‘iyosiddin Jamshid Koshiy 1417 yili Samarqanddan Koshonga otasiga yozgan maktubida Ulug‘bekning faoliyati va bilimdonligini quyidagicha ta’riflaydi: «Allohga va uning ne‘matlariga shukronalar bo‘lsunkim, yetti iqlimning farmonbardori, Islom podshohi donishmand kishidirlar. Men bu narsani odob rasmi yuzasidan aytayotganim yo‘q. Haqiqat shuki, avvalo u kishi Qur‘oni Karimning aksariyat qismini yoddan biladilar. Tafsirlarni va mufasssirlarning har bir oyat haqidagi so‘zlarini aqlda saqlaydilar va yoddan biladilar va arabchada g‘oyat yaxshi yozadilar. Shuningdek, u kishi fiqhdan ancha xabardorlar, mantiq ma’nolarining bayoni va usullaridan ham xabardorlar. U kishi riyoziyot fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan va shunday jiddiy mahorat ko‘rsatganlarki, kunlardan bir kuni otda ketayotib, 818 yil rajab oyining o‘ninchisi va o‘n beshinchi kunlari orasidagi (melodiy 1415 yil 15–20 sentyabr) dushanba kuni yil mavsumining qaysi kuniga munosib kelishini aniqlashni aytadilar. Shunga ko‘ra otda ketayotib, xayoliy hisob bilan Quyoshning taqvimini o‘sha kuni bir daraja va ikki daqiqa ekanligini toptilar. Keyin otdan tushgach, hisob to‘g‘riligini bu bandai bechoradan so‘rab, aniqlab oldilar. Haqiqatan ham, xayoliy hisobda ko‘p miqdorlarni yodda tutmoq va boshqa miqdorlarni bularga asoslanib topmoq kerak. Lekin insonning yodlash quvvati zaifdir va u daraja daqiqalarini u qadar aniq topolmaydi. Inson bino bo‘lganidan beri shu kungacha hali hech kimsa bu qadar aniq hisoblay olmagan edi. Qisqa qilib aytmoqchimanki, u kishi bu fan sohasida g‘oyat katta mahoratga erishganlar, yulduzshunoslikka taalluqli amallarni yaxshi bajaradilar va chuqur dalillar bilan xuddi keragidek isbotlaydilar. «Tazkira» va «Tuhfa» dan shu qadar zo‘r dars o‘tadilarki, ularga hech qanday qo‘shimcha qilishning hojati qolmaydi». Ulug‘bekning ilmga qiziqqanligi va mamlakatning ravnaqini ko‘zlaganligi tufayli yangi usuddagi bilim yurti – maktab va madrasalar barpo qilishga qaror qilib, deyarli bir vaqtning o‘zida Samarqand, Buxoro va G‘ijduvonda uchta madrasa barpo etadi. Samarqanddagi madrasa qurilishi 1417 yili boshlanib, uch yilda nihoyasiga yetkaziladi. Tez orada Ulug‘bek madrasaga mudarris va olimlarni to‘play boshlaydi va shu tariqa uning Samarqanddagi astronomik maktabi shakllanadi. Bu maktabning asosiy mudarrislari ilmiy ishlariga qulay sharoit va panoz izlab Temur davridayoq Samarqandga kelgan Taftazoniy, Mavlono Ahmad va Qozizoda

Rumiy kabi olimlar edi. Qozizodaning maslahati bilan Ulug‘bek Xurosonning Koshon shahridan G‘iyosiddin Jamshid Koshiyni chaqirtiradi. Samarqandga Movarounnahrning turli shaharlaridan va Xurosondan to‘plangan olimlarning soni, 1417 yilga kelib 100 dan ortib ketadi. Ular orasida adiblar, muarrixlar, xattotlar, rassomlar, me‘morlar bor edi. Lekin astronomiya va matematika sohasidagi olimlar sharafliroq va obro‘liroq edi. Ular orasida Qozizoda bilan Koshiy eng salobatli va nufuzli edilar. 1420 yili Samarqand madrasasining tantanali ochilishi bo‘ladi. Zayniddin Vosifiy «Badoi’ ul-vaqoi’» kitobida aytishicha, birinchi mudarris etib mavlono Shamsuddin Muhammad Xavafiy tayinlanadi. Madrasada asosiy ma‘ruzalarni Qozizoda, Ulug‘bek, Koshiy va keyinroq Ali Qushchi o‘qiydilar.

Ulug‘bek barpo etgan Samarqand madrasasi va ilmiy to‘garagi Sharq madaniyati va fani tarixida ulkan ahamiyat kasb etdi, mamlakat ravnaqiga, shuningdek, ko‘p xalqlarning madaniy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu yerda ko‘plab buyuk siymolar shakllandi. Jumladan, Xurosonning Jom shahrida 1414 yili tug‘ilgan bo‘lajak ulkan shoir Jomiy Ulug‘bekning Samarqand madrasasida tahsil ko‘rdi. Bu yerda u Qozizoda, Ulug‘bek va Ali Qushchi kabi ulkan olimlarning ma‘ruzalarini eshitdi va ularning tarbiyasida bo‘ldi. Ulug‘bek atrofida to‘plangan Samarqand olimlari katta ahamiyat bergan eng muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri astronomiya fani edi. Islomdagi eng avvalgi astronomik asarlar «Zij» deb atalib, ular asosan jadvallardan iborat bo‘lgan. Ulug‘bekdan avval yozilgan eng mukammal «zij»lar Beruniyning «Qonuni Mas’udiy»si va Nasriddin Tusiyning 1256 yili yozib, Xulashxonga taqdim etgan «Ziji Elxoniy» asari edi. XV asr boshlarida yozilib, Shohruxga atalgan Jamshid Koshiyning «Ziji Xoqoniy» asari asosan xitoy va mo‘g‘ul an‘analariga asoslangan bo‘lib, islom mamlakatlari uchun deyarli ahamiyatta ega emas va ilmiy jihatdan ham ancha sayyoz edi. Movarounnahrda esa mo‘g‘ul istilosidan keyin birorta «zij» yozilmagan edi. Ana shu sabablarga ko‘ra Ulug‘bek eng avvalo astronomik izlanishlarni yo‘lga qo‘yishi, buning uchun rasadxona barpo etishi kerak edi. Bu haqda Abu Tohirxo‘ja bunday xabar qiladi: «Madrasaga asos solinganidan to‘rt yil keyin Mirzo Ulug‘bek Qozizoda Rumiy, Mavlono G‘iyosiddin Jamshid va Mavlono Muiniddin Koshoniylar bilan maslahatlashib, Ko‘hak tepaligida Obi Rahmat ari-g‘ining bo‘yida

rasadxona binosini qurdiradi. Uning atrofida esa baland hujralar barpo etadi». Rasadxona qurilishi 1424 yildan 1429 yilgacha davom etadi. Rasadxona bitishi bilan astronomik kuzatishlar boshlanib ketadi. Rasadxona bilan madrasaning birgaligidagi faoliyati Ulug‘bek ilmiy maktabida astronomiya va matematikani o‘rta asrlar davrida eng yuqori pog‘onaga ko‘tarish imkonini berdi. Davlat ishlari bilan bog‘liq bo‘lgan yurish-ko‘chishlar, rasadxonadagi kuzatishlar va madrasadagi darslar, undan tashqari ilmiy ishlarga umumiy rahbarlik qilish xam Ulug‘bekning ko‘p vaqtini olardi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, bevosita Ulug‘bekning qalamiga mansubligi ma‘lum bo‘lgan ilmiy asarlar soni jihatdan ko‘p emas – ular to‘rtta. Ulug‘bek ilmiy merosining eng asosiysi, ma‘lum va mashhuri uning «Zij»i bo‘lib, bu asar «Ziji Ulug‘bek», «Ziji jadidi Guragoniy» deb ham ataladi. «Zij»dan tashqari uning qalamiga mansub matematik asari «Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola», astronomiyaga oid «Risolayi Ulug‘bek» (yagona nusxasi Hindistonda, Aligarh universiteti kutubxonasida saqlanadi) va tarixga doir «Tarixi arba’ ulus» («To‘rt ulus tarixi») asaridir. Ulug‘bek «Zij»i o‘z tarkibiga ko‘ra VIII–IX asrlarda boshlangan astronomik an’anani davom ettirsa ham ilmiy darajasi ularga nisbatan beqiyos balanddir. Bu asar ikki qismdan: keng muqaddima va 1018 sobita yulduzning o‘rni va holati aniklab berilgan jadvallardan iborat bo‘lib, muqaddimaning o‘zi mustaqil to‘rt qismni tashkil qiladi. Muqaddimaning boshida Qur‘ondan yulduzlar va sayyoralarga taalluqli oyatlar keltiriladi. Ulug‘bek bu bilan astronomik kuzatishlarning zarurligini g‘oyaviy asoslamoqchi bo‘ladi. Muqaddimaning keyingi qismida Ulug‘bek ushbu so‘zlarni bitgan: «So‘ng, parvardigor bandalarining faqiru haqiri, ulardan Allohga eng intiluvchisi Ulug‘bek ibni Shohrux ibni Temur Ko‘ragon bunday deydi...» Bu so‘zlardan ko‘rinadiki, «Zij»ning muallifi Ulug‘bekning o‘zi bo‘lgan. Biroq bu ishda unga yordam berganlarni Ulug‘bek quyidagi so‘zlar bilan odilona taqdirlaydi: «Ishning boshlanishi olimlar allomasi, kamolot vahikmat bayrog‘ini o‘rnatgan, tahlil va tahqiq maslakida bo‘lgan Qozizoda Rumi deb shuhrat qozonmish janobi hazrat Mavloni Saloh al-milla vad-din Musoning, unga rahmat va g‘afrolar bo‘lsun, va hazrat Mavloni A‘zam, olamdagi hukamolarning iftixori, qadimga bilimlarda mukammal, masalalar mushkilotlarini hal etuvchi Mavloni G‘iyos al-mil-la vad-din Jamshid, Alloh taolo uning qabrini salqin qilsun, ikkisining qo‘llashi

va yordamida bo'ldi...Ahvol boshida hazrat Mavlono marhum G'iyosiddin Jamshid: «Ajibu do'i Alloh» chaqirig'ini eshitib, toat bilan ijobat etdi va bu jahon dorulg'ururdan u jahon dorulsururga rixlat etdi. Ish asnosida, hali bu muhim asar bajarilib tugatilmasidan, hazrat ustoz Qozizoda, Alloh taolo uni rahmat qilsin, parvardigor rahmatiga payvasta bo'ldi. Biroq farzandi arjumand Ali ibni Muhammad Qushchi bolalik yillaridan fanlar sohasida ilg'orlab boradi va uning tarmoqlari bilan mashg'ul. Umid va ishonch komilki, uning shuhrati inshoolloh, yaqin zamon va tez onlarda jahon atroflari va mamlakatlarga tarqaladi. Va bu muhim kitob tamomila yozilib bo'ldi. Yulduzlarning sifatlaridan kuzatilgan barcha narsalar imtihon qilinib, bu kitobga kiritilib sobit etildi». Bu keltirilgan katta parchadan ko'rinadiki, Qozizoda Ulug'bekning ustози bo'lgan va «Zij»ning ancha qismi uning ishtirokida yozilgan. Bundan yana shu narsa ko'rinadiki, Ulug'bek Samarqanddagi yana bir yirik olim Jamshid Koshiyni ustoz demaydi, balki uning yoshi Rumiyan katta bo'lgani uchun Mavlonoyi A'zam deyish bilan cheklanadi. Haqiqatan ham, u kishi Samarqandga 1416 yili, ya'ni Ulug'bek 22 yashar navqiron yigit va olim sifatida tanilganda keladi va u rasadxonadagi kuzatishlar boshlanishi bilanoq vafot etadi. Biroq fan tarixidan shu narsa ma'lumki, Koshiy «Zij»ning nazariy qiyemini arab tiliga tarjima etgan va hozir bu tarjimaning nusxalari mavjud. Demak, bundan ko'rinadiki, Ulug'bek avval «Zij»ning nazariy qismini yozgan, so'ng jadval qismi uzoq kuzatishlar natijasida tuzilgan. Koshiy esa nazariy qism yozilishi bilan uni arabchaga ag'dargan va jadvallar ustida ishlar boshlanishida vafot etgan.

Yana bir diqqatga sazovor narsa, bu Ulug'bek Ali Qushchini «farzandi arjumand» deyishidir. Aslida Ali Qushchi uning farzandi emas, shogirdi bo'lib, ilm sohasida ustoziga Abdullatif va Abdulazizlardan, ya'ni o'z farzandlaridan ham sodiq va vafodor edi. Shuning uchun ham Ulug'bek unga o'z o'g'lidek qarar edi va uning yordami bilan «Zij»ni «farzandi arjumand Ali ibn Muhammad Qushchi... ittifoqligida» poyoniga yetkazdi. Endi «Zij»ning mazmuni haqida to'xtalaylik. Asarning birinchi – «Ta'rix, ya'ni xronologiyaning ma'rifati» deb nomlangan maqolasi (kitobi) yetti bobdan iborat bo'lib, u eralar va kalendar masalalariga bag'ishlangan. Bu boblarda islomda qo'llaniladigan asosiy era – hijriy erasi, sur'yoniy-yunoniy erasi, «jaloliy» erasi, xitoy va uyg'ur erasi, forsiy-

qadimiy erasi va bu eralarda keltirilgan sanalarni biridan biriga moslashtirib ko‘chirish hamda bu eralardagi mashhur kunlar haqida bahs yuritiladi. Bundan tashqari ushbu maqolada turkiy muchal yillari haqida ham mufassal bayon etiladi. Ikkinchi – «Vaqtlar va unga taalluqlik nimarsalar» deb nom-langani maqola 22 bobdan iborat. U asosan matematika va sferik astronomiya masalalariga bag‘ishlangan. Ikkinchi va uchinchi boblarda o‘rta asrlar uchun eng aniq bo‘lgan sinuslar va tangenslar jadvallari keltiriladi. Maqolaning to‘rtinchi bobida Ulug‘bek ekliptikaning (falak ul-burj) osmon ekvatoriga (mu‘addal un-nahor) og‘ish burchagining miqtsorini keltiradi. Bu haqda u bunday deydi: «Bizning kuzatishimizcha, eng katta og‘ish (ya’ni ekliptikaning osmon ekvatoriga og‘ishi) burchagini yigirma uch daraja o‘ttiz daqiqa o‘n yetti soniya topdik». Ulug‘bek topgan bu miqdor o‘rta asrlar davri uchun ancha aniq edi. Shuni ham aytish kerakki, bu burchakning miqtsori barcha davr astronomlari uchun katta ahamiyatga ega edi, chunki yoritgichlar va yashash joylarining aniq koordinatlarini topish shu burchak miqdoriga bog‘liq edi.»Zij»ning uchinchi maqolasi 13 bobdan iborat bo‘lib, faqat astronomiya masalalariga bag‘ishlangan. Bunda Quyosh, Oy va besh sayyoraning harakatlari haqida bahs yuritiladi. Asarda keltirilgan jadvallarning aksariyati shu maqolaga taalluqlidir. Bu jadvallar orasida eng ahamiyatga ega bo‘lgani 13-bobda keltirilgan va «Turg‘un yulduzlarning uzunlama va kenglama bo‘yicha holatlarini aniqlash» deb atalgan yudtsuzlar jadvalidir. Ulug‘bek «Zij»ining boshqa «zij»lardan farqini ko‘rsatish uchun shu yerda mazkur jadval boshidagi uning so‘zlarini keltiramiz. U aytadi: «Ptolemeygacha bo‘lgan astronomlar bir ming yigirma ikki yulduzning holatini aniqladilar. Ptolemey esa ularni oltita kattalik bo‘yicha tartiblab, o‘z «Almajistiy»sida keltirdi. Ularning eng kattasi – birinchi kattalikda, eng kichigi esa oltinchi kattalikdadir. Har bir kattalikni u uch qismga ajratdi. Ularni bir-biridan farq qilish uchun qirq sakkiz yulduz turkumiga joylashtirdi. Ularning yigirma bittasi falak ul-burjdan (ekliptika) shimolda, o‘n ikkitasi falak ul-burjda va o‘n beshtasi falak ul-burjdan janubda joylashadi. Bu yulduzlardan ayrimlari shu yulduz turkumlarining o‘zida, ayrimlari esa turkumdan tashqarida joylashadi. Bu keyingilarni yulduz turkumlarining tashqi yulduzlari deb hisoblanadi. Abdurahmon So‘fiy turg‘un yulduzlarni aniqlash to‘g‘risida maxsus kitob yozgan, barcha kishilar unga murojaat

qiladilar va uni qabul etadilar. Biz esa yulduzlarning osmon kurrasidagi holatini kuzatishimizga qadar ular haqida Abdurahmonning kitobidagiga asoslanardik. Biroq o'zimizda kuzatganimizdan keyin ba'zi yulduzlarning holati uning kitobidagiga mos kelmasligini ko'rdik. Alloh bizning kuzatishlarimizga taovun berganidan so'ng, bu yulduzlar va boshqa yulduzlarning holatlari Abdurahmonning aytganiga zid ekanligining shohidi bo'ldik. Biz bu yulduzlarni o'z kuzatishimizga mos kelgan holda kurraga joylashtirganimizda esa kuzatganimizga hech zid kelmaganligini ko'rdik. Biz bunga imonimiz. Biz barcha yulduz turkumlaridagi yulduzlarni kuzatdik. Lekin bundan yigirma yetti yulduz mustasno, chunki ularning janubiy masofalarining kattaligi tufayli ular Samarqandda ko'rinmasdi. Bu Samarqandda ko'rinmaydigan yulduzlardan yettitasi Mijmara («Kurbongoh») yulduz turkumidan, sakkiztasi Safina («Kema») turkumidan – bular 36 nchi yulduzdan 41 nchigacha va 44, 45-yulduzlar; o'n bittasi Kentavrus («Kentavr») turkumidan – bular 27 nchidan oxirigacha va yana bitta Sab' («Hayvon») yulduz turkumidan – bu 10 nchi yulduz. Shu yigirma yetti yulduzni biz kitobimizga Abdurahmon So'fiy sanasi bilan keltiramiz. Qolgan sakkiz yulduz haqida Abdurahmon So'fiy o'z kitobida ularni Ptolemey ko'rgan yerda hech qanday yulduz topmaganligini aytgan. Biz ham har qancha harakat qilsak-da, o'sha joylarda hech qanday yulduzni topmadik. Shuning uchun biz ham u sakkiz yulduzni bu kitobimizda keltirmaymiz. Bu yulduzlar Mumoik al-ainna («Jilov ushlovchi»)ning 14-nchi, Sub'ning 11-nchi yulduzi va Hutdan tashqarida, janubdagi oltita yulduzdir». Keltirilgan parchadan ko'rinadiki, Ulug'bekning yulduzlar jadvali o'rta asrlar davridagi eng nodir va mukammal jadval bo'lgan. Bu parcha Ulug'bek rasadxonasida yulduzlar globusi yasalgan, degan xulosaga ham olib keladi. »Zij»ning oxirgi – «Yulduzlarning doimiy harakati» deb nomlangan to'rtinchi maqolasi ikki bobdan iborat va u asosan ilmi nujumga bag'ishlangan. Ulug'bek «Zij»i o'rta asrlardagi eng mukammal astronomik asar bo'lib, tezda zamondoshlarining diqqatini o'ziga jalb etdi. Eng avval bu asar Samarqandda Ulug'bek atrofida to'plangan olimlar ijodiga ta'sir ko'rsatdi. «Zij»ni o'rganish shuni ko'rsatadiki, u asosan amaliy qo'llanishga mo'ljallangan bo'lib, nazariy masalalarni bayon etishni Ulug'bek oldiga maqsad qilib qo'ymagan. Shuning uchun bo'lsa kerak, «Zij»ni birinchi bo'lib

Samarqand olimlarining o‘zi, xususan Ali Qushchi sharhlaydi. Undan keyingi sharhlarni Miram Chalabiy va Husayn Birjandiylar yozadi.

1449 yili Ulug‘bekning fojiali halokatidan so‘ng Samarqand olimlari asta-sekin Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari bo‘ylab tarqalib ketadilar. Ular o‘zlari borgan yerlarga Samarqand olimlarining yutuqlarini va «Zij»ning nusxalarini ham yetkazadilar. Xususan Ali Qushchi 1473 yili Istambulga borib, u yerda rasadxona quradi. Shu tariqa Ulug‘bek «Zij»i Turkiyada tarqaladi va Turkiya orqali Yevropa mamlakatlariga ham yetib boradi. Hozirgi kundagi ma‘lumotlarga ko‘ra «Zij»ning yuzga yaqin forsiy nusxasi va 15 dan ortiq arabiy nusxasi mavjud. O‘rta asrlarda yozilgan hech bir astronomik yoki matematik asar bunchalik ommaviy va keng ma‘lum bo‘lmagan. «Zij» musulmon mamlakatlarining deyarli barchasida o‘rganilgan va sharhlangan. Uni sharhlagan olimlardan quyidagilarning nomlarini eslatish mumkin: Shamsiddin Muhammad ibni Abul Fath as-So‘fiy al-Misriy (vaf. tax. 1495), Abulqodir ibni Ro‘yoniy Lahijiy (vaf. 1519), Miram Chalabiy (vaf. 1525), Abdulali Birjandiy (vaf. 1525), G‘iyosiddin Sheroziy (vaf. 1542). Ulug‘bek «Zij»i ayniqsa Hindiston olimlariga kuchli ta‘sir ko‘rsatdi. Samarqand olimlarining ilmiy an‘analarini Hindistonga Boburning o‘zi yetkazgan degan ma‘lumot bor. Boburning vorislari o‘tmishdagi shohlarga o‘xshab atroflariga olimlarni to‘playdilar va ularning ilmiy izlanishlariga sharoit yaratadilar. Hind olimlari ko‘p tarafdin Samarqand olimlariga taqlid qiladilar. Masalan, Shoh Jahon avval zamonida Lahor va Dehlida ishlagan Farididdin Mas‘ud al-Dehlaviy (vaf. 1629) «Ziji Shoh Jahoniy» nomli asar yozadi: undagi maqola va boblarning soni xuddi Ulug‘bek «Zij»idagidek va jadvallarning ham ko‘p qismi Ulug‘bekdan olingan. Yirik hind olimi Savoy Jay Sing (1686–1743) ham o‘zining «Ziji Muhammadshohiy» asarini Ulug‘bek «Zij»ining katta ta‘siri ostida yozgan. «Zij»ning G‘arbiy Yevropa faniga ham ta‘siri katta bo‘ldi. Umuman olganda G‘arbiy Yevropa Temur va uning farzandlarini, ayniqsa Ulug‘bekni XV asrdanoq bilardi. Ali Qushchining Istambuldagi faoliyati tufayli Ulug‘bekning olimligi haqidagi xabar ham Yevropaga tarqaladi. 1638 yili Istambulga ingliz olimi va sharqshunosi, Oksford universitetining professori Jon Grivs (1602–1652) keladi. Qaytishida u o‘zi bilan Ulug‘bek «Zij»ining bir nusxasini Angliyaga olib ketadi. 1648 yili avval «Zij»dagi 98 yudduzning jadvalini chop etadi. O‘sha yilning o‘zida

Grivs «Zij»dagi geografik jadvalni ham nashr etadi. 1650 yili esa u «Zij»ning birinchi maqolasining lotincha tarjimasini nashr etadi. Grivs 1652 yili mazkur oxirgi ikki ishni qayta nashr etadi. Yana bir ingliz olimi va sharqshunosi Tomas Hayd (1636–1703) «Zij»dagi turg'un yulduzlar jadvalini 1665 yili forscha va lotinchada nashr etadi. Shunisi diqqatga skzovorki, Hayd Grivsnig ishlaridan butunlay bexabar edi. Demak, «Zij»ning nusxalari qandaydir yo'llar bilan unga ham yetib kelgan. Haydning nashridan 15 yil keyin polyak olimi Yan Geveliy (1611–1687) Dantsigda «Zij»ning ayrim jadvallarini nashr etadi. Bundan keyin XVIII va XIX asrlarda qator Yevropa olimlari «Zij»ning ayrim qismlarini nashr etadilar. Frantsuz sharqshunosi L. A. Sediyo (1808–1876) «Zij»ning to'rttala maqolasi oldidagi so'zboshilari va muqaddimasining frantsuzcha tarjimasini 1847–1853 yillarda) nashr, etadi. Va nihoyat, XX asr boshlarida amerikalik olim E. B. Nobl «Zij»ning Angliya kutubxonalarida saqlanadigan 28 qo'lyozmasi asosida yulduzlar jadvalining inglizcha tarjimasini nashr etadi (Vashington, 1917). Shunday bo'lishiga qaramay Ulug'bek «Zij»i umuman olganda to'liq ravishda o'rganilmagan va biror zamonaviy tilga to'la tarjima etilmagan. 1994 yili Ulug'bek tavalludining 600 yilligi munosabati bilan «Ziji jadidi Guragoniy»ning birinchi bor to'lig'icha rus tiliga tarjimasini bosib chiqarildi. Shu yili yana Ulug'bekning «Tarixi arba' ulus» asari xam o'zbek tilida Toshkentda nashr etildi

Alouddin Ali ibn Muhammad al-Qushchning hayoti va ilmiy merosi

Vafoti 1474

Ali qushchi o'z davrining Batlimusi deb tanilgan Ali Qushchining to'liq nomi Alouddin Ali ibn Muhammad al-Qushchi bo'lib, u Samarqandda tug'ilib o'sgan va XV asrda ilmiy faoliyat ko'rsatgan matematik va astronomlardandir. Uning tug'ilish sanasi ma'lum bo'lmasada, XIV asr oxiri yo XV asr boshida tug'ilgan deb taxmin qilinadi. U Ulug'bek saroyidagi Muhammad ismli ovchi qushlarga qarovchi bir kishining o'g'li bo'lib, shu sababli unga Qushchi laqabi berilgan. U otasidan yetim qolganidan so'ng Ulug'bekning tarbiyasida bo'lgani bois, Ulug'bek uni o'z «Zij»ining so'zboshisida «farzandi arjumand» deydi. Ali Qushchi boshlang'ich va

shar'iy bilimlarni Samarqand olimlaridan, matematik va astronomik bilimlarni esa Qozizoda Rumiy bilan Ulug'beqdan oladi.

Bir ma'lumotga ko'ra, u yoshligida beruxsat Samarqanddan g'oyib bo'ladida, Kermonda biroz muddat mahalliy olimlardan bilim o'rganadi va yana Samarqandga, Ulug'bek huzuriga qaytib kelib, uzr so'raydi, Kermonda yozgan oygagag shakllariga taalluqli eng birinchi asarini unga taqdim etadi. Ulug'bek 1424 yili o'zining mashhur rasadxonasiga asos soladi, ish boshlanishi bilanoq Jamshid Koshiy, bir necha yildan so'ng Qozizoda Rumiy ham vafot etadi. Shunda Ulug'bek rasadxonadagi qurilish ishlariga va astronomik kuzatishlarga yosh olim Ali Qushchini mutasaddi qilib qo'yadi. Ali Qushchi umrining ko'p qismini Samarqandtsa o'tkazadi. Faqat 1449 yili Ulug'bek o'ldirilib, mirzolar o'rtasida ro'y bergan nizodan afsuslanib, asta-sekin bu yerda ilmiy ishlarni to'xtatishga majbur bo'ladi, lekin ulardan haj safariga ruxsat olishga muyassar bo'larkan, bu yerdan Ozarbayjonga ketib, biror muddat Tabrizda turadi. U yerda uni mahalliy hokim Uzun Hasan o'z saroyiga taklif qilib, unga nisbatan katta hurmat va ehtirom izhor etadi. Ali Qushchi hajni bajo keltirgan yo keltirmagani haqida ma'lumotga ega emasmiz. Lekin u o'z safarining pirovardida Usmonli sulton Abul Fotih Sulton Muhammad II ning saroyiga keladi. Sulton uni juda iliq qabul qilib, o'ziga yaqin tutib, doimiy yashash uchun Istambulda qolishni taklif etadi. Ali Qushchi bu taklifni qabul etadi va sultonning ruxsati bilan yana Tabrizga qaytib borib, u yerda turgan ikki yuzga yaqin qarindosh-urug'lari va yaqinlarini Istambulga olib keladi. Sulton uni juda zo'r dabdaba bilan kutib oladi. Ali Qushchi 1472 yil bahoridan boshlab kundalik 200 aqcha moyana bilan Ayya Sofiya madrasasiga bosh mudarris etib tayinlanadi. Uning qarindoshlari va yaqinlari ham o'zlariga munosib vazifalarga tayinlanadilar. Ali Qushchining tug'ilgan yili aniq bo'lmasa ham, o'lgan sanasi juda aniq. Bu sana uning qizi tarafidan nabirasi bo'lmish Miram Chalabiyning ushbu forsiy misralarida keltirilgan:

Rahnamoyi ilm mavlono Ali Qushchi,

Chun bisuyi ravzayi rizvon biraft:

Bud zi hijrat hashtsadu haftodu no'h,

Ruzi shanba haftumi sha'bon biraft.

Ma'nosi:

Ilm-fan rahnamosi mavlono Ali Qushchi,

Jannat gulzori sari yuzlangan vaqt:
Hijratdin sakkiz yuz yetmish to‘qqizinchi yil,
Shanba kuni sha’bonning yettinchi kuni.

Bu yerda keltirilgan hijriy 878-sana, melodiy 1474 yil 17 dekabriga to‘g‘ri keladi. U Istambuldagi Abu Ayyub Ansoriy maqbarasida dafn etilgan. Ali Qushchining ilmiy asarlari Ulug‘bek «Zij»idek shuhrat qozonmagan bo‘lsa ham, uning ijodi fan tarixida nihoyatda muhim o‘rin tutadi. U o‘rta asrlardagi Movarounnahrda rivoj topgan aniq fanlar sohasidagi buyuk olimlarning eng so‘nggi namoyandasi bo‘lishi bilan birga Usmonli turklardagi birinchi eng yirik va ko‘zga ko‘ringan olim bo‘lgan. Hozirgi zamon turk tarixchilarining e‘tirof etishicha, Istanbulga Ali Qushchi kelguniga qadar «ilmi hay’atda u daraja bir sohib vuqufi mavjud bo‘lmagan edi». Istanbulga Ali Qushchi kelishi bilan bu mamlakatda qisqa muddat ichida astronomiya fani sohasidagi ishlar yo‘lga qo‘yiddi va pirovard natijada Miram Chalabiy va boshqa atoqli zotlar yuzaga keldi. Lekin u Istanbulda kam vaqt bo‘lgani bois bu yerda yirik ishlarni amalga oshirishning imkoni bo‘lmadi. Lekin shu qisqa muddat ham va umuman uning Istanbulga kelishining o‘zi ham nafaqat Usmonli turk fani tarixida, balki dunyo fanida muhim bir voqea bo‘ldi. Chunki Usmonli turklar 1453 yili Istanbulni fath etganidan so‘ng biroz o‘tmay bu shahar Sharq va G‘arb madaniyatlarining uchrashuv joyi bo‘lib qoldi. Ma’lumki, o‘sha davrda Yevropada Sharq fani va madaniyatiga qiziqish juda katta bo‘lib, Yevropa Sharqning ilmiy yutuqlarini chanqoqlik bilan o‘ziga singdirayotgan edi. Istanbulga Italiya, Germaniya, Avstriya va Gollandiyadan rassomlar, muhandislar, harbiy mutaxassislardan tashqari astronomiya va matematika mutaxassislari ham to‘plangan edi. Xususan, Germaniyadan hisobdon «kossistlar» kelgan edi. Birinchi bo‘lib Samarqand olimlarining yutuqlaridan ana o‘shalar bahramand bo‘ldilar. Shu tariqa Ulug‘bek va uning «Zij»i haqidagi xabarlar melodiy XV asr oxiridayoq Yevropaga yetdi. Bunda esa Ali Qushchining xizmati kattadir.

Ali Qushchining qalamiga mansub asarlar quyidagilardir:

1. «Risola fi-l-hisob» («Hisob haqida risola»). Asar fors tilida 1425 yili Samarqandda yozilgan. U uch qismdan iborat: o‘nlik hisoblash tizimi, oltmishlik hisoblash tizimi va handasa. Ali Qushchining bu risolasi o‘rta asrlarda keng tarqalgan bo‘lib, nafaqat

Movarounnahr olimlarining, balki butun Yaqin va Oʻrta Sharq olimlarining diqqatini oʻziga jalb qilgan. Chunonchi, yozilganidan 150 yilcha keyin Bahouddin Omuliy (1547–1621) oʻzining «Xulosat ul-hisob» nomli asarini yozganida undan foydalangan. Risolaning qoʻlyozmalari Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida, Tojikiston poytaxti Dushanbe shahridagi Firdavsiy nomli kutubxonada, Sankt-Peterburgda, Rusiya akademiyasi kutubxonasida, Mashhadda imom Rizo kutubxonasida, Istambuldagi (Turkiya) Ayya Sofiya kutubxonasida va Oksford (Angliya) universiteti kutubxonasida saqlanadi.

2. «Risolai kusus» («Kasrlar risolasi»). Bu asar ham Samarqandda fors tilida 1426 yili yozilgan. Bu risolaning qimmatini shundaki, unda Ali Qushchi oʻnlik kasrlar tushunchasini va oʻnlik kasrlar yordamida irratsional kvadrat ildiz chiqarish usulini bayon etadi. Risolaning yagona nusxasi Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

3. «Risola al-fathiya» («Gʻalaba risolasi»). Asar turk sultoni Muhammad II ning Iroq sultoni Azim ustidan gʻalaba (fath) qilgani munosabati bilan 1473 yili Istanbulda yozilgan va astronomiyaga bagʻishlangan. Asarning qoʻlyozmalari Mashhadda imom Rizo kutubxonasida, Istanbulda Ayya Sofiya kutubxonasida, Tehron universiteti kutubxonasida, Kembrij universiteti kutubxonasida, Britaniya muzeyida, Berlindagi Germaniya davlat kutubxonasida, Dehlidagi Hindiston universiteti kutubxonasida va Bombay kutubxonasida saqlanadi.

4. «Risola al-Muhammadiya fi-l-hisob» («Hisob haqida»). Asar arabiy imlodagi yozilgan hisobga doir eng nodir asarlardan boʻlib, turk sultoni Muhammad II ga bagʻishlangan. Unda oʻnlik va oltmishlik hisoblash tizimlaridan arifmetika, algebra, geometriya va trigonometriya masalalari koʻriladi. Asarni muallifning oʻzi 1472 yili forsiyga agʻdargan. Risolaning muhim taraflaridan biri shundaki, unda birinchi marta «musbat» va «manfiy» iboralari hozirgi biz qoʻllayotgan maʼnoda ishlatiladi. Risolaning ikki qoʻlyozmasi Istanbulda Ayya Sofiya kutubxonasida va Leyden universiteti kutubxonasida saqlanadi.

5. «Risola fi halla ash-shakl al-hilol» («Hilolsimon shakllarni oʻlchash haqida risola»). Arabiy imlodagi yozilgan risola, qoʻlyozmasi saqlanmagan.

6. «Sharhi Miftoh al-ulumi Taftazoniy» («Taftazoniyning «Miftoh al-ulum»ining sharhi»). Fors tilida yozilgan risola. Unga mashhur Qozizoda Rumiylar sharh yozgan. Birgina qo‘lyozmasi Mashhaddagi imom Rizo kutubxonasida saqlanadi.

7. «Risola dar ilmi hay‘at» («Astronomiya ilmi haqida risola»). Asar «Risola dar falakiyot», «Risolayi forsiya dar hay‘at» va «Hay‘ati forsiy» nomlari bilan ham ma‘lum bo‘lib, fors tilida bitilgan. Risolada Samarqand maktabi olimlarining astronomiya sohasida erishgan yutuqlaridan guvohlik beruvchi qator ma‘lumotlar mavjud. Ali Qushchining shogirdlaridan biri Abulqodir ibn Hasan Ro‘yoniy (vafoti 1520) risola haqida bunday deydi: «Men astronomiyaga doir ko‘p asarlarni o‘rgandim, Shamsiddin al-Koshiy, Husaynshoh Samoniy, Nosiri Sheroziy va Alishoh Xorazmiylarning «zij»larini sinchiklab mutolaa qildim. Lekin Ali Qushchining risolasini o‘qiganimdan so‘ng astronomiya sohasidagi barcha anglamagan narsalarim menga ayon bo‘ldi». Bu risolaning qo‘lyozmalari O‘zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida, Sankt-Pererburgdagi ommaviy kutubxonada, Parij milliy kutubxonasida, Mashhaddagi imom Rizo kutubxonasida, Oksford universiteti kutubxonasida, Britaniya muzeyida, Kembrij universiteti kutubxonasida, Berlinda Germaniya davlat kutubxonasida va Istambulda Ayya Sofiya kutubxonasida saqlanadi.

8. «Sharhi «Ziji Ulug‘bek» («Ulug‘bek «Zij»iga sharh»). Sharh ham «Zij»ning o‘zi kabi fors tilida yozilgan. Uni avval Jamshid Koshiy va Qozizoda Rumiylar boshlagan edi. So‘ng sharhni Ali Qushchi Istambulda yakunladi. Bu sharhning qo‘lyozmalari Tehron universiteti kutubxonasida, Leyden universiteti kutubxonasida, Parij Milliy kutubxonasida hamda Sankt-Peterburg, Dushanbe, Mashhad, Istambul va Angliyadagi kutubxonalarda saqlanadi.

9. «Sharhi risolai «Tuhfai shohiya» («Shohiy tuhfa» risolasining sharhi»). Mashhur matematik va astronom Qutbiddin Sheroziyning (vafoti 1311) risolasiga sharh, forsiy tilda yozilgan. Qo‘lyozmalari Ayya Sofiya, Oksford universiteti va boshka kutubxonalarda saqlanadi.

10. «Sharhi risolai «Sullam as-samo» («Sullam as-samo» risolasiga sharh»). Bunda Ali Qushchi o‘zining Samarqanddagi ustodlaridan biri bo‘lmish Jamshid Koshiyning «Sullam as-samo»

nomli astronomik risolasiga sharh bergan. Qo‘lyozmalari G‘arbiy Yevropa va Turkiya kutubxonalarida saqlanadi.

11. «Xitoyнома». Bu risolani Ali Qushchi 1438 yili Ulug‘bek tomonidan Xitoyga elchilikka yuborilganidan qaytganidan so‘ng fors tilida yozgan. U o‘zining shaxsiy kuzatishlariga ko‘ra Xitoyning iqdimi, tabiati, xitoyliklarning urf-odatlarini bayon etgan. Undan tashqari bu asarda matematika, geografiya bilan birga olam xaritasi ham keltirilgan.

12. «Risolai mantiq» – 1430 yili Samarqandda, fors tilida yozilgan risola. Yagona qo‘lyozmasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

13. «Sharhi tajvidi Xoja» («Xoja «Tajvidi»ning sharhi»). Asar mashhur astronom, matematik va faylasuf Xoja Nasiriddin Tusiyning (1201–1274) falsafaga doir «Tajvid» nomli asariga sharhdan iborat. Uni bo‘lajak olim 1417 yili Kermondaligida yozgan bo‘lib, uning qalamiga mansub ilk asar edi. Asarning qo‘lyozmalari Britaniya muzeyida, Mashhaddagi imom Rizo kutubxonasida, Istambulda Ayya Sofiya kutubxonasida, Tehron universiteti kutubxonasida, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida va Sankt-Peterburgdagi ommaviy kutubxonada saqlanadi.

14. «Risola al-Mufradiya». Arab tilidagi risola, mantiqqa bag‘ishlangan. Yagona qo‘lyozma nusxasi Leyden kutubxonasida saqlanadi.

15. «Mahbub ul-hamoyil fi kashfil masoyil» («Masalalarni hal qilishning mahbub bo‘lganlari haqida»). Risola arab tilida yozilgan bo‘lib, 20 bobdan iborat. Har bir bob alohida fanga bag‘ishlangan. Birgina qo‘lyozmasi Tehron universiteti kutubxonasida saqlanadi.

16. «Risola muta’olliqa bi kalimat at-tavhid» («Tavhid kalimasiga aloqador risola»). Arab tilida yozilgan ilohiyotga doir risola. Ko‘lyozmalari Berlin, Rim va boshqa shaharlardagi kutubxonalarda saqlanadi.

17. «Risola tata’llaq bi kunya» («Umumiyatga aloqador risola») arab tilida yozilgan falsafiy asardir.

18. «Risola al-istiorot». Arab tilida yozilgan mantiqqa doir risola. Ikki qo‘lyozmasidan biri Leyden universiteti kutubxonasida, ikkinchisi Sankt-Peterburg ommaviy kutubxonasida saqlanadi.

19. «Sharh ar-risola al-Azudiya» («Al-Azudiya» risolasiga sharh»). «Al-Azudiya» risolasi aslida Izziddin ibn Abdurahim ibn

Ahmad Ijiy (vafoti 1335) tomonidan arab tilida yozilgan bo‘lib, uni Ali Qushchi sharhlagan. U tilshunoslikka mansubdir. Qo‘lyozmalari Leyden universiteti kutubxonasida, Sankt-Peterburg ommaviy kutubxonasida, Parij Milliy kutubxonasida, O‘zR FA Sharqshunoslik institutida, Istambulda Ayya Sofiya kutubxonasida va Oksford universiteti kutubxonasida saqlanadi.

20. «Al-unut va zavahir fi nazmil javohir» arab tilida yozilgan mantiqiy risola. Ayya Sofiya va Leyden kutubxonasida ikki qo‘lyozmasi saqlanadi.

21. «Risola al-mujas fit-tibb» («Tibbiyotga mansub mo‘jaz risola»). Arab tilida. Birgina qo‘lyozmasi Ayya So‘fiya kutubxonasida saqlanadi.

22. «Sharh risola al-fiqh» («Fiqh haqidagi risolaning sharhi»). Bu asar islomdagi to‘rt mazhabdan biri bo‘lmish «Imomi A‘zam» mazhabiga asos solgan mashhur imom Abu Xanifa Nu‘mon ibn Sobit tomonidan yozilgan «Al-fiqh» risolasiga sharhdir. Asar arab tilida yozilgan va islom huquqshunosligiga taalluqlidir. Qo‘lyozmaning birgina nusxasi Qozon universiteti kutubxonasida saqlanadi.

23. «Risola fi hall al-misol al-handasa» («Geometriyaga doir bir masalaning yechilishi haqida risola»). Arab tilida yozilgan bu asarda muallif aylanaga o‘tkazilgan urinma hosil qilgan burchak haqida bir teoremani isbotlaydi.

Ali Qushchining butun hayoti va ijodi fan yo‘lida sarflandi. U o‘z asarlari bilan va ustozlari Ulug‘bek bilan hamkorligi tufayli o‘z nomini tarix sahifalariga abadiy kiritdi.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning hayoti va ilmiy merosi (1441- 1501)

XV asr jahon ma‘naviyatining buyuk siymosi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hijriy 844 yil ramazon oyining 17-kuni (1441 yil 9 fevral) da Hirotida tug‘ilgan. Hirot shahri XV asr birinchi yarmida Sohibqiron Amir Temur asos solgan ulug‘ saltanatning ikkinchi poytaxti, Temurning kenja o‘g‘li Shohrux Mirzoning qo‘l ostidagi obod manzillaridan biri edi. Alisher tug‘ilgan xonadon Temuriylar saroyiga azaldan yaqin va yurtida muayyan nufuz sohibi edi.

Bo‘lg‘usi shoirning otasi G‘iyosiddin Muhammad o‘g‘lining tarbiyasiga jiddiy e‘tibor berdi. Alisherning she‘riyatdagi ilk ustozlari tog‘asi Mir Sayyid Qobuliy va Muhammad Ali G‘aribiylardir. Navoiy

«Majolis un-nafois» asarida Qobuliy haqida: «Yaxshi tab'i bor erdi, turkchada mayli ko'proq erdi...» – desa, G'aribiy haqida: «Xush muxovara (xushsuhbat) va xushxulq va dardmand yigit erdi. Ko'proq sozlarni yaxshi chalar erdi. Uni va usuli ho'b erdi. Musiqiy ilmidin ham xabardor erdi...» – deydi.

1447 yilda Shohruh vafot etgach, Temuriy shahzodalar o'rtasida toj-taxt dardi xuruj qilib, yurtda taloto'p boshlandi va G'iyosiddin Muhammad xonadoni ham ko'p qatori vatanni tark etdi. Yosh Alisher uchun taqdir sinovlari boshlandi. Shohruxning nabirasi Abulqosim Bobur 1452 yilda Hirot taxtiga o'tirgach, Alisherning otasini Sabzavorga hokim etib tayinladi. Lekin oradan ko'p o'tmay G'iyosiddin kichkina dunyodan ko'z yumdi. Bu paytda Alisher endigina 12 yoshga qadam qo'ygan edi. Abulqosim Bobur Alisher va uning maktabdosh do'sti Husaynni o'z tarbiyasiga oldi, 1456 yili esa o'zi bilan Mashhadga olib ketdi. Keyinchalik Husayn Boyqaro sipohiylik yo'lini tanladi, Alisher esa zamonaning «malik ul-kalom»i Mavlono Lutfiy tahsini va hayratiga sazovor bo'lgan iste'dod egasi bo'lib yetishdi.

«Faqirning nazmlari Xurosonda shuhrat tutib erdi», deb yozadi Navoiy 1455–1458 yillar haqida. Taqdir Alisher Navoiyni zamonaning ulug' va sharaflı kishilariga yaqin qildi, ustoz-murabbiylik etuvchi zotlar bilan oshno etdi. 1466–1468 yillar Alisherning umri asosan Samarqandda kechdi. Sulton Husayn Boyqaro Hirotni egallaganda, Alisher Navoiy 28 yoshli mukammal bilimlar egasi, yurtga tanilgan shoir va tajribali davlat arbobi darajasiga yetishgan edi. 1469 yilda Sulton Husayn iltimosiga ko'ra Alisher Navoiy Samarqanddan Hirotga qaytadi va ramazon hayiti munosabati bilan do'sti sharafiga bitilgan «Hiloliya» qasidasini unga taqdim etadi.

Husayn Boyqaro Alisherni muhrdor qilib tayinlaydi va shu paytdan shoirning el xizmatidagi faol jiddu jahdi boshlanadi. Ko'p o'tmay Navoiy muhrdorlikni o'zining yaqin do'sti va fikrdoshi, shoir Amir Shayxim Suxayliyga topshiradi. «Bu nozikta'b va zukko Amir 20 yildan ortiq Boyqarog'a mulozim bo'ldi». Lekin Boyqaro do'stining noroziligiga ham qaramay, 1472 yil fevralida uni vazir lavozimiga tayinlaydi va «Amiri Kabir» («Ulug' Amir») unvonini beradi. Bu lavozimda Navoiy el-ulus manfaati, shahar va mamlakat obodonchiligi, madaniyat ravnaqi, adolat tantanasi uchun

foydalanadiki, bularning barchasi oqibat natijada Sulton Husayn davlatining barqarorligi va nufuzini ta'minlaydi. Hirot bu davrda nihotyada ko'rkamlashdi, xalq turmushi yaxshilandi, she'riyat, nafis san'atlar rivoj oldi. Talabalar uchun «Ixlosiya» madrasasi, darveshlar uchun «Xalosiya» xonaqohi, bemorlar uchun «Shifoiya» shifoxonasi, masjidi Jome' yoniga Qorixona («Dor ul-huffoz») qurildi. Ulug' amirning kutubxonasida 70 dan ortiq xattot va musavvirlar qo'lyozmalarni oqqa ko'chirish, ularni badiiy bezash bilan band edilar. Hirotda yana «Nizomiya», Marvda «Xusraviya» va boshqa madrasalar bino etildi. Navoiy madrasa, shifoxonalar qurdirib qo'ya qolmasdan, ularni kerakli darajada jihozlash, o'z-o'zini ta'minlash uchun vaqf yerlar ajratib berish, mudarrislar, tabiblar va boshqa xodimlar bilan ta'minlash, ularga oylik maosh, ozuqa, kiyim-bosh belgilashgacha, talabalar nafaqasi va kitoblarigacha, barcha-barchasini mukammal boshqarib, tashkil etib berar edi va o'zi doimo xabar olib, nazorat qilib turishni ham unutmasdi. Binolar qurilishi tarhi bilan bevosita shug'ullanar, usta va shogirdlar mehnatidan boxabar bo'lib turardi. Shoir o'z huzuriga tez-tez she'r, ilm va san'at axdini chorlab, ma'rifiy suhbatlar uyushtirib turar, yosh iste'dodlarni tarbiyat qilib, ularga sharoit yaratardi. Xondamir, Behzod, Vosifiy va o'nlab ushbu tarbiyatga noil bo'lgan iste'dod egalari shular jumlasidandir. Shu davr ichida Alisher Navoiy o'z qo'li bilan birinchi devoni «Badoyiul-bidoya» («Badiiylik ibtidosi»)ni tuzdi. Bu devonga uning yoshlik va yigitlik paytlarida yozgan 800 dan ortiq she'rlari jamlangan bo'lib, shoir ijodiy kamolotining birinchi bosqichini aks ettiradi.

Alisher Navoiyga bag'ishlangan tarixiy va ilmiy asarlarda batafsil tavsif qilinishicha, 1469–1481 yillar Alisher Navoiyning ijtimoiy hayot va obodonchilik borasidagi eng faol xizmat ko'rsatgan yillari bo'lgan. Shoir 1481 yili «Vaqfiya» asarini yozib, unda o'zining binokorlik va xayriya ishlariga yakun yasab, o'z-o'ziga hisob bergan.

Navoiy dehqonchilik ishlarini yo'lga qo'yib, juda yaxshi natijalarga erishgan. Tarixchilarning yozishicha, Navoiyning bir kunlik daromadi 18 ming shohruxiy dinor miqdorida edi. Ulug' Amir bu daromadning ko'p qismini xayrli ishlarga sarf qilgan. Tarixchi Xondamir Navoiy qurgan 52 rabot, 20 hovuz, 16 ko'prik, bir qancha to'g'on, ariq, hammom, masjid-madrasalarni eslaydi. Navoiy turli soha olimlariga homiylik qilib, o'nlab ilmiy risolalar bitilishiga bevosita sababchi bo'lgan. 1483 yildan Alisher Navoiy o'zining buyuk

«Xamsa» asarini yozishga kirishdi va uni uch yilda tugalladi. Besh dostonni o‘z ichiga olgan bu ulkan badiiy qomus 50 ming misradan oshiq bo‘lib, Navoiyning barcha she‘riy merosini deyarli yarmini tashkil qiladi. «Xamsa» – Alisher Navoiy ijodining qalbidir.

Fors tilidagi birinchi «Xamsa» buyuk shoir Nizomiy Ganjaviy (1141–1209) tomonidan yaratildi. Shoir hech bir o‘rinda o‘zining «Xamsa» yozganligini qayd etmaydi. Nizomiy vafotidan 100 yil o‘tib, Hindistonda tug‘ilib o‘sgan forsiyzabon turk o‘g‘loni Xusrav Dehlaviy Nizomiy «Xamsa»siga birinchi bo‘lib tatabbu yozadi va «xamsachilik» an‘anasini boshlab beradi. Dehlaviy «Xamsa»si Nizomiyga ajoyib sharh va undagi mazmunlarning yangicha talqini sifatida o‘zining ham, salafining ham shuhratini olamga yoydi.

Keyingi XIV–XV asrlar mintaqa ma‘naviyati «Xamsa» an‘anasi ta‘sirida rivoj oldi, shoirning salohiyati va iqtidori hech bo‘lmaganida «Xamsa»ning bir dostoniga munosib javob yoza bilish bilan o‘lchanadigan bo‘ldi. Bu jahon ma‘naviyati tarixida betakror hodisadir. Turkiy adabiyotda Qutb va Haydar Xorazmiylar boshlab bergan «xamsachilik» an‘anasi o‘zining kamolini Alisher Navoiy ijodida topdi.

Islom aqidalariga ko‘ra bir kecha-kunduzda o‘qiladigan besh vaqt namoz «al-Xamsatu» deyiladi, dinimizning besh ustuni (rukni) ham – tavhid (imon), namoz, ro‘za, zakot, haj – o‘ziga xos «Xamsa» (beshlik)ni tashkil etadi. Demak, Nizomiy dostonlarini «Xamsa» turkumi sifatida talqin etilishi, unga Amir Xusrav va Navoiy javoblari bejiz emas. Alisher Navoiy «Saddi Iskandariy» dostonining muqaddima qismida bu masalaga maxsus to‘xtalib, «Xamsa»ning har bir dostoni yozilishini kunning ma‘lum vaqtlarida o‘qiladigan sahar, peshin, asr, shom va xufton namozlari bilan qiyos etadi hamda «Xamsa»ni buyuk tog‘ cho‘qqisiga ko‘tarilish mobaynida besh o‘rinda to‘xtab, nafasni rostlash uchun bino etilgan besh oromgohga o‘xshatadi. Navoiy o‘z «Xamsa»sini yaratishga 1483 yilda kirishgan bo‘lsa, o‘ning birinchi dostoni «Hayrat ul-abror» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi»)ni o‘sha yili yozib tugatdi. 1484 yilda «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab‘ai sayyor» («Etti sayyor»), 1485 yilda «Saddi Iskandariy» («Iskandar devori») dostonini poyoniga yetkazdi. Shoir o‘z «Xamsa»siga kiritilgan dostonlarda o‘sha davr uchun muhim bo‘lgan muammolarni qo‘ydi, mutafakkir sifatida ilg‘or qarashlarni ilgari surdi, o‘zbek tilining qudratini olamga

namoyish etdi. Navoiyning turkiycha «Xamsa»sining yaratilishi XV asrda Xuroson eli uchun favqulodda shodumonlik va saodat sifatida qabul qilindi. Davrning ikki qutbi – ma’naviyat piri Jomiy va buyuk sulton Husayn Boyqaroning hayrati va yuksak e’tirofi ushbu haqiqatga dalildir.

Navoiy shu yillar orasida ikkinchi devoni – «Navodir un-nihoya» («Behad nodirliklar»)ni tuzishga kirishdi. Mutafakkir adib tarixiy haqiqatga ham muayyan izchilliqda o‘z munosabatini biddirib o‘tishni insof yuzasidan lozim topdi va «Zubdat ut-tavorix» («Tarixlar qaymog‘i») asarini yozib tugatdi. 1487 yili qishda Navoiy Astrobod hokimi etib tayinlandi. Boshqa bek va amirlar uchun sharafli xisoblanishi joiz bo‘lgan bu martaba Amir Alisherning nozik tabiati uchun muayyan darajada ozorli bo‘ldi. Ammo shoh hukmi vojib, Amiri Kabir o‘lkaning xassos bir xududini muhofaza va obod qilish niyatida jo‘nab ketdi. Astrobodda Navoiyning ikki yil chamasi hokimligi bu shahar ahli uchun saodatli, Boyqaro saltanati uchun xayrli bo‘ldi. Bu orada birin-ketin Navoiyning eng yakin ustoz va musohiblari hayotdan ko‘z yumdilar. 1488 yili Sayid Hasan Ardasher, 1492 yili Abdurahmon Jomiy, 1493 yili Pahlavon Muhammad vafot etdi. Navoiy ustozlari xotirasiga «Holoti Sayid Hasan Ardasher», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Xamsat ul-mutahayyirin» («Besh hayrat») asarlarini shu yillar ichida yozib tugalladi. Bu asarlarida o‘sha davr voqeligaga oid qimmatli ma’lumotlar bilan birga Navoiy yaratgan yangi badiiy olamning nazariy asoslariga oid bir qator dalil va mulohazalar ham bayon etilgan. Shu yillarda yana Navoiy davr shuarosi xususida «Majolis un-nafois» va islom ma’naviyatining buyuk siymolari, xususan, turk, fors, hind mashoyixlari tarixiga oid «Nasoim ul-muhabbat» («Muhabbat shabbodasi») risolalarini yozadi. Bu asarlar nihoyatda muhim manba bo‘lib, o‘sha davr ma’naviyatining jonli siymolaridan mingga yaqin kishi haqida qimmatli ma’lumotlarni o‘zida jam etgan. Bundan tashqari nafaqat tasavvuf irfoni va adabiyoti, balki islom davri ma’naviyatining boshqa muhim jihatlari haqida ham ko‘plab nazariy mulohazalar ushbu asarlar qatidan joy olgan bo‘lib, ularni mufassal tadqiq etish milliy ma’naviyatimizni xolis anglab yetishda bugungi avlodlar uchun benazir manba va asos bo‘lib xizmat etadi.

1492 yilda aruz ilmiga bag‘ishlangan «Mezon ul-avzon» (Vaznlar o‘lchovi») risolasi yozildi va shoir o‘z lirik ijodini qayta

taqsimlab, yangi devonlar majmui «Xazoyin ul-maoniy» («Ma'nolar xazinasi»)ni yaratish ishiga astoydil kirishdi. «Chor devon» nomi bilan shuhrat qozongan bu buyuk majmua 45 ming misraga yaqin turli janrlardagi kichik va o'rta hajmli she'rlarni o'zida jamlagan bo'lib, «G'aroyib us-sig'ar» («Bolalik ajoyibotlari»), «Navodir ush-shabob» («Yigitlik davri nodirliklari»), «Badoye' ul-vasat» («O'rta yosh kashfiyotlari»), «Favoyid ul-kibor» («Keksalikdagi foydali mulohazalar») nomlari bilan ataladi. Bu to'rt jildda 16 janrga oid 3000 dan ortiq she'r bo'lib, ularda 2600 g'azal, 210 qit'a, 133 ruboiy, 86 fard, 52 muammo va boshqalar mavjud. «Xazoyin ul-maoniy»ga oldingi ikki alohida devondagi she'rlarning deyarli barchasi kirgan bo'lib, keyin yaratilgan 1400 ga yaqin yangi asarlar qo'shilgan. Bu turkiy tilda yozilgan asarlari, dostonlari, she'rlaridan tashqari Navoiy fors tilida ham 12 ming misradan oshiq she'r, muammo janri haqida «Mufradot» risolasini, «Sittayi zaruriya», «Fusuli arbaa» turkum qissalarini yozdi, «Foniy» taxallusi bilan alohida devon tuzdi. Ushbu asarlar Xoqoniy, Amir Xusrav, Sa'diy, Hofiz, Kamol Xo'jandiy, Jomiy kabi fors adabiyotining mumtoz namoyandalari bilan ijodiy bahsda tug'ilgan bo'lib, ham badiiy ifoda, ham mazmuniy teranliqda salaflar bilan teng qudrat namoyish etadi.

Navoiy 1498 yilda «Lison ut-tayr», 1499 yilda «Muhokamat ul-lug'atayn», 1500 yili «Mahbub ul-qulub» asarlarini yozdi. Bu uch asar buyuk shoir va mutafakkir ijodining avj nuqtalari edi. Adib «Muhokamat ul-lug'atayn» da o'zining butun ijodiy yo'lini sarhisob qilib, turkiy tildagi she'riyatning qudratini ta'kidlagan. Unda, jumladan, quyidagi ma'lumot bor: «Chun «Lison ut-tayr» ilhomi bila tarannum tuzupmen, qush tili ishorati bila haqiqat asrorini majoz suratida ko'rguzupmen». Alisher Navoiy go'daklik chog'laridan tasavvuf she'riyatining ustodi Farididdin Attor yaratgan «Mantiq ut-tayr» asariga mehr qo'ygani bizga ma'lum. Umrining oxirida ushbu asarga tatabbu – javob yozar ekan, o'zining shungacha yozgan barcha asarlariga falsafiy yakun yasaydi. Attor asari Borliqning yagona mohiyati haqida, Haq asrori va inson uchun uni anglab yetish imkon darajasi haqida edi. «Lison ut-tayr» mazmuni «Mantiq ut-tayr»ga zid yoki undagi fikrlarning takrori ham emas, balki yangi tarixiy-ma'naviy bosqichdagi sharhi, talqinidir.

Attorning qushlar tilidan yozilgan dostonida irfoniy ehtiros nihoyatda jo'shqindir. Navoiy esa bosiq voqeaband tasvirga urg'u

beradi, qushlar sarguzashtida va ichki hikoyalarda hayotiylikni kuchaytiradi. Bu bejiz emas. Oxirgi xulosada Navoiy salafiga qaraganda olg'a ketadi, masala mohiyatini teranroq his qiladi va badiiy tasvirni ham shunga munosib yaratadi. Nihoyat Navoiy oxirgi asari «Mahbub ul-qulub» («Ko'ngillarning sevgani») risolasida barcha savollarga yana o'zi javob bergan. Bu asar tom ma'noda ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g'oyalarga to'liq bo'lib, XV asrda mavjud bo'lgan barcha ijtimoiy toifalar mohiyati mufassal ochib berilgan, ijtimoiy va axloqiy hodisalarning o'zaro bog'liqligi, yaxlitligi ishonarli ta'kidlangan. Bu asar turli aforizm, maqol va matnlarga boy bo'lib, xalq orasida juda keng tarqalgan.

Alisher Navoiy o'zi va salaflari – Nizomiy, Dehlaviy, Hofiz, Iroqiy va boshqalar yaratgan mustaqil badiiy tafakkur tarzini «majoz tariqi» deb nomladi va unda Haq asrori «majoz suvratinda» aks etishini ta'kidlagan. Bu Borliqni o'ziga xos idrok etish tarzi Naqshbandiyaning: «Dil ba yoru dast ba kor», qoidasiga muvofiq bo'lib, unda ibrat, ilm, irfon va amal bir nuqtada birlashar va yangi dunyoga ko'z ochardi. Tavhid ta'limoti va e'tiqodini idrok etishning eng yuqori bosqichi bo'lgan bu dunyoqarash tizimi «Xamsa» va «Lison ut-tayr» asarlarida, shoir lirikasida badiiy in'ikosini topgan. 1500 yillarga kelib shoirning hayot sharoiti qiyinlashib, sog'ligi zaiflashib qolsada, ijoddan to'xtamadi. 1501 yilning boshida Navoiy kasallikdan vafot etdi. Butun Hirot xalqi o'zining buyuk shoiri bilan xayrlashishga chiqdi va 7 kun davomida motam tutdi. Navoiy o'z ijodi bilan o'zbek adabiyotining so'nggi rivojini belgilabgina qolmay, Movarounnahr va Xurosonning butun ma'naviy madaniyati taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Uning asarlari, she'riyati qayta-qayta ko'chirilib, xalq orasida keng tarqalib, shoirlar uchun maktab vazifasini o'tadi, madrasalarda keng o'rganildi.

Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ilmiy merosi (1483 – 1530)

Zahiriddin Muhammad Bobur o'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo'lsa, serjilo o'zbek tilida yozilgan

«Boburnoma» asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Uning nafis gʻazal va ruboiylari turkiy sheʼriyatining eng nodir durdonalari boʻlib, «Mubayyin» («Bayon etilgan»), «Xatti Boburiy», «Harb ishi», Aruz haqidagi risolalari, Islom qonunshunosligi, sheʼriyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa boʻlib qoʻshildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yilning 14 fevralida Andijonda, Fargʻona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga keldi. Bu davrda Markaziy Osiyo va Xurosonda turli hokimlar, aka-ukalar, togʻa-jiyanlar, amakivachchalar oʻrtasida hokimiyat – ulugʻ bobolari Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik kilish uchun kurash nihoyat keskinlashgan edi. Adabiyot, nafis sanʼat, tabiat goʻzalligiga yoshligidan mehr qoʻygan Zahiriddin, barcha Temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida yyetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Biroq uning betashvish yoshligi uzoqqa choʻzilmadi. 1494 yili otadan yetim qoldi. 12 yoshida otasi oʻrniga Fargʻona ulusining hokimi etib koʻtarilgan Bobur qalamni qilichga almashtirib, Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, togʻasi Sulton Mahmudxon va boshqa raqiblarga qarshi kurashishga majbur boʻldi.

Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan murosaga kelish uchun unga yon berishga – Fargʻona ulusini ikkiga taqsimlab, yarmini ukasiga topshirishga qaror qildi va oʻzi Samarqand uchun olib borilayotgan kurashga kirishib ketdi. Bir necha yil davom etgan bu kurash qirgʻinbarotdan boshqa biror natija bermadi: unda katta harbiy kuch bilan aralashgan Shayboniyxonning qoʻli baland keldi va Bobur Samarqandni tashlab ketishga majbur boʻldi. 1504 yili Shayboniyxon Andijonni ham qoʻlga kiritgandan soʻng Bobur janubga qarab yoʻl oldi va Kobul ulusida oʻz hokimiyatini oʻrnatdi. 1505-1515 yillarda u Markaziy Osiyoga qaytishga bir necha bor urinib koʻrdi. Ammo bu urinishlardan hech qanday natija chiqmadi. Soʻng oʻz mavqeini yanada mustahkamlash maqsadida, 1519–1525 yillar davomida Hindistonni qoʻlga kiritish uchun bir necha bor janglar olib bordi.

526 yil aprel oyida Panipatda Hindiston sultoni Ibrohim Loʻdi bilan va 1527 yili mart oyida Chitora hokimi Rano Sango bilan boʻlgan janglarda Boburning qoʻli baland keldi. Tarixiy maʼlumotlarning bayon qilishicha, Boburning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim Sulton siyosatidan norozi boʻlgan Panjob

hokimlari ham Boburni qoʻllaganlar va Sikri jangidagi bu gʻalaba Boburga Hindistonda oʻz hukmronligini uzil-kesil oʻrnatish va Boburiylar sulolasini barpo etish imkoniyatini berdi.

Yevropa tarixchiligida «Buyuk moʻgʻullar» nomi bilan «gʻalati mashhur» boʻlgan, aslida «Boburiylar sulolasi» Hindistonda 300 yildan ortiq hukmronlik qildi. Bobur bu gʻalabadan keyin uzoq yashamadi – 1530 yil dekabr oyida Agra shahrida vafot etdi va keyinroq uning vasiyatiga koʻra farzandlari uning xokini Kobulga olib kelib dafn etdilar. Biroq qisqa bir vaqt ichida Bobur Hindistonda siyosiy muhitni barqarorlashtirish, Hindiston yerlarini birlashtirish, shaharlarni obodonlashtirish, savdo-sotiq masalalarini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish, bogʻ-rogʻlar yaratish ishlariga homiylik qildi. Hindistonni obodonlashtirish, unda hozirgacha mashhur boʻlgan meʼmoriy yodgorliklar, bogʻlar, kutubxonalar, karvonsaroylar qurdirish, ayniqsa, uning oʻgʻillari va avlodlari davrida keng miqyosga yoyildi. Hindiston sanʼati va meʼmorchiligiga Markaziy Osiyo uslubining kirib kelishi sezila boshladi. Bobur va uning hukmdor avlodlari huzurida oʻsha davrning ilgʻor va zehni oʻtkir olimlari, shoirlari, musiqashunoslari va davlat arboblari mujassam etgan mukammal bir maʼnaviy-ruhiy muhit vujudga keldi. Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida Javaharlarʼl Neru shunday yozgan edi: «Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi ragʻbatlantirishlar hayotga, sanʼatga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi».

Bobur Hindistonda katta hajmdagi davlat ishlari bilan bir qatorda oʻzining adabiy-badiiy faoliyatini ham davom ettirdi va yuqorida zikr etilgan asarlarini yaratdi. Boburning butun jahon ommasiga mashhur boʻlgan shoh asari «Boburnoma»dir. Maʼlumki, unda Bobur yashagan davr oraligʻida Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlari tarixi yoritilgan. Asar asosan uch qismdan iborat boʻlib, uning birinchi qismi – XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda roʻy bergan voqealarni, ikkinchi qismi – XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, yaʼni Afgʻonistonda roʻy bergan voqealarni; uchinchi qismi – XVI asrning birinchi choragidagi Shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga bagʻishlangan.

«Boburnoma»da oʻsha davrning siyosiy voqealari mukammal bayon qilinarkan, oʻz yurti Fargʻona viloyatining siyosiy-iqtisodiy

ahvoli, uning poytaxti Andijon shahri, Markaziy Osiyoning yirik shaharlari: Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, O'sh, Urganch, O'ratepa, Termiz va boshqa shaharlar haqida nihoyatda nodir ma'lumotlar keltirilgan. Unda Kobul ulusining yirik shaharlari Kobul, G'azna va ular ixtiyoridagi ko'pdan-ko'p tumanlar, viloyatlar, Shimoliy Hindiston xaqida ma'lumotlarni uchratish mumkin.

«Boburnoma»ni varaqlarkanmiz, ko'z oldimizdan Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalqlariga xos bo'lgan fazilat va nuqsonlar, ularning tafakkur olamini kengligi va murakkabligi bilan birga, o'sha davrdagi hayot muammolari, Bobur davlatidagi siyosiy va ijtimoiy hayotning to'liq manzarasi namoyon bo'ladi. «Boburnoma»da keltirilgan bu tarzda ma'lumotlar Bobur davrida yozilgan boshqa tarixiy manbalar: Mirxond, Xondamir, Muhammad Solih, Binoiy, Muhammad Haydar, Farishta, Abul-Fazl Allomiy va boshqa tarixchilarning asarlarida bu darajada aniq va mukammal yoritilgan emas. Muallif «Boburnoma»da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Behzod, Ulug'bek Mirzo va boshqa allomalar haqida o'zining eng yuqori fikr va mulohazalarini bildiradi.»Boburnoma» – Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron xalqlarining XV asr oxiri – XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o'zida aks ettirgan bo'lsa ham, shu bilan birga juda ko'p dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy masalalar, yuqorida nomlari keltirilgan viloyatlarning o'zaro siyosiy-iqtisodiy va savdo munosabatlari, jug'rofiy mavqei, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi, tog'lari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlari va ularning yashash sharoitlari, urf-odatlarini, muhim tarixiy inshootlari – hindular va musulmonlarning ibodatxonalarini, to'y va dafn marosimlari haqida nihoyatda nodir ma'lumotlarni o'ziga qamrab olgan shoh asardir. Shu bois «Boburnoma» tarixiy va adabiy meros sifatida dunyo olimlarini hayratda qoldirib kelmoqda. Uzoq yillar davomida G'arb va Sharqning mashhur sharqshunos olimlari «Boburnoma» mazmunini jahon jamoatchiligiga yetkazish borasida katta faoliyat ko'rsatdilar. Masalan, gollandiyalik olim Vitsen, angliyalik olimlar J. Leyden, V. Erskin, R. Koldekot, A. Beverej, T. Albot germaniyalik Yu. Klaynrat va A. Keyzer, frantsiyalik Pave de Kurteyl, hindistonlik Mirzo Nasriddin Haydar Rizvi, turkiyalik R. R. Art va N. I. Bayur va bizning davrimizdagi frantsiyalik olim Bakke Gromon, afg'onistonlik olim Abulhay Habibiy, pokistonlik olimlar Rashid Axtar, Nadvi va Shoh

Olam Mavliyot shular jumlasidandir. «Boburnoma»ni o‘rganish sohasida jahonning mashhur sharqshunoslari qatoridan yaponiyalik olimlar ham joy olmoqdalar.

Ma’lumki, Boburning tarixiy, ilmiy va adabiy merosini o‘rganish va ommalashtirishda O‘zbekiston, Tojikiston, Rusiya olimlarining faoliyatlari ham diqqatga sazovordir. XIX–XX asrlar davomida Georg Ker, N. Ilminskiy, O. Senkovskiy, M. Sale, Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, V.Zohidov, Ya. G‘ulomov, R.Nabiyev, S.Azimjonova, A.Kdyumov kabi olimlarning sa’y-harakatlari bilan «Boburnoma» bir necha bor rus va o‘zbek tillarida chop etildi, ularga so‘zboshi yozildi va keng kitobxonlar ommasining ma’naviy mulkiga aylantirildi, uning she’rlari ham bir necha bor nashr etildi.

Bobur o‘zbek adabiyotida o‘zining nozik lirik asarlari bilan ham mashhurdir. Uning hayoti va adabiy faoliyati Movarounnahrda siyosiy hayot nihoyat murakkablashgan feodal guruhlarning boshboshdoqlik harakatlari avjiga chiqqan va Temuriylar davlatining inqirozi davom etayotgan bir davrga to‘g‘ri kelgan edi. Bunday murakkabliklar in’ikosini «Boburnoma»da ko‘rgan bo‘lsak, ularning shoir ruhiyatida qanday aks etgani uning she’rlarida namoyon bo‘ladi. Movarounnahrni birlashtirishga urinishlari natija bermagach, Bobur ruhan qiynalgan, amaldorlarning xiyonatlari ta’sirida umidsyzlikka tushgan kezlardagi kayfiyati she’rlarida aks etgan. Keyinchalik o‘z yurtini tark etib, Afg‘oniston va Hindistonga yuz tutganda Bobur she’riyatida Vatan tuyg‘usi, Vatan sog‘inchi, unga qaytish umidi mavj ura boshladi.

 Tole’ yo‘qki jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
 Har ishnikim, ayladim xatolig‘ bo‘ldi,
 O‘z yerin qo‘yib Hind sori yuzlandim,
 Yorab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Shu bilan birga Bobur lirikasida she’riyatning asosiy mazmuni bo‘lgan insoniy fazilatlar, yor vasli, uning go‘zalligi, unga cheksiz muhabbat va hijron azobi, ayrilig‘ alamlari va visol quvonchlari nihoyat go‘zal va mohirona ifoda etilgan.

 Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sarg‘ardim,
 Ko‘rub rahm aylagil, ey lola ruh, bu chehrai zardim.
 Sen ey gul, qo‘ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
 Ayog‘ingga tushub bargi xazondek muncha yolvordim.

Bobur o‘z lirik she‘rlarida har doim odamlarni yaxshilikka, adolat, insonparvarlikka, yuksak insoniy tuyg‘ularni qadrlashga chaqirdi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko‘rmag‘ay yomonlig‘ hargiz,
Har kimki yamon bo‘lsa, jazo topqusidur.

Bobur lirik she‘rlari va tarixiy «Boburnoma»sidan tashqari islom qonunshunosligi va boshqa sohalarda ham asarlar yaratgan. 1522 yilda o‘g‘li Humoyunga atab yozgan. «Mubayyin» nomli asarida o‘sha zamon soliq tizimini, soliq yig‘ishning qonun-qoidalarini, shariat bo‘yicha kimdan qancha soliq olinishi va boshqa masalalarni nazmda izohlab bergan. «Xatti Boburiy» deb atalgan risolasida arab alifbosini turkiy tillar, xususan o‘zbek tili nuqtai nazaridan birmuncha soddalashtirib berishga harakat qilgan. U, tajriba sifatida «Xatti Boburiy» alifbosida Kur‘oni Karimni ko‘chirgan. Boburning aruz vazni va qofiya masalalariga bag‘ishlangan. «Mufassal» nomli asari ham bo‘lganligi ma‘lum, biroq bu asar bizgacha yetib kelmagan. Bobur o‘zining ma‘lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir va ijtimoiy masalalar yechimiga o‘z hissasini qo‘shgan olim sifatida xalqimiz ma‘naviy madaniyati tarixida munosib o‘rin egallaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar

1. Muhammad Tarag‘ay (Ulug‘bek) Temuriylar hukmdori, ulug‘ mutafakkir alloma.
2. Alouddin Ali Ibn Muhammad al-Qushchi Mirzo Ulug‘bekning sodiq shogirdi va “farzandi arjumandi”
3. Alisher Navoiy ulug‘ mutafakkir shoir, alloma.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur adib, shoir, olim va yirik davlat arbobi.

“SHARQ ALLOMALARI ILMIY MEROSI” FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

Qaysi xalifa davrida Bag’odda ilm-fan, madaniyat tez sur’atlar bilan rivojlandi?

Ma’mun
Amin
Mutazid
Abu Bakr

Farg’oniya qaysi yunalishlarda faoliyat yuritgan/

Barcha javoblar to’g’ri
Matematika
Geografiya
Astronomiya

Sinjar sahrosida 832-833yillar Tadmur va Ar-Raqqa oraligida yer meridiani bir darajasini o’lchashda ishtirok etgan o’rta osiyolik alloma?

al-Farg’oniy
al-Xorazmiy
al-Beruniy
al-Forobiy

Quyidagi allomalardan qaysi biri xalifa al-Ma’munning yaqin odami va maslahatchisi bo’lgan?

al-Xorazmiy
al-Farg’oniy
al-Xorazmiy
al-Beruniy
al-Forobiy

1669-yilda kim Samoviy harakatlar va umumiy ilmi

nujumning arabcha matnini yangi lotincha tilida nashr ettiradi?

Yakob Golius
Yushkevich
Rozenfeld
Zuter

al-Farg’oniy jadvallari kitobi qayerda saqlanadi?

Patnada
Tehron
Parij
Qohirada

Asturlab bilan amal qilish haqida kitob qayerda saqlanadi?

Rampur
London
Parij
Patna

Oyning yer ostida va ustida bo’lish vaqtlarini aniqlash haqida risola asari qayerda saqlanadi?

Qohira
Rampur
Parij
Patnada

al-Farg’oniyning haykali qayerda o’rnatilgan?

Quva
Toshkent
Samarqand

Jizzax

O'rta asrlarda arab tilida yozilgan geografik asarlarning birinchisi?

Kitob Kitob surat ul-arz

Oyning yer ostida va ustida bo'lish vaqtlarini aniqlash haqida risola

Geografiya

Yeti iqlimni hisoblash haqida

Yerdagi ma'lum mamlakatlar va shaharlarning nomlari va har iqlimdagi narsa haqida asarining muallii kim?

al-Farg'oniy

al-Xorazmiy

al-Beruniy

al-Forobiy

Farg'oniy qaysi asarini yozganidan song uning lotinlashtirilgan nomi

"Alfraganus" shaklida G'arbda bir necha asr davomida keng tarqaladi.

"Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi" ("Kitob al-harakat as-samo-viya va javomi' ilm an-nujum")

Asturlob yasash haqida kitob
Astronomiya asoslari haqida kitob

Asturlob bilan amal qilish haqida

Kim oz asarida yetti iqlimdagi dengizlar, mamlakatlar, tog'lar,

daryolar, ko'llar va shaharlarning tavsifini keltirgan edi

Al farg'oniy

Al xorazmiy

Ibn sino

Beruniy

Al xorazmiy o'zining tavsivlash usulida kimning ananasiga asoslanadi?

Ptolemy

Nikolay Kopernik

Ptolemy Beruniy

BJT

Al Farg'oniy yajuj mamlakati deb atagan hudud hozirgi qaysi geografik hudud bilan muvofiq keladi?

Mo'g'uliston va Xitoy

Xorazm

Taroz

Xazar mamlakati

Qaysi tashkilot tomonidan olimga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjuman o'tkazildi
YUNESKO

BMT

YUNICEF

NATO

Farg'oniyning qaysi asari hozirda Yevropa universitetlarida astronomiya fani bo'yicha asosiy darslik hisoblanadi?

"Astronomiya ilmi asoslari? —

Astur-lob bilan amal qilish
haqida kitob"
"Yetti iqlimni hisob-lash haqida
"Astronomiya asoslari?"

Farg'oniy saqraplar deb kimlarni
ataydi?

slavyanlar

Ruslar

Hindlar

Misrliklar

Jurjon dengizi hozirgi qaysi
dengiz

Kaspiy

Amudaryo

Sirdaryo

Zarafshon

Farg'oniy Turar-band deb
qayerni ataydi?

O`tror

Navkat

Sayram

Zarafshon

Qaysi kitobda Buxoro vohasini
sug'oruvchi anhorlar, obod
qishloqlar, rabotlar va ko'shklar
hakida ma'lumotlar bor?

Buxoro tarixi

Buxoro yoxut movarounnahr
tarixi

Movarounnahr tarixi

BJT

Buxorodagi mashhur Kampirak
devori qachon qurib bitkazilgan?

782 – 831

798 – 805

809 – 813

786 – 839

Ovro'po Uyg'onish davrining
buyuk namoyandalaridan biri
bo'lgan mashhur olim

Regiomontan XV asrda Avstriya
va Italiya universitetlarida

astronomiyadan ma'ruzalarni
kimning kitoblaridan o'qigan

Al FAagoniy

Al Xorazmiy

Ibn Sino

Beruniy

«Ash-Shamoil an-nabaviya»
asarining muallifi?

At Termiziy

Al-Buxoriy

Narshaxiy

Vamberi

Al Xorazmiy ozining tavsivlash
usulida kimning ananasiga
asoslanadi?

Ptolemiy

Nikolay Kopernik

Kopernik

BJT

Farg'oniy ozining tavsivlash
usulida kimlarning ananasiga
asoslanadi?

HINDLAR

RUSLAR

RIMLIKLAR

MISRLIKLAR

Muso al-Xorazmiy qaysi yillarda yashab ijod etgan?

783-850-yillar

786-850-yillar

775-855-yillar

797-865-yillar

Xorazmiy qaysi fanning asoschisi hisoblanadi?

Matematika

Geometriya

Algebra

Geografiya

Manbalarda Xorazmiyning ismiga yana qanday atamalar qoshib aytiladi?

B va D javoblar to'g'ri

al-Qutrubbuliy

al-Bag'dodiy

Qut rubuliy

Xorazmiy qaysi xalifa davrida Bag'dodda ijod qilgan?

Barcha javoblar to'g'ri

al-Amin

al-Ma'mun

Xorun ar-Rashid

Al-Ma'mun davrida Bag'dodda Xorazmiy bilan bir qatorda faoliyat yuritgan Markaziy Osiyo va Xurosonlik olimlar qaysilar?

Yahyo ibn-Abu Mansur, al-Farg'oniy, Habash al-Marvaziy, Xolid ibn Abdumalik al-Marvarudiy, Abul Abbas al-Javhariy

al-Farg'oniy, Habash al-Marvaziy, Xolid ibn Abdumalik al-Marvarudiy, Ibn Sino

Yahyo ibn-Abu Mansur, al-

Farg'oniy, Habash al-

Marvaziy, Abu Rayhon Beruniy

al-Farg'oniy, Habash al-

Marvaziy, Xolid ibn Abdumalik

al-Marvarudiy, Abul Abbas al-

Javhariy, Abu Sahl

Masihiy, Abulxayr ibn Hammor

Bag'doddagi "Bayt ul-hikma"da mudir vazifasida ishlagan O'rta Osiyolik alloma?

al-Xorazmiy

al-Farg'oniy

Beruniy

barchasi to'g'ri

Xalifa al-Mamun davrida qurilgan rasadxonalar haqida bildirilgan fikrlardan qaysi biri noto'g'ri?

Rasadxonalar Osiyoliklar tomonidan boshqarilgan.

Ikkinchi rasadxona 831-yilda

Damashq yaqinidagi Kasiyon

tog'ida qurilgan.

Ikki rasadxona faoliyatini ham Markaziy Osiyo va Xurosondan kelgan olimlar boshqargan.

Birinchi rasadxona 828-yilda

Bag'dodning ash-shamosiya

mahallasida qurilgan.

Al-Xorazmiy qayerda vafot etgan?

Bag'dodda

Xorazmda
Damashqda
Marvda

Bag'doddagi rasadxonning
asoschisi va rahbari bo'lgan
Yahyo ibn Abu Mansur qayerlik
bo'lgan?

Marvdan
Bag'doddan
Nishopurdan
Xorazmdan

Xorazmiydan bizgacha qancha
asar yetib kelgan?

20 dan ortiq asardan 10 tasi
30 dan ortiq asardan 10 tasi
25 dan ortiq asardan 15 tasi
20 dan ortiq asardan 15 tasi

Xorazmiyning eng mashhur
algebraik risolasi qaysi?

”Al-jabr va al-muqobala
hisobi haqida kitob”

”Qo'shish va ayirish haqida
kitob”

”Usturlob bilan ishlash haqida
kitob”

”Kitob surat ul- arz”

Xorazmiyning astronomiyaga
oid asarlari ko'rsatilgan qatorni
aniqlang?

Barcha javoblar to'g'ri.

”Usturlob yasash haqida kitob”,

“Usturlob yordamida azimutni
aniqlash haqida.

“Yahudiylarning taqvimi va
bayramlarini aniqlash haqida

risola”, ”Usturlob bilan
ishlash haqida kitob” , “Zij”.
Usturlob bilan ishlash haqida
kitob”

Xorazmiyning arifmetik
risolasi qachon yozilgan?

840-yilda

Bag'dodga kelguniga qadar

Qachon yozilgani noma'lum

830-yilda

Xorazmiyning algebraik risolasi

necha qismdan iborat va

birinchi qism qanday qism?

3 qismdan , 1-qism algebraik
qism

2 qismdan , 1-qism algebraik
qism

4 qismdan, 1-qism geometrik
qism

3 qismdan , 1-qism geometrik
qism

Xorazmiy algebraik risolasining
3-qismini qanday atagan?

”Vasiyatnoma”

”Vasiyatlar kitobi”

”Geometriya kitobi”

Algebraik

Xorazmiyning algebraik
risolasining to'liq nomi ...

”Al-kitob al-muxrasar fi hisob
al-jabr va al-muqobala”

”Al-jabr va al-muqobala
hisobi haqida kitob”

”Al-kitob al-muxrasar fi hisob
al-jabr “

Barcha javoblar to'g'ri

Xorazmiy algebraik risolasining nechta qo'lyozmasi saqlanadi va ular qaysilar?

Risolaning 3 ta qo'lyozmasi saqlagangan .Ular Qobulda , Madinada va Oksford universitetining Bodleyan kutubxonasida

Risolaning 2 ta qo'lyozmasi saqlagangan .Ular Qobulda , Madinada

Risolaning 3 ta qo'lyozmasi saqlagangan .Ular Qobulda , Madinada va Bag'dodda

Risolaning 2 ta qo'lyozmasi saqlagangan .Ular Madinada va Bag'dodda

Xorazmiyning "Zij" asari ...
830-yil atrofida yozilgan
37 bob , 116 jadvaldan iborat
37 bob , 118 jadvaldan iborat
Xorazmiyning eng yirik geometrik asari

Xorazmiyning "Zij" asari haqida bildirilgan fikrlardan qaysi biri to'g'ri?

Yuqoridagilarning barchasi to'g'ri

7-22-boblar Quyosh , Oy va besh sayyoraning harakatlari masalasiga bag'ishlangan
23-bob trigonometriyaga bag'ishlangan

Asarning avvalgi besh bobi xronologiyaga bag'ishlangan

Xorazmiy "Zij" asarining diqqatga sazovor nusxasi qaysi?

To'g'ri javob berilmagan

Ispaniyalik Arab astronomi Maslama al-Majritiy tomonidan 1005-yili ko'chirilgan nusxasi
Adelard Bat tomonidan 1007-yili ko'chirilgan nusxasi

Ispaniyalik Arab astronomi Maslama al-Majritiy tomonidan 1007-yili ko'chirilgan nusxasi

Xorazmiy "Zij" asarining 23-bobi nimaga bag'ishlangan?

Trigonometriyaga bag'ishlangan
Quyosh, Oy va besh sayyoraning harakatlari masalasiga bag'ishlangan

Matematik geografiyaga bag'ishlangan

Quyosh va Oy tutilishi , parallaks(yoritgichning ko'rinish farqi) masalalariga bag'ishlangan

Xorazmiy "Zij" asarining 25-27-boblari nimaga

bag'ishlangan?

Matematik geografiyaga bag'ishlangan

Quyosh , Oy va besh sayyoraning harakatlari masalasiga bag'ishlangan

matematik geografiyaga trigonometriyaga bag'ishlangan

Quyosh va Oy tutilishi , parallaks(yoritgichning ko'rinish farqi) masalalariga bag'ishlangan

Xorazmiy “Zij” asarining 7-22-boblari nimaga bag’ishlangan?
Quyosh , Oy va besh sayyoraning harakatlari masalasiga bag’ishlangan
Quyosh , Oy va besh sayyoraning harakatlari trigonometriyaga bag’ishlangan
matematik geografiyaga bag’ishlangan
Quyosh va Oy tutilishi , parallaks(yoritgichning ko’rinish farqi) masalalariga

Xorazmiy “Zij” asarining 33-35-boblari nimaga bag’ishlangan?
Quyosh va Oy tutilishi , parallaks(yoritgichning ko’rinish farqi) masalalariga
Quyosh , Oy va besh sayyoraning harakatlari masalasiga bag’ishlangan
matematik geografiyaga bag’ishlangan
Quyosh va Oy tutilishi , masalalariga

Xorazmiy “Zij” asarining 28-bobida nima keltirilgan?
Trigonometrik masalalarga murojaat qiladi va tanges , kotanges tushunchalarini kiritadi va ularga mos jadvallarni keltiradi
Planetalar harakatining tezligini aniqlash keltirilgan
Quyosh va Oy ko’rinmas kuchlarining o’lchami kelirilgan

Munajjimlik masalalariga bag’ishlangan

Xorazmiy “Zij” asarining 29-bobida nima keltirilgan?
Planetalar harakatining tezligini aniqlash keltirilgan
Harakatining tezligini aniqlash keltirilgan
Quyosh va Oy ko’rinmas kuchlarining o’lchami kelirilgan
Munajjimlik masalalariga bag’ishlangan

Xorazmiy “Zij” asarining 30-bobida nima keltirilgan?
Quyosh va Oy ko’rinmas kuchlarining o’lchami kelirilgan
Trigonometrik masalalarga murojaat qiladi va tanges , kotanges tushunchalarini kiritadi va ularga mos jadvallarni keltiradi
Planetalar harakatining tezligini aniqlash keltirilgan
Munajjimlik masalalariga bag’ishlangan

Xorazmiy “Zij” asarining 31-31- va 36-37-boblarida nima keltirilgan?
Munajjimlik masalalariga bag’ishlangan
Trigonometrik masalalarga murojaat qiladi va tanges , kotanges tushunchalarini kiritadi va ularga mos jadvallarni keltiradi

Planetalar harakatining tezligini aniqlash keltirilgan
Quyosh va Oy ko'rinmas kuchlarining o'lchami kelirilgan

Qaysi alloma Xorazmiy "Zij" asarini sharhlashga uchta asarini bag'ishlagan?

Abu Rayhon Beruniy
Ahmad al-Farg'oniy
Abu abduллоh al-Xoraxmiy
Mirzo Ulug'bek

Qaysi olim iqlimlarning sonini 8 tagacha kamaytirgan va iqlimlar nazariyasiga rioya qilmagan?

Al – Xorazmiy Ptolomey
Eratosfen
Al – Xorazmiy
Abu Rayhon Beruniy

Xorazmiyning algebraik risolasi qachon lotin tiliga tarjima qilingan?

1145-yili Sevilyada Robert Chester tomonidan
1135-yili Sevilyada Robert Chester tomonidan
1145-yili Londonda Robert Chester tomonidan
1135-yili Londonda Robert Chester tomonidan

Xorazmiy algebra – bu ...
Barcha javoblar to'g'ri
Qo'shish, ayirish, bo'lish, ko'paytirish amallari bilan bog'liq matematik fan

sonli kvadrat va chiziqli tenglamalarni yechish haqidagi fan

Murakkab tenglamalarni yechish haqidagi fan
Qo'shish, ayirish, bo'lish, ko'paytirish amallari bilan bog'liq matematik fan

Xorazmiyning arifmetik risolasi qachon, kim tomonidan qayta ishlangan?

XII asrda Ispaniyada sevilyalik Ioann tomonidan
XIII asrda Ispaniyada sevilyalik Ioann tomonidan
XII asrda Qohirada sevilyalik Ioann tomonidan
XIII asrda Qohirada sevilyalik Ioann tomonidan

Xorazmiyning arifmetik risolasi qachon lotin tiliga tarjima qilingan?

XIV asrda Angliyada
XIV asrda Ispaniyada
XII asrda Ispaniyada
XII asrda Italiyada

Ovro'paliklar uzoq vaqtgacha hind raqamlariga asoslangan hisob tizimini "algorizmi" deb atashgan, faqat qachondan boshlab bu nom "arifmetika" iborasi bilan almashtirildi?

XII asrdan
XIII asrdan
XVI asrdan
XVIII asrdan

Xorazmiy nomiga nima sababdan al-Majusiylar degan nisbat berib aytiladi? Xorazmning asl mahalliy aholisidan, ya'ni otashparastlar(majusiylar) oilasidan bo'lgani uchun Otashparastlik dinining kohinlari oilasidan kelib chiqqani uchun Olimning o'zi yoki otasi majusiylar bo'lib, keyinchalik islamiyatini qabul qilgani uchun Barcha javoblar to'g'ri

Xorazmiyga nima uchun al-Qut-rubbuliy nisbasi berilgan? Xorazmiy mo'ysafidlik yillarini Bag'dod yaqinidagi Dajla bo'yidagi al-Qut-rubbul dahasida o'tkazganligi uchun Xorazmiy mo'ysafidlik yillarini Dajla bo'yidagi al-Qut-rubbul dahasida o'tkazganligi uchun Xorazmiy Bag'dod yaqinidagi al-Qut-rubbul qishlog'ida o'tkazganligi uchun To'g'ri javob berilmagan

Al-Ma'mun qachondan boshlab xalifalik taxtiga o'tirdi? 809-yildan 813-yildan 819-yildan 821-yildan

Al-Ma'mun qachon Xorazmiyning o'z saroyiga jalb qilgan?

Xalifalik taxtiga o'tirganidan so'ng Marvda noib bo'lganida otasi Xorun ar-Rashid o'z saroyiga jalb qilgan edi Bag'dod noibi bo'lganida

Qaysi olim o'z risolasida Xorazmiyning arifmetik risolasiga alohida paragraf bag'ishlagan?

A.P.Yushkevich
Yu.X.Kopelevich
B.A.Rozenfeld
B.Bonkompani

Xorazmiy arifmetik risolasining o'zbekcha tarjimasini qachon chop etildi?

1983-yili Xorazmiyning 1200 yillik yubileyi munosabati bilan 1991-yilda mustaqillik sharofati bilan

1993-yilda Xorazmiyning 1210 yillik yubileyi munosabati bilan 1990-yilda Xorazmiy asarlari o'zbek olimlari tomonidan o'rganilishi bilan

Xorazmiyning aytishicha algebrada uch xil son bilan ish ko'riladi. Ular...

Iddiz(jizr) yoki narsa (shay), kasr son, kvadrat (mol)

Iddiz(jizr) yoki narsa (shay), kvadrat (mol), oddiy son yoki dirham(pul birligi)

Kvadrat (mol), oddiy son yoki dirham(pul birligi), kasr son

Kvadrat (mol), tenglamalarda ishlatiladigan no'malum son, kasr son

Xorazmiy umrining oxirgi yillarini qayerda o'tkazdi?
Bag'dodda
Marvda
Xorazmda
Damashqda

“Diksit Algorizmi” atamasi qanday ma'noni anglatadi?
”Xorazmiy formulasi”
”Xorazmiy amallari”
”Xorazmiy aytdi”
”Xorazmiy merosi”

Xorazmiy vafotidan 15 yil keyin vafot etgan O'rta Osiyolik alloma kim?
Ahmad al-Farg'oni
Ahmad al-Farz'oni
Ahmad al-Marvaziy
Imom al-Buxoriy

Xorazmiy “Zij” ining Yevropa faniga ta'siri qaysi olimlar tomonidan o'rganilgan?
X.Zuter , K.A.Nallino ,
I.Yu.Krachkovskiy,
B.A.Rozenfeld
B.A.Rozenfeld ,
A.P.Yushkevich ,
B.Bonkompani , X.Zuter
X.Zuter , K.A.Nallino ,
I.Yu.Krachkovskiy
X.Zuter , K.A.Nallino ,
I.Yu.Krachkovskiy ,

A.P.Yushkevich ,
B.Bonkompani

Qaysi olim yerning odamlar yashaydigan qismini 12 ta iqlimga ajratgan?
Gipparx
Ptolomey
Eratosfen
Al-Xorazmiy

Iqlim so'zi qanday ma'noni anglatadi?
Yunoncha “klima” – “og'ish”
Lotincha “klima” – “og'ish”
Inglizcha “climate” – “iqlim”
Yunoncha “klima” – “ob-havo”

Kim Xorazmiyni “O'z davrining eng buyuk matematigi va agar barcha shart-sharoitlar nazarga olinsa , hamma davrlarning ham eng buyuklaridan biri” deb ta'riflagan ?
J.Sarton
J.Kerton
Federiko Mayor
A.P.Yushkevich

Qaysi alloma Habash al-Hosib (“Hisobchi habash”) laqabi bilan mashhur edi?
Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy
Abu Rayhon Beruniy
Al-Xorazmiy
Yahyo ibn Abu Mansur

”Zij al-mumtahan” (“Sinalgan zij”) asarining muallifi kim?
Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy
Abu Rayhon Beruniy
Ahmad ibn Abdulloh
Yahyo ibn Abu Mansur

Xalifa al-Ma'mun davrida Damashqda Kasiyon tog'ida qurilgan rasadxonani dastlab kim boshqargan?
Xolid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy
Al-Xorazmiy
Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy
Yahyo ibn Abu Mansur

Bag'dodda Xorazmiy bilan hamkorlikda ishlagan Marvlik mashhur astronom va matematik kim?
B va S javoblar to'g'ri
Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy
Yahyo ibn Abu Mansur
Habash al-Hosib

Quyidagi asarlardan qaysilari Xorazmiy qalamiga mansub?
”Al-kitob al-muxrasar fi hisob al-jabr va al-muqobala”, ”Zij” ,
”Usturlob bilan ishlash haqida kitob” ,”Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola” , Kitob ar-ruhoma”, ”Kitob at-ta'rix” ,”Kitob surat ul-arz”

”Al-kitob al-muxrasar fi hisob al-jabr va al-muqobala”, ”Zij” ,
”Usturlob bilan ishlash haqida kitob” ,”Kitob ar-ruhoma” ,
”Kitob at-ta'rix” ,
”Mineralogiya”
”Al-kitob al-muxrasar fi hisob al-jabr va al-muqobala”, ”Zij” ,
”Usturlob bilan ishlash haqida kitob” ,”Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola”
Barcha javoblar to'g'ri

Kimning nasabi ajamlarga borib taqaladi?
Imom al-Buxoriy
Ahmad al-Farg'oni
Ahmad al-Marvaziy
Abu Abdulloh al-Xorazmiy

”Bardazbeh” so'zi qanday ma'noni anglatadi?
Arabcha “zori” so'zidan olingan bo'lib “ ziroat, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi kishi” ma'nosini anglatadi.
Arabcha “zori” so'zidan olingan bo'lib “ hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi kishi” ma'nosini anglatadi
Forscha “bardazbeh” so'zidan olingan bo'lib “ ziroat bilan shug'ullanuvchi kishi ma'nosini anglatadi.
Forscha “zori” so'zidan olingan bo'lib “ ziroat, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi kishi” ma'nosini anglatadi.

Imom al-Buxoriyning otasining ismi kim bo'lgan?

Ismoil

Abul-Hasan

Usmon

Nasr

Imom al-Buxoriy o'zining "At-Tarix al-kabir" asarida kim haqida talay ma'lumotlar beradi?

Otasi

Shogirdi

Onasi

Ustozi

Hijriy 194 sana, shavvol oyining 13-kunida tavallud topgan olim kim?

Imom al-Buxoriy

Imom al-Termiziy

Ahmad al-Farg'oniy

Abu Abdulloh al-Xorazmiy

Mutafakkir Abdurahmon Jomiy kimning salohiyatiga yuksak baho berib, "Batxa (Makka) va Yasrib (Madinada yasalgan tangananing sayqali Buxoroda kamolga yetdi", deb yozgan edi.

Imom al-Buxoriy

Abu Abdulloh al-Xorazmiy

Imom al-Balxiy

Ahmad al-Marvaziy

Imom al-Buxoriy dastlab kimlarning hadislarga oid asarlarini yod oladi?

Ibn al-Muborak va Vakiy

Abu Hotam al-Varroq va Vakiy
Ibn al-Muborak va Abu Hotam al-Varroq

Abu Zu-bayr va Abu Hotam al-Varroq,

Imom al-Buxoriyning kotiblaridan biri kim?

Abu Hotam al-Varroq

Abu Hotam

Vakiy

Abu Zubayr

Imom al-Buxoriy dastlab Buxoroning taniqli muhaddislaridan sanalgan kimdan ta'lim olgan?

ad-Dohiliy

Abu Hotam al-Varroq

Ibn al-Muborak

Abu Zubayr

Imom al-Buxoriy necha yoshdan boshlab hadislarni yod bilgan?

10 yoshidan

5 yoshidan

13 yoshidan

12 yoshidan

Imom al-Buxoriyning ilk ustozlari kimlar bo'lgan?

Muhammad ibn Salom al-

Poykandiy, Muhammad ibn

Yusuf al-Poykandiy

Abu Zu-bayr, Muhammad ibn

Yusuf al-Poykandiy

Ibn al-Muborak va Abu Hotam

al-Varroq

Ibn al-Muborak va Vakiy

Imom al-Buxoriy kimning
kitoblarini yod oldi?
Muhammad ibn Salom al-
Poykandiy
Abdulloh ibn al-Muborakning
Abu Zu-bayrning
Vakiyning

Kim Imom al-Buxoriyga “
yetmish ming hadisni yod
biladigan bir bolakay”-deb baho
bergan?.

Muhammad ibn Salom al-
Poykandiy
Abu Zu-bayr
Vakiy
Abdulloh ibn al-Muborak

Kim “ Muhammad ibn Ismoil
qachon huzurimga kirsam, har
doim men o’zimni yo’qotib
qo’yib, doim undan xavotirda
turaman”-degan edi?

Muhammad ibn Salom al-
Poykandiy
Abu Zu-bayr
Vakiy
Abdulloh ibn al-Muborak

Imom al-Buxoriy necha
yoshgacha o’z yurtidagi
mashoyihlardan hadis eshitib,
ulardan saboq oladi?

16 yoshgacha
10 yoshgacha
13 yoshgacha
15 yoshgacha

Imom al-Buxoriy o’z yurtida
ta’lim olgandan keyin, qayerga
ketadi?

Hijozi sharifga
Bag’dodga
Damashqga
Samarqandga

Imom al-buxoriyning akasining
ismi nima?

Ahmad
Ismoil
Abdulloh
Mahmud

Imom al-Buxoriy birinchi marta
safarga qachon chiqqan?

825-yil
815-yil
830-yil
835-yil

Imom al-Buxoriy Makka
shahrida kimlardan ta’lim oladi?

Imom Abul Valiyd ibn al-
Arzakiy, Abdulloh ibn az-
Zubayrdan
al-Hamidiydan

Ibn al-Muborak va Abu Hotam
al-Varroq
A va B javoblar to’g’ri

Imom al-Buxoriyning dastlabki
asari “At-Tarix al-kabir” asarini
qayerda yozib tamomlagan?

Hijozi sharifda
Basra (Iroq)da
Damashqda
Hirotda

Imom al-Buxoriy Basraga
borganda kimlardan ta'lim oladi?
imom Abu Osim an-Nabiyl,
Safvon ibn Isodan
Imom Abul Valiyd ibn al-
Arzakiy, Abdulloh ibn az-
Zubayrdan
Ibn al-Muborak va Abu Hotam
al-Varroqdan
Muhammad ibn Salom al-
Poykandiy, Muhammad ibn
Yusuf al-Poykandiy

Imom al-Buxoriy Basradan so'ng
qayerga sayohat qiladi?
Kufaga
Bag'dodga
Damashqga
Madinaga

Ushbu jumlar kimga tegishli? “
Kufa va Bag'dodga muhaddislar
bilan uchrashishga necha marta
borganimning hisobini ham
bilmayman”.
Imom al-Buxoriy
Abu Abdulloh al-Xorazmiy
Imom al-Baliy
Ahmad al-Marvaziy

Imom al-Buxoriy Kufaga
borganda kimlardan ta'lim oladi?
Abdulloh ibn Muso, Abu
Na'iy Ahmad ibn Yaqub Ismoil
ibn Abon
imom Abu Osim an-Nabiyl,
Safvon ibn Isodan
Imom Abul Valiyd ibn al-
Arzakiy, Abdulloh ibn az-
Zubayrdan

Ibn al-Muborak va Abu Hotam
al-Varroqdan

Kim Imom al-Buxoriyga fitna
uyushtirib uni Buxoradan
badarg'a qildiradi?
Abu Tohir az-Zulxiy
Abu Tohir
Abdulloh ibn Muso
Muhammad ibn Salom al-
Poykandiy

Imom al-Buxoriy Shomga
borganda kimlardan ta'lim oladi?
Yusuf al-Faryobiy, Abu Nasr
Ishoq ibn Ibrohimdan
imom Abu Osim an-Nabiyl,
Safvon ibn Isodan
Yusuf ibn Ishoq ibn Ibrohimdan
Ibn al-Muborak va Abu Hotam
al-Varroqdan

Sharafuddin Ali Yazdiy
“Zafarnoma” nomli mashhur
asarida al-Buxoriy qayerda ham
ancha muddat yashagani haqida
yozadi?
Keshda
Balxda
Misrda
Damashqda

Imom al-Buxoriy Marvda
kimlardan ta'lim oladi?
Ali ibn Hasan ibn Shaqiyq,
Abdondan
Ali ibn Hasan Abdondan
imom Abu Osim an-Nabiyl,
Safvon ibn Isodan

Makkiy ibn Ibrohim, Yah'yo ibn Bishardan

Imom al-Buxoriy Balxda kimlardan ta'lim oladi?

Makkiy ibn Ibrohim, Yah'yo ibn Bishardan

imom Abu Osim an-Nabiyl, Safvon ibn Isodan

Yusuf al-Faryobiy, Abu Nasr Ishoq ibn Ibrohimdan

Ali ibn Hasan ibn Shaqiyq, Abdondan

Imom al-Buxoriy Hirotda kimdan ta'lim oladi?

Ahmad ibn Abu-l Valiyd al-Xanafiyan

Ali ibn Hasan ibn Shaqiyq, Makkiy ibn Ibrohim,

Ahmad al-Xanafiyan

Zamondoshlari «Hazrati Imom» deb ulug'lagan zot.

Qaffol SHoshiy

Al Farg'oniy

Al - Buxoriy

Beruniy

Qaffol ash-SHoshiy qachon yashab o'tgan.

904-976

829-904

906-976

867-908:

Tojuddin Subkiyning «Tabaqot ash-shofi'iy al-kubro» asarida kimning she'rlaridan parcha keltirilgan

Qaffol ash-SHoshiy

Beruniy

Ibn Sino

Farobiy

Bisotim keng ochiqdur mehmonlarimga, Taomim haloldur, kelgil yonimga, Armug'on etamiz neki qo'lda bor, Sirka '-va ko'kat bor, boq dasturxonimga. Ko'ngli keng odashar bo'lg'usi mamnun,

Baxilga mutlaqo beg'arazdurman. Ushbu satrlar kimga tegishli

SHoshiy

Jomiy

Navoiy

Qiftiy

Qiftiy

Qiftiy

Qiftiy

Bisotim kvng ochiqdur mehmonlarimga, Taomim haloldur, kelgil yonimga, Armug'on etamiz neki qo'lda bor, Sirka '-va ko'kat bor, boq dasturxonimga. Ko'ngli keng odashar bo'lg'usi mamnun,

Baxilga mutlaqo beg'arazdurman. jummlarini kim tarjima qilgan.

Baxilga mutlaqo beg'arazdurman. jummlarini kim tarjima qilgan.

Baxilga mutlaqo beg'arazdurman. jummlarini kim tarjima qilgan.

Baxilga mutlaqo beg'arazdurman. jummlarini kim tarjima qilgan.

GLOSSARIY

So'g'd yozuvi – miloddan oldingi ming yillikning oxirlarida oromiy alifbosidan ajralib chiqqan. Arab yozuvi singari o'ngdan chapga qarab yozilgan va o'qilgan. Qadimgi manbalarda so'g'd alifbosida 25 harf mavjudligi ta'kidlangan, biroq turli joylardan topilgan so'g'd yozuvi yodgorliklarida harflarning umumiy sonida farqlar bor. So'g'd yozuvining milodning boshlariga oid qadimgi namunasi Samarqand yaqinidagi Toli barzu degan joydan topilgan.

Amudaryoning quyi oqimida yashagan o'troq dehqon elatlari xorazmliklarning yurti Xvariazm («Avesto»da), Xvarizmish (Behistun yozuvlarida), Xorasmiya (Arrian, Strabon) asarlarida yozib qoldirilgan.

So'g'diylarning eng yaqin qo'shnilari Baqtriyaliklar bo'lib, ularning yurti Surxon vodiysi, Afg'onistonning shimoli, Tojikistonning janubiy hududlarida joylashgan. Yozma manbalarda u Baxdi («Avesto»da), Baqtrish (Behistun yozuvlarida) deb nomlangan. Yunon-rim mualliflarining asarlarida Baqtriana yoki Baqtriya deb atalgan.

Munajjim – osmon yoritkichlarining vaziyatlarini kuzatuvchi shaxs. Bu so'z arab tilidan olingan. Zardo'sht 40 yoshida yangi diniy ta'limot payg'ambari bo'ladi. «Payg'ambar» so'zi «savobli ishlar xabarchisi» degan ma'noni anglatadi.

Zardo'shtiyning g'oyalari miloddan avvalgi IV asrda to'planib 21 kitob qilinadi. Ular «Avesto»ning asosini tashkil etgan. Matnlarda yozilgan tafsiflar «Zand» deb ataladi. «Katta Avesto»dan ayrim muhim oyatlar tanlab olinib, Xorazm, Baqtriya, Marg'iyona va So'g'diyona haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Axuramazda – zardo'shtiylik xudosi bo'lib, yorug'lik, obodonlik, farovonlik, salomatlik kabi hamma ezguliklarni yaratuvchi va boshqaruvchi xudo sifatida ifodalangan.

Ahriman – zulmat, qorong'ulik, ochlik, vabo, sovuq, zaharli jonivorlarni yaratuvchi va boshqaruvchi yovuzliklar xudosi.

Zardo'shtiylik urf-odatiga ko'ra o'lgan kishi dafn qilinmagan. Jasadni qushlarga yem bo'lishi uchun maxsus baland joyga qo'yilgan. Suyaklari tozalanib, qushlarga yem bo'lishi uchun maxsus idish «**ossuariy**» - «suyakdon, ostadon»larda saqlaganlar. Ular **nous** deb ataluvchi maxsus binolarga qo'yilgan.

Ahamoniylar – miloddan avvalgi 558-330 yillarda Eronda hukmronlik qilgan sulola. Ahamoniylar sulolasiga miloddan avvalgi

VIII asrda Elam yaqinidagi Parsa hududida yashagan qadimgi fors qabilalarining boshlig'i Ahmon asos solgan. Kir I davrida O'rta Osiyo hududlari ham Ahamoniylar sulolasiga bo'ysundirilgan. Uning davrida qadimgi Sharqning katta qismi o'z hukmronligiga bo'ysundiriladi va Ahamoniylarning buyuk imperiyasi

Xsh a t r a - «viloyat» so'zidan kelib chiqqan. Har bir satraplik belgilangan miqdorda soliq to'lashga majbur bo'lgan.

Satrap – viloyat boshlig'i bo'lib, u cheklanmagan vakolatlarga ega edi.

Miloddan avvalgi IV asrning oxirlarida O'rta Osiyoga Aleksandr Makedonskiyning yurishi boshlanadi. Bu davrda O'rta Osiyo xalqlarining harbiy san'ati yuqori darajada bo'lgan. Xanjar «akg`ainak» atalgan, jangovor bolta «sagiris» deb nomlangan.

Spitamen –O'rta Osiyoning yirik qo'mondoni va Makedonskiyga qarshi miloddan avvalgi 329-327 yillarda Maroqanda ko'tarilgan qo'zg'olon rahbari.

Maroqanda – Samarqandning yunoncha nomi. Miloddan avvalgi VII – VI asrlarda Maroqanda o'rnida mudofaa devorlar bilan o'ralgan qishloq bo'lgan. Yunon tarixchilari Arrian, Kvint Kursiy Ruf, Strabonning ma'lumotlariga ko'ra miloddan avvalgi 329 yilida A.Makedonskiy So'g'diyona poytaxti Maroqandni zabt etib, vayron qilgan, so'ngra o'zining harbiy garnizoni uchun qal'ani qayta tiklagan. So'g'diylar Spitamen boshchiligida bu bosqinchilarga qarshi kurashgan, qo'zg'olon bostirilgach, Makedonskiy Maroqandni yana vayron qilishni buyurgan. Maroqand keyinchalik Semizkent, Samarqand nomini olgan.

Iskandar vafotidan so'ng O'rta Osiyo Salavkiylar davlati tarkibiga kirdi. Salavka ham bu yerdagi yerlarni satrapliklarga bo'ldi. Satraplikdagi davlat mudofaasi va qo'shinlarini tashkil etish ishlari bilan **strateg** shug'ullangan.

Yunon va Makedon istilolaridan boshlab O'rta Osiyo viloyatlari madaniyati tarixida antik (yunoncha «qadimgi») davr boshlandi. Bu hol Sharq va /arb o'rtasida madaniy munosabatlarning rivojlanishiga olib keldi. Ayniqsa, Baqtriya madaniyatida yunon madaniyatining ta'siri sezila boshladi.

Ellinlashtirish – Sharqda yunon madaniyatining yoyilish jarayoni, aralash madaniyatining – yunon va mahalliy sharq madaniyatining tashkil topish jarayoni.

Chokar – O’rta Osiyoda ilk feodalizm davrida feodallarga qarashli bo’lgan qurollangan yigitlar guruhi.

Ixshid – So’g’d hokimlarining nasabi, unvoni. Tarixiy ma’lumotlarga So’g’d arab xalifaligi tomonidan istilo qilingunga qadar bu yerda 13 ishid hukmronlik kilib tungan.

Tolerantlik (lot. Tolerantia -sabr) boshqalarning fikr, e’tiqod va erkinliklariga bag’rikenglik va sabr-toqat bilan munosabatda bo’lishdir.

Ta’kidlash joizki, Islom dini bilan bog’liq yangi atamalar ham paydo bo’ldi. Avvalgi diniy atamalar sekin-asta o’z ta’sirini yo’qota bordi. Iqtisodiy hayotda ham yangi soliqlar solinishi bilan yangi atamalar paydo bo’ldi. Arablar Movarounnahrning iqtisodiy hayotini o’z qo’llarida jilovlab olish uchun sosoniylarning soliq tartibini joriy etdilar. Ularning nomlanishi arab tilidan kirib keldi.

Arab tilidan o’zlashgan atamalarning deyarli ko’pchilik qismi hozirgi davrimizda muomalada ishlatilib kelinmoqda.

Islom – dunyoda eng ko’p tarqalgan dinlardan biri bo’lib, unga e’tiqodda bo’lganlarni musulmonlar deb ataladi. Islom dini yagona xudo – Allohga e’tiqod qiladi. Islom dini VII asrda Arabistonda vujudga kelgan. Muhammad Payg`ambar islom dinining asoschisidir. Islom dini bugungi kunda arab davlatlarida, Turkiya, Eron, Afg`oniston, Pokiston, Indoneziya, O`zbekiston, Ozarbayjon, Qozog`iston, Turkmaniston, Qirg`iziston va boshqa bir qator mamlakatlarda asosiy din hisoblandi.

Qur'on – Musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi. Muhammad Payg`ambarning Makka va Madinada olib borgan og`zaki diniy targ`ibotlari to`plamidan iborat. Qur`onda islom qoidalari, e'tiqod talablari, xuquqiy va axloqiy normalari o'z ifodasini topgan. Islom an'anasida Qur'on Alloh tomonidan Muhammad Payg`ambarga ramazon oyining 27-kuni kechasi vahiy qilinib, ro'za tutilgan. Uning 27-kuni kechasi «laylot ul-qadr», ya'ni qudrat kechasi, ilohiyot qudrati namoyon bo'lgan kecha deb ulug`lanadi. Qur'on kitobini «Qur'oni Karim», «Qur'oni Masjid» deb sifatlashadi.

Movarounnahr-arabcha so'z bo'lib, lug`aviy ma'nosi daryo ortidagi yer, degan ma'noni bildiradi.

Arablar O'rta Osiyoni bosib olgandan keyin Amudaryodan shimolgacha qarab cho'zilgan O'rta Osiyo yerlarini Movarounnahr deb atashgan.

Avliyo – Islom dinida Allohga yaqin kishi, homiy, «bandalarning homiysi» ma'nolarini bildiradi. Avliyo xudoning alohida iltifotidan bahra olib, ilohiy qudratga ega bo'lgan, odamlarning hayotiga, turmushiga ta'sir ko'rsata oladigan kishi hisoblanadi. Mana shuning uchun ham musulmonlar avliyolarning mozorlariga sig'inishib, ulardan madad so'rashadi.

Azon – Islomda har kuni besh mahal o'qiladigan namoz vaqtini e'lon qilish va unga da'vat qilish. Namozga har bir masjidida maxsus kishi - **muazzin** tomonidan azon aytib chaqiriladi.

Amir – Islom dini qabul qilingunga qadar arablarda amir so'zi qabila boshlig'i, harbiy boshliq degan ma'nolarni bildirgan. Arablar ko'p joylarni bosib olib, o'z dinlariga o'tkazgandan so'ng arab xalifaligiga qaram bo'lgan mamlakatlarni boshqarish uchun tayinlangan hokimni, qo'shin qo'mondoni va yirik lashkarboshilarni amir deb atashgan.

Amir al-mo'minin – mo'minlarning hukmdori. Ilk Islom davrida xalifalarning keng qo'llanilgan unvoni. Bu unvonni dastlab xalifa Umar olgan. Keyinchalik barcha xalifalar degan ma'noni anglatadi.

Anbiyoi-izom – Ulug' payg'ambarlar degan ma'noni anglatadi.

Baytulloh – Makka Islom dinining yagona markaziga aylanganidan keyin Ollohning uyi – Ka'bage berilgan nom.

Baytulmol – Islom mamlakatlarida davlatga qarashli qimmatbaho buyumlar, mol-mulklar hamda egasiz qolib davlat ixtiyoriga o'tgan mol-mulk va shu mol-mulk saqlanadigan maxsus joy, xazina.

Bid'at – Islom dinidagi rasmiy ta'limotlarga qarshi yangi fikr va aqidalar. Islom Muhammad (S.A.V.)dan keyin paydo bo'lgan unsur va qoidalar.

Burok – rivoyat bo'yicha me'roj kechasi Makkadan Baytulmuqaddasga, keyin osmonga Muhammad (S.A.V.)ni olib ketgan otning nomi.

Umra – Islom an'anasida kichik haj. Ka'ba ziyoratiga boriladigan muayyan kunlardan boshqa vaqtda Makkaga borib haj qilish «kichik haj» deb hisoblangan va u m r a deb atalgan.

Fatvo – Islomda muftiy yoki ulamolar kengashi tomonidan diniy, huquqiy, siyosiy hamda ijtimoiy masalalarda beriladigan qaror, hukm yoki izoh. Fatvo diniy jamoalar, muassasalar va musulmonlar tomonidan bajarilishi kerak. Fatvo Qur'on, hadislar va shariatga yoki ilgari berilgan fatvolarga asoslanishi kerak.

Fiqh – musulmon xuquqshunosligi, shariat qonun-qoidalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi Islom ilohiyotining bir sohasi. Fiqh

diniy xuquqshunoslik sifatida ikki sohada – shariat manbalarini ishlab chiqish (usul al-fiqh) va shariatni aniq sohalarga tatbiq qilish (furur' al-fiqh)dan iborat.

Xalifa – o'rinbosar, noib, muovin. Musulmon jamoasi va musulmon teokratik davlati (Arab xalifaligi)ning diniy va dunyoviy boshlig'i. U Muhammad Payg'ambarning o'rinbosari, ummaviylar davridan boshlab esa Allohning yerdagi noibi hisoblangan. Birinchi to'rt xalifa (Abubakr, Umar, Usmon, Ali) «al-Xulafo ar-roshidun» nomi bilan mashhur bo'lganlar. Ular Muhammad payg'ambardan so'ng arab xalifaligini boshqarganlar:

1. Abubakr (632-634).

2. Umar (634-644).

3. Usmon (644-656).

4. Ali (656-665).

Ummaviylardan keyin abbosiylar, shuningdek, fotimiylar sulolasi vakillari ham xalifa unvoni bilan hokimiyatini boshqarganlar.

Sayid – arablarda musulmon davri boshlangunga qadar qabilaning saylanadigan rahbarining unvoni bo'lib, boshliq, mas'ul shaxs degan ma'noni bildirgan. Muhammad Payg'ambarning amakivachchasi Alining otasi Abutolib bir vaqtlar quraysh qabilasining sayidlaridan bo'lgan. Shuning uchun bu unvon Muhammad Payg'ambarning nevaralari, Alining o'g'illari, Hasan va Husanning butun avlodlari ismiga qo'yiladigan faxriy unvon hisoblangan. Sayidlarning qiziga uylangan kishining farzandlari ham sayid hisoblangan. Mana shuning uchun ham musulmon dunyosida, jumladan, Movarounnahrda ham ko'pincha hukmdorlar ham o'z avlodlarining mavqeini ko'tarish maqsadida sayidlar qiziga uylanishga harakat qilishgan. Mang'itlar sulolasining so'nggi vakili Said Olimxon ona tomonidan Alining avlodi hisoblangan.

Xo'ja - tom ma'noda, asosan Yaqin va O'rta Sharq xalqlari o'rtasidagi feodal ijtimoiy tabaqa. Xo'jalar sayidlardan keyingi o'rinda turgan. Keng ma'noda feodal jamiyatdagi hukmron tabaqalar vakili. Xo'jalarning kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda xo'jalar dastlabki to'rt xalifa – Abu Bakr, Umar, Usmon, Alidan tarqalgan deyilsa, boshqa manbalarda arablarning istilochilik yurishlarida boshchilik qilgan sarkardalarining nasli deb hisoblanadi. Xo'jalar Islom oqsuyak tabaqasi sifatida ma'lum imtiyozlarga ega bo'lganlar. Ular ko'p hollarda o'lim, tan

jazosi, urushlarda qatnashishi hamda soliq to'lashdan ozod etilganlar. Xo'jalari qizini fuqaroga berish man etilgan.

Shariat – Islom diniy huquq tizimi. Unda sof xuquqiy masalalardan tashqari, ahloqiy normalar va amaliy talablarga ham qonun tusi berilgan.

Tarovih – dindorlar tomonidan ramazon oyi davomida, ya'ni ro'za tutish kechalari o'qiladigan qo'shimcha namoz.

Munofiqlar – Islom tarixiga xos atama bo'lib, ikki yuzlamachilikni anglatgan. Islom dinining yuzaki qabul qilib, o'zi esa avvalgi qabilaviy diniga sig'ishni davom ettirgan arablarga nisbatan qo'llanilgan.

Murid – pir yoki eshonga qo'l berib, ularni o'zining rahnamosi deb bilgan shaxs. Muridlar o'z pirlariga itoat etishi, xizmat qilish va ularning izidan borishi lozim bo'lgan.

Noyib – O'rta asrlarda musulmon davlatlarida o'lka yoki viloyat hukmdori. Oltin O'rdada noyib xonning yirik viloyatlaridagi yordamchisi.

Sunna – Muhammad Payg'ambarning ko'rsatmalari va oyatlari haqidagi hadislar, rivoyatlar. Islomda faqat Muhammad ibrati, an'anasi deb e'tirof etilib, Qur'oni Karimdan keyingi muqaddas manba hisoblanadi. Sunna VII asr o'rtalarida yig'ila boshlagan.

So'fi - 1. Masjidda azon aytib, namozga chorlovchi shaxs. Muazzin atamasining sinonimi. Muazzin xalq tilida «so'fi» deb ham ataladi. 2. Namozxonlar safini tartibga soluvchi. 3. So'fi tariqat va sulukda bo'lgan murid.

Laylat-ul qadr - ramazon oyining 27-kunga o'tar kechasi. Islom diniga sig'inuvchilar har yili shu kechada Alloh har bir insonning ibodat paytida iltijo qilgan tilagini hisobga olib, uning taqdiri haqida hukm chiqaradi, deb tasavvur qiladilar. Mana shuning uchun ham Laylat ul-qadr kechasining Qur'on o'qib, Allohga iltijo qilib, duo va ibodat qilib o'tkazish rasm bo'lgan.

Masjid – sajdagoh, musulmonlarning ibodat joylari. Musulmonlar jamoa bo'lib, namoz o'qiydigan joy. Masjidlar asosan musulmonlarning kundalik besh vaqt namoz o'qishi uchun mo'ljallangan muqaddas joy. Juma va Hayit namozlari esa jome' masjidlarida o'qiladi. Birinchi masjidni Madinada Muhammad Payg'ambar qurdirgan.

Imom – arabcha so'z bo'lib, namozda jamoatning oldida turib namozni boshqaruvchi kishi. Shuningdek, Islom dinida

musulmonlarning rahbari, boshlig`i demakdir. Imom atamasi nihoyatda keng mazmuni bo`lib, quyidagi ma`nolarda ishlatilgan va ishlatilmoqda: 1. Sunniylikda barcha musulmonlarning oliy rahbari; 1. Sunniylikka shariat mazhablarining asoschisi; 3. Shialikda eng yuksak rahnamo, ya`ni Hazrati Ali va uning avlodlari; 4. Sunniylikda ham, shialikda ham masjidida namozni boshqarib boruvchi dindor – masjid imomi.

Madrasa – Musulmon ilohiyotining masalalarini sharhlab berib turadigan markaz. U madrasa sifatida arablarda VII – VIII asrlarda paydo bo`lgan. Keyinchalik ayrim masjidlar qoshida ilohiyot maktablari tarkib topib, madrasa deb atala boshlangan. Madrasalar xonlar va yirik yer egalari va boshqa davlatmand kishilar tomonidan qurdirilgan. Mutavalli vaqfdan tushgan daromadni mudarris, mullavachcha, imom va boshqalarga taqsimlangan. Madrasaga maktabni tugatgan o`spirinlar qabul qilingan. O`rta Osiyodagi madrasalarda arab va fors tilida yozilgan «Avvali ilm» kitobi o`qitilgan. Ayrim madrasalarda tibbiyot, aruz ilmi, falsafa, geografiya va boshqa fanlar ham o`qitilgan. Madrasaning har bir bosqichida o`qish muddati 3- 4 yil davom etgan.

Mavlid – Muhammad Payg`ambarning tug`ilgan kuni bilan bog`liq diniy bayram. Rabi al-avval oyining 12 kuni nishonlanadi. Musulmon mamlakatlarida mavlud kuni duolar, Payg`ambar sha`niga madhiyalardan iborat she`rlar o`qiladi, sadaqalar beriladi, dindorlarning yig`ilishlari o`tkaziladi.

Maddoh – XX asr boshlariga qadar O`rta Osiyo hududida odam gavjum, maydonlarda, joylardagi ochiq maydon va choyxonalarda hamda saroylarda odamlarni to`plab, ularga aziz avliyolarning karomatli mo`jizalarini izohlab beruvchi, diniy qonun-qoidalarini sharhlab tushuntiruvchi diniy notiq. Maddoh xizmati evaziga tinglovchilaridan nazr yig`ib olingan.

Majlis – rasmiy doiralarda qo`yiladigan masalani muhokama qilish uchun bo`ladigan yig`ilish va muhokama jarayoni.

Mazhab – shariat mazhablari: Islomda diniy huquq tizimlari va yo`nalishlari. VII – IX asrlarga kelib, shariatning shakllanishi jarayonida huquqshunoslik, fiqh sohasida juda ko`p mazhablar yuzaga kelgan. Hozirgi vaqtda sunniylikda 4 ta mazhab – xanafiya, malikiya, shofi`i, xanbaliya; shialikda bitta mazhab – ja`fariya saqlanib qolgan. Shariat mazhablari diniy aktalardan farq qiladi. Mazhablar umuman diniy huquq doirasidan chiqmagan holda shariat masalalarida

yengilroq yoki qattiq hukm chiqarish bilan bir-biridan farq qiladi. Hozir O'rta Osiyoda xanafiya mazhabi hukmron.

Makruh – shariat tushunchalaridan biri. Qat'iy ta'qiq qilinmagan, lekin nomaqbul hisoblangan va rad etilgan hatti-harakatlar makruh hisoblangan va bu uchun jazo belgilanmagan.

Ismoiliylar – VIII asr o'rtalarida arab xalifaligida shia oqimi doirasida shakllanib, X–XI asrlarda yaqin va o'rta sharqda keng tarqalgan diniy maqsad tarafdorlari. Mazhab shialarining imom Ja'far al-Sodiqning katta o'g'li Ismoil nomi bilan bog'liq. Imom Ja'far katta o'g'li Ismoilni mahrum qilib kichik o'g'li Muso al-Kozimni voris qilib tayinlangandan keyin bundan norozi bo'lgan Ismoil tarafdorlari Ja'far vafotidan so'ng uning o'g'li Muhammad ibn Ismoilni imom deb tan olganlar. Keyingi davrlarda xalifalikda ko'tarilgan juda ko'p qo'zg'olonlar va taxt uchun kurashlarida ismoiliy ta'limoti diniy niqob bo'lib xizmat qilgan.

Zohid – VIII–X asrlarda Movarounnahrda molu-dunyoga rag'bat va xohishi bo'lmagan kishi: tarki dunyo qilgan va hayot lazzatlaridan voz kechgan kishi. Zohidlar musulmonlarni bu dunyo rohat farog'atidan voz kechishga, jabr zulmga chidashga undaganlar. Zohidlik so'fiylikning ayrim oqimlari bilan bog'liq bo'lgan.

Iyd, iyd ayomi – musulmonlarning diniy bayramlari. Iyd atamasining bir oz buzilgan o'zbekcha talaffuzi hayitdir. O'tmishda yetti kun davom etadigan iyd al-qurbon, ya'ni qurbon hayiti (ba'zi manbalari 3 yoki 4 kun bo'lgan) va uch kun davom etadigan iyd as-fitr, ya'ni ro'za hayiti kunlari orasida iyd ayyomi deb yuritilgan.

Ilohiyot – diniy aqidalar va ular haqidagi ilohiy ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan diniy ta'limot. Ilohiyot hozir ham diniy madrasa, institut va universitetlarda o'qitiladi. Islomda ilohiyot ilk shakllanishi davridan boshlab Kalas deb nomlangan.

Arab tilidan o'zlashgan iqtisod bilan bog'liq tarixiy atamalar:

Xiroj – Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyoda davlat tomonidan undirilgan yer solig'i. Xiroj arablar tomonidan joriy qilingan. Xiva va Qo'qon xonliklarida hamda Buxoro amirligida joriy yig'ish uchun har bir viloyatlarga sarkor, devonbegi va kotib saylangan. Xiva xoni Muhammad Rahim I xirojni pul bilan undirishni joriy qilgan. Bunda xiroj olingan hosil miqdoridan emas, balki yer egasining xo'jaligi va yer maydoniga qarab olingan. Qo'qon xonligi Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin xiroj bu yerda natura o'rniga pul bilan yig'iladigan bo'lgan.

Mutavalliy – vaqf mulkiga va undan keladigan daromadga vasiylik qiluvchi, uni taqsimlovchi diniy amaldor. Vaqf yerlarni ijaraga berish, vaqf mulkida xo'jalik ishlarini yuritishni ham mutavalliy bajargan.

Zakot – Islom dini besh asosiy talablaridan biri bo'lib, mol-mulk va daromaddan beriladigan sadaqa, xayr-ehson, soliq. Shariatga muvofiq, muayyan boylikka ega bo'lgan katta yoshdagi musulmon zakot beradi. Zakot miqdori pul daromadlaridan qirqdan bir ulushiga teng. Dehqonlar va cho'ponlardan olinadigan zakot miqdori birmuncha yuqori bo'lgan. Zakot kambag'allar, yetim-yesirlar, kasallar va hech kimi yo'q ayollar o'rtasida taqsimlanishi lozim bo'lgan.

Vaqf – davlat tomonidan, shuningdek, ayrim kishilar tomonidan diniy muassasalar, masjidlar, madrasalar, ixtiyoriy daromaddan foydalanib turish, ammo sotmaslik sharti bo'lib o'tkazilgan yoki vasiyat qilib qoldirilgan mol-mulk, ya'ni yer-suv, bino va boshqalar vaqf deyiladi. Vaqfdan keladigan daromadlar diniy muassasalar va ularda xizmat qiladigan din peshvolariga berilgan.

Devon – somoniylar davrida boshqaruv shakli bo'lib, vazirlar mahkamasi vazifasini o'tagan. Devonbegi esa vazirlar mahkamasining bosh ma'muri bo'lgan.

Somoniylar davrida shahar hokimi **rais** deb atalgan. Viloyat hokimlari esa ba'zan **vazir** deb atalgan.

Muxtasib – musulmon mamlakatlaridagi amaldor. Ko'pincha sayidlardan tayinlangan. U aholining urf-odatlariga amal qilish hamda bozorlardagi narx-navo va o'lchov asboblarning to'g'riligi ustidan nazorat qilib turgan. XIX – XX asrlarda Buxoroda muxtasib rais deb ham atalgan.

Sohibqiron – 1. Quyosh tizimidagi katta sayyoralardan ikkitasini bir-birini to'sish paytida tug'ilgan odam. Rivoyatlarga qaraganda, Amir Temur ikki sharofatli yulduzlar Zuhra va Mushtariy sayyoralari bir-birlariga yaqinlashgan paytda tug'ilgan ekan. Munajjmlarning fikriga ko'ra, bunday odam baxtli, ulug' martabali bo'lishi muqarrar sanalgan. Amir Temurning Sohibqiron deb atalishi ham shundan. Sohibqiron so'zining asl ma'nosi «baxtiyor podshoh», «qudratli podshoh» demakdir;

2. Sharq mamlakatlarida obro'li, g'olib podsholarga berilgan unvon. O'rta Osiyoda dastlab Amir Temurga shunday unvon berilgan.

Ma'lumki, Amir Temur o'zining harbiy muvaffaqiyatlariga o'zining kuchli qo'shini bilan erishgan. U qo'shinni o'ntalik askariy birikmalardan iborat lashkarlardan tuzgan. Lashkar o'ng minglik

bo'lsa – **tuman**, minglik esa – **hazora**, yuzlik – **xushun**, o'nlik esa – **xayl** deb nomlangan. Ularga boshchilik qilgan lashkarboshilar esa **tuman og'asi, mirikazora, qo'shinboshi, aylboshi** deb yuritilgan.

Amir – Mo'g'ullar istilosidan so'ng Oltin O'rda, keyin O'rta Osiyo va Eronda mo'g'ul va turk qabilalari birlashmasi – ulus boshlig'ining unvoni ham amir deb atalgan. Sohibqiron Temurning unvoni ham amir bo'lib, tarixda Amir Temur deb yuritilgan. XVIII asr oxiridan boshlab, Buxoroda mang'it sulolasiga mansub bo'lgan hukmdorlar ham o'zlarini amirlar deb yuritishgan.

Amirlik – musulmon mamlakatlarida amir tomonidan boshqariladigan mamlakat. XVIII asrning o'rtalaridan boshlab Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb yuritilgan.

Xon – turkiy xalqlar va mo'g'ul hukmdorlarining unvoni. Dastlab qabila boshlig'i, keyinchalik oliy hukmdorni anglatgan. Saljuqiylar va xorazmshohlar davrida viloyat yoki shahar hokimi, mo'g'ul feodal imperiyasida ulus boshlig'i davlatlarda oliy hukmdor xon, podshohlik qilmagan. Chingiziylarda esa sulton deb yuritilgan. Qo'qon, Buxoro (1753 yilgacha) va Xiva xonligida hukmdorlar o'zlarini xon deb ataganlar.

Xonlik – xon tomonidan boshqariladigan davlat. O'rta Osiyoda XVI asr oxirida ikkita xonlik – Buxoro va Xiva xonligi vujudga kelgan.

Iqto' – o'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida hukmdor tomonidan feodalga katta xizmatlar evaziga in'om qilingan chek yer. Odatda, iqto' umrbod berilmay, hukmdor uni istagan vaqtida qaytarib olib, boshqa kishiga tortiq qilish mumkin bo'lgan. IX asrga kelib xalifa tomonidan arab amiriga idora qilish uchun berilgan viloyatlar ham iqto' deb atala boshlagan. Amir o'zi hukmronlik qilayotgan ushbu viloyatlar solig'ini butunlay yoki qisman o'zlashtirish huquqiga ega bo'lgan. Iqto' yerlari davlat mulki hisoblangan, lekin IX asrdan boshlab feodalning xususiy mulkiga aylana boshlagan. Temuriylar davrida iqto' o'rnida tiyul va suyurg'ol, boburiylar saltanati davrida esa jogir atamalari qo'llanilgan.

Osiyo puli – tegirmon puli ham deyilgan. Buxoro amirligida har bir suv tegirmonidan yiliga 20 tangadan 100 tangachaga miqdorida olinadigan soliq.

Alaf puli – O'rta Osiyo xonliklarida yaylov, bedazor, mevali bog' va uzumzorlardan olinadigan soliq.

Bazzoz – ip-gazlama bilan savdo qiladigan do'kondor. Qadimda bunday do'kondorlar O'rta Osiyo bozorlarida ko'p bo'lgan. Bazzozlar

gazlamalarni ot-aravalarga ortib, uzoq qishloqlarga olib borib sotishgan.

Bakovul – turli davrda turli xil ma'nolarni anglatgan: 1.XVI – XIX asrlarda belgilangan joylarda savdogarlarning tamg'a, ya'ni boj solig'ining to'plab o'tishlari ustidan nazorat qilib turgan kichik mansabdagi harbiy xizmatchi;

Bolish – mo'g'ullar imperiyasida tillo pul birligi, bolish 8 misqol, u 2 donga teng bo'lgan.

Botmon – Sharq mamlakatlari, jumladan, O'rta Osiyoda qadimgi davr va o'rta asrlarda mavjud bo'lgan og'irlik o'lchovi birligi. Botmon turli davrlarda turli joylarda miqdori o'zgarib turgan. Masalan: XIX asrda bir botmon Xivada 20,16 kg dan 40,95 kg gacha, Buxoro va Samarqandda – 8 pud (1 pud 16 kg), ya'ni 131,44 kg, Farg'onada – 8-10 pud ya'ni 131,44 kg dan 163,800 kg gacha, Toshkentda – 10,5 pud ya'ni 171,99 kg ga teng bo'lgan. Shuningdek, O'rta Osiyoda botmon sifatida yer o'lchovi sifatida ham qo'llanilgan, ya'ni bir botmon og'irlikdagi bug'doy sepilishi mumkin bo'lgan yer bir botmon hisoblangan. bu taxminan bir gektarga teng sath o'lchov belgisi bo'lgan.

Gaz – Sharq mamlakatlarida taxminan 62 sm dan 91,5 sm ga teng bo'lgan uzunlik o'lchov birligi.

Dinor – o'rta asrlarda Arab xalifaligi hududida ishlatilgan tilla pul. XIV asrda Movarounnahrda bir dinor ikki misqol kumushga teng bo'lgan. Bir misqol 4,53-4,55 grammni tashkil qilgan.

Dirham - o'rta asrlardagi arab kumush tangasi.

XIV asrda Movarounnahrda dirham 3g`1 (uchdan bir) misqol og'irlikdagi kumush tanga bo'lgan. Og'irligi 3,12 grammga teng.

Dong - biron narsaning oltidan bir qismi; dinor yoki dirhamning oltidan bir qismiga to'g'ri keladi (bir dirham 2 qirot, bir qirot 0,19 gr. ga teng), XIV – XIX asrlarda bir Buxoro dongi 0,8 kg. ga teng bo'lgan.

Jav – og'irlik o'lchovi, arpa donasi, 0,045 grammga teng bo'ladi.

Zar' – uzunlik o'lchovi, 107 sm. ga teng.

Zira' – masofa o'lchovi, taxminan 79,8 sm ga teng.

Istor – og'irlik o'lchovi. To'rt yarim (21 gr) misqolga teng.

Kurux – masofa o'lchovi, taxminan 2 km.

Nimcha – og'irlik o'lchovi, 400 gr. dan ortiq.

Tanob – O'rta Osiyo xonliklarida ekin maydonini o'lchash uchun ishlatiladigan yuza birligi. 1 tanob 3600 m.kv.

Farsax (farsang – parsang, porasang) – Sharqda, jumladan O’rta Osiyoda qadimdan ishlatilib kelgan masofa o’lchov birligi. Bir farsax 9-12 ming qadamga yoki 6-8 km. ga teng bo’lgan.

Chaksa – O’rta Osiyo hududida qadimdan to XX asr boshlariga qadar ishlatilib kelingan og’irlik o’chlov birligi. Turli joyda turlicha vaznni bildirgan. Xo’jand atroflarida qariyb 1 kg, Namanganda – 5,3 kg, Qo’qon atroflarida – 4,6 kg yoki 5,1 kg bir chaksa hisoblangan.

Jarib – 958 kv.m.ga teng yer maydoni.

Konstitutsiya - lot.) tuzum, qoida, qonun. Davlatning asosiy qonuni;

Traktat - xalqaro shartnoma, bitim;

Komprador - ispancha; harid qiluvchi) iqtisodiy qoloq va qaram davlatlar burjuaziyasining chet el kapitali bilan ichki bozor o’rtasida vositachilik qiluvchi qismi;

Konvensiya - lotincha; shartnoma) ko’p tomonlama xalqaro shartnoma turlaridan biri;

Nota - bir davlat huk. tomonidan ikkinchi davlat huk. nomiga yuboriladigan yozma rasmiy hujjat;

Xalqaro rivojlanish uyushmasi XRU — juda kambag’al mamlakatlarga foizsiz kreditlar, texnik ko’mak va siyosatni ishlab chiqish sohasida tavsiyalar berish orqali ularga yordam ko’rsatadigan tashkilot. XRU aholi jon boshiga 885 AQSh dollaridan kam daromad (1999 yil raqamlari) to’g’ri keluvchi va Jahon bankidan kredit olish uchun moliyaviy imkoniyati bo’lmagan mamlakatlarga kredit beradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti BMT – davlatlarning tinchlikni saqlash va mustahkamlash, davlatlar o’rtasida hamkorlikni rivojlantirish maqsadlarida 1945-yilda tashkil etilgan xalqaro tashkiloti.

BMTning Rivojlanish Dasturi – BMTning rivojlanish sohasidagi global tarmog’i. Mamlakatlarni yaxshi hayot qurilishiga ko’maklashishga yo’naltirilgan tajriba va zaxiralarni bilim manbalariga jalb etish orqali ijtimoiy hayotni o’zgartirish uchun kurashadi. 166ta mamlakatda ish olib borib, rivojlanish sohasida o’z global va milliy muammolar yechimini izlashda ular bilan hamkorlik qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

- 1.Ma'naviyat yulduzlari. -T.: Fan, 1999.
- 2.Islom ensiklopediyasi. -T., 2004.
- 3.Ibrohimov Abduqahhor Biz kim o'zbeklar. –T., 2001.
- 4.Nizomiddinov N. Janubiy - Sharqiy Osiyo: diniy falsafiy ta'limotlar va islom. -T., 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar

- 1.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. –T.; O'zbekiston.. 2017.
- 2.Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma'nfatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. –Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
- 3.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 23 iyundagi PQ-3080-son qarori. <https://lex.uz/docs/3296658>.
- 4.Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis 1-4 jild. - T., 1997.
- 5.Xoluq Nurboqiy. Qur'oni Karimning ilmiy mo'jizalari. –T., 2002.
- 6.Hamidov K. Olis – Yaqin yulduzlar. – T., 1990
- 7.Xayrullaev M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. – T.: Fan, 1994.
- 8.“Imom al-Buxoriy va uning dunyo madaniyatida tutgan o'rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. - Samarqand, 1998.
9. Qayumov A. Ahmad Farg'oniy. –T., 1998.
- 10.Zohidiy A. Turkistonda o'rta asr arab – musulmon madaniyati. –T., 1990.
11. Muhammadrasul o'g'li A. “Qaffol Shoshiy ibрати”, “Hidoyat”, 2004.

12. Ibrohim Mikoil o'g'li Veliev. Qoffol Shoshiy. Qisqacha ma'lumotnoma. –T.: Istiqlol, 2005.
13. Abduqahhor Ibrohimov. Ma'mun akademiyasi. – T., 2005.
14. Abu Rayhon Beruniy. Tanlanganlar asarlar. – T.: Fan, 1973.
15. Кормилицин А. Беруни и книга. – Т., 1993.
16. Beruniy tug'ilgan kunining 1000- yiligi. – T.: Fan, 1973.
17. Qodirov A. O'rta Osiyoda meditsinaning paydo bo'lishi. –T., 1990.
18. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. –T., 1997.
19. Komilov N. Tafakkur karvonlari. –T., 1999.
20. Qayumov A. Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali ibn Sino. –T., 1987.
21. Burhonuddin al- Marg'inoniy. Hidoya. –T., 2000
22. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. -T.: Akademnashr, 2011.
23. Tafakkur durdonalari. III Vatandosh allomalarimizning hikmatli fikrlari. -T.: Yangi asr avlodi, 2012.
24. Farididdun Attor. Tazkirat-ul-avliyo. –T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2013.
25. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Samarqandning sara ulamolari. –T.: Xilol-Nashr, 2014.
26. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mazhablar – birlik ramzi. –T.: Xilol-Nashr, 2014.
27. Buyuk yurt allomalari. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi U. Uvatov. O'zbekiston; Toshkent, 2018.

Axborot manbaalari

www.aurasia.org.ru. www.history.ru
<http://www.philos.msu.ru/fac/history/>
www.museum.ru
www.ziyonet.net

MUNDARIJA

So'z boshi.....	3
1 – mavzu. Kirish. Sharq allomalari ilmiy merosi fanining maqsad va vazifalari.....	6
2 – mavzu. Muso al – Xorazmiy, Abu Abdulloh al Xorazmiy, Ahmad al – Farg‘oniy va Ahmad al Marvaziylarning hayoti va faoliyatlari ..	18
3 – mavzu. Imom al-Buxoriy va Abu Iso Muhammad at Termiziylarning hayoti va ilmiy merosi	39
4 – mavzu: Abu Nasr Forobiy o`rta asrning buyuk qomusiy olimi....	70
5 – mavzu: Abu Mansur al-Moturudiy – buyuk kalom imomi va fiqh allomasi. Qaffol ash-Shoshiy O`rta Osiyolik buyuk alloma.....	81
6 – mavzu. Abu Ali ibn Sino (980 – 1037) – O`rta Osiyolik buyuk ensiklopedist alloma.....	105
7 – mavzu. Abu Rayhon Beruniy (973 – 1048) - Xorazm Ma`mun Akademiyasining raisi.....	114
8 – mavzu. Abu al-Mu`yin an-Nasafiy, Maxmud az-Zamaxshariy va Burxonuddin al-Marg`inoniyning ilmiy merosi	129
9 –mavzu. Mirzo Ulug`bek , Ali Qushchining , Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati	171
“Sharq allomalari ilmiy merosi” fanidan test topshiriqlari.....	198
Glossariy.....	213
Foydalanilgan adabiyotlar	225

Jumayeva Nilufar Ahmatovna

SHARQ ALLOMALARINING ILMIY MEROSI

O'quv qo'llanma

<i>Muharrir:</i>	<i>A. Qalandarov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G. Samiyeva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>Sh. Qahhorov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M. Bafoyeva</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 23.06.2022. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog'oz. Bosma tobog'i 14,2. Adadi 100. Buyurtma №329.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45